

Ikkinchi bo'lim (davomi)

Miltiqli Odamlarning Rizqi

Bog' derazaning tagida yotgan edim, birov yelkamga turtadi-turtkilaydi, chaqiradi shivirlab:

- Hey, Maqsud! Maqsud deymen!

Qovog'imni yirib-yirtib, ko'zimni ochsam, derazaga osilib Soli turibdi. Kallai saharlab chiqqani yoqmay, to'ng'illadim:

- Nima deysan?

U boyagi-boyagi alpozda so'radi:

- Keldimi ularing?..

- Kim?

- Akang-da.

Tegirmondagi voqea esimga tushib, turib o'tirvoldim.

- Yotibdi shekilli...

- Shekilling nimasi?! Qara! - shoshirdi u. Sekin borib, katta uyning eshigi tirqishidan mo'ralasam, derazalarni valongor ochib tashlab, yotibdi yostiq quchoqlab. Taxmondan bitta yostiq olganu ko'rpani yozishga ham sabri chidamay, uyning o'rtasiga cho'zila qolgan. Yechinmabdiyam. Rostdan, yetti xuftongacha tentirab yurgan odamga o'rin ham hayf.

- Keptimi? - deb so'radi yana Soli ichi g'urmishlab.

- Yotibdi, - dedim yarim pichirlab.

- Anuv sherigi-chi?

- Bir o'zi. U biznikiga odam opkelmaydi.

- Jo'natvoribdida unda. - Soli bog' derazaning tokchasiga chiqib, cho'nqayib o'tirib oldi. - Lekin, oilasanmi, hech yerda hech gap yo'q - jimjitlik. Qozoqi do'q qilishgan ekan-de.

- Qayoqdan bilasan, balki ikkalasiniyam tinchitib...

Soli barmog'ini ko'ksiga nukdi.

- He, yo'q, o'zim borib angshag'lab keldim-ku.

- Qaerga? - dedim uning tinchimasligiga hayron qolib.

- Qaerga bo'lardi - Parpi bebaxtnikiga-da. Suv kuygandek. Tinchitib ketishganida... onasi tek o'tirarmidi!

- Nima qilardi?

- Haligacha yetti mahallani boshiga yig'ib, sochini yulardi.

- Akmal o'risni ham... qo'yvorishgan deysanmi?

- Balki, - deb turib, birdan qistab qoldi: - Xohlasang yur, uyini ayg'oqlab kelamiz. Gulobisiga ikkita kesak otsak, yugurib chiqadi.

- Otamiz, - dedim men.

- Ketdik.

- Shoshma, yuzimni chayib olay, - dedim men.

- Tez chiq, - dediyu Soli o'zini pastga otdi. Katta bog' yoqalab, qovunpoliz bilan o'rtadagi dala so'qmoqdan oldinma-ketin Bo'zsvu tomonga yugurgiladik. O'rikzorni kesib o'tib, qaynamaning oldidan chiqdik. Akmal o'risning chorbog'i Bo'zsvu bo'yida ikkita tepalikning o'rtasidagi kattakon chakalaksimon bog' ekan. Tagiga tangadek oftob tushmaydigan bir chakalakki, bulbullar chah-chahlab sayrab yotibdi. Gir aylanasi ikki paxsali devor (uchinchi paxsasi sar-xokiga qo'shilib allaqachon yemirilib bo'lgan), bir yon devorga tiralib o'sgan behilar - sariq yung koptokday g'uj-g'uj hosil tutib yotibdi. Bir yog'ida, Soli aytganday, sariq, siyohrang gulobilar. Yana bir yog'i Bo'zsvu tushguncha tolzoru terakzor, tagi esa, maymunjonli chakalakzor. Pastini - Bo'zsvu tomonini, bilmadim, nima ekan.

Ammo darvozasi g'aroyib. Ikkala tavaqasini baravar ochsa, ikkita arava bemalol biri kirib, biri chiqib keta oladi. Shunaqa katta, biron sabzavot omborinikini o'marib kelganmi, nima balo? Hovlida bir gala chipor tovukdar, babaqxo'rozlar sollanib yurishibdi. Darvozaning oldidagi yong'oqning tagida bitta govmish bilan ikkita g'unajin kavsh qaytarib yotibdi.

Gulobi tomonga o'tmasimizdan uzun simga bog'loqlik apcharka it akillab yugurib kelib, devorga ikkala oyog'ini qo'yganicha irillashga tushdi. Soli ham qitmir. Engashib turib, yerdan bitta kesak oldi-da... unga shunchaki po'pisa qiladi, desam, mo'ljallab turib jag'iga tushirib qolsa bo'ladimi. It angillaganicha dumini qisib qochdi. Zanjiri simda ancha yergacha sudralib bordi.

- Ana endi o'marib ketsang ham indamaydi, - dedi Soli ishshayib kulib. - Yolg'ondakam do'q qilib qo'ysangam, sichqonning inini ming tangaga olib ketadi.

- Mol egasiga tortgan ekan-da, - dedim.

- E, yo'q, bu yomon hayvon. Egasi bilan kelib qopmaguncha, kek saqlab yuraveradi.

- Senam opqochding-ku gapni! Olamizmi olxo'ridan?

- Nega olmaskanmiz! Balki nariroq borsak, zo'r-zo'r yana bir narsalari bordir.

- Zo'rini xohlab qoldingmi? - deya kuldim men.- Tag'in kaltagi nasib qilib qolmasin.

- E, tutib bo'pti.

Shu mahal (bizni ko'rmagan, shekilli) hovlida erkak kishining bo'ralab so'kingani eshitildi:

- Xo'v, galvarslar, eshshakday yotavurasanlarmi? Ketingni kesib ketsa ham, bilmalaring, dayuslar!

- O'zi! - dedi shivirlab Soli, shu barobar pusinib cho'nqaydi. - Tirik ekan, kechagining alamini ukalaridan ovotti.

- Ketdikmi? - dedim hadeb o'g'riday pusinib o'tirgim kelmay.

- Nega? O'marmaymizmi biron narsa?

- E, qo'y, shuning narsasini yedikmi?!

- Shuncha joydan kelib-a?..

- Biladiganimizni bildik-ku...

- Ha, darvoqe, - Soli kattalardek bosh silkidi. Lekin baribir quruq qaytgisi kelmadimi, yengimdan tortqiladi. - Shoshma, bu yoqqa kirmaydigan bo'lsak, ketdik. - U devor yoqalab pastga boshladi.

- Qayoqqa boramiz?

- Sen yuraver.

Tepaning tagidagi yolg'iz so'qmoqdan oldinma-ketin yugurgilashib boryapmiz, boryapmiz. Bo'zsvu bo'yiga yaqinlashganimiz sari soyluk kengayib, tepalik osmoni xaftimga ko'tariyapti. Soli bu yerlarda sigir boqaverib, cho'milishga kelaverib, yo'li yod

bo'lib ketgan shekilli, bamisoli uchib boryapti. Yetib olaman deyman, qani yetolsam.

Pastdan katta suvning namxush yeli yuzga uriladi. Yovvoyi yalpiz hidimi, balchiq hidimi, ishqilib katta suvning nimtatar bir hidini dimog'im yaqqol tuya boshladi. Buloq bo'yiga yotvolib ichmoqchi bo'lganingizda gurkirab keladigan iforday bir hid. Aytmog'chi, baliqdanam shunday namxush hid ufurib turadi-ku.

- Qayoqqa boryapmiz? - dedim axiyri Bo'zsuv bo'yidagi chimzorda unga yetib olib. Soli chim ustida qotgan sigir tezagini suvga tepib yuborib, ishshaydi:

- Bir keppopsan, topganimiz seniki.

- Nima topganimiz?

Atrofda hech kim yo'q bo'lsa-da, u kallamni egib, qulog'imga shivirladi:

- Savatlarni qarab chiqamiz. Baxtingdan ko'r: tushgani seniki. Bo'ptimi?

- Qanaqa... savat?

- Baqirmasang-chi. Ovsarmisan, nima balo?! - Keyin yotig'i bilan tushuntirdi: - Bu suvning bo'yida sekin gapirovur. Ovozing jangillab ketishini sez-mayapsanmi?

- Nima qipti?

- Savat egalari tutib olaqolsin, bo'lmasa.

- Ha-a.

- Ha-a! - dedi u ham ovsarligimdan kulib, keyin qo'l silkab yo'l boshladi. - Yur, ketimdan.

Shunday suvning bo'yidagi yolg'izoyoq yo'ldan qamishzor yoqalab, o'pirilgan tepalar yonbag'irlab bora boshladik. Salgina yeldanam qamishlar shovullaydi. O'pirilgan tepaning yonbag'riga ming xil qushlar in qo'yib tashlabdi, halitdan chirqillashib bozor qilib yotishibdi. Ovozidan quloq batang bo'lgudek. Har zamonda yovvoyi ko'k kaptarlar suvning tepasida qanot qoqib-o'yin ko'rsatib qoladiyu hammayoq shapir-shupur tovushlarga to'lib ketadi. Bu yerda tiq etgan tovush ham yetti gaz naridan eshitiladi. Hatto oyog'imizga urilayotgan o'tlardan shitirlab emas, shovullab ovoz chiqayotganday.

Nihoyat, suv qo'ltiq bo'lib kirgan yerga yetdik. Minglab mayda baliqchalar gala bo'lib suv tagiga qochdilar-da, o'tib ketishimiz bilan yana qaytib chiqib boshladilar.

Soli qirg'oq turtib chiqqan yerda to'ktab cho'nqaydi-da, suv chetidagi o'tlar ichidan bir narsani paypaslab izlay ketdi. Axiryi topib, ikki qo'llab torta boshladi. Qarasam, eski zanjir. Nima ekan, deb anqayib turibman. Bir mahal suv yuzida avval tol savatning katta gardishi, keyin savatning o'zi ko'rindi. Ichida bir narsa kumushdek yarqirab potirlaydi. Soli qancha chiranmasin, shunday suv yuzida turgan savatni qirg'oqqa surolmas, sal bo'shshsa, savat suvga botib ketaverar edi. U menga ilkis qaradi:

- Nima qip qaqqayib turibsan? Tort ket tomonidan!

Qirg'oqqa tizzalab suv yuzida qalqib turgan savatning dumidan zo'rg'a ushladim. Soli dalda berdi:

- Ha, qani, oldik.

Baravar tortgan edik, savat suvdan uzilib chiqib, oyog'imizning tagiga dumalab keldi. Ichidagi suv shovullab to'kilib, ikkita bilakdek-bilakdek baliq ko'rindi. Voy, uni qarang-a! Baliqlar potirlab, yuragim ham dukurlab ketdi. Shu mahal bittasi dumi bilan savatni o'xshatib urgan edi, qo'limdan chiqib, suvga tushib ketishiga sal qoldi.

- Joning bormi? Ushlasang-chi!

Savatni chaqqon ushlab qoldim. Soli shosha-pisha uning qornidagi eshikchasini ocha boshladi. So'ng bilagigacha ichiga tiqib, haligacha o'ynoqlab yotgan baliqlardan biriga chang soldi. Savatdan chiqarib oldi-da, boshi baravar ko'tarib, yoruqqa tutdi. Qat-qat tangalari kumushdek yaltirab yotgan baliq og'zini kappa-kappa ochganча bilonglar, har bilonglaganda tangachalari orasi ochilib yiltirar, "g'iyq-g'iyq" degan ovoz chiqarar edi.

- O', zo'rakan. Baxting borakan, Maqsud. Endi bularni sening hovuzchangda boqib turamiz, - dedi sol baliqni menga tutqazib, - Ma, ushlab tur.

- Oborgunimizcha, o'lib bo'lmaydimi? - dedim hayron qolib.

- Lallayma! Hali tushirib yuborib, bir ish chiqarib o'tirma tag'in! Hazir bo'l, bular bir soatdan keyin ham o'xshatib tepib qolishi mumkin, "Voy yuzim"lab yurasan keyin. - U ishshayganча, savatdan ikkinchi baliqni chiqarib olishga tutindi.

Shu payt tepadan birovning:

- Hoy, qizitaloqlar! Nima qivotsanlar! - deb baqirgani jaranglab ketdi. Ovoz narigi qirg'oqdan kelgan edi. Qarasam, hech zog' yo'q.

Yo tavba, kim bo'ldiykin? Shu payt ovoz egasi yana:

- Men kimga aytvotman? - deb baqirdi.

Xuddi qarshimizda turganday, lekin hech kim yo'q. Bunday o'girilib, tepamga qarasam, hov jarning ustida bir mitti odam turibdi. Yelkasida qirqma miltig'iyam bormi, nima balo! Shuncha tepadagi odamning ovozi bu tomondan kelib, naq qulog'imizning tagida jaranglar edi.

- Pus. Pusinsang-chi, - deb shivirladi Soli, - hali ko'rgani yo'q bizni. Ovozimizni eshitdi, xolos.

- Uldimi ko'rmay. Undan ko'ra, qochib qolaylik, - dedim.

Soli o'qrayib qo'ydi.

- Yurakdanam berganakan! Hali tepadan tushib keldiyu, tutib oldiyu... ungacha biz qaerda bo'larkanmiz.

Gap orasi savat ichidan baliqni oddi. Savatni esa, o'tirgan yerida tepib, suvga dumalatib yubordi. Suv shalop etib, uni birpasda yutdi-ketdi. Qirg'okdagi o'tlarning ezilib, ho'l bo'lganini demasa, birov bu yerni ssshat ko'ribdi demasdi. Soli ikkinchi baliqni bag'riga bosganча, pusinib yo'lga hozirlanarkan:

- Quridik, lekin orqamdan qolma! - dedi va o'zi kelgan izimizdan urib ketdi.

Men ham xuddi hozir qo'lga tushib qoladigandek, o'lar-tirilarimga qaramay uning orqasidan chopdim. Nazarimda, uzun bir qo'l huv o'sha tepaning ustidan turib, gardanimdan ko'tarib oladigandek bo'lardi. Bunga sari tobora yerga qapishib chopypman.

Qamishu qiyoqlar yuz-quloqlarim, bo'yinlarimni tilib achishtiradi. Oyog'im balchiqlarga botib ketadi. O'zim suvga munkib ketay deyman-u, lekin qo'limdan baliqni qo'ymayman. Ertalabki nasibani tashlab ketib bo'ladimi, axir! Kattabog'ga yetgandagina Soli oyog'ini qo'ldan qo'ydi. Baliqni arikdagi jichча suvga tashlab, o'tning ustiga yotib oldi-da, menga qarab dumalab-dumalab kula ketdi.

- Voy, voy, uni qara! Betini qara! O'laman hozir! Shu ahvolingni ammam bir ko'rsalarni!

- Nima qipti? - dedim menam baliqni suvga qo'yib.

U o'zini zo'rg'a kulgidan tiyib, turib o'tirdi:

- Yuv basharangni, yuvib ole! Qaerda shuncha balchiqqa bota qolding? Ajinadanam chiroyli bo'p ketibsan. Men ariqqa cho'nqayarkanman, ust-boshim, tizzalarimni ko'rib, o'zim ham hayron qoldim. Bitta baliqni deb balchiqqa shunday bo'yalibmanki, uch kun oqizoq qilib qo'yilsamam toza bo'lmaydigan darajada edim. Rosti, Solini so'kishimni ham, qo'shilishib kulishimni ham bilmasdim.

- Qozonga yaqin yursang shuda, - dedim axiyri to'ng'illab va sekin, hafsalasizlik bilan yuvinishga tushdim.

- Nima-a?!

Soliga ta'sir qildi, shekilli, sekin turdi-da, xuddi urib alamini olmoqchidek tepamga keldi. Men parvo ham qilmay yuz-betimni chayaverdim.

- Ho'v, ovsar, - dedi u hezlanib, - hali biz qozon bo'lib qoldikmi, qora bo'lib qoldikmi?!

- Bo'lmasa, ertalabdan o'g'rilikka boshlaysanmi? - dedim men ham bo'sh kelmay. - Tag'inam egasi miyangdan darcha ochib qo'ymadi. Miltig'ini ko'rdingmi o'zi-ng?..

Solining rangi oqarib ketdi:

- Miltig'i... bormidi? - Keyin yonimga cho'nqayib, ijikilay ketdi: - Rostdan ko'rdingmi?

- Borday edi-da. To'g'ri kelgan odamning narsasini o'marib ketaveradimi odam?

- O'nday bo'lsa, - dedi u o'ylanib, - anuv gaplar to'g'ri ekan. Biz qochib yurganlarning oviga tegib qo'yibmiz.

- Ana, aytdim-ku, tag'inam otib tashlamabdi.

- O'libdi-da. O'zimiznikilar-ku. Ikkinchi kelmasin deb bir qozoqi do'q qilib qo'ygan-da. Undan keyin kunduzi o'q chiqarisholmaydi.

- Nega?

- Bekorga o'zlarini bildirib qo'yishsinmi? - dedi u bilag'onlik qilib.

- Qarorgohlari qaerda ekan-a? - dedim men yenglarimga chala-chulpa artinib.

- Qaysi bir tepaning tagidagi jarda emish. Yer-to'la qip olishibdi. Oblochi bossa, o'sha yoqqa qochib...

- Oblochi topib bora olmaskanmi?

- Topadi, topmay nima! Lekin yuraklari dov berib bo'pti Parpi bebaxtning yigitlariga uchrashga! U yomon!

- O'zlari qochib yurgan odamlar ekan, baliqlarini qaytarib bersak bo'larmidi, - dedim ichib achib.

Ariqdagi baliqlar hamon onda-sonda bilonglab qo'yardi. Dumidan yuzimga jichcha suv ham sachradi bir gal.

- Boramizmi? - dedi Soli qiziquvchanligi tutib.

- Qaniydi.

Ammo bilakdek-bilakdek balikdarga qarab, birdan aynidi:

- Yo'latisharmikan?

- Nima ishlari bor?

- Joylari ochilib qolishini istasharmidi. so'rab o'tirmay paq-puq otib qo'yishsa... E, yo'q, bekorga o'lib ketadigan ahmoq yo'q, - dedi bosh chayqab.

- Beriroqdan chaqirib ko'ramiz. Kelishar? Undan keyin biz katta odamlarmasmiz-ku.

Soli oyoq tiradi:

- E, yo'q, borsang, o'zing boravur.

- Qo'rroq ekansan, bildingmi? - dedim jonim chiqib. - O'zing pishirib ye, o'g'irlik matohingni!

Shart burilib, Kattabog'ni yoqalab ketvordim: og'aynimish, qarindoshmish yana!

U g'iq etmadi. Ikkita baliq o'ziga qoladi-ku, indarmidi!..

Tungi Otiqlar

Kechqurun oyim sigir sog'ayotgan edilar. Bo'ynini qashlashib-qarashib tursam, orada hech gap o'tmagandek Soli chaqirib kelib qoldi:

- Hey, Maqsud, bu yoqqa qaravor, - dedi darvozadan o'tolmay.

Oyim, boraqol, deganday sigirning tagidan turdilar. Men yugurib chiqib bordim. (Biz shunaqamiz, uri-shib qolishimizgayam, yarashib ketishimizgayam taraf yo'q. Toy tepkisini toy ko'taradi-da.) Qarasam, yon qo'sh-nimiz Saidumar aka bilan anhor bo'yida turishibdi, ishshayib. Baliqto'rni yelkaga tashlab, o'tlanib olishgan.

- Yo'lpo'stak shu mahalda? - dedim.

- Yur, to'sat ga ketyapmiz, - dedi Soli maqtanib.- Saidumar aka baliqning konini biladilar. Qo'llariyam yengil.

- Yuring qo'shni, - dedi u kishi sizsirab, - hamroh bo'lasiz. Olov yoqib kartoshka ko'mib, bir maza qilamiz.

Ov desa jonini beradigan bu odam sigirlari qantarig'liq qolib, o'zi hali bedana oviga, hali baliq tutishga, hali baliq savatga tol xivich kesishga tentirab ketib qolar, biz bilan qo'shilishib cho'milishlarga, uzum o'marishlarga boraverar edi. Bir kuni shu Solining gapiga kirib, bangidevonaning urug'ini uqalab, (u ko'knori doniga o'xshagan mayda bo'ladi) kim ko'p kap otish o'ynashibdi. O'shandan keyin salga ko'p kuladigan bo'p qolishdiyu bu yog'iga Xudo bir asradi. Ammo sofdil, soddadil odam, biz yangi qo'shnilarni sizsirashlaridan bilavuring.

Borgim kelib turganini ko'rib u kishi:

- Tuz esimizdan chiqibdi. Ozgina olvoling, - dedilar.

- Yaxshi, - deya yugurib kirib ketdim va tuzni olib. - Oyi, biz Solilarnikidamiz, - deya qocha qoldim.

Oyim deraza tokchasiga sut tog'orachilarni tera turib:

- Hay, bir balolarni boshlab yurmalar. Tez qaytg'in, - deganlaricha qolaverdilar. (Aytib bo'ladimi Izzaga to'satga ketvotmiz deb!)

Qayumbek amakining ko'chasidan gap sotishib ketaverdik. Ho'v o'sha - ko'ch ortib kelayotganimizda arava ag'darilib, to'qilar oqib ketgan joygacha. Oydan hali darak yo'q. Bir-biriga mingashib ketgan tepalar shom qorong'isida o'zidan ham kattaroq bo'lib ko'rinardi.

Oyoq ostidagi chimlar halitdan nam tortib, soydan salqin ufurib turibdi. Suvning o'zi ko'rinmasa ham, pastdan bo'g'iq shovqini eshitiladi. Havoda bodroq hidiga o'xshash toza hid kezinadi. Iskab to'ymaysan. Men tepada tasmollab shox-shabba terib yuribman. Ular bo'lsa, soy bo'yida to'satga joy tanlashyapti. G'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlari baralla kelib turibdiyu o'zlarini ko'rib bo'lmaydi. Qorong'ilikka singib ketishgan. Faqat, tasmollab topib borish mumkin.

Yarim quchoq shox-shabba yig'ib, Yo'lbarstepaning ustida (o'zini o'ftobga solib yotgan "Yo'lbars"ning naq boshiga chiqvolib)

o'tiribman. Pastimda qirg'oqlari elas-elas ajralib turgan soylik. Ichiga bir dunyo qorong'ilikni qamab, jivirlab yotibdi. Olmazordan tushib kelgan, hozir sezilar-sezilmas oqarishib turgan sshuv arava yo'ldan, u kelib tutashgan Jimittepadan ko'z uzolmayman. U yo'l, u Jimittepa, Jiydalitepa va eshigimiz ro'parasidagi nokzorgacha cho'zilib borgan manavi bedapoyalar beixtiyor xotiralarimni qo'zg'ab yubordi. Darvoqe, boshqacha bo'lishi mumkin ham emas. Axir, ko'ch ortib kelayotganimizda mana shu ko'prikda sodir bo'lgan voqeani - soy suvini toshirgudek bo'lib cho'milayotgan qizlar ustidan chiqib qolganimizni, ular bizdan hurkib, qayoqqa qocharlarini bilmay, o'zlarini har yon urganlarini... unutilib bo'ladimi?

To'ntarilgan aravani o'nglab olgunimizcha ham ular suvdan chiqisholmay turishgani, saf-saf oqib borayotgan toqilarni tutib, qirg'oqqa otib berishgani, hammasidan ham, aravadan uchib ketib, buloqqa yuztuban tushib, chiqolmay yotganimda tortib olgan Marg'u kennoyim - bu kechmishlar hammasi shunday ko'z oldimda turibdi. Keyin anavi tepalik ustiga, changal ichiga o'tirivolib uning yo'lini poylaganlarim, Sultonmurod akam yo'ldan urib aravasiga solib ketganida alamimmi ichimga yutib qolganlarim... esimga tushib ketdi. Eh-he...

Eski tegirmonda ko'rganimiz voqeadan keyin bu ishlarni Marg'u kennoyimni debgina emas, uning birinchi nikohini buzib, Bahriddin akamni benomu nishon yo'qotganlarni izlab topish uchun ham qilayotganini bilgach esa, akamga mehrim bo'lakcha ortib ketdi. U, biz o'ylaganchalik, yomon yo'llarga kirib ketgan emaskan, mardlarning mardi ekan hatto.

Kecha Marg'u kennoyimning unga kulib, intiqib qarashlaridan achchig'im chiqib yurgan bo'lsam, bugun endi xolalarimning hukmidan noroziman. Marg'u kennoyimga ham, akamga ham achinib ketyapman.

U shu kunlarda judayam kamgap, bir yerga sig'maydigan bo'lib qolgan. Qovog'ini uyib olsa, shunaqa jahldor ko'rinadiki, bir narsa so'ragani ham yurak betlamaydi. O'ziyam erta turib ketgancha, allamahalda kelsa-keladi, kelmasa, qayoqlargadir gum bo'lib ketadi. Oyimning so'roqlarigayam kalta-kulta javob qilib qutuladi. Sezib-bilib turibmiz: rostini aytayotgani yo'q, tegirmonda Akmal o'risga ko'rsatgan tomoshasidan ma'lum, u hazilakam o'yinni boshlamagan. O'zicha Bahriddin akamning qotillarini topmoqchi... Yurakdanam xudo bergan ekan: hech kim mushugini pisht deya olmaydigan odamlarni zir titratib turibdi.

- Hey Maqsud, qayoqqa yo'q bo'lib ketding? Opkelmaysanmi opkeladiganingni...

Men esam suvning salqin epkiniyu bir maromda shovullashi yoqib, tepadagi charaqlagan yulduzlarga termulib o'tiraversam, deymen. Hali-zamon bir cheti uchgan yarim palla qovoqday oy ko'tariladi. Ana shunda bu olam chirildoqlar ovozigga to'lib, oy nurlari bu soylikka to'kiladi. Eh... O'sha nurlarga xayolingda arg'imchoqlar solib uchsangmi!

Soli pastdan chaqirishini qo'ymasdi:

- Maqsud, deymen! - Keyin o'zicha to'ng'illagani eshitildi: - Qayoqqa yo'qoldi bu ovsar?..

Sal o'tib, Saidumar akamning ovozini eshitdim:

- Gugurt olmabmiz-ku, Solixo'ja. Og'ayning bilan uyga o'tib kela qolinglar.

- Xo'p, - dedi Soli va asta-sekin qorong'ilikdan qorayib chiqib kela boshladi.

O'rnimdan turdim.

- Chopdikmi?

- Chopdik!

Va biz tuproq yo'ldan uyga qarab chopib ketdik. Yong'oqzorga yetib borganimizda tog'amning muyulishlaridan shopday bo'lib ikkita otliq chiqib keldi. Qo'rqib ketganimizdan taxta bo'lib qolibmiz.

- Kim u, bemahalda tentiragan? - dedi oldingi otliq. Ovoz ohangidan, xuddi hozir qochsak, otib tashlaydigandek edi.

Dabdurustdan nima deb ovoz berarimizni bilmay, kichkina tortib ketdik. Tunda, yana uning ustiga, bunaqa xilvat joyda begona otliqlarga duch kelish... odam qo'rqarkan. Balqi qaroqchilardir, balki oblochilardir? Bir chekkada qisib turuvdik, otliqlardan biri yaqin kelib:

- Ha-a, sizlarmi, yigitchalar? - deb qoldi.

- Biz, biz, - dedik qaltirashib.

- Anuv, yangi ko'chib kelgan qo'shnilaring bor-ku, Sultonmurodmi, oti nimaydi, o'shaniki shu yerdami, qaerda turadi?

Men endi og'iz juftlamochi edim, biqinimga musht tushib, nafasimni yutdim. O'rnimga Soli javob qildi:

- Qanaqa yangi qo'shni? Betta unaqqa odam yo'q, - dedi talmovsirab.

- Tepadan o'tgandan keyin birinchi qayrilishda, deb tushuntirishgan edi-ku, - dedi ikkinchi otliq ishonqiramay.

Soli bir qadam oldinga chiqib, bidilladi:

- Anuv yoqdan, tepa ko'chadan tushib keldinglarmi?

- Ha-da. O'sha tepani aytyapmiz-da.

- Unda, anhor qayrilgan joyda o'ngga ketgan yo'lni ko'rmadinglarmi? O'sha ko'chani aytishgan bo'lsa kerak. Betta hammasi eski qo'shnilar. Biz bilamiz-ku.- Soli yolg'on to'qir, to'qiganda ham, duduqlanmay to'qir edi.

- Shunaqa denglar, - dedi birinchi otliq. - AldamayapsizlarmiB ?

- He, aldab bizga nima, amaki, - dedik baravariga.

- Ketdikmi, nima qiddik, To'lagan? - deya maslahat soldi keyingi otliq. Uning oti bosh silkib, pishqirib-pishqirib qo'yar, oldingisini to'xtamay so'lig'ini chaynar edi.

- Borib ko'raylik, mayli, - dedi u. So'ng otining boshini burarkan, Soliga po'pisa qildi: - Yomon bijildoq ekansan, sen bola. Bilib qo'y, ammo-lekin gel qilayotgan bo'lsang, teringni shilib olamiz.

Soli dami ichiga tushib turibdi-yu, o'lganining kundan:

- Mayli-mayli, - deb valdiraydi.

Ular otlariga qamchi urib, yo'rttirib ketishlari bilan u yana biqinimga turtdi:

- Tez chop, Maqsud! Akang qochadigan yeriga qochsin. Nima balo, xushtakchilar g'aflatda qolganmi bugun.

Men oyog'imni qo'limga olib, yugurib ketdim. Yuragim potirlab, chopib boryapman-u, mana, Akmal o'risni qo'yvorganlarining oqibati, u tavba qilarmidi, sotgan, sotib alamidan chiqmoqchi bo'lgan, deymen. Qo'ldosh tog'amlarning qo'rg'onlarini aylanib o'tib, opamlarnikidan uyga kirib borsam, oyim yolg'iz o'zlari chiroq yorug'ida mashina tikib o'tiribdilar.

- Sultonmurod akam qani? - dedim hovliqqancha. Oyim ko'zoynaklarini ko'tarib:

- Nima edi, Maqsudxo'ja, u betavfiq hali kelgani yo'q, - dedilar.

- Xudoga shukr-e, - degancha ostonaga cho'karkanman, uning yo'qligidan bir yengil tortdimki... ishqilib, yomon ko'zlardan o'zi asrayotgan bo'lsin. (Ammo men qo'rg'onimizni allamahalgacha oblochining askar bolalari o'rab, akamni poylab yotganini keyin eshitaman.)

Oyim ishga unnagan bo'ldilar-da, yana ko'ngillari tinchimay, yuzimga tikildilar:

- Tinchlikmi, rangingda rang qolmabdi, Maqsudxo'ja?

Hali aytib ulgurmagan edim, otxona tomondan ship-ship oyoq tovushi va ayol kishining piq-piq yig'isi eshitildi. Ilkis o'girilib qaradim. Jiyda tagida birov o'pkasini tutolmay yig'lab kelar, lekin opamga o'xshamas edi. Oyim ham yig'i tovushini eshitdilar, shekilli:

- Kim? - dedilar sergak tortib.

Sharpa zinaga yetib keliboq, ovozi baralla qo'yib yubordi:

- Voy, opov, endi nima qildig-ov? Ukaginayizsi qamab qo'yishibdiyov...

Ovozlardan tanidim: Qumri kennoyim. Ostonadan o'tiboq yopinchiqlarini yulqib oldilaru o'zlarini oyimning bag'rilariga tashladilar.

- Shu sho'rishlaram borakanmi-yov boshkinamizda, jon opayov?..

O'zlari mushtdek bo'lib oyimning bag'rilariga singib ketdilar-u, nolayu fig'onlari uyga sig'mas edi:

«Б»Xudo-o, quruq tuhmatlardan o'zing asragin-ov!..

Munis, mushtipargina kennoyimning aytib-aytib yig'lashlariga chidayolmay, sekingina hovliga tushib ketdim.

Yig'i ovozi eshitib, opamgilar, qo'shnilar chiqa boshlashdi.

Ishkomda beg'am-betashvish chirildoqlar allaqachon chirillashini boshlab yuborgan edi. Yong'oqzor ortidan pachoq barkashday kentik oy ko'tarilib kelardi. Negadir uning yuzi judayam za'faron edi.

Nimalar bo'lyapti, qanday kunlarga qolyapmiz?

Mujda Yoxud Oting Nima, Qizcha?

Targ'ilimni soyalatib, endi anhor bo'yiga kelgan edim, sal beridagi taqirga arqonlangan bitta g'unajin kavsh qaytarib yotgan yeridan sakrab turib, dumini xoda qilganicha, qozig'i atrofida gir aylanib chopa boshladi. So'na shekilli.

Yugurib borib, qoziqni sug'urvordim. Bo'shangan g'unajin bir hatlashda katta anhordan sakrab o'tib, shataloq otgancha, egasining hovlisiga urib ketdi.

Men anhor bo'yiga, suvga oyog'imni solib, o'tirib oldim. Bir payt ko'zim huv pastroqdagi ko'k nokka tushib, ko'nglim sust ketdi.

Shartta o'rnimdan turdimu aihordan hatladim. Anavinda akam bilan shu nokning ta'rifini qilgan edik-da. O'zi ko'm-ko'k,

pishmaganday turaveradi, ammo qoqsang, yerga chalp etib tushib, eziliblar ketadi. Yesang, og'zingda asalday eriydi.

Daraxtga chiqib, bittasini bunday tishlab ko'rsam... oh, oh, oh, nok ham shunaqa mazali bo'ladimi! Xudoning qudratini ko'ringki,

turishi bir tiyanga qimmat, ammo yeb rohatlanasiz! Bu dunyoning noki emas, chin gapim... Tishlaganimni paqqos tushirib,

qo'ynimga ham terib oldim. So'ng shosha-pisha tushayotsam, oyog'im toyib ketsa bo'ladimi! Jon-jahdim bilan daraxtga

yopishganimni bilaman, allaqancha joygacha sirg'alib ketdim. Bilaklarim ham, sonlarim ham shilindi. Hammadanam, qo'ynimdagi

noklarning rasvosi chiqdi: shiltasi etimga chip-chip yopishar edi.

Anhor bo'yiga chiqdim. Qo'ynimdan qolgan-qutgan poklarni chiqarib, badanimga yopishganlarini yuva boshladim. Shilingan

joylarim suv tekkanda sal orom olganday bo'ladi, lekin nam ketishi bilan yana lovullaydi. Axiyri bo'lmadi, ko'ylakni shartta

yechib, to'lib oqayotgan anhorga o'zimni tashladim. Bir-ikki sho'ng'ib olib, hech gap bo'lmagandek, yana anhor bo'yiga o'tirib,

omon qolgan noklarni yeya boshladim.

Asalday nok bir yoqdan ajab huzurlar bersa, ikkinchi yoqdan bilaklarim, sonlarim birov garmdori surgandek lov-lov achishadiyonadi. Qani bir malham bo'lsa.

Shu mahal orqamda birov bordek tuyildi. O'girilib ko'rsam, oyimlar aytmoqchi, qosh-ko'zi popukdek, sochlari mayda o'rilib, o'zi bo'ysira tortib qolgan qizcha... iymanib, nima deb chaqirarini bilmay turibdi. Qaraganim unga ayni muddao bo'ldi, shekilli, tilga kira qoldi:

- Siz... Siz Salom opoqimlani o'g'illarimisiz?

Orqamga qanday kelib qolganiniyam bilmay qolibman.

- Ha, - dedim hayratlanib.

- Yangi ko'chib kelgansizlar-a bu yoqqa?

- Ha, qizcha. O'zing kim bo'lasan? - dedim boshidan-oyoq qayta qarab.

- Tanimaysiz, - dedi u yer chizib, - biz sal narida - Tepaning u yog'ida turamiz.

O'tiraverishga o'ng'aysizlanib, ikkita nokni chayib uzatdim.

- Ma, ol.

U mayda o'rigan sochlarini silkitib, bir chiroyli bosh chayqadi:

- Yo'q, rahmat. Men sizni boshqa ish bilan qidirib keldim.

- Ko'kligiga, pishmagan deb o'ylayapsanmi? Avval bitta tishlab ko'rgin - bilasan, - deb qistay boshladim men.

- O'z-o'zinglarnikidanmi? - deb qoldi qizcha kutilmaganda.

Nima deb javob qilarimni bilmay yomon o'sal bo'ldim. Keyin rostiga ko'chib qo'ya qoldim:

- Yo'q. Hov anavi nokdan hozir olib tushdim. Sen olaver, egasi qo'li ochiq odam.

- Unday bo'lsa, olaman, - deya nozik qo'lini uzatib, avval bittasini, keyin ikkinchisini oldi-da, hidlab ko'rib, shirin jilmaydi. -

Aytganingizcha bora-kan, bol hidi gurkirayapti.

O'rtada bir yaqinlik paydo bo'lganday bo'ldi.

- Sen bitga tishlab ko'r avval, - dedim uni qoyil qoldirishni istab.

U iymanib, yerga qush qarash qilib oldi:

- Yeyman. Lekin bitta sharti bilan.

- Nima?

- Sharti shuki, hozir mening orqamdan yurasiz.

- Olavur-a!.. Qayoqqa yuraman?

- Biznikiga.

- Sizlarnikida nima qilaman?

- U yerda sizni bir odam chaqiryapti.

- Meni?.. Kim ekan u?

- Hozir aytolmayman. Boring, o'shatta ko'rasiz. Endi yurasizmi? - dedi u boyagiday shirin va sirli jilmayib.

- Xo'p, - dedim nima qilarimni bilmay, - lekin sen hali nokni yemading-ku. Yemasang, men ham...

Qizcha birdan arazladi:

- Bormasangiz, nokingiz o'zingizga siylov!.. - U azza-bazza cho'nqayib, noklarni joyiga qo'ydi.

- Ie, juda g'alati ekansan-ku, sen qizcha.

U yerdan ko'zini uzib, bir qarab qo'ydi-yu, ammo qovog'ini ochmadi. O'sha-o'sha jiddiy turganicha, gapni kalta qildi:

- Yurasizmi?

- Mayli, boshlayqol unda, - dedim noiloj.

U boshini chiroyli egib, qayrilgan edi, mayda o'rtilgan sochlari orqasi bilan bitta bo'lib to'lg'onib ketdi. Men unga mahliyo bo'lib ergasharkanman, nok esimga tushib, uni chaqqon olvola qoldim. Xiyla indamay bordik. Ammo nuqul gapga solgim, shirin jilmayib qo'yi-shini yana ko'rgim kelaveradi. Axiyri, chidamadim:

- Noking qopketibdi, qizcha, - dedim erkalovchi tovush bilan.

Qiz to'xtab, qo'limda boyagi noklarni ko'rib, avvaliga hayron bo'ldi, keyin men kutgan jilmayishini qildi.

- Nazaring ilmadi, a? - dedim hazilakamiga.

- Unaqamas, - dedi u astoydil. Ko'zlari nokda-yu, ammo negadir olmas edi.

- Unaqa bo'lmasa, ma, ol, nasibang sening.

U birov ko'rib qolmasin deyayotgandek hurkib, nokni shartta oldiyu "Rahmat"! deya qadamini tezlatdi. Sal borib, orqasiga o'grildi:

- Yurmaysizmi, kutishyapti, axir. Men yetib olishga shoshildim.

- Kim chaqirgan o'zi, ayta qolmaysanmi? U qayrilib ham qo'ymadi.

Biz allakimning bog'devori yoqalab, ariq bo'yidan borardik. Tol tagida suv sharqirab oqib yotibdi. Ariq chetini yovvoyi yalpiz bosib, shoxlab ketgan, kulrang tanasi tizzaga urilganda hidi gurkirab-gurkirab ketadi. Ayni gullab, urug' bog'layotgan payti.

Yana allaqanday chorbog'larni kesib o'tdik, yong'oqzorlarni oralab, hovuz bo'yidan chiqdik. Ikki tomoni keta-ketguncha paxsa devor bo'lgan tuproq ko'chadan oyoqlarim kuyib, allaqancha yurdik. Nihoyat, salqin bir ko'chaga tushib, darvozasining oldiga ko'llatib suv sepilgan joyga yetganda, qizcha qayrildi:

- Siz shatta tura turing, xo'pmi? - deya darvozaning bolachasidan - kichkina eshikchadan ichkari kirib ketdi.

Qayoqqa kelib qoldik? Bu yoqqa meni kim, nega chaqirtiradi? Akmal o'ris yo Parpi bebaxt bo'lsa-ya? Balki bu qizcha odam emas, ajina-pajinadir? Shunday xayollarga borib, tirsaklarimni chimchilab ko'raman. Ko'chaning o'rtasida qaqqayib turganicha, yon-atrofga alanglayman: jinlar dunyosiga kirib qolmadimmi mabodo?

Yo'q, suv sepilgan ko'chaning bir chetida ikki musicha g'uv-g'uvlashib, beozor quvalashib yurishibdi. Ariq labiga kelib qo'ngan popishak "hu-ku-pish-sh"laganicha menga bir qarab qo'ydiyu pildirab don izlab ketdi. Ariqdagi suv ham tanish qo'shig'ini aytib, shaldirab yotibdi. Hech qanaqa ajinalar diyoriga o'xshamaydi.

Bir vaqt boyagi kichkina tavaqa ochilib, qizchaning boshi ko'rindi. Bu gal u qo'li bilan imlab, shipshidi:

- Kelavurarkansiz.

Oyog'im tortib-tortinqiramay, lekin hayratim battar ortib, sekin ergashdim. Balki kirmasligim kerakmidi?.. Ammo qiziqish yomon narsa ekan dunyoda. Sirli narsaga uchradingmi, o'zingni to'xtata olmay, domiga tortilib boravurasan, boravurasan. Ajdaholar makoniga kirib ketayotgan bo'lsang ham, balki hozir ajdaho yo'kdir, qo'riqchi devlari yetti kechayu yetti kunduzlik uyquga ketishgandir, ichkariga kirib borib, malikani bir ko'rib olsam bo'ldi, deysan. Ich-ichingdan dag'-dag' titrab tursang-da, bitta tukung qilt etmayotganday tutmoqchi bo'lasan o'zingni. Malikaga qiziqish shu qadar kuchli...

Hozir ham jin jamalaksoch qizcha qiyofasida meni o'rdasiga boshlab ketayotganday, salqinda uzala tushib, oyog'ini uzatganicha pinakka ketgan anavi arslonni avrab qo'yganday ko'rinadi.

Biz oyoq uchida itni aylanib o'tib, so'ri tagidan oddi ochiq ayvonga burildik. Ro'parada bo'yradekkina hovli, yana shundan kichikroq tuproq supa, supaning gir atrofi rayhonu jambilu qo'qongullar bilan qurshalgan. Yana orasida iroqi do'ppining hoshiyasidek gulibeorlari men umrimda ko'rmagan nozik-nihol chechaklar ochilib yotibdi. Faqat bir taraf guvalak devorga tutashib borgan. Shu supaga xontaxta qo'yilib, dasturxon yozilgan. Yana chor tarafiga yalang qavat ko'rpachalar solingan, lekin hech kim yo'q.

Qizcha meni negadir ichkarigamas, gulzor o'rtasidagi o'sha supaga boshladi. Keyin o'zi:

- Keling, o'tirib turing, - deb ayvon yonidagi eshikdan ichkari kirib ketdi.

Men esam, bu kimsasiz hovlida angrayib o'tiribman. Bir ko'nglim, esim borida juftakni rostlab qolsammikan, Parpi bebaxt deganlarining uyi shu bo'lsa-chi, deymen. Lekin xavfning o'zidan darak yo'q. "Ajdaho" qaysi deraza yo eshikdan chiqib kelishini bilolmay garangman. Yana, har ehtimolga qarshi, yonimdagi guvalak devorga, unga qapishibroq o'sgan bir tup olmaga (agar qochish lozim bo'lib qolsa, qanday tarma-ishshni mo'ljallab) qarab-qarab qo'yaman.

Devor tagidagi chetini binafsha tuplari tutib ketgan ariqqa xayolim qochgan ekan, bir mahal qaysidir eshik g'iyitlab ochilganday bo'ldi. Yalt o'girilib, ayvondan tushib kelayotgan men uchun farishtaday bir odamga ko'zim tushib, qotib qoldim. Baqirib, sakrab ketgudek ahvoldaman-ku, qani endi suyunchdan ovozim chik,a qolsa. Qattiq sevinchu sog'inch qo'shilib ketsa, shu ahvolga tushib qolish mumkin ekanmi, tavba. U esa uzoq kasaldan endi turgan, hali madorga kirib-kirmagan, lekin sog'ayishdan darak berib turgan yuziga oilinar-bilinmas qizillik, ko'ziga nur yugurgan kabi qiyofada bitta-bitta bosib, belidan yarim quchib olgan boyagi qizaloqqa suyanganicha kelar, mendan ko'zlarini uzmas edi. Kelganim uchun halitdan nigohi pilan rahmatlar aytib, ovora qilgani uchun uzrlar so'rardi go'yo.

- Yaxshimisiz, eshon bola? - dedi u gulzor o'rtasidagi yo'lakka yetib.

- Sizmidingiz... chaqirtirgan? - dedim men ovoz bitib.

- O'ylamovdingizmi?

- Hech. Siz bo'lib chiqishingizni bilsam, uchib-la kslardim, - dedim rostidan tonmay.

- Rahmat. - dedi kuylaganday.

Men o'rnimdan turish endi esimga kelib, joy bo'shatishga shoshildim.

- Siz o'tiravuring... O'shandoq. Men mana bunday, sizning qarshingizda, sizga qarab birpas o'tiray. Ko'rmaganimga ham qancha bo'ldi. Maylimi, eshon bola?

Ichimda jon-jon deb, maylingiz-maylingiz deb turibman-u, uning ko'ngliga yoqib tushadigan biron so'zni tashimga

chiqarolmayman.

U supa chetiga yengilgina (omonatgina) o'tirib, qizchaga javob berdi:

- Mayli, sen boraqol, Saida. Bizning eshon bola bilan ozgina gaplarimiz bor, - deya uni yelkasidan quchib, jamalak sochlaridan silab qo'ydi. - O'zinning aqlli singilginamdan o'rgilay.

Ana xolos, men uni kim ekan, deb yuribman!

Qizcha supa chetidan supurgi bilan xokandozni olib, bu voqealarning unga daxli yo'qdek, itoat bilan nari ketdi. Chiroyini yo'qotmasa-da, o'zi surati ramz bo'lib qolgan opasi, mening aziz Marg'u kennoyim esa, duoga qo'l ochdi:

- Ilohim, sizning yengil qadamlaringiz bilan bu xonadonlar ustiga tushgan yuklarni o'zi ko'tarib, fayz-barakotlar ato etsin, - dedi va shirin tilovat bilan Qur'ondan bir oyat o'qidi: - "Avalam yarol-insanu anna xolaqnahu min-nutfatin fa iza huva xosimum-mubiyn" .

Ilohim, o'zing shifo'i komillar ato etgin,- deya qo'llarini yuziga tortdi.

So'ng ochiq yuz, yengil taxa bilan qarab, o'sha-o'sha oppoq, lekin sal sarg'ayinqiragan qo'lini tavoze bilan ko'ksiga qo'ydi:

- Xush kelibsiz.

Bunaqa vaqtda biz qatorilar nima deyishi lozimligini bilolmay, yomonam o'ng'aysizlandim:

- Xushvaqt bo'ling bizlarning baxtimizga, - dedim qisinib.

Uning ko'zlari chaq nab, yuzlari yorishib ketdi:

- Rahmat, eshon bola. Men sizni... - U kipriklarini tushirib, dasturxon chetini o'ynadi, - sizlarni bir ko'rgim keldi-bir ko'rgim keldi.

Aybga buyurmaysizda ovora qilganim uchun.

- Ovorasi borakanmi, bir og'iz aytirsangiz, uchib kelavuraman. Nima xizmat bo'lsa, mana, men turibman.

- Ming rahmat, shu shirin gaplariyuz uchun! - U sal cho'zilib, dasturxondagi patnis ustidan sochiqni oldi. - Qani, dasturxonga qarang, eshon bola. Bizning bog'ni uzumlaridanam tatib ko'ring. Manavi anjirimizdan oling. Ayam, yurtimizning mevasidanam bo'lsin bog'imizda, deb... atay Qo'qonning tagidagi ona qishloqlaridan opkelib o'tqazganlar buni, - deya bir taqsimcha sap-sariq oltinday anjirlarni oldimga surib qo'ydi.

Bunday mehmondorchilikni kutmagan edim. Uyalganimdan, nima deyarimni, nima yeyarimni bilmayman. Bu orada jamalaksoch qizaloq choy damlab, choynakni jajji taqsimchada ko'tarib kelib, tashlab ketdi.

Choy quyildi. Bir shingil uzumdan oldim. U anjirga qistab, o'zi bir donasini oddi-da:

- Bu taomilda mana bunday yeyiladi, eshon bola, - doya uni ikkiga bo'lib, asali oqib yotgan joyini bir-biriga ishqadi va bittasini singlisinikidan ham bejirimroq og'ziga soldi.

Men o'xshata olmagan edim, beozorgina kuldi va ko'shib qo'ydi:

- Tez-tez kelib tursangiz, o'rganishib ketasiz. Shu so'zning o'zidanoq o'rtadagi o'ng'aysizliklar ko'tarilib, men ham sidqididdan kuldim:

- Mashq bo'ladi, deng?..

- Topdiyiz, eshon bola. Bahonada menam birpas yozilaman, - dedi u xuddi hozirdanoq iltimos qilayotganday.

So'ramoqchi bo'lgan bir savolim bor edi, o'rni kelib qoldi.

- Nima, dalaga chiqmay qo'ydingizmi?.. - dedim. Albatta, bu bilan, akamni ko'rmayotirsizmi, demoqchi edim. Marg'u kennoyim tushundi. Tushunib, kiprik k, oqdi. Shunaqa bo'p qoldi, degandayin. Keyin dasturxon chetini o'ychan himargancha:

- O'zinglar... yaxshi o'tiribsizlarmi? - dedi. Asosiy gapi boshqa-yu, ammo nimadan boshlashni bilmay turganga o'xshardi.

- Siz xolalarimning gapiga parvo qilmang, - dedim tomdan tarasha tushganday qilib. - Hammasini akam hal qiladi. Uning degani bo'ladi, qarab turing! Uni bilasiz-ku, to'g'rimi?

Kennoyim to'lib turganakan, yo asablari shunaqa bo'shashib ketganmi, o'zini tutolmay qoldi, qo'llari titrab, bosib kelgan xo'rliknimi, yig'inimi, yashirishga urindi. Lekin eplay olmadi.

- Bilaman, bilaman, lekin bu yoqda ayamgilarni ko'ndirolmasam, inontirolmasam... nima qilay? - deb yubordi hiqillab. - Nima qilay, eshon bolajon, peshonam shunaqa sho'r bo'lsa?.. Ayting, ayting o'zingiz, eshon bolajon, men shunaqa bo'lsin debmanmi?

Oblochi bossin, go'shangalarda yol'g'iz qolay, debmanmi? U kishi benomu nishon ketsin, men shunday kunlarga qolay, debmanmi? Endi bu akangizni uchratgan bo'lsam, menda nima ayb, nima gunoh, eshon bolajon? Menam hammaga o'xshagan bir insonman-ku, nega shumqadam atashadi? Hamma gunohlarni menga ag'darishadi, jon eshon bolajon?..

U ko'zyoshlari shashqator oqib, "jon eshon bolajon"lar, choy choyda, anjir anjirda qolib, menam unga qo'shilishib jimgina yig'lar edim. Shuncha o'zimni tutaman, o'pkamni bosaman, deyman, qani bosolsam, tutolsam: yosh oqib kelaveradi, oqib kelaveradi. Uni na yashira olaman, na yenglarimga artib tutata olaman. Qo'shilishib yig'lasam, u yengil tortadiganday... hiqillab-hiqillab, unga qarab qo'yaman.

Bechora kennoyiginam, endi shu sho'rishlar ham borakanmi sizga! Nega hech kim sizni tushunmaydi? Anglamaydi? Anglagisi kelmaydi? Sul-tonmurod akam o'zi qaerlarda yuribdi sizni shu kunlarga qoldirib? Mening o'rnimda o'zi o'tirsa bo'lmasmidi hozir? Nega kelmaydi, xabar olmaydi?

Marg'u kennoyim hiqillay-hiqillay, axiyri tinchib, gandiraklab sekin o'rnidan turdi. Yiqilib ketmasa edi hozir, deb jon hovuchlab o'tiribman. O'rnimdan tura solib tirsagidan tutishga iymanam. Jamalaksoch qizaloq ham ko'rina qolmaydi. U bo'lsa, bir amallab ariq bo'yiga o'tdi-da, yuzlarini pishib-pishib chayganacha o'sha yerda picha o'tirib qoldi.

Keyin o'rnidan turdi, siniq jilmaydi.

- Hartugul bir oz yengil tortdim, - dedi. - Ammo siz xijolat bo'lmang, eshon bola, men o'zim erkalgim tutib, bir bo'shanib olay dedim-da. Maylimi?

Joyiga qaytib, hozirgina bo'lib o'tgan voqealarni unutganday qiyofada menga qaradi.

- Oling, olib o'tiring, eshon bola. Mening dardim bilan bo'lib, hech narsa yemadingiz ham, qaramadingiz ham dasturxonga.

- Nega, oldim, yedim. Rahmat.

U rahmatimni boshqacha tushundi, ketishga ruxsat so'rayapti, deb o'yladi shekilli, shoshib qoldi. Men esam, meni chaqirtirganidan, o'ziga teng va yaqin olib dardlashib o'tirganidan boshim osmonda edi.

- Sizdan iltimos, jon eshon bolajon, - dedi Marg'u kennoyim ko'zlarimga javdirab, - ayting u kishiga: bir martagina ko'rinish bersinlar jilla qursa. Bir og'izgina bir narsa deb ketsinlar o'zlari. Keyin, mayli, mayli keyin kelmasalar ham. Mayli keyin bular bilganlarini qilsalar ham... - Ovozi qaltirab, boshqa hech narsa deya olmay qoldi. Faqat yoshga g'arq bo'lgan ko'zlarini mendan uzolmas, shu turishim bilan ham mendan go'yo "Maylin, maylin?" deb iltijo qilayotganday edi.

- Aytaman, - dedim o'pkam to'lib.

Shu payt hovlida jamalaksoch qizaloq ko'rindi.

- Opa, ko'cha boshida ayam kelyaptilar, - dedi chopa kslib.

Men taraddudlanib qoldim. Ammo kennoyim shoshilmas edi. Yuzimga o'sha-o'sha iltijo bilan tikilib:

- Shu omonatni sizga ishonдим, eshon bola. Sizni Xudoyimning o'zi qo'llasin. Endi bora qoling, - dedi. So'ng ancha yumshab, xotirjam tortib, shirin jilmaydi: - Eshikdan kelib, tirqishdan ketayotganingizga ayb qilmaysiz-da? Mana bu yoqdan, o'zingiz bilgan olmadan devol osha qoling.

Men shundagina devorga qapishib o'sgan surx olmani tanidim. U o'sha - biz bir marta o'g'rilikka tushgan qizil taram olma edi.

Faqt unda biz narigi tomondan kelgan bo'lsak, bu gal egachasi bilan bu yog'ida turardik...

Jar Tepasidagi Dor

- Hoy, Maqsudxo'ja, qaragin, o'rtoqlaring qayoqdan yo'qlab kelishibdi.

Biz devor ortida o'rikning soyasiga o'tirvolib, baliqsavat yamayotgan edik. Ko'cha aylanib o'tishga sabrim chidamay, devor nahrasidan oshib, darvozamizdan chiqib bordim. E-he, kimni ko'ryapman?! Anhor yoqasidagi tepachada qaldird'ochday tizilishib... yakkabog'lik o'rtoqlarim o'tirishardi.

Meni ko'rib quchoqlarini ochgancha yugurgilashib tura boshlashdi. Aliakbar, Abrol, Boqi, Sattor... bolalikda tepalashib katta bo'lgan o'rtoqlarim.

- Ey, og'aynichalish - bir poy kalish, qayoqlarga yo'qolding?!

Men bu yoqdan chopdim:

- Ey, bormisizlar?!

Va tuproq ko'chaning o'rtasida bir-birimizning bag'rimizga otilishib, quchoqlasha ketdik. Xuddi toylar gir aylanib chopishgani, kishnashgani, yalab-yulqashgani kabi! Xuddi qo'zichoqlar dikir-dikir sakrashib, o'ynoqlashgani kabi! Yuzga yuzlarni suykab... bo'yinlarni iskashib... tanish bo'ylarga to'yib-to'yib...

So'ng anhorning ikki yoqasiga tizilishib, o'zimizning pichir-pichirlarimizga tushib ketdik: qaerda shakarpalaklar tars-tars yorila boshlaganiyu qaerda noklar sarg'ayishga tushgani haqida. Egasi qay mahal yo'q bo'lishiyu qay mahal qorovullashi haqida. Va hokazo, va hokazo.

So'ng bu yangiliklar ham tugab, navbat vohma gaplarga keldi: ey, sen eshitdingmi, falonchini oblochi bosdi. Falonchilarnikiga o'g'ri oralab, falonchidan qora xat keldi...

- Ey, yomon bo'pti-ku. Sariq Zoir endi yetim qoldimi?

Hamma jimgina bosh silkidi. Oraga xiyol lahza sukunat cho'kdi. So'ngra Aliakbar, birdan bir narsa esiga kepqolganday, chalpagi chiqqan do'ppisini kaftiga qoqdi-da:

- Aytganday, Maqsud, sen bizni Bo'zsuvga boshla,- dedi.

- Bo'zsuvga? U yerda nima borakan?

- Bir odamni osib qo'yib, toza baqirtirishayotganmish-ku, axir.

- Shuni ayt, shuni, - deb jovullashdi bolalar. - Har qiynashganda ko'zlari kosasidan otilib chiqib ketarmish-a, vey.

- Oblochisinyam, melisasinyam yo'latishmayotganmish.

- Shunaqa qiynoqni o'ylab topishganmishki, tegmasdanam baqirvorarmish.

Bunaqa gaplarni men, rosti, endi eshitishim edi, serrayib qoldim: kim bo'lishi mumkin? Shu payt ishshayib, ostonasida tog'avachcham ko'rindi.

- Hov, Soli, bu yoqqa qaravor, - deb chaqirdim men.

U kelib ko'rishgach, yana qirg'oqqa tizilishdik. Anhorda suv chip-chip to'lib oqyapti. Biz oyoqlarimizni osiltirib, suvga solvolganmiz. Bunaqa huzur hech yerda yo'q! Peshin jivir-jiviriga to'la Izza tomondan urayotgan dimni ham mana shu salqingina yuta oladi.

- Bo'zsuvda nima bo'lyapti, Soli? - dedim uning biqiniga turtib. Bunaqa hangomalardan eng avval u xabar topardi. Lekin hozir o'zini bilmaganga solib, yasama anqaydi:

- Nima bo'lyaptimish?

Bir odamni jarga osib qo'yishibdi-ku, - deb eslatdi Boqi.

Shundan keyingina Soli ishshaydi:

- E, umi? Manaving akasining ishi-ku! - dedi yelkamga bir tushirib. - O'zi aytib bersin.

- Qanaqa akam? - deb hayron bo'ldim men.

- Sultonmurod akang-da! vooy! - dedi u shuniyam bilmaysanmi, deganday. - Ammo-lekin boplabdi akang! Parpi bebaxt demaganlar...

.....- Opqochma faqt, - dedim unchayam ishonmay.

- O'lay agar, shunaqa so'roq qilayotganmish, shunaqa so'roq qilayotganmish...

- Shoshma-shoshma, qaysi jarda?

- Oyposhsha ammamlarnikidan tushaverishda, o'zimizning cho'miladigan joyimiz bor-ku, axir.

- Bor...

- O'shatdan sal pastdagi tik jarni ko'rganmisan?

- Ko'rganman, - dedim ikki terak bo'yi keladigan, o'pirilgan tepani eslab. - Tepasida qurigan o'rikmi, nimayam bor, o'shami?

- Ana o'shatta, qo'ltig'iga arqon solib, jarning yarpm beliga tashlab qo'yishganmish naq jaziramaga.

- Ola, ko'zing bilan ko'rmagansan-ku, opqochishingni qara, - dedim kulib.

- Ko'rmagan bo'lsak - ko'ramiz, to'g'rimi, bolalar? - dedi u sherik izlab. - Hozir ayni opchiqishadigan payti...

- Ketdik, - dedi Aliakbar ichi qurib.

- Uyga kirmasdan-a? - dedim xijolat-la men.

- Uyni qo'y, keyin. Qorinni desang, yo'lda biron poliz-moliz bordir, axir, - dedi Boqi kulib.

Solining joni kirdi:

- Shuni ayt. Avval qovun sayli, keyin... dor tagida tomosha! Surdikmi?

- Surdik! - deya hammamiz sakrab turdik. Sultonmurod akam nimaga qorasini ko'rsatmay qoldi, desam, endi bu tomoshani o'ylab topibdi-da. Anuv kuni bittasini gadoy topmas tegirmonga oborib so'roq qilgan edi, bugun bunisini tutibdi. Xudo ko'rsatmasin,

qamalib ketsa, kim achinadi, kim qutqarvoladi?.. Qoq peshin vaqti. Qilt etgan shabada yo'q. Olam saraton jivir-jiviriga to'lib, chigirtkayu qushlargacha soyaga urib ketgan payt. Faqat, tinib-tinchimas biz yalangoyoqlar paykal yoqalab, lo'killab boryapmiz. Xuddi ovga chiqqan bo'ri galasidek. Oldinda Soli, orqasida biz. Ovga yetaklagan ona bo'ridan farqi - shu ketishida ham gap sotib ketyapti.

Oyposhsha xolamgilarning bog'lariga yetmasimizdan qovunpoliz boshlandi. Bog' etagida chayla, ammo chaylada zog' ko'rinmaydi. Hech yerda yo'q shabada birdan o'sha tarafdin g'ir-g'ir esib qoldi. Ora-chora qovunqoqi hidi gurkirab ketadi. Chayla tomida kimdir uzala tushib yotganga o'xshaydi.

- Nima qilamiz, oralab ketavuramizmi, yo'?. - dedi Abrol to'rlab yotgan qovunlardan ko'zini uzolmay.

- Hammasi shakarpalak ekan. Bosvoldi bo'lgandami, oh! - dedi Boqi og'zining suvi qochib.

- Toza anoyi ekansanlar-da, - deb kuldi Aliakbar. - Senlarga qolsa, tepkilab ketavursalaring.

- Baribir chaylada odam ko'rinmayapti-ku... - dedi Soli hovliqib.

Men unamadim:

- Boravuraylik, so'ragan yaxshi-da. Jildik.

- So'ragan yaxshi-ku, - deb qiziqchilikka jilpangladi Soli, - ammo ko'zini shamg'alat qilib, o'marib chiqqanga nima yetsin!

- O'zingam o'marilganiga mazaxo'rak bo'p qopsan?

Bolalar xaxolab kulishdi.

Shu mahal chayla chayqalib, tepasida birov turib o'tirdi. Keyin keti bilan surilib, tomidan oyog'ini osiltirib oldi. Shundagina yuzini ko'rib, tanibmiz. U "Qora G'ani - boshing qani" ekan. Bizni ko'rib, chapak chalib yubordi:

- Ul-le, man qutullim...

Qora G'anini tanimaydigan oshnalarim angrayib qolishdi. Rostdanam kap-katta odam... dumbul boladek qiliq qila boshlasa, kim anqaymaydi. Hozirgina chapak chalib turgan devona bir hiringlab qo'yib, yalinishga tushdi:

- Jon bolla, navonni qo'ybelila.

Men Solining biqiniga turtdim:

- Nima deydi?

Soli ishshayganicha devonaga yaqinlashdi:

- G'ani aka, narvon oqib ketibdi-ku?

- Qaytta? Qani? - Poliz qorovuli hayiqib-alanglagan edi, chayla lopillay boshladi, jon halpida xodaga yopishdi. Bunga sari chayla tomi borib-kelib, Soli kuldi:

- Endi o'shatta qopsiz, G'ani aka.

"Qora G'ani - boshing qani"ning yuzlari bujmayib ketdi:

- Jon bolla, tushiniyla, - dedi butini qisib, ham yig'lamsirab.

Soli tegajog'lig'ini qo'ymay:

- Choptirvoruvring o'shatdan! Kimdan uyalasiz? - dedi.

Hammamiz piqir-piqirga tushdik. Bunga sari Qora G'ani keti bilan surilib, qo'lini siltaladi:

- Yo'qol-yo'qol! Jinni eshak!

Tekin tomosha, xaxolab kuldik. Devonaning yuzlari qorayib, bir xunuk bo'lib ketdi. Men achinib, solining tirsagidan tortdim:

- Qarg'ishiga qolib ketmaylik, ho'v...

- Hazillashuvdim, G'ani aka, - dedi Soli birpasda tuslanib. So'ngra so'radi: - Agar narvonni kuibersam, nechta qovun oberasiz?

- Beshta, - dedi devona quvonib ketganidan o'ntala panjasini ko'rsatib.

- Kelishdig-a?

- Kelishtik.

- Aynib qolsangiz-chi?

Qora G'ani bosh chayqashdan qo'rqib, qo'lini tomoniga qo'ydi:

- O'lay agar...

Soli o't bosgan ariqdan narvonni tortib, o'nqlarkan, shivirladi:

- Hozir ko'rasizlar, tushadiyu qochadi.

- Nega, biron yerga o'taqolmaydimi? - dedi Abrol.

- Yo'q, uyiga chopadi, o'la qolsa boshqa joyga o'tirmaydi.

- Hamma senlardaqami? - deb qo'ydim men. G'ani aka narvonning poyidan qaltirab-saltirab tusharkan, Soli o'zicha masxaralagan bo'ldi:

- Uyaladi, ovsar.

- Senam uyal, - dedim men. Soli shaddodlarcha kuldi:

- Hu-huv, uyalmish...

Shu tob Qora G'ani oxirgi pog'onadan oyog'ini oldiyu qaddini tiklar-tiklamas, qiltonglaganicha urra qochib berdi-ku! Voy, afandi-ey, qovunpolizni bizga tashlab qochyaptimi? Qochib borarkan, hiring-hiring kulib, "mana senga" deya dumbasiga shappalab qo'yar edi.

- Hov, G'ani aka, qovun-chi, oberib ketmaysizmi? - deb Soli yolg'ondakam oyoqlarini tapillatdi.

G'ani aka battar hiringlab, devor yoqalab qochishga tushdi. Biz qornimizni ushlab, qotib qolibmiz.

- Bo'ldi-da, vey, qistaloqlar, - dedi Aliakbar. - Butun qovunpolizni tashlab ketsayam qo'ymlaring.

Chaylaning soyasiga joylashgunimizcha Soli ikkita qovunni quchoqlab, uchinchisiga engagini tirab, chiqib keldi.

- Ollaring, - dedi ishshayib (zavqi kelganda shunaqa kulishi bor), - kim qanaqasidan xohlasa.

Sariq to'nli bosvoldiga qo'shib, ko'kcha bilan xunuk bo'rikallaniyam topib chiqibdi u o'larmon.

- Aralashib ketsa, hech narsa qilmaydimi? - deb Abrol tegishdi.

- Qorning chidab bersa, yana opchiqadi, - dedi Boqi. - Ammo qocholmay qolsang, bizdanmas.

- Unda ustidan kaltak ham yevorarkan-de? - deb toza kulishdik.

- Uni-buni qo'ylaring, po'chog'ini nima qilamiz? Shunday tashlab ketavuramizmi? - dedim men.

- Sen buning g'amini yemay qo'yaqol, men o'ylab qo'rganman. Qani, oldik. - Soli ko'kchani bir urib yorib, qo'lida bo'laklashga tushdi. Mishillab tushira ketdik. Bosvoldiyam yorildi. Bo'rikallayam bo'laklandi. Cho'nqayib o'tirib olganmiz. Qorin meshday

shishib boryapti. Ikkita qovog'ari g'ong'illab ustimizda aylanadi. U yoqdan haydasa, bu yoqdan keladi, bu yoqdan haydasa, u yoqdan. Yana achchig'i chiqib, talamoqchiyam bo'ladi. Ammo biz bo'ldi qila qolmaymiz. Shirin-da. Shirin ham gapmi, asalga aylanib ketipti.

Bir mahal Soli orqasiga qayrilib qaradi-yu, o'girilar-o'girilmas sapchib turib, qolgan qovunning ustidan sakradi:

- Atanda! Qochdik, bollar!

Hammamiz gurra qo'zg'alib, oyoqni qo'lga oldik. Pastga qarab qochib boryapmiz, qochib boryapmiz. Poliz orqada qoldi, ikki tepalik o'rtasidagi jo'xorizor ham. Soyma-soy oshib boryapmiz, to'xtay demaydi. Bir mahal chimzorga yetib sekinladi. Axiyrida o'pkasi tomog'iga tiqilib, Abrol ham yetib keldiyu o'zini yerga otdi:

- Qovun yemay men o'lay, vuh!.. O'ldirdilaring-ku, - dedi o'pkasi tomog'iga tiqilib.

- Uzi kim kevtovdi? Hech kimning qorasi ko'rinmovdi shekilli? - dedi Boqi ham o'tirishga joy izlab.

Soli hiringladi.

- Yo'lini qiluvdim! Po'choqni ko'tarib yurdikmi?

- He, o'! - Men uning kuragiga musht tushirdim. Kamiga bir tepmoqchi edim, dikonglab qochdi. Shu mahal...

Bo'zsvuning narigi yog'idan xunuk dodlagan bir ovoz kelib, biz hammamiz qotdik-qoldik.

- Voy, kim boor? Tortsalaring-chi bundo-oq! - deb baqirardi u ovoz.

Soli aytgan ish shumikan? Ovoz chindanam narigi betdan kelayotgan edi.

Soli o'sha tomonga quloq tutib, bosh silkidi:

- Tik jordan kevotti. Ktdik, - dedi birdan Yo'l boshlab, - ro'parasidan ko'ramiz.

Soy oshib, davangirday bir tepalikka tarmasha ketdik. Enkayib, mol izi so'qmoqdan changal-tikonlarga talanib ko'tarilib boryapmiz, boryapmiz, qani qir uchiga vtib chiqsak. Enkayib boraverganimizdan bir yoqda tizzalar qotib qolyapti, bir yoqda hozir bo'kib yegan qovunimiz bo'g'izlarimizga keladi. Abrol demaganlar yarim yo'lda qolib ketdi. Axiyri so'nggi changaldan o'tib, lop etib, tepaning ustiga - sayxonlikka chiqib qoldik. Bu yerdan Bo'zsvuning narigi beti xuddi o'rtada suv yo'kdek, to'g'ridan-to'g'ri tutashib ketgandek yaqqol ko'rinib turar, o'sha yoqdan hilpindi shabada esar edi. Boyagi ovoz ham baralla kelib turibdi.

- Hoy, bir musulmon borme-e, qutqarsalaring-che! Tortib ola qolsalaring-che!

Soli o'zini tappa yerga tashladi:

- Yotlarint, bu yog'iga emaklab boramiz, - dedi. Tepaning usti qurib qovjiragan yantoq ekan, tirsaklarimgacha tilinib ketdi.

Norozilanib qaradim:

- Shunday boravursak-chi? U ko'zini ola-kula qilib:

- I-i-i, o'lging kevottimi? Melisalarim yaqinlasholmotti-ku, - dedi.

Noiloy emaklay ketdik. Tirsakka cho'plar botadi, tezaklar ilashadimi-ey. Barmoqlarga tikonlar kirib, jonim achiydi. Lekin narigi betdagi jarga oyog'idan osib tashlab qo'yilgan (balki boshqachadir), hozir jaziramada baqirib yotgan odamni ko'rishga ishtiyoq har narsadan kuchli edi. U dodlashini qo'ymaydi, biz emak-lab borishimizni.

- Voy, kattabog'lile-er, man silarga nima yomonlik qiluvde-em? Nima qila qoluvde-em? Chaqirsalaringche o'sha nomardne-e.

Tushunarli. Oyog'idan ostirganam, jaziraga tashlab qo'yganam u! Akmal o'risni qo'yvorib, buni buncha qiynab qopti? Nimani tan oldirmoqchi! Yo ko'rib qo'ying: qotilning jazosi shu, demoqchimi? Akamning niyatini tushunib bo'lmas edi.

Bu orada biz tepaning chekkasiga yetib qoldik. Endi hov pastda yoyilib oqayotgan suv ham, ro'paradagi jar ham yaqqol ko'rinib turar, Bo'zsvundan katta suv hidi anqib, salqini betga ojiz urilar edi. Narigi betda taqir tepaning ustida esa, yolg'iz qurigan daraxt, undan uch qadam beridan jar tikka o'pirilganu o'rtada yolg'iz tomday bo'lib bir bo'lagi osilib qopti. Ikki chekkasi Bo'zsvugacha sidirilib tushgan. Tagida qamishzor shovullab yotibdi. Suv yutib ketganmi, botqoq tortib ketganmi shuncha tuproqni - aql bovar qilmaydi. Dod solayotgan odamni ham ko'rdik. Uni ik-ki qo'ltig'idan arqon solib, haligi tepachaga tashlab qo'yishibdi. Do'ppidek joyda o'zini yerga otib-otib, boshini tik jarning devorlariga urib-urib dod solyapti. Qani endi dodi bu oraliq jarliqlardan chiqib, katta dunyoga yetib borsa!..

- One-e, shuning uchun tuqqanmi edi-iz?! Bu kunimdan o'lganim yaxshi ede-e! Qilichda qiymalagani tuz-zuv ede-e! Ote-e-e, shuning uchun katta qilganmi ede-ez? Tegirmonni do'liga tashlavoring ede-e! - deb ho'ng-ho'ng yig'laydi. Ovozi jordan-jarga urilib, vahimali guldiraydi. Aks-sadosidan jar qushlariyu ko'k kaptarlar to'zib, porillagancha osmonga ko'tariladilar.

- Muncha toshbag'irsanle-er! Eshitsalaring-che, ab-lahlar!..

Ammo javob yo'q. Hech kim yaqiniga yo'labam qo'ymaydi, tortib ham olmaydi. Xo'rlikka chidayolmay, o'zini suvga otishga intiladi. Ammo bu niyatiga belidagi arqon mone bo'ladi. Bir uchi tepadagi qurigan daraxtga chirmab tashlangan. Na o'zini suvga ota oladi, na qutula oladi.

Soli yotgan yerida imo qildi:

- Ustidagini ko'rvotsanmi? Qopmi, nima?

Boya e'tibor bermagan ekanman, chindanam unga sirib birnima kiydirilgan, qop desa qopga, nimcha desa iimchaga o'xshamasdi. Lekin ikki qo'li, ikki oyog'i chiqib turibdi. Oftobda yalt-yult tovlanadi. Nima ekan, aqlim yetmayapti.

- Muncha dod soladi, erkakmi o'zi? - dedi Aliakbar.

- Seniyam qultum suv bermay jaziraga tashlab qo'ysin, nima qilarkansan! - dedi Abrol achinib.

- So'kkani bilan bo'shatarkanmi, o'ziga-o'zi qivotti, - dedi Boqi.

Shu payt ustimizga shopday bo'lib, soqol-mo'ylabi yuzini tutib ketgan bir odam kelib qoldi. Qo'shog'izini o'qtagancha boshini xunuk sermadi:

- Hov! Qani, bir tuyog'ingni shiqillatib qollaring-chi! He, topgan tomoshangdan!..

Tura qochdik. U kim edi, osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi - bilmay ham qoldik. Oyog'imizni qo'lga olib, chumda har chekkaga tirqirab ketdik.

Orqadan esa, hamon Parpi bebaxtning baqiriq-chaqirig'i kelardi:

- Qarasalaring-che, ablahle-er, tan olib turibman-ku, axir. Otgan menman devotman-ku, axir, yana mima istaysanle-er?!

Ovozi Bo'zsvu bo'yalarida jangillab, u tepadan bu tepaga uriladi, aks-sadosi hurkkan qushlarning potirlagan ovozlari qo'shilib, bir vahima, bir qiyomat qo'pganki, yo alhazar, undan ikki oyoqni qo'lga olib qochibgina qutulish mumkinday.

Men esam, bir jihatdan, hayratlanaman, boshqa jihatdan g'ururlanaman: shu dor, shu qiynoqlar bari Sulonmurod akamning ishimi? To'g'risi, ozgina qo'rquv ham yo'q emasdi: bu ketishda oxiri nima bo'ladi?

Shu Gunohi Kammi Eringizning?

Bo'sh qoldim deguncha, biron ovloqqami, tepagami urib ketaman. Ayniqsa, kun chiqayotgan yo botayotgan paytlari. Tomgami, tepagami chiqvolib, tizzamni quchoqlab o'tirvolsam, to'p otib ham tushira olmaydiz. Lna shunday o'tiravursamu xayolning uchqur otlariga minib, bolaligimning jinko'chalariga, xilvat bog'lariga kirib chiqaversam, kirib chiqaversam.

Mana, hozir ham dahlizdagi orqaga qaragan kichkina derazamizning tokchasiga chiqvolib(!), Bo'zsuv tepaliklaridan ko'z uzmay o'tiribman. Derazadan g'ir-g'ir urayotgan ukpandanam mayin shabadadan bir yayrasam, kecha biz shabboxun urgan polizu Bo'zsuv bo'ylaridan ko'z uzolmay ikki entikaman. U yerlar oftobning kunbotardan sirg'alib taralayotgan nurlarida (u nur selining o'zimi yo oftob kun bo'yi to'qigan sariq atlaslarini endi yig'ishtirib-tortib olyaptimi, ajratolmayman) bir go'zal bo'lib yotibdi.

Ana, biz Qora G'anini qochirib yuborib, o'zimiz qovun yorib yegan chayla. Ana, shum Solining "Atanda!"siga ishonib, biz urib ketgan jo'xorizor. Ana, ustidan emaklab borib, Parpi bebaxtni tomosha qilganimiz - tepalik. U yog'ini ko'rishga shuncha urinaman, lekin hech nimani ilg'ab bo'lmaydi. Na taqir tepalikni, na qurigan daraxtni, na jarning o'pirilgan joyini. Lekin qo'lga tushgan qaroqchining ovozi haliyam quloqlarim ostida jaranglab turibdi: "Qarasalaring-che, ablahlar! Tan olib turibman-ku, axir! Otgan menman devotman-ku axir!.."

Qarab turasiz, bilakuzuk o'g'risiniyam, Bahriddinni gum qilganlarniyam topmay qo'ymayman, deb qasam ichgan edi. Topibdi-da? Tavbasiga tayantirishni... bosh-labdi-da? Lekin o'zi qaerda? Nega qorasini ko'rsatmaydi? Ana kelar-mana kelar bilan necha kun o'tdi, axir? Bu yoqda Marg'u kennoyimning iltimosi turibdi. Bugun ham kelmasa...

Hovlidan oyimning ovozlari eshitildi:

- Maqsudxo'ja, qaragin-chi, kim chaqiryapti?

Tokchadan sakrab tushib, ko'cha eshikka chopdim: akamning oldidan emasmikan?

Chiqsam... O'sha jamalak soch, puchuq qizcha, mung'ayibgina turibdi. Meni ko'rib, ko'zlarini olib qochdi va mitti oyoqlari bilan yer chizdi.

- Senmiding, Sai?! Kir, kiravermaysanmi?

U o'sha-o'sha, yerdan nigohini uzmay, sekin bosh chayqadi. Labini burib, bir nima demoqchi bo'ldi-yu, bir qur betimga qarab qo'ydi. Uning nimaga kelganini eslab, xijil tortdim.

- Marg'u kennoyim... meni kechirsinar, iltimoslarini yetkaza olmadim... - dedim uyatdan quloqlarim tagigacha lovullab.

U tin olib xo'rsindi. So'ngra shatir-shutur gapira ketdim:

- Bilasanmi, ishonasanmi, u kelmayapti! Akam kelmay qo'ydi uyimizga! Nima bo'lgan, qayoqlarda yuribdi - hech narsa bilmaymiz. Agar ishontira olsang, tayinlab ayt. Soli ikkimiz izlab ko'rmoqchimiz bugun. Topsak, aytaman.

Nazarimda, uning mijjalarida ikki tomchi yosh yiltiradi. Keyin bilagini ko'zlariga bosib shart burildiyu, chopib keta boshladi.

- Sai, Saida?! - deganimcha qolavurdim men.

Ichim chiroq yoqsa yorimaydigan holga kelib, anhor bo'yiga cho'kdim sekin. Marg'u kennoyimga nima bo'пти ekan? Nega yig'laydi? Meni odam deb chaqirtirishsa-yu, men haligacha aytoymasam... Uyat.

Tura, orqasidan chopdim. Ammo qizcha yerda ham, ko'kada ham yo'q edi endi. Ketib bo'lgan edi. Eshiklariga borishga betim chidamadi.

Bo'shshib qaytib kelsam, paranji yopingan bir ayol eshigimizda bola ko'tarib turibdi. Piq-piq yig'laydi-yu, ovoz berib chaqirolmay, har zamonda halqani urib-urib qo'yadi. Do'mboqqina bolasi uning sim-sim yig'lashiga birpasgina hayron qarab turib, yana sho'xligini boshlaydi; ayolning boshidan chachvonini tortqilab qiya ochadi-da, "Aji", deya shirin mo'ralaydi. Uning o'yini yoqmay, ayol boshini bir yoniga tashlab, yuzini ouradi. Bola qiqirlab, battar chachvonni tortqilaydi.

Men tomoq qirdim. Ayol hurkib qaradiyu, shosha-pisha chachvonini to'g'riladi. Ich-ichimdan faxrlanib ko'ydim: he-hey, biz ham yigit bo'pqopmizmi?..

Ayol yig'isini yutib, andisha ila tortinib so'radi:

- O'povsi, Salom kennoyining o'g'illarimasiz?

Men bosh silkidim:

- Ha, keling.

- O'zlari, bormilar?

- Borlar, keling-kiravering, - deb men oldinga o'tdim.

Ayol boshini bir yoniga tashlab, bolasini boshqa qo'lga oldi.

- Bir og'izgina gapim bor edi, chaqirvora qoling.

- Kiravuring, o'zlaridan bo'lak hech kim yo'q... siz qochadigan, - dedim.

Hozirgina yig'lab turgan ayol, nazarimda, jilmayganday bo'ldi.

Eshikni ochishga shoshildim.

- Keling...

- Mayli, hech qo'ymadingiz... - deb u ergashdi. Do'mboq o'g'li qurtdek bilong'lab, tipirchilar ekan, ayol ostonadan o'tib uni yerga qo'ydi va jajji qo'lchasidan yetaklab oldi.

- Yura qol, ana, mo'ttiginam...

Bola talpanglab, faqat o'ng oyog'ini tashlay-tashlay, bir chiroyli yurib borardi, birdan qiqirlab onasining etagiga yopishdi va guldor do'ppisi yerga tushib, kokili ochilib qoldi.

Men do'ppini olib, boshiga kiygizarkanman, juvon: "Rahmat, tog'ajonisi", deb qo'ydi menga va bolasini ko'tarib oldi.

Oyim juvonni tanimaygina, lekin mulozimati bilan kutib oldidar:

- Keling, poshsha kelin, supaga chiqing. Teparoq, chiqavuring.

U o'g'lini supaga qo'yib, boshidan paranjisini ko'tardi-da, chachvoniga qo'shib bag'azga ildi. U nihoyatda ko'hlik edi. Sariq atlas ustidan kiygan duxoba nimchasimi chiroyini yanada ochib turardi. Oyim "poshsha kelin" deb ataganlaricha bor ekan. Engillari ancha uringani bilan, juda yarashib turar edi o'ziga.

Poshsha kelin, oyim qistaganlariga qaramay, poygahga - hamisha men o'tiradigan joyga qimtinibgina cho'kdi, tizzasini bukib, atlas lozimli oyoqlarini bir chiroyli yig'gancha o'tirdi. Duo qilib ulgurmaslaridan bolakay xontaxtaga tarmashib, qiyqira ketdi: hali tapillatib uradi, hali atrofida gir aylanib o'ynoqlaydi, mehmonga kelganidan boshi osmonda go'yo. Men ishkom ichida go'yo ishim bilan (uzumga kirgan edim, xomtokka "tushib ketdim") bandman, ammo ulardan ko'z uza olmayman.

- Yaxshi o'tiribsizlarmi, men sizlarni bezovta qilib qo'ymadimmi, xolamoyi? - dedi Poshsha kelin.- Aibga buyurmaysiz bevaqt

kelganimizga.

- Yo'q, nega, odam bor yerga odam kiradi. Bezovtasi bormi, xush kelibsiz, - dedilar oyim.

- Xushvaqt bo'ling. - Mehmon ro'molini to'g'rilab, arzi holga chog'landi. Xokisor qiyofada yig'lamsiradi:- Meni kelganim...

O'zingizdan qolar gap yo'q, xolamoyijon, manashi jujug'imizning adasi... - Ko'ngli to'liqib, gapirolmay qoldi, quruq yutininb yerga qaradi, titroq qo'llari bilan ko'rpacha qatini to'g'rilashga tutindi.

- Siz tortinmang, - deb dalda berdilar oyim. Men ishkom ichidan ko'rib turibman. U ba'zi ayollarga o'xshab yolg'on yig'i bilan avramas, chindanam dardini aytolmay to'liqib o'tirar, gapirolmas edi hech.

- Shu jujug'imizning adasini... O'zingiz balki ilitgandirsizam... Axir tanimagan, eshitmagan odam kolmadi... Isnodlarga o'lar bo'lsak o'lib bo'ldik... Bosh ko'tarib eshiklarga chiqarga, mahallada yurarga yuz ham qolmadi, xolamoyijon. Lekin biz nima qilaylik, boshqa pushtipanohimiz bo'lmasa? Yomon bo'lsa ham, xonadonimiz chirog'i, suyanchig'imiz edilar. Nima qilasiz, osmon uzoq, yer qattiq, davr - manavinaqa... Rahm qilsinlar, jon xolamoyijon, balki shu oxirgisidir, qaytarlar tamom. Gunohlarini so'rab bering shu galeha, manavi jujuqlari haqqi. Yig'lay-yig'lay so'qir bo'lib qolgan onalari haqqi. So'rab bera qoling. Sizdan oo'lak o'rta tushadigan topmadik, xolamoyijon...

Ayol kaftlarini ko'zlariga bosib-bosib yig'lar, xo'rlikdan bolasini ham unutgan, u bo'lsa, parvoyi palak, xontaxta atrofida qiqirlab aylanar, tapirlatib, qip-qizil milklarini ko'rsatib, bir chiroyli kular edi.

Ayolning kimligini, kimning gunohini so'rab kelishini fahmlaganday bo'ldim. Nahot bu o'sha... qaroqchining xotini? Parpi bebaxt deganlarining shunday xotini, o'g'li bor ekanmi?!

Nima derkinlar deb nuqul oyimning og'izlariga tikilaman. Axiyri oyim yuz-xotirlik bilan:

- Eringiz oddiy ot o'g'risi bo'lsa, bo'lak gap edi, kelinposhsha, - dedilar. - Uning gunohi og'irroqmi, deb qo'rqaman. Sultonmurod unaqa-bunaqaga to'nini teskari kiymaydi.

- Siz bir ko'rsangiz edi, xolamoyijon, dardida yig'lay-yig'lay, ko'zlari xira tortgan qaynonamni! Eshiklarga emaklab chiqib, ostonalarda o'tirilib, o'killarini chaqirishlarini ko'rsangiz! Yuraklarni to'kib yuboryaptilar. Men bu ko'rgiliklarga qanday chiday, xolamoyijon, qanday?..

Oyim o'sha-o'sha bosh ko'tarmay o'tirganacha, xo'rsinibmi, burunlarini tortib qo'yidilar. So'ng ilkis qarab:

- Sizam eshitsangiz edi, ko'rsangiz edi Asol opam tuni bilan Izzaning tepalarida tentirab chiqishlarini, yolg'iz o'g'illari Bahridinni chaqirib yurishlarini, - dedilar alam bilan. - So'qirlik nima?! Kap-katta odam o'g'lining dardida kuyib, adoyi tamom bo'ldi! Esdan ayrilib, "Bahridinim"lab ustun quchoqlab o'tiribdilar, bilsangiz.

U kutilmaganda yig'idan to'xtab, oyimga tikilganacha qotdi.

- Nahot shu gaplar... rost? - dedi nihoyat lablariga jon bitib. (U hatto bo'yniga yopishib-tarmashgan bolasiga qarab qo'ymas edi.)

- Qanday qilaylikki, rost, hammasi rost. Bir bo'y yetgan yigit go'shangalarga kuyov bo'lolmayin ketti. Bir kelin chimildikda turib... beva qolaverdi. Bir ona o'g'lining firoqida, mana, yarim yilki, esi og'ib, sochini yulib o'tiribdi. Shu gunohi kammi eringizning? Kelin ne deb javob qilarini bilmay, bir muddat tosh qotib, o'tirib qoldi. Oyimning ko'zlariga qaray olmas, yer yorilsa, kirgudek holda edi.

- Kechirasiz, xolamoyi, - dedi hazin tovushda axiyri, - biz bebaxtlarning ko'rgiligimiz shu ekan.

Va og'ir qo'zg'aldi. Shu indamaganicha, indamayin o'rmidan turib, indamayin bolasini qo'lga oldi, indamayin bag'az yoniga bordi va undan paranjisini olib, bilagiga tashlaganacha, eshik tomon yurib ketdi. Yaqindan juda yaxshi ko'rdimki, ko'zlarida tomchi yosh yo'q, go'yo u so'qir ko'zdek qotib qolgan, aylanmas ham, kipriklari qilt etmas ham edi. Yo'lini qanday topib boryapti - aqlim bovar qilmasdi.

Beixtiyor Marg'u kennoyimni esladim. Ko'z oldim xiralashib kelib, go'yo bir tuman qoplab oldiyu... lablarimning chetidan sho'rtang tomchilar sizib kira boshladilar.

Jinqarcha

U ketdi. Men ishkom ichidan sekin chiqib, supaning bir chetiga cho'kdim. Oyim ko'zoynaklari ustidan bir qarab qo'yib, yamoqlarida davom etaverdilar. Men o'tirib-o'tirib, sekin tomoq qirdim:

- Oyi, u endi qaytmaydimi biznikiga?

- Kim? - dedilar daf'atan anglamay.

- Sultonmurod akam-da.

- Nega, chaqirsak kelaveradi. Faqat oblochi bezovta qilmasin, deb kelmayotgandir-da. Nima edi?

Men aytolmay, ming'irladim.

- Yo'q, o'zim...

Shu mahal eshik qiya ochilib, birov ko'rindi:

- Mumkinmi, kim bor?

daf'atan tanimabman, Olim akam ekan. U alanglab kirib kela boshladi.

- Ie, oyi, qarang, kim kevotti?! - Men o'rnimdan tura, yugurdim.

Asrandi akam kichkinagina ko'kish jomadonchasini demasa, quruq kirib kelar, hatto melisa kiyimini berishmagan edi unga.

- Men qaytguncha, ko'chvoribsizlarda bu yoqqa?.. - dedi u yelka tutib.

Oyim uni peshonasidan o'pib, aylanib-o'rgilib, taglariga ko'rpachalar yozib, tepaga qistadilar.

- Kela qol, aylanay, yuqoriroq chiqaver.

U jomadonchasini yeru ko'kka ishonmay to'rga o'tdi va yoniga qo'yib, cho'kdi:

- U yoqqa borsam, deng, tom ochiq, hammayoq xaroba, hovli yutaman deydi. Anqayib qopman. Yaxshiyam qo'shnilariz borakan, aytib qolishdi, - dedi u.

- Ey, nimasini aytayin, - deb oyim ko'zlariga yosh oldilar. - Tog'ang boyaqish, mana, nimaga shoshgan ekan, bizni qo'yarda-qo'ymay ko'chirib keluvdi. Endi o'zi qanday zax xonalarda yotibdi ekan?

- Kim? Qo'ldosh tog'amlarmi? - dedi u o'z quloqlariga ishonmay.

- Ha-da, seni ham o'sha o'qishga joylaguncha bir yerga yetgan edi. Mana, endi o'zidan xabar oladigan bir mardi Xudo yo'q. - Oyim kuyib ketganlaridan fotiha qilishni ham unutib, bosh egganacha jim qoldilar.

- Yo'g'e, qanaqa chaquv bo'la qolibdi? Ishlaridan ishkal topishibdimi? - dedi Olim akam hovliqib.

- Qochib yuribdi, deb kimdir xat tashlaganmish. Kenja tog'ang ketdi, Islom tog'ang ketdi. Akrom tog'ang ketdi, Usmon tog'angni

qarchig'ayday ikki o'g'li jo'nadi, Qo'ldosh tog'ang qochadimi? Nima bo'lsa, do'st-dushmanidan bo'ldi, bolam. Ishga deb ketib, qamoqqa to'shib o'tiribdi tog'ang. - Oyim etaklarini mijjalariga bosdilar. - Tangrim o'zi buyuk, o'zi qodir. Istasa qahr etadi, istasa mushkullarni oson qiladi. Ilohi, biz mo'minlarni himoyatingga ol, qasd k,ilganlar past bo'lsin...

Oyim endi uning yuziga ochiq qaradilar:

- O'zing yaxshimisan? Yaxshi qutulib keldingmi? Olim akam negadir ko'zini olib qochdi:

- O'qishini... tashlab keldim.

- Tashlab? Tog'ang eshitsu, xafa bo'ladi-ku. U yamlanib chaynaldi:

- Menga... to'g'ri kelmadi... O'sha o'qishlari. Oyim shubhalanib, ko'ziga qaradilar:

- Nimasi... to'g'ri kelmaskan?

- Bunaqa o'qish, bunaqa ishlar... bizga yarashmasakan, xola.

- Yaxshi bo'lmabdi, - dedilar oyim.

U jim qoldi. O'rta hech gap sig'mas, o'zi ham bir nima deyishga jur'at eta olmas edi.

Nihoyat oyim choy tayyorlagani qo'zg'aldilar:

- Haliyam bo'lsa, tog'angning oldidan o't, - dedilar fikrlaridan qaytmay. - Bahonada ko'rib ham kelasan.

Men ikki bosh uzum uzib, anhorda chayib kelgunimcha, oyim choy damlab, non sindirdilar. Endi bir piyoladan ichibmidik-yo'qmi, zag'izg'on sayrab uchib o'tdi.

Yana kelmagan kim qolgan ekan, deganday, oyim eshikka qaradilar. Tavba, shu tob eshigimiz g'iytilab ochilib, avval gavdali odamning soyasi, so'ng hassasi ko'rindi - harsillab-lorsillab Nusratilla pochcha kirib kela boshladilar.

- E-e, kimni ko'ryapman-kimni ko'ryapman! - U kishi uzokdan shirin manziratlar qilib, birdan hovlimizga fayz kiritib yubordilar: - Hay-hay-hay, Olimmisan? Ko'z tegmasin, er yetib qopsan-ku, a? Bo'y tortib qopsan-ku, a? - Akam salom berib, bo'yin egib borgan edi, bag'rilariga bosib, kuraklarini silab, alqay ketdilar: - Uni qara-ya, tomirimning tomiri, Abdurahim eshon pochchaning yodgorlari! Ko'rinib turginda bunday. O'qishga kirdim deb yo'qolib ketding... Hay-hay-hay, umrning o'tishini qarang.

Men ham salom berib, chopib bordim. Meni ham bag'rilariga bosib, mushk-anbar hidlarini gurkiratib, peshonamdan o'pib qo'yidilar.

- Oh, toychoqlarim-toychoqlarim, ertaga ot bo'lib, orqamizda qoladigan kishnoqlarim. Xudoyim bizlarga iymon, sizlarga umr bersin. - Keyin harsillab-lorsillab to'rga o'tib, duoi fotiha qildilar-da, yana Olim akamni gapga tuta ketdilar: - Shunaqa degin-a, o'qivotman degin-a? Bizdanam bitta o'kumatti ishongan tog'i chiqarkan-da, a?

Bunga sari Olim akam qisinadi, qizarinib yer chizadi!

- Unchalikmas, pochcha.

- Sen xo'p deyaver! Tog'ang seni bu qiztaloqning o'qishiga zo'rg'a joylaganidan bilavur.

U battar o'ng'aysizlandi:

- Bitirganimizdayam kim bo'lardik?!

- "Kim bo'lardik" nimasi! Boshingda shapka, qo'ltiqda papka - kirmay ko'rsin-chi gapka!.. - deb kuldilar, - O'kumat onasini necha qo'rg'ondan ko'rsatarin?!.

Qarab tursam, pochcha Olim akamni pichoqsiz so'yib, jon joyidan olayotgan ekanlar. Shuning uchun u o'tirolmay qolgan ekan.

Axiyri, cho'kkalab:

- Shuning uchunam... tashlab keldim o'qishlarini, pochcha! - dedi, xursandmisiz endi, deganday zo'rma-zo'raki iljaydi.

- Yo'g'-e...

- Ha-da...

- Butunlayin-a?

- Butunlay.

- Xayr-xo'shsiz-a?

- Xayr-xo'shsiz.

- Balki qidirib kep qolishar?

- Kelmaydi.

- Anoyi ekanda ular?..

- Bo'lmaganda nima? Istamadim.

- Uni qara! jiim qo'yvorvuribdi-da?

- Qo'yvormaganda nima?! Qulmanmi men?

- Balki quvvorgandir o'zlari...

- Quvadi?

- Ha-da. Hammani qo'yib xalq dushmanining bolasini o'qiti-ib qo'yadimi o'kumatlikka? - Pochcha burunlarini bir chiroyli jiyirib, soqqollarini silab ko'yidilar va ko'zlari quvnoq chaqnab, kuldilar. - Qo'ldoshxo'ja shoxida yursa, ular bargida chopqillaydi. Sen iima devotuvding. Qiztaloqning kitopini o'qimapsan x.ali.

Olim akam pochchaning bu so'zlariga quloq osib turib:

- Topdiz-a, pochcha, - dedi kulib kutilmaganda, - pattamni qo'limga tutqizvorishdi.

- Yo'g'-e? - Pochcha bu gapning tagida bir nimani sezib, quvlik bilan ko'zlarini qisib qaradilar. - Hammani qo'yib seni ayabdi-da?

- Ayamaganda nima? Men kim bo'pman?

- Jinqarcha!

- Ha-da.

Pochcha o'sha-o'sha quvlik bilan kulib turib, bosh chayqadilar.

- Lekin bularga urug'iyam bir, aymog'iyam bir. Dushmanning katta-kichigi yo'q ularga. Seni osonlikcha ko'yvormasa kerak edi.

- Dahmaza deb bilgandir-da, - dedi Olim akam beparvogina. Ammo yuzida allaqanday xavotir bir balqib, yo'qoldi.

- Hazir bo'l, yoshing yetib turibdi. Akangdan avval zing'illatib qolmasin tag'in.

Olim akam xontaxta qirrasini hardamxayol siypaladi. Dami ichiga tushib ketdi. Oshxona bilan supa orasida kuymalanib yurgan oyim bu gapni eshitib, beozor koyib berdilar:

- Nafasingizni yel olsin, pochcha, Sul-tonmurodning qadamini o'lchab yotishgani kammi?

- Qorasini ko'rsatmay qo'ygani shundanmi hali? - Pochcha qayrilib qaradilar. - Bugun kelishi ham dargumon deng, Salomxon?

Olim akam yalt o'girildi:

- Akam keladimi?

- Keladi, nima edi? U talmovsiradi:

- Orqamdan bitta-yarimtas ergashib kelgan bo'lsa, kasrimga qolmasalar edi, - dedi gapini andavalab.

Pochcha miyig'larida kuldilar. Soqol-mo'ylablarini tutamlab-silab, o'zlarini tuzatgan bo'ldilar.

- Sen undan xavotirlanmay qo'yaqol. Uning poyloq-chiyu eshitar quloqlari son ming. Obloching Cho'lpon-otaning guzaridan o'tmay xabari bunga yetadi. Keyin uch-to'rtta melisayu askari cho't emas unga! Yigitlari Bo'zsuvni qarorgoh tutib yotibdi. Sening otishmalardan xabaring yo'q-da. - Pochcha bu gaplarni sinamoqqa aytdilarmi - bilolmadim, lekin qoshlarining tagidan zingil tashlab qo'yganlarini ko'rib qoldim.

Olim akam esa, qo'lidan piyolani qo'ymay, asta-asta choy ho'plab, o'zini beparvo tutib o'tirsa ham, aslida, bu gaplarni jon-qulog'i bilan tinglar edi. Oyim yelib-yugurib birpasda pipshrgan qovurma sho'rvalarini yarim kosadan quyib keldilar. Tepa masjidan azon tovushi eshitilib, o'tirgan yerimizda jim qoldik. Pochcha xumdek boshlarini solintirib, ora-sira pichirlab qo'yar edilar: sollalohu alayhi vasallam... La havla vala quvvata illa billohil aliyil aziym... moshalloh, moshalloh... So'ng uzoq duo o'qidilar-da, kosani sal surib, o'rinaridan qo'zg'aldilar:

- Men machitga chiqib kelaqolay, ovqatni keyin icharman, - deb tashqari yo'naldilar.

Oyim bir ish bilan ichkari kirdilar. Dahlizdan o'tmaslaridan akam menga o'girildi.

- Rostdanam akamning yigitlari bormi?

- Bor, - dedim-u, tomoshaga borganimizdagi qorasozqolni aytmadim.

- Bir talaymi? Yelka qisdim:

- Bilmasam.

Kunbotardagi shafaqlar ham o'chib, hammayoq birdan bo'zarib turib qoldi. Qishda bo'lsa, darrov shom qorong'iligi cho'ka qolar va pana-pastqamlarda, daraxt taglarida "askar to'plab", mo'r-malaxday toshib chiqq boshlar edi. Hozir salqin tortgan ochiq havoda o'tirish bir gashli bo'lgan, yengil epkindanam rayhon islari gurkirab ketardi. U yelkamga sekin turtdi:

- Qurollariyam bordir? Aytgim kelmadi:

- Men ko'rganim yo'q.

- Unda... pochcha nega vohma qilyaptilar? Quruq aravani opqochyaptilarmi yo'?

- Kim biladi - ularmi, oblochilarmi? - deya mujmal javob qildim.

- Otishgan melisalar bo'lishi ham mumkin-ku?

- Mumkin.

U yog'och qoshiqni kosaga solib, ovqatni aylantirganicha uzoq jim qoldi va axiyri:

- Agar meniyan tinch qo'yishmasa, ularga qo'shib kotaman, - dedi. Nega bunday dedi - bilolmadim.

Emizilmay qolgan buzoqning zorlanib-zorlanib ma'rashlari ham o'chdi. Qo'nog'ini yo'qotgan qo'shni toiuqning qaqog'lab zir yugurishlari ham bitdi, qaybir so'ri yog'ochiga patillab uchib chiqib, u ham tindi. Ishkom ichidan toshib chiqqan shom qorong'iligi rayhonzordan o'tib, atrofimizni qamray boshladi. Yoz kechasining nag'machi chirildoqlari uyg'onib, nag'malarini boshladilar. Pochcha ham qaytib keldilar.

Oyim ostonadan tushib kelib, qo'llaridagi chiroqmi xontaxta ustiga qo'ygan edilar, birpasda atrofida parvona ham aylana qoldi.

Keyin oyog'imi, qanotimi mxtigina kuyib, ag'darilib tushdi. Yonboshlab yotgan ko'yi bir qanotini ojiz tipirchilata-tipirchilata, tinchidi-qoldi. Oldilarida choy, tasbeh o'girib o'tirgan pochcha pishillab qo'zg'alib, kuldilar:

- Obbo bachchag'ar-ey, bir kunlik umri bormi-yo'qmi, shuyam o'zini o'tga-cho'qqa uradi-ya! Oxiri nima bo'ldi? Voy bo'ldi.

Hukumat ham shu chirokday gap, o'ynashib bo'lmaydi!

Nimaga mengzayaptilar, desam, aka-ukaga tekkizib aytayotgan ekanlar.

- Alamzadalik yaxshilikka olib kelmaydi. Otamizni yo'qotvorgan bu hukumatga bo'yin egmaymiz, deb kek sakdab yurgan o'ziga zulm qilgan bo'ladi. Ajdahoh-ku bu, istasa, nomu nishonsiz yutvoradigan. Mo'min odam vaziyatni to'g'ri baholay oladigan bo'lishi kerak emasmi?

- Kim haqida gapiryapsiz? - dedi Olim aka xuddi anglamaganday.

- Akang haqida-da, kim haqida bo'lardi, - dedilar pochcha.

- O'zingiz chaqirib gapirib qo'ysangiz bo'lardi, bu ketishi yaxshilikka obormaydi, pochcha, - dedilar oyim xavotirli bir ohangda. - Bugun bir ot o'g'risining jazosini berib, yurtning olqishini olar. Ertaga oblochiga yugurdak bo'lib yurganlarning adabini berar.

Indiniga-chi? Kattalarga o'tadimi? Kattabog'ni ulardan ayirib ololmaydi-ku.

- Ho'-o'y, - deya g'alati xo'rsindilar pochcha, - sekinroq aytasizmi, Salomxon, sekinroq aytasizmi?! Menam nimaga chaqiribman u betovfiqni? O'zini o'ylamasam, boshqalar-chi? Butun urug'imizni ko'chirmaga solib, bu yerlardan badarg'a etvorsalar yaxshimi? Mana shundan qo'rqaman, kasriga qolmasalar edi deb qo'rqaman...

Tog'am O'rniga Tog'day Himoyachi

- Qolmaydilar, pochcha, qo'rqamang! Ular hayiqsinlar! Ular hisoblashsinlar, biz emas! Qachongacha qaltirab yashaymiz bu itlardan?!

Ishkom ichidan bahaybat jin chiqib kelayotgandek cho'chib tushdik. Qaltirablar ketdim. Sultonmurod akam rayhon arig'idan hatlab, chiroq yorug'iga chiqdi va birdan ukasini tanib, unga qarab yurdi.

- Iya, Olim, bormisan, jigar? Seni ko'rar kun ham bor ekan-ku!

U dovdirab qolgan ekan, alpon-talpon tura, o'zini akasining quchog'iga otdi.

- Akajon! Otam o'rnida otajonim! - dedi ovozi qaltirab va o'ksig'ini tutolmay, yig'lab yubordi.

Hammamiz bir holatda turib qoldik. Oyim yenglarini ko'zlariga bosib, chetga qaradilar. Pochcha zo'r berib yuz-burunlarini ishqar, soqollarini silar, o'zlarini alahsitar edilar. Bularning shu bir-birlariga singib ketgudek turishlari, ukasining boyagi o'ksib aytgan gapi ko'p narsalarni yodga solib yuborgan, ich-ichimizdan yig'imi, alammi, hech kimning boshiga solmasin, degan bir achinishmi, shunga o'xshash narsalarni toshirib chiqarar edi.

- Kel, bo'tam, o'tiringlar, o'rtamiz to'lsin, arvohtar shod, Xudo madadkor bo'lsin. Yaxshi keldinglar ikkoving, - deb qistadilar pochcha.

Ko'rishib, o'tirdik. Pochcha yana qo'l ochib, duo qildilar. Oyim yelib-yugurib topgan-tutganlarini olib kela boshladilar. Men

qozondagi ustiga likopcha yopilgan kosani Sul-tonmurod akamning oldiga keltirib qo'ygan edim, u xijolat tortib, oyimlarga qaradi. Oyim urishdilar.

- Har kuni olib qo'yaman, kelmay-san. Qayoqlarda yurasan nasibangni tashlab? Pochchani oldilarida aytib olay.

- Yaxshimas, bo'tam, bularni xavotirga qoldirib, o'zing tentirab... - deya ter-gagan bo'ldilar pochcha.

Sul-tonmurod akam iljaydi:

- Voy, xola, qiziqsiz-a, ha men qatta ekanman? Ko'l uzatsa, yetadigan, huv desa, eshitadigan joydaman-ku. Chaqirib qo'ymaysizmi? Sizni asalday ovqatizni gopib bo'ladimi?! - deb maqtay-maqtay icha ketdi.

Men uning Bo'zsuv shamollarida qorayib, ancha dag'al tortgan yuz-ko'zlariga qarab o'tirib, yanayam vahmim ortib boryapti. U xontaxtaning bir yonini egallab, ko'ksini berib o'tirgani uchunmi, yo aslida ham shundaymi, yelkalari kattalashib, qaddi-basti to'lishganday, o'zi ancha salobatli ko'rinar-di. Rostini aytsam, Chilla chiqishi bilan kechalari salqin tushib, Qo'ldosh Tog'amning nosrang kitel-shimini kiyib olganidan, ustiga-ustak, oyog'idagi etik uni harbiylargami, kimgadir o'xshatib qo'ygan. U ovqatni xo'rillatib ichib, kosani yalab qo'ydi.

- Ha, bu boshqa gap, hamma savobi shu kosaning tagida, kam bo'lmaysan, - deb maqtab qo'yidilar pochcha. Keyin so'radilar: - Uyga mo'ralab o'tmadingmi, xolang eshik tiq etsa, ilhaq bo'lib o'tirgan edi?

- Yo'g'-a, shu yoqqa so'ratganakansiz, deb kelaverdim, - dedi akam sergak tortib. - Tinchlikmi?

Pochcha og'ir qo'zg'alib, chuqur tin olgancha, "Ho'-o'y" dgo qo'yidilar.

Qay biriniyam aytay, senga?! Qo'ldoshxo'ja borida unga orqa qilarkanmiz hammamiz. Mana, endi bilinyapti.

- Hammasidan xabarim bor, - dedi u qo'l siltab.- Tog'amday odamni yo'ldan oldirib tashlab, hammamizni bir elakdan o'tkazmoqchi bo'lganlaridanam... kim pishang berganidanam... kim tuhmat xatini bitganidanam... Siz xotirjam bo'lavering. Mening hisob-kitoblarim bor ular bilan! - Akam og'irligini bir yonga tashlab, tirsagi bilan yastangan edi, xontaxta g'ijirlab ketdi.

Pochcha gapining oxirini yo eshitdilar, yo eshitmadilar. "Ho'-o'y, yomon bo'ldi, kutganimiz boshga keldi"lab turib, ko'zlarini yumib, xumday boshlarini saraklatishga tushdilar:

- Sekinroq aytasanmi, sekinroq... Bilmasakanmiz, Qo'ldoshxo'ja tog'day himoyachimiz ekan, chinorimiz ekan, qayirdilar uni...

Hov, biz esipastlar, biz gumrohlar bilmaskanmiz. U bor edi, hech kim tegolmasdi! Yo'lay olmasdi qo'rg'onimizga bo'rilar! Uni qamashdiyu balo-qazoday yopirilishdi. Barcha tog'alaringni bitta-bitta bosib, olishdi-ketishdi. Huvillablar qoldi qo'rg'onlarimiz.

Hov, endi nima qilarkanmiz-nima qilarkanmiz? Pushti panohimizni qanday qutqararkanmiz?!. Pochcha so'zlarim-dilar, bo'zlarim-dilar, tomog'imizga issiq bir narsa qadalib, to'liqib o'tirar, piq etgan tovush chiqsa, qo'shilib ketadigan alpozda edik.

Ammo akamning mushti xontaxta ustiga gurs etib tushib, chiroq bir qalqib ketdi:

- Ey pochcha! Biz yerda yotgan xas emasmizki, har bitta o'tgan-ketgan - itam-bitam tepkilab-tepalab o'taversa. Biz Ulug'xo'jaboyning avlodlarimiz! O'sha o'ris bostirib kelgandayam jim turmay, yoniga mergan o'g'illarini olib jangga chiqqan, pana-pastqamda qolib ketishdan shahidlikni ma'qul ko'rgan odamning nevaralarimiz! Qarab turmasmiz, axir!

- O'-o'-o'! Nimasini aytasan! Zabunlikdan shahidlikni avlo ko'rgan buvalarimizning ruhini Tangrim o'zi shod aylasin. Olgin-u, oldirmagin! Bosgin-u, bostirmagin! Tog'alaringning o'rnigayam o'zing himoyachimiz bo'lib yurgin, ilohim. Ammo, bo'tam, jigargo'sham, men senga ko'ngildagi bir gapni aytib qo'yay: alamzadaning ishini qila ko'rma zinhor. Birovga yomonlik sog'inmagin hech. Zulm - O'z oti bilan zulm. Shunday qilki, keyin birov-larning ko'zyoshi tutmasin seni! Qarg'ay olmasin, Xudoga solmasin, bo'tam.

- Pochcha? Shoshmang! Menga qarang!

Kutilmaganda Sul-tonmurod akamning avzoyi buzilib, yuzi qorayib ketdi. Betoqatlanib, hatto cho'kkalab oldi.

- Men gapingizni eshitdim, siz ham eshiting! - dedi ilkis-ilkis bosh chayqab, - Alhamdulillah, musulmonmiz. Hammamiz ham Xudoga xush kelmaydigan ish qilib qo'ymaylik deb yuribmiz. Lekin siz menga ayting. Dunyoning ich-ichini yana yomonlik, yana zo'ravonlik, fahsh, odamni qumursqacha ham ko'rmaydigan bir adolatsizlik egallab olaversa-yu, biz mo'minmiz deb jim turaversak? Siz nimaga chaqiryapsiz o'zi? Yaia o'sha zabunlik, zulmga rozilik, zolimga muteliknimi? Joningizga tegmadimi bunaqa murosa, bunaqa mo'minlik?

- Sen adashyapsan, bolam, - dedilar pochcha boshlarini ko'tarmay, bo'g'iq ovozd. - Qiziqqonlik yaxshilik keltirmagan hech mahal.

- Xo'p, siz o'sha adashgan joyimni ko'rsating, ishontiring. Bosh egmasam, ayting keyin.

- Hisob-kitobni senu biz emas, O'lloh qiladi.

- Qachon, biz o'tib ketgachmi?

- Kinga shu dunyodayoq, kinga qiyomatda ko'rsatadi. Sen bilan bizga Uning hadlaridan chiqmay yashash buyurilgan.

- Lekin bu xo'rflash-xo'r-lanishlar-chi?

- Imtihon bu...

- Tegma u kazzoblarga, dinini-diyonatini yutganlarga, deysiz-da?

- Unchalikmas-u, lekin... qadamingni bilib bossang yomon bo'lmasdi, - dedilar pochcha sekin zingil tashlab.

- Men nima qipman, nima qilib ulguribman hali?

- Sen qizishma. Qizishadigan bo'lsang, eshitmayoq quyaqol. Qaytib-la ketaver. - Pochchani qoshlari uchib, jahllari chiqqani endi bilindi. U kishi shunaqa cho'rtesar bo'lib qolarkanlar Qo'ldosh tog'amga o'xshab.

- Xo'p, ana, qizishmadim, - deb hovridan tushdi akam.

Oyim erkaklarning gapiga aralashmay qumtoshdek jim o'tiribdilar, biz esa, kichkina tortib ketganmiz-u, quloqlarimiz ding.

- Sening bu tarz ishlaring... Xudoyimning hadiga to'g'ri kelmaydimi deb qo'rqaman, Sul-tonmurod. Jabrning javobi bor, axir! - dedilar pochcha boyagi-boyagi shashtlarida.

Sul-tonmurod akam ilkis qaradi, ko'kragi bir ko'tarilib tushdi. Ammo o'zini bosib:

- Har qancha nasihat-ingizni jon deb eshitay, pochcha. Siz menga yomonlik sog'inmaysiz, bilaman. Ammo bularning orasiga tushmang. Men ont ichib qo'rganman, - dedi qat'iy.

- Ont?! Sen o'zingga bunaqa erk berma, bola!

- Pochcha, siz u yaramasning ishlaridan yuzdan birini eshitsangiz edi!..

- Baribir, baribir! - U kishi xumday boshlarini saraklatib, eshitishni ham istamadilar. - Qaysi zamonda, qanday qonunlar ostida yashayotganimizni unutma sen. Urug'imizni quritib yuboradi-ku bular. Kim bilan qasdlashayotganingizni bilasanmi o'zing?!

- Undan chiqdi, undan chiqdi... - dediyu u yog'iga gapira olmay qoldi akam. Tomog'iga bir nima tiqilganday, g'o'ldiradi.

Pochcha xiyla jaxdlaridan tushdilar:

- Mening bilganim shu qadarki, biz mazlum hukmidamiz, sabrdan o'zga choramiz yo'q.

Sultonmurod akam bosh chayqadi:

- Sabr deylilik, mazlum hukmidamiz, deylilik, ollohga tashlaylik, - dedi kesatib.

- Shariatga shak keltirma, bolam.

- Shak keltirmasam, axir shu shariatimiz qasosni halol qilmaganmi? Zulmni kesishning eng adolatli yo'li qasos deb ko'rsatmaganmi? O'limga - O'lim, jabrga - O'ziga teng miqyosda jabr, degandek...

- O'-o', juda chuqur ketding-ku, bolam. Qasos hukmini bir o'zing chiqarishga... haqqing bormikan? - dedilar pochcha peshona ostidan qarab.

- Haqqim bo'lmasa, qani o'sha qozi?! Sizni tinglab, qasosga fatvo beradigan? Bormi?

O'rta jimlik cho'kdi. Pochcha xayolga tolib qoldilar. Sultonmurod akam esa kutyapti. Sinovchan-sinovchan qarab qo'yadi.

Chiroq piligi so'xta tortib, chirsilladi. Qulog'im ostidan g'ing'illab uchib o'tayotgan chivinki, xuddi muvozanatimdan chiqarib yuboradiganday jon halpida haydab soldim. Men bu tortishuvning ko'p jihatlari tushunmayotgan bo'lsam ham, uning nihoyasiga qiziqib o'tiribman. Qolaversa, akamga qoyilman: u shunaqa botir ekanmi, hukumatidan ham qo'rqmaydigan!..

Sultonmurod akam vazmin tortib, qaddini ko'tardi:

- Qozi yo'q. So'raydigan, surishtiradigan yo'q. Iymonini yutgan bu jilovsizlar bilgan bildoqlarini qilib yuraversinlar, shundaymi?! Yurt oyoq osti, adolat bir pul, bu muttahlarning aytgani aytgan, degani degan, shundaymi?! Odamlar xo'rlansin, kelinlar er ko'rmasdan tul qolsin, qandaydir qalang'ilar iflos oyoqlari bilan birovning chimildig'igacha bostirib kiraversin, shundaymi?! Yo'q, pochcha, xalqimiz hali hamiyatini yeb bitirgani yo'q! Yurtda toki bitta yigit or-nomus uchun kurashar ekan, demak, hali yurt boy berilmagan. Siz, shunda ham tek o'tir, deysizmi?

Bahonada Sultonmurod akam ichida borini aytib olardi. Oyim quloqlariga ishonmay, shu o'zimizning Sultonmurodmi, degan kabi hayratda o'tiribdilar. Olim akam esa, yer chizib qolgan: g'ing demaydi, nigohini ham ko'tarmaydi. Pochcha pishillab, chuqur tin oldilar va eski odatlaricha "Ho-ov darig'"lab qo'yidilar, keyin achchiq kulib, dedilar:

- Buni dunyoi qo'tir deb qo'yibdilar, Sultonmurod! Har dengizning timsahi, har o'ngirning bo'risi, har chakalakning yo'lbarisi bo'lganidek, har mahalladan ham birda-bir shunaqa gazandasi chiqib turadi. Sen oraga tushmasang ham, o'z oyog'idan yitib, boshini yeb ketaveradi bular.

Sultonmurod akam nasha qilib, xandon tashlab kuldi:

- Obbo pochcha-ey, obbo opoqdoda-ey! Juda g'alatisiz-da. O'n dahadayam topilmaydigan odamsizda - Keyin siporish tortib, pochchaga mehri tovlanib qaradi: - Sizga qolsa, shularning ham boshini silaysiz.

- Urgan qo'l emas, silagan qo'l kuchli dunyoda...

- Silashga arzimaydiganlarni qamchi o'nglaydi, pochcha, men qamchindor bo'lmoqchiman.

- Demak, qaytmaysan?.. Hov, darig'! Shunchalik borasan deb o'ylamagan edim hech. "Opoqdoda-opoqdoda" desang, mag'rurlanib, ko'krigimni ko'tarib yuraveribman...

- Opoqdoda! Opoqdodajon! - Akam shoshib qoldi. - U qotil, axir! Bahridinning qotili!

- Qotil? Qaerdan topding bu gapni?

- Aniqladim, opoqdodajon.

- Yanglishma tag'in.

- Yo'q, opoqdoda. Bag'riddinni otib, bu xonadonni to'zg'igan, yana tap tortmayin o'sha uyga tushib, xolamlarni chirqiratib ketgan muttahaq shu bo'ladi!

- Bo'lsa bordir, bo'lsa bordir. Lekin men uni debmas, seni deb aralashdim ishingga, bolam. Olov bo'lib yonyapsan-u, bo'lak narsani ko'rmayapsan. Alamzadalik ko'zingga parda tashlab, o'chdan boshqani ko'rsatmay qo'yibdi.

- Hatto otang uchun ham achinma... deysiz-da, - dedi akam og'ir xo'rsinib.

- Shahidlik martabasiga, bilsang, hamma ham yetavermaydi. Xudoyim o'zi suygan bandalariga beradi bu ne'matni, - dedilar pochcha yuzlari allaqanday yorishib kelib. - Abdurahim eshon pochchaday odam shu ne'matga loyiq ko'rilganini qani endi hamma anglab yetolsa...

Shu tob ko'chada hushtak yangrab, hammamiz jimib qoldik. Faqat hech narsadan xabari yo'q Olim akam aftimizga angrayadi-tikiladi, tushunolmaydi. Cho'lpon-otaning guzariga oblochining qadami yetishi bilan bu yoqqa o'ziga xos "chopar-hushtak" ketishini, bu hushtakni har burchakda o'ynab yurgan poyloqchi bolalar ilib olib, boshqasiga oshirib yuborishini u qaydan bilsin.

Akam jilishga taraddudlandi:

- Shunaqa, opoqdodajon, men uning aybini bo'yniga qo'yib qo'rganman, shu jazoga mustahaq u! Xafa bo'lmaysiz, biz uni tuyaqopga tiqib tashlaganmiz! Ajratibam bo'lmaydi. Shu kafanda ketadi endi. Xalqni zir titratib yurganlarning jazosi shu! - dedi u boshqa e'tirozga o'rin qoldirmay va o'rnidan turdi. - Hay, men boray...

- Voy, qiziq bo'ldi-ku, boshqa kelasanmi? Shunaqa kirib turasanmi? - deb o'tindilar oyim.

- Kelaman, bafurja o'tiradigan bo'lib kelaman, - deb va'da kildi va jila boshladi.

Men shoshib qoldim: aytadiganimni aytib qolishim kerak-ku, axir! Oyog'ining tagida o'ralashib borib, qo'shni devorning pastak joyiga yetganida, tirsagiga tarmashdim:

- Aka, sizga gapim boriydi, birovning gapi, - dedim yarim shivirlab.

U meni bag'riga tortdi. Egnidan ter bilan yerto'lalarda bo'ladigan bir hid gurkirab kelar edi.

- Ha, pakana pari? Nima gap ekan, ayta qol? - dedi u erkalab.

Men uning bo'yniga osilib, qulog'iga shipshidim:

- Marg'u kennoyim...

- Xo'sh-xo'sh? - dedi u allaqanday garangsib.

- Odam yubordilar. Ikki martadan.

- Nima bo'bdi? Tinchlikmikan?

- Bilmasam, so'ratib yotibdilar.

- Sovchilar deydimi yo to'y? - dedi u qiynalib.

- Sovchilar, shekilli.

- Xo'p. - U yelkamga qoqib, bir hatlashdayoq denordan oshib o'tdi.

Shu mahal Olim akam yugurib kelib, orqasidan u x,am devorga tarmashdi:

- Aka!

Qo'shning ishkomiga yetib ulgurgan Sultonmurod ham qayrilib to'xtadi:

- Nima deysan, Olim?

- Akajon! - dedi u to'liqib. Akam ishkom ichidan qaytib chiqdi:

- Sen qo'rqma, senga tegmaydilar. Teginsalar, etlarini bittalab shilib olaman...

- Akajon!.. - dedi u yana qandaydir iltijo bilan.

- Nima deysan, ayta qol tez.

- Ola keting meni ham, - dedi u hech kutilmaganda.

- Aytdim-ku, jigarim.

- Jon aka, - deb yalindi Olim akam devorga qapishib.

Sultonmurod akam biz tomon ikki qadam yurib, dovor qarshisiga keldi va qo'lini cho'zib, uning boshini siladi.

- Xo'p, jigarim, xo'p, - So'ng shoshib shivirladi:- Hozir bo'lib tur, ola ketishadi. Faqat, eslab qol: o'ronimiz - assalomu alaykum va rahmatullohi va barokatuh.

Olim akam tushunmadi chog'i, yana talpindi:

- Kim keladi? Kim dedingiz?

- Yigitlarim. Sen tayyor tur.

Sultonmurod akam burilib, ishkom ichiga kirib ketdiyam tepa tomondan otlar dupuri ko'tarilib, tuproq ko'cha bilan biz tomon shitob yaqinlashib kela oshladilar. Vo' ajab! Ko'cha pastlab qayrilgan joyda tuyoq ovozlari ham susayib, yo'q bo'lib ketar, xiyol o'tmay, bu burilishdan gumbirlab chiqib kelar edi.

Uzog'i bilan besh yo' oltita otlig. Ammo vahimasi olamni buzadi, qirq-ellik ot dupir-dupir, dupir-dupir bilan kelayotgandek.

Buning shovqiniga itlar ham qo'shilib, akillar yubordilaru butun Kattabog' vahima ichida qoldi.

Kimning sho'rini quritib, biz tomonga oblochi bosib kelyapti ekan? Yo' akamni sotganmilar? Sotayotganlar bormi? Men bu xayoldan qo'rqib, titrab ketdim. Ammo kichkina akam, Olim akam joyidan jilmay, devorga qapishib tursa-da, qulog'i ko'chada edi. Kim bular, Maqsud, deb so'rab qo'ymasdi...

Uchinchi bo'lim

(Muqaddima Davomiga)

Biz ham turnalarga o'xshab, yurtimizga har yoz uchib kelib, har kuz ko'chib ketib yurgan kezlarimiz... Butunlay qolishga boshpanamiz yo'q: eskisi buzilib, yangisini bitira olmaganmiz. Qolaversa, ishxonadan ta'tilga zo'rg'a ruxsat tekkan. Qishlab qololmaymiz, kuzga borib, issiq o'lkalarni ko'zlagan o'shal qushlar misoli Farg'onadagi muvaqqat go'shamizga uchib ketib yurgan kunlarimiz...

Bir tutam qish kunlari ish bilan, yugur-yugur, idora yumushlari bilan o'tadi-ketadi. Ammo uzun qish kechalarining o'tishi qiyin.

Kechalari imoratni qanday bitirib olarimni, qachon ko'chib borarimizni o'ylab, uyqularim qochib ketadi. Yolg'izqo'llik qursin...

Uzoqning ishi qiyin ekan. Qolaversa, chumchuqning ham ini buzilmasin, hech kimning boshiga vatan qayg'usi tushmasin ekan.

Men-ku kunduzi ish bilan alaxsib ketaman. Oyim-chi, oyim? Kun sanab, hafta sanab o'tiradilar. Qish chiqa qolsayu tezroq ta'tilimni, ruxsatimni olib, jo'nab yuboraqolsak. "Borib olsak, yig'lab-siqtab bitirib olarding. Eshik-romini o'rnatib, qora suvokdan chiqarib olsang, tursa bo'lar, Maqsudxo'ja", deb eslatganlari-eslatgan. Qistaganlari-qistagan. Ertaminangi choyda ham shu gap, kechqurungi ovqat ustida ham shu gap. Mavzu aylanib shunga taqalib kelaveradi.

Bilaman, o'z yurtimizga o'xshatolmayaptilar. Bo'lmasa, Shohimardonlarni ko'rdilar, O'shotalarga opchiqdim, Bobur mirzoning yurtlariga borib keldilar. Qo'qonni, Chudoyorxon saroyini ko'rsatdik. Mirzakarim qutidor, Oftob oyim, Kumushlarning yurti Marg'ilonni ziyorat kildilar necha bor. Nodirabegim qissasini, Oloy malikasi - Qurbonjon Dodxo tarixini farg'onaliklarning o'z og'izlaridan eshitdilar. Ularning mashrabxonlik, xaziniyxonliklarida bo'ldilar. Kelin uzatib to'ylariga chiqdilar. Baribir hech birini o'zimizning Yakkabog'u Kattabog'ga o'xshata olmasdilar. O'sha yo'qqa intiqqanlari-intiqqan edi. Bilmadim, xolalarimni soknarmidilar, tog'alarim ko'z oldilaridan ketmasmidi. Ishqilib, bahor kelib, kunlar ilib ketishini kutganlari-kutgan. So'ng, qachon bilek opkelasan, deb so'rganlari-so'rgan. Poezdada yurishni yoqtirmaydilar. "Ho-ov, qachon tong otadiyu qachon yetamiz! Undan ko'ra anuv samolo'tingga bilek opkelaqo. Zuv etadiyu yetadi", deydilar. Osmonda miq etmay borsalar ham o'sha tuzzuk ularga. Tezroq yetkazarmish sog'ingan go'shalariga...

Shundan ham bilamanki, turnalarga maza! Ular bahor nasimlari g'uv-g'uv esib, tol novdalariyu mirzaterak uchlariga osilib halinchak ucha boshlashlari bilan suygan diyorlari tomon otlanib qoladilar. Ularni hech kim, hech narsa to'xtata olmaydi. Na momaqaldirroq, na bevaqt jala to'siq bo'ladi, na qorli tog'lar. Vaqti-soati yetishi bilan arg'amchilarini solib, emin-erkin uchib ketaveradilar.

Biz-chi, bizga ruxsat kerak. Biz qushlardek erkin emasmiz. Tepamizda idoramiz, firqamiz, boshliqlarimiz bor. Ularning iznisiz qayoqqa ham borardik! Shu chor tarafi tog'lar-la o'ralgan vodiy ichidagina erkinmiz. Undan u yog'iga bir qadam jilolmaymiz.

Jilsak, Toshkentdan qidirib qolishlari bor. Men esam, intizomni buzolmayman. Oyimning ko'ngillariga qarab ketvorolmayman.

Nima qila olasiz, xizmatchilik...

Nihoyat, Toshkentdan ruxsat tegib, chiptaga chopaman. O'sha kuni Farg'onadagi muvaqqat qo'nog'imizda bayram bo'lib ketadi.

"Ketarkanmiz, yurtimizga borarkanmiz", deb boshlari - bir yerlarga yetadi. "Hay, yaxshi bo'ldi-da. Shu gal borishingda suvoqdan chiqarib, polini eplashtirib olsang, qolaverarmidik. Sen boshliqlaringdan so'rashga iymansang, o'zim boraman. Menga yo'q deyisholmas. Xo'p deyaver, Maqsudxo'ja. Senam qiynalib ketding", deb yonimga tushmoqchi bo'ladilar. Ishqilib, o'zlariga qolsa, bu yoqlarda bir kun ham turgilari yo'q.

Biz to'g'ri Poshsha opamlarnikiga borib tushamiz. Yarim kechaga dovur gangur-gungur, keldi-ketdi, esla-shuv davom etadi.

Vo-oh, diydor shunaqa shirin bo'larkanmi?! Sog'inchi shunaqa tuganmas ekanmi?! Samovar necha qayta qaynatib kelinar ham, dasturxon necha bor yangilanar ham - gapimiz ado bo'lmaydi.

Nihoyat odamlar necha uyquni olib, oldi xo'rozlar qichqira boshlaganida chiroqni o'chirib yotamiz. Yotamiz-u, ko'zga qani uyqu ilinsa, asta-sekin yana gapga tushib ketamiz. Eski hovli-joylarimiz, jannatdek bog'larimizdagi har bittasi piyoladek oq shaftolilaru kuzga borib asal tortib ketadigan kadi noklarimiz haqida eslab ketamiz. Endi ular biz uchun ertakka aylanib bo'lgan. Endi do'ppidek uchastkamizda unaqa bog'lar yaratishimiz dargumon...

Gap u bog'lardagina emas. Qani edi bir umr shu diydor sog'inchini yo'qotib qo'yimasak. Shu aziz hislardan ham judo bo'lib qolmasak. Afsuski... bular barchasi bir kechalik ekan. Imoratga unnab ketgach, hammasi shirin xotiraga aylandi-qoldi. O'tirib, ikki og'iz gaplashish qayoqda!

Bari tashvish mening boshimda: loy qor, somon top, ustani aytib kel, qarashib yubor... Qora suvoq degani shunaqa bemaza ishligini shunda ko'rdim! Ertadan kechgacha loydan chiqmay iylaysan, yana "bu g'o'rashaga nima bor?" deb usta loyni ustingga otib qoladi o'dag'aylab, Nihoyat, chala-yarim qora suvokdan chiqqan ayvonga yengil-elpi ko'chib kirdik. Hali tuzukroq zinamiz ham yo'q. "Do'qi-do'qi"lab - tili chiqib, yurib ketgan Zilolamiz ostonadan osilib tushib, burganzor orasidan qo'shnikiga pildirab qoladi-da, hech qancha o'tmay qo'lida bir vosh uzummi, nokmi ko'tarib chiqadi. Biz yo'lini topib chug'urlab yurganidan xursandmiz, u Rixsi opoqiga salom qilib, shirinkoma undirganidan... Yeb bitirsa, biz "uyat bo'ladi"laganimiz bilan, qiqir-qiqir kulganicha yana o'sha yoqqa qochib qoladi.

Ishqilib, shunaqa loy-tuproqqa qorishib yotgan kezimiz. Somon suvoqning achimsiq hididan ko'ngillarim ozib, qochib ketgilarim keladi. Bundan hovliga chiroq o'rnatib, yarim kechagacha zambilg'altakda oyimning uylariga tuproq tashiganim afzal edi. Ammo loy tugamay qayoqqa boraman!

Nihoyat, suvoqchini ham jo'natib, tuproqdan ham qutulib, chiptaga o'tib kelsam, ayvonda bir xontaxta bo'lib mehmonlar o'tirishibdi. Uy muborakka qo'shnilar chiqishibdimi desam, pochchayu tog'alarim ekan. so'rashib, qavatlariga o'tdim.

- Horma, jiyan, ish degan bundoq bo'пти. Buyursin, chiroyli uylar chiqibdi, - dedilar Kenja tog'am tizzalaridagi katta kitobning betini yopmay.

- Siz qaynotasi Abdushukurxo'janing ko'zi bilan ko'ring, - dedilar Nusrat pochcha yarim hazil, yarim chinga olib, - "Kuyavimiz bir imorat solibdi, bir imorat solibdi - ko'krakdor qilib, peshtoqli qilib! Bekorga farg'onalik ustalarni topmagan ekan. Xudoyorxonning saroyidan andoza olganmi", deb maqtashlarini eshitsangiz...

Oyim, tog'alarim kulishdi. Men uyalib, yer suzdim. Lekin ich-ichimdan bir g'urur tuyyapman. Qolaversa, kechagi kelganlarida pastdagi temir karavotga joy qilgan edik. O'sha yerda o'tirib, imoratimizning peshtoqlariga, ravoqlariga suqlanib-suqlanib tikilayotgan edilar.

- Shu yerda tup qo'yib, palak yoysin. Bizdan keyin chirog'imizni yoqib o'tirsin, ilohim, - dedilar oyim.

Sezdim: tokay shaharma-shahar tentiraydi, demoqchilar. Ichimdan qirindi o'tdi. Chipta olib kelganimni endi qanday aytaman?

"Meni tashlab, o'zing boravur", deb qolsalar nima qilaman, axir?

Hozircha indamay qo'yaqoldim. Lekin yana shu haqda gap ochib qolmasalar edi, deb bezillab turibman.

Shunda Nusrat pochcha jonimga ora kirdilar:

- O'qing, Kenjajo'ja, qo'lingizdagi xazinadan ozgina bahramand bo'lib qolaylik, - deb qoldilar.

- Boyagi gap-chi! - dedilar Kenja tog'am.

- Gap qochmaydi, jiyan sho'tta-ku.

Tushundim: o'rtada bir narsani muhokama qilib o'tirishgan-u, men kelib, to'xtata qolishgan. Ammo Qo'ldosh tog'am kutilmaganda:

- Jon pochcha, Xudo xayringizni bersin, shu ishga jiyanni aralashtirmang! - deb qoldilar.

- Ha, ana, aralashtirmasam-aralashtirmadim... Xo'p, dedik-ku, tog'alari...

Pochcha shuncha yumshoq gapirganlari, qo'llari ko'ksilarida, qayta-qayta bosh silkiganlari bilan, og'ringanlarini baribir yashirolmagan edilar. Hammasi o'sha bir og'iz "tog'alari" degan so'zda sezilib qoldi.

Bildimki, pochcha uncha-muncha gap bilan kelmagandir. Tog'am esa negadir meni ayayaptilar.

Kenja tog'am xontaxta ustidagi ochiq kitobni o'zlariga yaqin tortdilar, ko'zlariga tushmadi shekilli, yana boyagiday tizzalariga olib, tagidan qo'shqo'llab ko'tardilar-da, endi hech kimdan izn kutmay o'qishga tutindilar:

- "... Mahshari ajoyib bo'lmish bu Yerni oddiy bir hayvon kabi o'ldirib, yana tiriltirayotgan va uni insonu hayvonga yoqimli bir beshik, go'zal bir kema qilgan, Quyoshni ularga shu mehmonxonada yorug'lik beruvchi va isituvchi bir chiroq etgan, sayyoralarni malaklariga tayyora qilgan Zotning..."

- Ho-ov, tasanno! - deb yubordilar pochcha. Boyagi dilxiralik o'rtadan ko'tarildi-ketdi.

- Yetkazib aytibdi ammo. O'qing, Kenjajo'ja, davom eting.

Kenja tog'am shirin kulib, yana kitob ustiga engashdilar:

- "... Shunday zotning bu daraja muazzam hokimiyati, albatta, faqat bunday o'tkinchi, davomsiz va bebaqo dunyo ishlari ustidagina qurilmas va turmas. Demak, unga shoyista doimiy, bezavol bir boshqa diyor bor. Boshqa boqiy bir mamlakat bor..."

- Bor, bor. Doimiy bir sayrgohi, sayrongohi bor! Mukofotgohi bor. Jannati na'implari, zindoni johiymilari bor. Ollohimning va'dasi haq, - deb yubordilar pochcha boyagiday ta'sirlanib. Butun hayajonlari tillaridan yuzlariga qalqib chiqdi, cho'ntaklarini kavlab ro'molcha izlab qoldilar.

Qo'ldosh tog'am sekin engashib so'radilar:

- Tafsirmi, Kenja?..

- Tafsir, tafsir. Xashr tafsiri. Oyimning ko'zlari namlandi.

- O'shal jannatlarining soyasiga arzimas bu dunyoga mahliyo qolgan bo'lsak, yo'qotdik deb achingan, topdik deb quvongan bo'lsak, o'zi kechirsin, - deb duo qildilar.

Shunaqa. Oyim Kenja ukalarini bekorga yo'qlatmaydilar. Ba'zan-ba'zan u kishidan kitob o'qitib eshitgilari kelib qoladi. Shunda bukchaygancha kaftlarining ustini silab o'tirishlarini ko'rsangiz: "quloqlari bu yoqda, xayollari boshqa olamda. Ertani, oxiratni, oxiratda ato etiladigan joyni... O'ylab ketgandaylar...

Tog'am esa, issiqlari chiqib yotib qolmasalar, oyoqlari orasidan shamol o'tib tursa, bas, masjiddan beri kolmaydilar. Namozdan qaytayotib esa, "Opa, yaxshi o'tiribsizmi?!" deb kunda, kunora bosh suqib o'tishlari bor. Ba'zan shunchaki gaplashib o'tirib ketadilar, ko'pincha kitob o'qib berib, shu yerdan yana masjidga jo'ndaydilar.

Usta bog'bonliklarini aytmaysizmi. U kishi kesgan-parvarishlagan toklar shig'il sho'ralab beraveradi. Noklari hosildan qolmay, shaftolilari asalga sshlanib, kuzgacha og'izga tegadi.

(Shu tog'amiz qarib-churib, gandaraklab qolgunlaricha ham masjiddan beri kelmadilar. Oyoqqa turib olsalar, bas, ko'chani o'rtasiga tushvolib, jamoatga jo'nab qoladilar. Ba'zan necha yerda to'xtab, nafas rostlab yetib boradilar. Ba'zan esa, birovlar qo'ltiqlab, olib borib qo'yadi. Shunaqa, namozga polvon edilar. Yana shu hollariga gandaraklab-sandiraklab oyimni ko'rgani chiqadilar. "Opa, yaxshi o'tiribsizmi?" degan ovozlari eshitganimdayoq men chopib borib, darvozaxonadan yetalab kelaman.

O'zlari zo'rg'a turib-o'tiradilar-u, oyimga o'tirgan holda namoz o'qish tartibini tushuntiradilar. "Shunaqa qiling, opa. Sizni-ku

oyog'ingiz yozilmayotgan ekan, har odamlar borki, qimirlayolmaydi, o'ngarilolmaydi. Ammo o'shalarga ham namoz shart. Namoz shunaqa ulug' narsa", deb qo'yadilar.

Shu tog'am bir kechasi g'alati tush ko'ribdilar. Shundan keyin og'izlariga ushoq olmay qo'yaqoldilar. "Ha, tog'a?" desak, "Tushimda bir yo'la ikkita non yeb qo'ydim", dedilar. "Nima bo'пти, tushga nimalar kirmaydi?", deb Qo'ldosh tog'am koyidilar. Ammo u kishi: "Io'q, men rizqimni yeb bitiribman", deb shu yotganicha plamdan o'tdilar. Endi bilsak, u kishi biz bilmagan ko'p narsalarni ayon ko'radigan avliyo ekanlar. Xudo hammalarini chiroyli etib, rahmatiga olgan bo'lsin, ilohim.)

Tog'am kitobni yopdilar-da, tokchaga olib qo'yarkanlar, menga ma'noli qaradilar.

- Sen charchagan odamsan, jiyani. Imorat ishi osonmas. Endi pochchani dardlarini eshit-da, biz turnylik,- dedilar muddaoga ko'chib, - To'g'rimi, pochcha?

Pochcha kalovlanib bir menga, bir tog'amga qaradilar.

- Kenjaxo'ja, juda g'alati odamsiz-da, - dedilar nihoyat pishillab, - boya nima devotuvdingiz?

- Haliyam aytaman, Xudoning xohlagani bo'ladi, Asrayman desayam, o'zi biladi, xor qilaman desayam... Bilsangiz, olamning yetti qavati mozor. Dud chalingan kunda Xudoyimning qudrati bilan har qarich yerdan lak-lak odam bosh ko'tarib chiqib kelavuradi Mahshargohga...

- Ko'rib turib, oyoqosti qilib, toptatib qo'yirmaydi-ku odam! - dedilar pochcha qizishibroq, - O'ldi-yitdi degani emas-ku, axir.

- Shunaqa, lekin zamonlar kechib mozorlar tekislanib, odam yetti qavat tuproqqa aralashib ketganida ham yo'qolmaydi. Insonning churimaydigan joyi bor. O'sha dumg'azasidan tiriltirib oladi, bilsangiz. Payg'ambarimizning (s.a.v.) shunaqa hadislar ham bor-ku, axir .

- Men ham shak keltirayotganim yo'q bunga. Lekin sizlar o'ylangiz o'zingiz. Shunday jannati joylarimizni, bog'larimizni tortib oldilar, indamadik. Ha, kerak ekan, dedik. O'zimizni har yoqqa sohib yubordilar, indamadik. Endi mozorlarimizni oyoqosti qiladilarmi? Ko'zimiz ochiqligida shunchalik, keyin nimalar bo'lmaydi?!

Bu gapni eshitib, mening ham sochim tikka bo'la boshladi.

- Nima qilyaptilar ekan? - dedim nafasim bo'g'zimga tiqilib. Yuragim gurs-gurs urishga tushgan edi.

- Ha, yo'q, bir-ikkita mozor yo'lga tushgan ekan,- dedilar Qo'ldosh tog'am meni hovurimdan tushirishga urinib, - Hukumatti katta piloni bo'ladi. O'sha pilonisiz bir ish bitmaydi. Ko'cha ochilayotgan bo'lsa...

Pochcha chidab turolmadilar:

- Hoy, Qo'ldoshxo'ja, siz ham o'shalarning ashulasini aytyapsizmi? Hamma-hamma, sizga nima jin urdi?

- Menam taraflarini olayotganim yo'q. Maqsudxo'jaga tushuntiryapman, - dedilar Qo'ldosh tog'am. - Ne umidlarning o'sha yerga ishga kirgan. Qolavursa, buning gazetida chiqarishmaydi unaqa narsalarni, chalg'itmang bolani.

- Menam gazetaga yozsin devotganim yo'q. Ikki varoqqina xat bitib berar, deb kelganim...

Qarasam, pochcha azza-bazza xafa bo'lib qolyaptilar. Avvalo piyolani chetga surib qo'yidilar. O'zlari esa, dasturxondan surilib, devorga suyangancha, tumtayib oldilar. Hech kimning betiga qaragilari yo'q.

Oyim ham bosh egib, kaftlarini silab o'tiribdilar. Bu nozuv masalaga aralashgilari yo'q. Pochchani desalar, men borman, meni desalar, u kishi... Kenja tog'am esa, iljayib choy ho'playdilar. Go'yo qachon bandasining aytgani bo'libdi, Xudo nimani xohlaydi, kim bilardi, demoqchidek...

- Xat desangiz - xat, gazetga desangiz - gazetga ozib beray. Lekin tushuntirib aytgim, o'zi nima gap? - dedim axiyri.

Pochchani yuzlari yorishib kelib, soqollarini tutamlab-siladilar.

- Ha, bu mardona gap bo'ldi. O'ldirsayam, mard o'ldirsinda odamni. Qachongacha soyamizdan ham qo'rqamiz? Dunyoda bitta qo'rqulik zot bor. U ham bo'lsa, Olloh. Qolgani uch pul, to'g'rimi, Kenjaxo'ja? - dedilar endi ko'ksilarini to'ldirib nafas olgan odamday.

- Nima to'g'ri - O'sha to'g'ri. Lekin Xudodan qo'rqmagandan qo'rq, degan gap ham bor, pochcha, - dedilar Qo'ldosh tog'am so'zlaridan qolmay.

- Endi unisi sinov. Boshga tushganini ko'z ko'radi.

- Chiroyli sabr qilgan bandamminanman, degan Olloh. Oqimdan ham o'zmaslik kerak, - deb gap qo'shdilar kichkina tog'am.

Pochcha o'sha tomonga norozilanib bir qarab qo'yidilar-u, lekin busiz ham qizib turgan olovga moy quygilari kelmadimi, pishillab menga o'girildilar.

- Xo'sh, desang, gap bunday. U Yakkabog'u Kattabog'larda manavi ko'ch-ko'chlar, sur-surlar bilan sen bilan bizga tanish hech narsa qolmayapti. Na bir o'r, na bir qir deganday. Na bir soy, na bir bog' deganday. U ochiq kitobning ikki betidek kungay yerlardan-ku "do'm"lar qo'ziqorinday bodrab chiqib bo'ldi. U ko'chalar qaysi bir uylar orasida qolib ketdi. Kenjaxo'ja aytganday, mayli, bu hammasi Xudoning xohlashi, qay bir gunohlarimiz uchun Olloh o'rnimizga boshqa qavmni keltiryapti, deylik. Lekin bu degani indamay qarab o'tiraverish kerak, degani emas-ku. Axir o'tganlarda nima gunoh, mozorlarini o'rab qo'yish o'rniga, saqlash o'rniga, yo'lga tushirib yotishibdi... Odamlarning qo'llariga xalta berib, mozor ochdirishyapti, go'rlarini ko'chirtirishyapti. Bir kami arvohlarni bezovta etishlari qolibdimi? Qanday jim qarab turib bo'ladi bu ishga, jiyani? Iymonlilar bir chekkaga chiqib turaver-sin emish. Hamma ishni iymonsizlarga topshirib-a? Senam shunday o'ylaysanmi?

Ich-ichimdan bir qaltiroq turdi.

- Qaysi mozorni buzishyapti, Cho'lponotanimi? - deb so'radim.

- Yo'q. Cho'lponota-ku tinch hozircha. Bilsang, Besh-og'och dahasining bu tomonida o'ntacha ulug' mozorat bor. Shulardan yettitasi yetti avliyo - yetti og'ayni nomi bilan ataladi. Terakliota, So'galliota, Ilonliota, Bo'zloqota deganday. Mana shular hammasi yo'yo'l ostida qolyapti, yo' moshinapark, tramvaypark ichida qolyapti. Qo'yib bersa, odam qo'yirmay buzib yuborishadi. Sen o'sha bosh pilonlarini bir qara. Minor ham yo'l ostida yotibdi, Qozirobot ham... Bitta Qatortol ko'chasi tagiga nechta qabrison tushirib qo'yibdilar. Hoy, deydigan odam bormi bundoq? Yo u joylarni nomi-nishoni, mozorati bilan tugatvor, degan topshiriq olganmilar Xudodan qo'rqmagan bu loyihachilarning? Ikki enlik xat bitib ber, boradurgan joyimgacha boray. Opchiqib otdirib yuborishmas, axir.

Men Nusrat pochchani shunaqa kuyib-pishib, o'tirgan joylarida o'tirolmay, hech kimning betiga qara-magancha, qo'llarini paxsa qilib, silkiy-silkiy gapirganlarini ko'rmagan edim. Qarab turib, suyib ketdim. Og'ir-vazmin odam bir lovullab yondilar, lekin tezda o'chdilar ham. Bosib-bosib ikki piyola choyni ichvordilaru yana avvalgi hollariga qaytdilar-qo'yidilar. Go'yo boshingni qotirvorgan bo'lsam, kechirasam, degan kabi tikilib:

- Mana, shunaqa gaplar, jiyani, - dedilar. - Biz qolmaymiz, ammo shu qabrisonlar qolishi kerak. Ne-gaki, o'sha yerda

bobokalonlarimizning xoki-turobi yotiпти. O'zlari yotiпти go'rlari jannat bog'chalariga ochilgan darchaday bo'lib! Hatto, hatto o'sha tilsiz turpalar ham har ko'klam uzoq yurtlardan uchib kelatu-rib, bu mozorlar ustidan shunchaki o'tishmaydi. Har bittasini tavof qilib, aylanib-aylanib o'tib kelishadi. Turnalarki tavof qilganida, biz buzdirib, qarab turishimiz qaysi shariatga sig'adi?!

- Yugurganingiz bilan... kim quloq soladi? Ikki o'rtada jiyanga jabr qilib qo'yamasangiz. Haliyam bo'lsa, bu shashtingizdan qayting, mutavalli.

Qo'ldosh tog'amning ham ba'zan qaysarliklari tutib qoladi. Bitta gapdan tiyilsalar bo'ladi-ku, qayoqda. Sut bilan kirgan narsa shu ekan-da. Yana o'zlari: "Bizni ado qilgan qonimizdagi shu qaysar johillik, bo'lmasa, ko'p aytuvli odamlar chiqqan", deb nasihat qilib ham qo'yadilar.

Nusrat pochcha bag'rikenglik bilan tog'amga kulimsirab qaradilar.

- Hisobchi xalqiga aybi yo'q: qatiqni ham puflab ichadi ular. Lekin jiyanga o'rgatmasangiz bo'lardi, Qo'ldoshxo'ja, shu hunarni. Niyatlarimiz katta undan. Sultonmurodlarning o'rnini bossa deymiz...

Ho-ov, qayoqdagi gapni aytadilar! Sultonmurod akam bo'la olarmikanmiz biz?! Unday bo'lish uchun necha qovun pishig'i kerak ekan? Balki bizdan umuman unday odam chiqmas. U bir keldiyu ketdi. Uningdek mard endi qayda!

Shu gapning ta'siridami, birdan pochchaga:

- Xat Sizdan aylansin, nega yozib bermas ekanman! - deb yubordim.

- Barakalla, o'tao'g'il!

Pochcha o'sha kuni yelkamga qoqib, bag'irlariga tortib, peshonamdan o'pib xayrlashib ketdilaru indiniga undan ham hayratlanib kelib qoldilar:

- vooy, Maqsudxo'ja, sen bo'lmading-da. O'z ko'zing bilan ko'rmading-da. Kenja tog'ang avliyo ekan. Xudo asrayman desa, hech gap emaskan! - deb turib, bir chekkadan tushuntira ketdilar. - Bo'zloqotaga bordik. Egalariga xalta berib qabristonga chiqarishgan ekan. Go'rlarni olib, ko'chani ochishmoqchi bo'lib, o'ntacha go'rkovni ham opkelib qo'yishibdi. Bitta ham ketmon ura olishmadi.

- Nima bo'ldi?

- Sen avval eshit. Xudo bir harbiy odamni yetkazib, degin, u gap bilan kattalarni shunday tuzlay ketdi, tuzlay ketdi. Ko'z ochirmay qo'ydi hammasini, sal qolsa, mitingga aylantirvoray dedi yig'inni. Axiyri, qochib qutulishdi. Men umrimda kattalarni gap bilan yenggan odamni ko'rmagan edim, o'sha yerda ko'rdim. Xudo qo'llasa, oson ekan: sherlar tulkiga ayla-nib, qo'ylar sher bo'lib ketarkan! Kenja tog'ang haq bo'lib chiqdi. Bo'zloqota o'rab qo'yiladigan bo'lyapti. Faqat bizdan xat kerak ekan. Ollohning qo'llashiniyu dunyoning ishlarini ko'r, jiyani...

Mushkullarni oson qiladigan O'zi ekan-ku! Qo'ldosh tog'am eshitsalar bo'lar,di bu xabarni: aralash-tirmang-chi, aralash-tirmang, jiyanni ishi nozuv, deb yuribdilar...

- Xat bo'lsa, xat-da, - dedim men hayajonimni bosolmay. Ko'z oldimdan qadim bobolarimiz mozorlarini tavof etib-aylanib uchib o'tayotgan turnalar kechdi. Nimagadir ichim to'lib, ko'zim yoshlanib-yoshlanib kela boshladi.

Kechikib Ochilgan Janoza

Bu uzu-un ham baland imoratni uzoqdan ko'rganimdayoq ich-etimdan xo'rlikmi, nimadir bosib kelavuradi, kelavuradi. Ko'cha devori nuray-nuray, ado'i tamom bo'layozgan. Sanqi itlar ham bemalol oshib yuradilar undan. Hammasidan - ochsa yopilmaydigan, yopsa ochilmaydigan darvozasi biram hayhotdekki, bu darvoza nimaga kerak deydigan odam yo'q. Boloxonasida shamollaru ajinalar tunasa kerak, shunaqa valangor.

Qachondir u Yakkabog'da eng oldi, aytuvli imorat bo'lgan, deyishadi. O'shandan beri bironta odam bunchalik uy solib, tomiga tunuka qoqtirolmagan, Mukarramxo'ja pochcha o'sha oqposhshoning davridayoq solgan ekanlar buni.

- Sen u kishini es-es ham bilmaysan. Gurillab kelgan davlat shunaqa bexosiyat bo'larkan. Mana shu saroydek uy, anavi katta bog' na o'zlariga buyurdi, na Bahriddinginaga. Huvillab qolaverdi. Opam boyaqish esa, bu ahvol, - deb qo'yadilar oyim.

U kishiga nima bo'lganini men yaxshi bilmayman. Ko'chirma qilinganmilar, badarg'a etilganmilar, mozorlari o'sha yoqlarda qolib, bular qaytib kelishganmib Ё" aytishmaydi. Faqat, pochchani nomlarini og'izdan qo'yishmaydi. Rahmatli ko'p yaxshi odam ediyu, bitta aybi - qattiq edilar, deb eslashadi. Uzun kechalari Asol xolamlarni ko'rgani borganimizda oyim u kishining ruhi poklariga atab, albatta, Qur'on tilovat qilib qo'yadilar.

- Rahmatli shu bog'ni qizg'onmay berib qutulsalar, hech gap yo'q edi. Qaysarliklari boshlariga yetdi, - derdilar oyim achinib.

O'sha kishidan qolgan imorat bugun tunukalari zanglab, ichlari huvillab yotibdi. Ko'cha tomonga - katta ariq bo'yiga ekilgan tollar necha yillardan buyon kesilmaganidan osmoni haftimga bo'ylab ketganda, tunuka tomga yotib qolgan. Uning xazonlarini supirib tushadigan mard qani, belimdek keladigan ba'zi shoxlari allaqachon qurib, boshqalari tolbulduruq bog'lab yotibdi.

Kattalar buyurib turishibdi, biz yelib-yugurib joy hozirlayapmiz. Hovlini yarim-yorti tozalab ulgurdik, Hammayoqdan, hatto kiyimlarimizdan gurkirab burgan hidi anqiyapti. O'ziyam rosa urug' bog'laydigan narsa ekan; katta bog'ning ishqomigacha - allaqancha yerni tutib ketgani yetmaganiday, hovligacha ham chiqib boribdi. Yana biror yil hech kim qaramasa, ostonaga yetib olarkan. To'dalab-to'dalab ko'zdan nariga - devor tagiga oborib tashladik. Yoqay desak, qurimagan, shig'il-shig'il urug' bog'lab yotibdi. Bu urug'lardan ming-million burgan unib chiqsa, ajabmas.

- Shunaqa, qaysi xonadonni Xudo ursa, burgan bosadi, - deydilar oyim.

Derzasiga adyol tutug'lik kelinning uyini ham ochtirib, joy solib yuborishdi. Yaqinidan o'tsangiz, ichkaridan huvillab, zax aralash mog'or hidi uryapti. bo'lmasa, Marg'u kennoyim ko'chini ortib ketganiga qancha bo'la qolibdi?

Hoshiyasiga oq ipakdan ikki qavat suv yurguzib, bejirimgina gul solingan nosrang qiyiqni bellariga bog'lab, darvozaning yonida, imoratdan chiqqan uzun cho'sin ustiga tashlangan ko'rpachada Nusratilla pochcha o'tiribdilar. U kishi hadeganda o'rinlaridan turib, hovlini bir aylanib keladilar. O'zlari betoqat keshnganlarini sezdirmay, bizni alqab-alqab qo'yadilar:

- Ha, barakalla, toy yigitlar. Qo'lingiz dard ko'rmasin. Binoyi dastyorlarimiz bor ekan, bilmaganakanmiz. Hali-zamon kelib qolishmasdan, bo'laqolinglar, - deydilar va yana nechanchidir marta charm tiqini shokila-shokila qilib qirqilgan nosqovoqlarini ko'lga oladilar.

Anvarxo'ja tog'a bilan pochchani kuyovlari Hojixo'ja aka ham shu yerda bel bog'lab turishibdi. Rostini aytsam, ikki yumshoq bir bo'lib, haligi to'sinning bir chetini egallashgancha, past-yarim tovushda bir-birlariga gap berishyapti. Bukchayib o'tirivolishgan. Hojixo'ja pochcha tinmay birini biriga ulab chekyaptilar. U kishi gap berganda bu kishim boshlarini likillatib turadilar. Bu kishi gapirganda u kishim... Ikkita halim rosa topishgan payti. Tag'inam Nusrat pochchadan istihola qilib turishibdi. Bo'lmasa, bir choynak choyni damlab, biron uyga kirib ketishsami, yarim xuftonda - chiroq yoqish lozim bo'lgach, chiqib kelishadi. Ungacha

janoza ham o'tib ketishi turgan gap.

Bizga ish buyurib, hali masjididan taxta, hali choynak-piyola tashitayotgan davangirday Haybat aka jahli tez, qo'pol ko'rinsa ham, odamroq ekan. Birpasda aralashib, yugur-yugurga tushib ketdi. Biz ham haybatidan hayiqib, aytganini qilib turibmiz.

Samovarlar qo'yilib, joylar qilib bo'lindi. O'rindiqlarning qaybiriga ko'rpacha, qaybiriga yo'l-yo'l sholcha yoyib chiqdik. Ko'chayu yo'lkalarga suv sepildi. Oftob peshindan og'ib, soyalar uzayib boryapti. Nusrat pochcha zanjirli soatlarining qopqog'ini ochib, qaraganlari - qaragan.

- Hayalladi-ku bular, a, hayalladi-ku? - deb bezovtalanadilar.

Paranji yopingan ayollar o'tishuvdi, ichkari hovlida (Haybat akam bitta xoda ko'mib, oq tuttirdi-da, u yoqni to'sib berdi) "Voy jigarim"lab boshlangan yig'i aytib yig'lashga ulanib ketdi. Juda g'alati edi bu: kim o'rnatib aytsa, o'zi qolib boshqalar ora-orada qo'shilishib, yig'lar edilar. Hozir esa, ovozi Anvar kennoyinikiga o'xshab ketadigan ayol xo'b keltirib, aytib-aytib yig'lar edi:

B B B B Uylar qurib, huzurini surmagan,

B B B B To'ylar qilib, go'shangalar ko'rmagan

B B B B Jigarginam, voy, Bahriddin-ov...

Unga xolalarim qo'shilib, jo'r bo'lardilar:

B B B B Voy tomirim, voy bo'tam-ov,

B B B B Voy hotamim, voy botirim-oy...

Anvar kennoyi bundan kuch olib, yana balandroq, yana kuyinibroq ayta boshladi:

B B B B Ne umidman - atovdingiz qarog'im,

B B B B yoqarmi deb, chirog'im -

B B B B o'ylovdingiz, opajon.

B B B B Tirnoq ko'rmay o'tdimi,

B B B B voy, Bahriddin-ov...

Xolalarim yana qo'shilib, jo'r bo'lishdi:

B B B B Voy tomirim, voy bo'tam-ov,

B B B B Voy hotamim, voy nodirim-oy...

Ko'zlarimga yosh quyilib, yonimda (biz ariq bo'yiga tizilishganmiz) o'tirgan Aliakbarni tirsagim bilan sekin turtdim:

- Asol xolam qay ahvolga tushdilar ekan?

- Shuni ayt, shuni. Ezvorishdi o'zlari ham.

Lekin shu mahal ichkaridan bir g'alati xirildoq ovoz yangrab, cho'chib tushdim. Aytib yig'layotganlar ham jimib qolishdi.

- Hoy, baloginaga yo'liqqur, Anvarxon, hu tilginang kesilsin sani! Men to'yga deb chaqirsam, sen nima deb javraysan? Ko'chaga qara, qudalarim kelyapti-ku, Bahriddinginamga kelin kelyapti, yashshamagur...

Hovlida battar qiy-chuv bo'lib ketdi. Aytib yig'laganlardan ham o'tib tushdi Asol xolamning bu gaplari. Yig'lamagan ham yig'ladi lekin.

- Kim qo'yibdi unga, birovning uyida aza ochishni? Hamma qolib, man sho'rlikkinaning to'yini azaga aylantirasanlarmi?! - Xolam o'zlari ham birdan izillab yig'lab yubordilar: - Iv-v, sho'rginam qursin, sho'rginam meni...

Biz turasolib, ichkariga otildik va hovlida g'alati manzaraning ustidan chiqdik. Anvar kennoyi hovli urtasida taxta bo'lib turar, oyimu xolalarim Asol xolamni quchoqlab ichkariga tortqilashar, ammo u kishi hech kimga bo'y bermay yulqinar edilar.

- Kelinginamni kutvolishga ham qo'yimalaring! Qamab tashlalar! Yo'latmalarim men bechorani! - deb siltanadilar hadeb.

Ro'mollari oyoqostiga tushib, oppoq sochlari bir xunuk to'zg'ib ketibdi, yuzlari ayanchdan bujmayib...

Yo'q, men chidab turolmay, ko'chaga otilib chiqib ketdim. Xolam hech kimga bo'y bermay baralla nola qilar edilar:

- Bahriddinginam-ov-v, qaydasan-ov-v! Kel, bolaginam-ov! Kuyovlik sarupolaringda boshginangdan bir o'payin-ov-v. Bir o'pay, bolaginam-ov-v...

Ko'chaga chiqsam, bir gala kishilar Murjumon tomondan tobut ko'tarib kelishyapti. Oldida qo'qonaravasiyam bor. Yo tavba! Bu qanaqasi?.. Ular yaqinlashishgan sari ma'lum bo'ldiki, aravada kimdir bukchayib o'tirardi. Holatidan odamga uncha o'xshamaydi, ammo maymun bo'lib maymun emas, ayiq bo'lib ayiq!

Yo'q, odam ekan, ammo-lekin tasqaraday bir odam. Xumdek kallasi choti orasida bir xunuk chayqalib kelyapti. Yo xudo! Bu jazoni kim o'ylab topibdi?..

Janozaga to'planganlar gurra turib ketishdi,

- Olib kelishyapti, olib kelishyapti.

- Anavinisi nima, aravadagisi?..

Ko'cha o'rtasiga chiqib borgan Haybat akam aravakashga qo'l siltadi.

- Yo'qot manavingni!

Tizzalarini kerib egarda o'tirgan Akrom aravakash yarim o'girilib orqasiga qaradi. Kimga qarayapti desam, Sultonmurod akamga ekan. Tanimabman: soqollari o'sib, o'zgarib ketibdi! Bir hafta burungi akam emas, ulg'ayib, ulug' tortib ketganday.

U oldinga o'tib boraturib Haybat akamga nimadir degan edi, u rangi quv o'chib, yanigan odamday akamga bir qarab qo'ydi-yu,

lom-mim demay, tobut ko'tarishib kelayotganlarga qo'shildi. Arava esa, akamning imosi bilan oldinga o'tib to'xtadi. Tobut ko'targan odamlar hovli tomon burildilar. Ko'plari akamga o'xshab yuzlari qorayib, soqollari o'sib ketgan kishilar edi. Hammalari yupqa ko'k to'n kiyib olishibdi. Oralarida Olim akam ham ko'rinyapti. Xayolimga, otning qashqasidek tanilib turishibdi-ku hammalari, degan o'y keldiyu yuragim o'ynab ketdi. Oblochilar bilib qolishsa, nima qilishadi? Yo qo'ynilarida qurollari bormikan?

Ichkaridan yugurgilab chiqqan oshnalarim bularni ko'rib, qo'rqib ketishdi va shosha-pisha o'zlarini chetga ola boshlashdi.

Nusratilla pochcha o'rinlaridan bemajolgina turib, oh tortdilar:

- O', dunyoi qo'tir... - dedilar-da, keyin yo'lakay Sultonmurod akamning yelkasidan quchib, hamdardlik bildirgan bo'ldilar. -

Judayam ichkariga opkirmanglar. Irimini qilib, hovlida birpas to'xtasanglar bo'ldi. Xayr-xo'shdan keyinoq ko'tarib chiqaverasizlar. Bo'lmasa, xotinlar qiy-chuv qilib yuborishadi. Xo'pmi, chirog'im?

Akam kiprik uchirib, bosh silkidi va ichkariga shoshildi. Men damim ichimda, oyoq tagida o'ralashmay, ilgari surildim. Odamlar bu orada hovlining o'rtasiga yetib borib, tobutni pardaning narigi yog'iga qo'yidilar va shu zahoti ayollarning oh-vohi o'rladi.

- Oh jigarim-ov! Olti oy deganda o'zginang keldingmi-yov?! Kim sanginani shu hollarga soldi-yov?..

Miyam chatnagudek titrab ketdi: "Yopiray! Aravadagi - shuning qotilimidikan?!" Men uning basharasini tuzukroq ko'rmagan

edim, shoshilib qaytib chiqib bora boshladim. Hamma kirib kelyapti, men esam odamlarning orasini yorib, kimgadir turtinib, kimnidir aylanib o'tib, tashqariga talpinaman. Kallamda bir o'y aylanadi: "Qotil shu yerda! Shu yerda! Nahot Parpi bebaxtni akam kechiribdi? Sazoyi qilish evaziga tuya-qopdan chiqaribdimi?!"

U o'sha-o'sha bukchayib, qilt etmay o'tirar, oyokdarini quchoqlaganicha, dahanini tizzallriga tirab olgan edi. Soqol bosib, patak bog'lab ketgan yuzlariyu ich-ichiga tushib ketgan yumuq ko'zlarida jon asari ko'rinmaydi. Hammadan ham dahshatlisi, kichkina tortib ketgan bu odamning boshi go'yo o'ziniki emasdek. jimitdek tanada xumdek bosh. Juda xunuk ko'rinarkan. Buning ustiga, sochi oppoq. Soqol-mo'yloviga jin ham urmay sochining bunday oqarishi dahshatning o'zginasi edi. Alvasti o'tiribdi, deysiz, aravada. O'sha jardagi jazirama tepachaga baqirtirib tashlab qo'yishganida, nima bo'lsa bo'lgan unga. Ammo o'zi qilt etmaydi. Qani endi qilib qo'ygan ishidan dahshatga tushib, o'kirib-o'kirib yig'lasa! Shu odamlar oldida o'zini yerga otib-otib tavbalar qilsa! Kechirvorisharmidi balki. Ammo bu... qilt etmaydi. Ko'zini ochib qarab qo'ymaydi ham.

Yo'q, ana, u shapk'o'r ko'zlarini zo'rg'a ochib, menga hissiz tikilib qoldi va kutilmaganda besunaqay qo'llari bilan yuzini to'sib, ho'ngrab yubordi:

- Jilla qursa, sen kechir, uka! Xudo urib qo'ygan meningday bandani-i...

Yo tavba! Battar dahshatga tushib, tisarilib ketdim! Men kim edimki, uni kechirsam? Umuman, uni kechiradigan topilarmikan?

Va shu maqal. ichkarida ayollarning dod-faryodi osmonu falakka o'rlab, odamlar shosha-pisha tobutni ko'tarib chiqib kela boshladilar. Akram aravakash chu deya otining boshini katta yo'lga burdi. Tobut ko'targanlar esa, unga ergashdilar. Men ham aqlimni yig'ib olib, tobutni biron qadam ko'tarishib yuboray deb yoniga yopishib bordim. U shunchalik yengil ediki...

ustixonlarinigina olib kelishganini men bilmadim. Ammo uning oldidagi arava bundanam g'alati edi. Nazarimda, uni ham bekorga olib kelishmagandek.

Akam uni qo'yib yuborishi qiyin. Akam bo'ladi-yu, qo'yib yuboradimi! Lekin qo'yib yuborganda nima? Odam siyog'i qolmabdi-ku.

Ammo nariroq borib, arava tuproq yo'lning bir chekkasiga chiqib to'xtadi. Aravakash tobut ko'targanlarga yetvolishga shoshildi.

Bu yoqda tasqaraning yolg'iz o'zi qolib ketdi. Bola-baqralarga tekin tomosha bo'lib... Quyosh pastlagandan pastlab boryapti.

Ko'cha oxirida, Terakli ota qabristonidan ham narida yonib-yallig'lanib tursa ham, kechagi jahdi yo'q. Yuzimga oq mezonlar ilashib, xayolim qochadi: kuz ham kep qolibtimi darrov?! Bizni hech kim qaytargani ham yo'q. Bo'yimiz cho'zilab qolganiga andarmon, akamning qavatida kelgan ko'k to'n'lilarga ergashib, mozorboshiga ketyapmiz. Bir chekkasi qiziqib (bunaqa voqea har kuni bo'laveribdimi!..)

Men Sultonmurod akamdan ko'z uza olmayman. qarab to'ymayapman. Qavatiga chaqira qolsayu chopib borsam... Ko'zimga olovdek ko'rinadi nuqul, Haybat akamdan ham haybatli tortib ketibdi. Yo to'nining ichidan qurol taqib olganmikan?

Yigitlari bo'lsa, sirli jangchilardek jim. Shu mahal ko'zim ikki qadam narida borayotgan Olim akamga tushdi. Hamma qatori oyog'i ostidan ko'z uzmay, tuproq kechib boryapti-yu, o'zini tamom unutgan. Bahriddin akaginamizning taqdirini o'ylab ketganmi, desam, milt etib ko'zida yosh, yuzida xafalik ko'rinsa-chi.

Yoqtirmagan o'qishidan qaytib, akamning qavatiga qo'shilib ketdi. Oblochidan xavfsiraydigan joyi qolmadi. Ochilib-sochilib yuravermaydimi? Qachon qarasang, ich-etini yegani-egan. Ana, bir narsadan g'ashlanib, men tomonga qaradi, ko'rib turibam meni tanimadi. Rostdanam unga bir narsa bo'lgandek edi.

Bu orada torgina tolzor ko'chaga kirib bordik. Tollarning tagiga shira yog'ib, ari talab yotibdi. Ko'cha kichkinaligidan tollar tepada ishkomday tutashib ketgan. Tobut tol navdalariga tegay-tegay deb o'sha ishkom takkinasida lopillab boryapti. Hech qancha yurmay, yana o'shanday tolzor ko'chaga burilib, buloq suvidan ham tiniq anhor yoqalab keta boshladik. O'n qadam yurmasimizdan, barglari kumushday yarqirab, qabriston teraklari ko'zga tashlandi. Qator teraklar tagidagi do'ppidek masjid hovlisida saflanib, janoza namozi o'qildi. Keyin yana tobutni ko'tarib qabr tepasiga olib ketildi. Biz chekka-chekkaga o'tib, uni yerga qo'yishlarini kuta boshladik. Bahriddin akamning ustixonlari o'ralgan kafanlikni qabrga tushirib ustiga tuproq tortishga kirishdilar. Qabr do'mpayib ulgurur-ulgurmas domla tilovatni boshlab yubordi. Hamma o'tirdi.

Shu payt atrofigda burgan hidi gurkirab ketdi, kimdir kelib cho'nqaydi. Ugirilib qarasam... osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, oq shapka Charli paydo bo'lib qolgan edi. Men endi salom beraman deb og'iz juftlasam, u atrofga olazarak alanglab, barmog'ini labiga bosdi:

- Qimirlama, jim.

U devor oshib kelgan odamday hansirar, nafasini rostlay olmas edi. Nihoyat chuqur tin olib, nafasini bo'shatdi:

- Huh! O'zimam it quvlaganday yuguribman, - dedi shivirlab.

- Namuncha ja?..

U issiq jilmayib, ko'z qisdi:

- Yetib kelmasam, bo'lmasdi. - U yana ko'z qisdi. - Qalaysan, pakana pari?

- Yomonamas, o'zingiz-chi?

- So'rama, - deb shivirladi u, - qani endi sendek bo'lib qolsam.

- Nega? - "Qochib-quvib yurishlar jonga tegdimi?" demoqchi bo'ldim-u, ayto'lmadim.

U yelkamga qoqib, o'ziga yaqin tortdi:

- Keyin, keyin aytib beraman. Hozir sendan iltimos, akangga mening xabarimni yetkaz. Falonchi akam zo'rg'a devor oshib kepti, katta ko'cha to'la itlar emish, desang, bas. Unutmaysan-a?

- Yo'q, nega?

U yana yelkamga qoqdi:

- Unda, bo'la qol, pakana pari, vaqt g'animat. Bildimki, zarur. Sekin turib, odamlar orasidan zimdan akamni izlay boshladim. U qurib yolg'iz shoxga aylangan qora o'rik ostida allaqanday ziyrak tortib o'tirar-u, bizni ko'rmas edi. Borib, yoniga cho'kkalarkanman, u o'girildi. Men shipshidim:

- Anuv shaharlik do'stingiz bor-ku...

- Kim? - Akam yer ostidan xavotir aralash qarab qo'ydi.

- Chaman aka.

- Xo'sh-xo'sh?

- Sho'tta.

- Sho't-ta?

- Zo'rg'a devor oshib kepti. Ko'cha to'la... (tavba, itlarga balo borakanmi?) itlarmish.

22 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Akam bosh ko'tarmayin, sekin qaytarib so'radi:

- Qaysi ko'cha? Katta ko'chami yo?

- Katta ko'cha, - dedim adashtirib yuborganimdan xijolatga tushib.

- Shunday degin-da.

Nima gapligiga akdim yetmayotgan bo'lsa-da, o'g'rincha uning yuziga tikilaman. U Qur'on tilovatiga bo'yin qo'yib o'tirgan edi, birdan sergak tortdi. To'g'rida cho'nqaygan ko'k to'nli odam bilan ko'z urishtirib, kishi bilmas barmoqlarini chirmashtirdi... va boshmaldoqlarini asta aylantirishga tushdi. Ko'k to'nli ham bar-moqlarini chirmashtirdi va nariroqdagi boshqa bir to'nliga (o'g'rincha) qarab, xuddi akamga o'xshatib boshmaldog'ini aylantira ketdi. So'ng nariroqdagisi...

Tilovat tugab, qo'llar duoga ochildi.

Oftob xonaqoh oldidagi teraklar ustidan tushib, ikki terak oralig'ida qonli barkashday qizarib turib qoldi va qabrlar ustiga qirmizi bir tur alvon yopdi.

Odamlar yuzlariga fотиha tortib, o'rinlaridan tura boshladilar.

Mo'min tog'a o'rtaga chiqib, qo'llarini ko'tardilar:

- Xaloyiq, Bahridingina qanday yigit edi?..

- Hur kelib, hur ketdi, rahmatli. Ilohim, hur qizlardan buyursin, - dedi allakim katta yong'oq tagidan.

- Xudo rahmatiga olsin, iloho, - dedi hamma va odamlar qabristondan chiqa boshladilar.

Men ularga ergashib, yarim yo'lgacha borgan yerimda birdan akam esimga tushib, orqaga o'girildim. Na o'zini, na sheriklarini - birortalarini ko'rmadim. Qabriston ichi bilan qayoqqadir urib ketishgan shekilli.

E, gap bu yoqda ekan-ku!

Noiloj tashqariga qarab yurdim. Masjidning eski darvozasidan o'tib, tolzor ko'chaga chiqib borarkanman, anhor yoqasida turgan ko'k to'nli odam ko'zimga olovday ko'rinib, shoshib qoldim. Ildamlab borsam, Olim akam. Orqadan chiqib kelayotganlar ichidan kimnidir kutib, tipirchilab turibdi. Ko'zi to'rt, alanglagani-alanglagan. Birdan meni ko'rib, hovliqqanicha shu tomonga yurdi.

- Akamgilar qani? Qayoqda qolishdi? - dedi uzoqdanoq.

Men yelka qisdim:

- Bilmasam...

- Bilmasaming nimasi? Hozir yonida o'tiruvding-ku? - dedi asabiylashib.

Men ham to'ng javob qildim:

- O'tiruvdim, lekin hozir qarasam...

- Bari yo'qmi? - dedi u rangi quv o'chib.

- Yo'q. - Men unga boshdan-oyoq qarab, hayron qoldim: muncha titrab-qaqshaydi? Pitrab turibdi?

Kutilmaganda u meni yo'ldan itarib, o'zi oshig'ich qabriston tomon yurdi. Tavba, g'alati-ku. Yo ishorani noto'g'ri tushunib... qolib ketdimikan? Bu orada u ich-karidan chiqayotgan oxirgi odamlardan ham o'tib, ikki-uch qadam lo'killab bordi-yu, keyin yov quvgandek... chopib ketdi. Ana xolos! Nimalar ro'y beryapti o'zi?

Bu yoqda kimdir meni chaqirdi.

- Maqsud, yurmaysanmi?

Qarasam, oshnalarim. Qayrilishda kutib turishibdi. Chopdim. Janozaga kelganlar to'p-to'p bo'lib, gangur-gangur bilan qaytib chiqishmoqda. Hamma endi haligi aravada qolgan tasqaraning g'iybatiga tushib ketishgan. Beixtiyor qadamimni sekinlatdim.

- Yo alhazar! Shu o'zimizning mashhur Parpi o'g'rimi, a? Odam siyog'i qolmabdi-ku.

- Qozoqni tuyaqopiga tushmabsan, bu dunyoning do'zaxini ko'rmabsan, degani shuda...

- Nega qozoqi bo'lsin? Zino qilganlarni ilgari o'zimizda nimaga o'rab, tikib tashlashardi?

- Uni qara-ya...

Xullas, har turli gaplar... Bu yoqda Aliakbar shoshirib qo'ymaydi:

- Muncha imillaysan? Ildamroq borib turmaymizmi? Jildik.

Ko'cha yoqalab, tollar tagidan (shildiragan xazonlarni bosib-yanchib, tol chiviqlardan engashib o'tib), lo'killab borarkanmiz, Soli bizni avrashga tushdi.

- Parpi bebaxt-chi? Ko'rmay-la ketaveramizmi? Bunaqa zo'r qaroqchini har kuni tutib yurishibdimi? Bo'zsvuga boribam, tuzukroq ko'rolmovdik.

- Shuni ayt. Tuyaqopi yomon bo'larkan-ku, a, bolalar? Davangirday odam mushuk bolasiday bo'pqopti-ya, tavba.- Abrol shunday dediyu boshlandi Parpi bebaxtning g'iybati. Shoshmay ham qo'ydik yo'lning u yog'iga.

- Endi uni nima qilisharkin? Hukumatga topshirisharmikan?

- Hukumat nima qiladi, turmasiga tiqadimi? - dedi Aliakbar, boshiga uradimi, degandek.

- Qo'yvorisharmikan-a? - dedi Abrol.

- Qo'yvormaganda qancha kun yashardi? Ko'rding-ku.

- He, nima devotsan?! Bularning joni qattiq bo'ladi, - dedi Tohir.

Xammasidan Solining gapi o'tib tushdi:

- Hali qarab turasanlar, yana oborib sazoyi qilib, o'tqazib qo'yisharmidi, fотihaxonlikka kelganlar betiga tupurib o'tsin, deb.

- ola, opqoch-a! - dedim men. Ammo o'sha oborib o'tqazib qo'yadiganlarning o'zlari hozir qaerda ekanini aytib bo'ladimi bularga.

Gap bilan bo'lib, To'lavoy amakining qo'rg'onidan o'tib, katta ariqning ko'prigiga yaqinlashganimizni bilaman, hali arikdan hatlab ulgurmagan edik, boqchanning ichidan besh-olti chog'li askar yugurgilashib chiqdiyu oldindagilarning yo'lini to'sa boshladi. Xuddi shuncha askar ko'chaning bu betidan, pastak bog' devolidan oshib tushib keldi. Odamlar guvranib yuborishdi.

Biz ham joy-joyimizda serrayib qopmiz. Yodimga Charli "samariska"ning gapi tushib, miyam chatnadi: e, uni qara, gap bu yoqda ekan-ku!

Yo'l to'sib chiqqanlarning kattasi hammani bittalab to'xtatib, nimanidir so'rar, odamlar yelka qisib, atrofga alanglaganicha chetga chiqar, qizil shapkali asabiy holatda keyingisini so'roqqa tutar edi. Darrov angladim: ularni izlashmoqda. Shu yerda qo'lga olmoqchi bo'lib kelishgan ekan-u, bular ustalik qilib qopti. "Obbo Charlisi tushmagur-e, qaerdan xabar topibdi ekan?"

- Jiddik, bollar, boqchanning orqasiminan, - dedi Aliakbar.

- Shoshma, ko'raylik. Tirik askarni har kuni ko'rib yuribsanmi? - deb ishshaydi Soli.

- Orzumandamisan? Ushlab ketsa, ko'rasan ko'radiganingni! Ketdik, - deb qistadi Aliakbar.

- Bulardan yaxshilik kutma, surdik, - dedim men ham. Ammo joyimdan jilib ulgurmadim, changakdek bir qo'l tirsagim tepasidan tutib, qattiq siqdi.

- Qayoqqa surasiz, yigitcha?!

Qarasam, Akmal o'ris! O'sha movut shapka! Lop etib, bedanavoz amakining gapi kepti yodimga: "Akmalchaxon, Akmalcha, omonmilar dumingiz?" Kulгим qistab chetga qaradim. Yurgan ekan bizdekligida orqasidan dum bitib, hech kimga qo'shilolmay, endi kunlari tug'ib qopti-da!

- Qo'yvoring qo'limni. Men sizga nima qildim?! - dedim siltanib.

Qayoqda! Battar qisib, xunuk irjaydi.

- Ha, ushladimmi! Hamma bilmasayam, sen bilasan, qani ular? Qayoqqa urib ketdi?

- Men qayoqdan bilay? Qo'yvoring.

- Bilmaysan-a, bilmaysan? Boya yonginasida o'tirgan kim edi?

Qo'rqib ketdim. Lekin bo'sh kelsam, ushlab ketishdan ham toymaydigan. Sheriklarim kim qochib, kim tisarildi. Men oyoq tirab oddim. Aliakbar esa, elanib-yalinyapti.

- Ho'v amaki, jon amaki, shuncha odam bilmagan, biz bilamizmi?

Bu mening qo'limni qo'yib yubormay, qayoqqadir surgayapti.

- Aytmasalaring, ovora bo'lasanlar. Shunday-la berib yuboraman.

- Xo'p, aytaman, - dedim men ham birdan quvligim tutib, - faqat qo'limni qo'yvoring.

- Ayt, ana.

- Yo'q, siz avval qo'yvoring qo'limni.

- Ho-o, anoyi ekansan-ku!

U boyagidan mahkamroq changallab edi, jonim halqumimga kelib, voy-voylab yuboray dedim. Va alam-achchiq ichida qanday kuch paydo bo'ldi, bilmayman:

- Qo'yvor-e, ... furush! - deya bir siltangan edim, qo'lim bo'shalib chiqdi.

Ammo qayrilib qochishga ulgurmadim. Ungacha bilagimdan tutib oldi.

- Ana endi... O'zingdan ko'r! - dedi hansirab va surgaklay boshladi. Butun badanimdan duv-v olov chiqib, osmonga sapchigudekman, lekin qani uning changak qo'lidan qutulolsam... Ammo shu payt qayoqdandir harsillab-lorsillab (baxtimdan aynanay!) "ho'v betovfiq"lab Nusratilla pochcha yetib keldilar.

- Qo'yvor bolani, padarqusur. Mana, men boraman o'rniga. Kuching shularga yetdimi sen yaloqni? He, bachchag'ar!

U qo'limni qo'yvorib, g'o'ldiragancha tisarilarkan, Soliga turtinib ketib, oyog'ini bosib oldi. Soli voy-voylagancha oyog'ini changallab o'tiribdi-yu, qo'yniga allanimani tuzukroq yashirish bilan ovora. To'pponchasini o'maribdimi, deb qo'rqib ketdim. Hali baloga qolmasak edi...

Pochcha esa, bo'shatmay olyaptilar:

- Senga shular kerak - sotaver. Shular osh-non beradi! Kuningga yaraydi! O'lsang, tepkilab ko'madi!.. He, betovfiq!

Qora odam yana ham qorayib ketganini shu yerda ko'rdim. U g'ing deya olmay burilib ketarkan, pochcha bizni urishib quvdilar.

- Qurilaring tez, topibsanzlar juda, tekin tomoshani!

Oblochilar hech kimni tutolmay, muztar bo'lib qaytishganini keyin eshitdik. Parpi bebaxt ham yo'q bo'lib qopti. Aravaga qo'shilgan ot bo'sh aravani sudraganicha, ko'chaning chetida o't chimdib yurar edi.

Hamma fotihaga keldi. Ammo Sul-tonmurod akamu ko'k to'nlilarning qaytib qorasini ko'rmadik.

Oy chiqqanida oyimlar bilan uyga qaytdik. Hammayoq sutdek oydinga cho'milib yotar, olam sokin bo'lib qolgan, bir kunda shuncha voqealar kechganiga sira-sira ishonmasdim, ishonolmasdim.

Ko'ngil Bo'zlaydi-Yu, Malhami Jon Yo'q

Xirmontepaga maktabga qatnayapmiz. Menga yana Xudo berdi: qiz o'rtoqlarim Aliakbarlar bilan topishib oldim. Maktabdan chiqdik degandan bolalikdan tanish nokzorlaru yong'oqzorlarga oralab ketamiz. Bizning dastimizdan Mirhomid amakining kadi noklari ham, Donbek ko'chadagilarning qizilmag'iz yong'oqlari ham qolmaydi. Xirmontepadan kela-kelguncha qo'yinlar to'lib, chiyduxoba jildlar qappayib ketadi.

Hamma terib-qoqqanlarimizni Aliakbarlarning tandırxonasidagi xumga yashirib, bu yog'iga hech narsa ko'rmagandek, Izzaga tushib borgan tolzor yoqalab, uyga jo'nayman. Koshki tinch keta qolsam. Izzadan o'tishim bilan Siddiq arrakashning bog'iga bosh suqib, eng pastda - tokro'dalar tagida qolgan oltindek shingil-shapoqlardan totinib, nomiga tutilgan shohdevordan oshib chiqib ketaman. U yog'iga Qayumbek amakining tepasiga yonbag'irlab ekilgan qator jiydalar boshlanadi. Hozir u ayni qoqib olinadigan mahali - jiydasi marjon bo'lib qizarib yotibdi. Har bittasi boshmaldog'imdan ham katta non jiydalar oldida behisob kumushrang barglari mayda tortib ketgan, yo'qdek.

Soli ikkimiz jildni bir chetga otib, jiydaga o'rlab ketganmiz. Terib qo'yinga uranimiz sari bir ajoyib hid girkirab kela boshlaydi bizdan. U jiyda hidi. Gulini desang, mevasidan ham keladi-ya, o'shanga o'xshagan asal hid. Balki bu asal daraxtdir, adashib jiyda atab yuborishgandir! Lekin Qayumbek amaki ko'rib qolsami: tepaning ustida turvolib, bo'ralab so'kishi bor. Darhaqiqat, tepadan guldiros ovoz kelib qoldi:

- Xo'v zumrashalar! Borsam kallangni po'la qilaman! Yo'qollaring hozir!

Yetib kelguncha biz chug'urchukdek juftakni rostlab qolishimizni biladi. Bilgani uchun ham o'sha yoqdanoq qozoqi do'qini qilib, lapanglab kela boshladi. Tushyapmiz-u:

- Olsak, sizzikini ovotmizmi? - deb bidilladi Soli.

Qayumbek amaki o't-olov bo'lib, yon-atrofidan kesak izlay ketdi-ku!

- Bor-bor-ey! Kuchala yegan joyingga borib tirish-ey! Uzidan-o'zi o'sib qopti-da! Hey, sendaqa aqlidan o'rgildim!..

Men jildimni ola, tepaning tagi bilan urib ketdim. Soli bedapoyaning ichi bilan qochdi. Jiydaga yetib qolgan amaki boyagi-boyagi shang'illab so'kinar edi:

- Na haromni biladi, na xarishni... xudobexabarlar!

Beixtiyor oyog'im sekinladi. Ich-ichimdan uyatmi, birnima g'imirlab kelib, bir ko'nglim qo'ynimdagi jiydalarni shu yerga to'kib ketgim keldi-yu, yana ko'zim qiymadi. Yegancha yeb, qo'yin-qo'njimizni to'latib o'tirmasdan keta qolsak bo'lardi-ku, o'zimiz ham ochopatmizmi, nima balo?

Soylikdagi yong'oqzordan bo'shashibgina anhor bo'yiga chiqib borsam, Saynabi domlaning bog'i yonidagi yolg'izoyoq yo'ldan... kim kelyapti deng... O'sha jamalaksoch qizcha - Marg'u kennoyimning singlisi kelyapti. Ko'rib yuragim shunaqa dukirlab ura boshladiki, xuddi ichimda bir qush qamalib qolganday va potrab-potrab bo'g'zimga tiqilayotganday. U ham ko'rib to'xtadi va birdan suyunib chopib kela boshladi.

- Voy, Xizmi yo'qlasam bo'larkan, men sizni izlab kelayotgan edim, - dedi qo'ng'iroqday ovozi jangillab, - yaxshi uchradingiz. Undagi erkinlik menga ham yuqib, anhordan hatladim. Qo'ynimdagi jiydalar bo'ynimgacha selpinib, allaqanchasi tuproq ko'cha bilan bitta bo'lib, sochilib ketdi.

- Vuy, jiydami? - dedi u ko'zlari o'ynab, - uvol qildiz, qarang, - dedi achinib. - Biz tomonda bunaqa bo'liq bo'lmaydi.

- Biz tomonda shunaqa bitadi, - dedim men mag'rurlanib. - Ma, ol, opanglarga obborasan. - Men oq sepkil tashlab, bir chiroyli qizargan jiydalarni qo'ynimdan changallab-changallab olib, etakchasiga sola boshladim. U "Voy, bo'ldi"lab, etagini olib qochadi, men esam, "Mana shuniyam ol, tagi ko'p", deb qistayman. Axiyri, qo'ynimdagi hamma jiydani uning etagiga solib, jiyda hidi gurkirab yotgan qo'limni qoqdim:

- O'zi sizlarga nasib qilgan ekan.

U bir chiroyli bosh silkib, rahmat aytdi va etagini past ushlagancha ketishga taraddudlandi.

- Endi men boray.

- Borarsan, o'zi endi kelding-ku.

U bir dona haqiqday jiydani tishlari orasiga olib, bosh chayqadi va odatdagidek dimog'ida "i-im!" deb qo'ydi. Men uning shu "i-im"lashiga borman! Qani yana qaytarsa, deb qistadim:

- Hozir ko'rmaganingda baribir qidirib borarmiding?

- Borardim.

- Chiqqunimcha kutarmiding?

- Kutardim.

- Gapingni aytguncha turarmiding?

- Turardim.

- Hozir ham... turaqol. U yana bosh chayqadi.

- I-im! Borishim kerak. Bilsalar, ayam o'ldiradi-la.

- Nega o'ldiradilar? Men bilan turganinggami?

- Yo'q, - dedi u bosh chayqab, - ularga bildirmay kolganman bu yoqqa. Opam sizga manavini berib yubordilar. Ilojini qilsangiz, egasiga yetkazarkansiz.

Men igu vaqtgacha e'tibor bermagan ekanman. U chap ko'lida tumordek qilib buklangan uchburchak bir xatchani ushlab turardi. Shuni uzatdi.

- Mana, ilojini qilasizmi?

Men Marg'u kennoyim haqida nihoyat bir xabar eshitganimdan, ularni bir-birlariga bog'lab turgan xatchilar biz o'zimiz ekanimizdan boshim osmonga yetib:

- Kennoyim uchun... jonim bilan! - deb yubordim.- O'zlari yaxshimilar ishqilib?

- O'zlari... - U birdan o'zgardi va javob qilolmay to'liqdi.

- Nima bo'ldi, yashirmay aytavur!

- Yo'q, tuzuklar. Faqat... - U ko'zlarini olib k,ochdi. - Uch yoqdan kelib turibdi, axir. Bu yoqda ayam...

Men ko'chada bunday turishimizdan o'ng'aysizlanib, chetga tortqiladim:

- Yur, men seni nariroqqacha kuzatib qo'yaman. U yolg'izoyoq yo'lga o'tib-o'tmayoq to'xtadi:

- Yo'q, bu yog'iga o'zim.

- Nima o'zing? - Men azza-bazza xafa bo'ldim.

- O'zim ketaman.

- Men-chi?

- Qolavering, Anavini tezroq...

- Xo'p! - dedim tirsagini qo'yib yuborib.

- Opam sho'rlikdan bir xabar olsalar edi, - dedi Saida ko'zlariga yosh olib. - Shu bir oyda adoyi tamom bo'ldilar.

O'sha borganimdayoq allaqanday bo'lib, suvratlarigina qolganini eslab, g'alati bo'lib ketdim. Va zo'r berib unga uqtirishga tushdim:

- Sen ishon, akam unaqalardan emas. O'lsa o'ladi, so'zida turadi. Bahriddin o'rtog'imning qotilini baribir topaman, degan edi.

Topdimi? Topdi. O'zim hammasining adabini beraman, degan edi. Berdimi? Berdi. Nimaga ishonmaysizlar?

- Endi men boray, - dedi u chetlanib. Men e'tiroz bildira olmadim:

- Mayli... - So'rab qo'y kennoyimlarni demoqchiman-u, aytolmay turibman. U uch qadam yurib to'xta-di:- Aytmoqchi, javobini ertadan kechiktirmas ekanlar.

- Xo'p. - Men bo'shashib qayta boshladim-u, birdan o'ylanib, to'xtadim: "Nega ertadan kechiktirmay?" O'girilsam, u ketib bo'bdi: hov narida etagidan jiyda olib yeb boryapti. Qaytdim.

Tip-tiniq osmonda kurkinaklar o'ynab-quvnashadi. Kunbotar yoqdan kuz mezonlari qulocharini yoyib uchib keladilar-da, anhor bo'yidagi do'ngda qiyg'os ochilib-urug' bog'lab yotgan sariq boshog'riq gullarni achomlab, "halok" bo'ladilar. Saynabi domlaning ishkomlarini bosgan chug'urchuqlar tartarakdan cho'chib, gurra parvoz etib, - bulutday ko'chib borib, shu ketgancha Kattabog'ning ustida pastlaydilar. Kimdir tepa tomonda xoda bilan qars-qurs urib, yong'oq qoqmoqda.

Shunday beozor kunlarda Marg'u kennoyimning qon-qon yig'lab, uyga qamalib o'tirishi, akamga xatlar bitib, javobini intizor-intizor kutishi - juda g'alati ham achinarli edi. Ich-ichimdan bir xo'rlik bosib kelib, sekin yurib ketdim.

Uyga kelsam, oyim bog'chamizda bir qo'shiqni xirgoyi qilib kartishka teryaptilar:

G'ussai dil, qissai mushkulga qoldim oyu yil,

Obi gil ichra xijil qolg'on tanu jonim mening .

Kechalari moshin tikib o'tirib ham birdan shunaqa xirgoyilari kelib qolardi. Yo "Alhamdulillah"ni, yo "Meningdek intizoru yo'lda hayroning"ni boshlab yuborardilar. Hozir ham menga bir qarab qo'yidilar-u, xirgoyilarini uzmay, ishda davom etavardilar. Ajab, kartishka palagini kim chiroyli o'rib, yerini lo'ppa-lo'ppa kavlab ketibdi ekan? Behi tagida choynak-piyola, beriroqda ketmon.

Pushtalarda davangirday-davangirday etik izlari. Kim kelibdikan?

Kitob-daftarlarimni supaga tashlab, oldilariga chopdim.

- Men o'zim terib tashlayman, oyi. Siz ishlarizni qilavuring.

Oyim menga bir qarab qo'ydinglar-u, indamadilar. O'zlari shunaqalar: tergash o'rniga ham bir yomon qarab qo'ysalar, yetarli bo'ladi. O' yog'ini tushinib olaveraman. Hozir ham to'lgan chelakni to'kib kelib, ishga yopisha ketdim. Ammo ichim qizib boryapti. Kim kelganini so'ray olmay, qosh-qovoqlariga qarab-qarab qo'yaman. Axiyri sabrim chidamadi:

- Oyi, oyi, shuncha narsani bir o'zingiz... kavladigizmi?

Oyim anqovsiraganimniyam, ichim g'urmishlab yotganiniyam sezib, issiq jilmaydilar:

- He, bolam-a, mening ilgari vaqtimmi? Akang kelgan edi.

Men achiniblar ketdim:

- Boyadan beri aytmaydizmi!

- U opangnikidan chiqdiyami, sen bu yoqdan...

- Shunaqa demaysizmi! - Qo'limdagi chelak daranglab tushgancha, o'sha yerda qolaverdi, ishkomi ichi bilan opamlarnikiga yugurdim.

- Hay, qayt, yetolmayсан, baribir. Borma, u yoqlarga! - Oyim hay-haylab o'rta yo'lga kelgunlaricha, men opamning darvozalaridan chiqib, tutzorning ichiga kirib bo'ldim. Keyin Usmon tog'amning bog'lari yoqalab, pastga zing'illab qoldim-ku. Ekinning o'rtasidagi yolg'izoyoq yo'ldan chopib ketyapman-chopib ketyapman. Oyoqlarim ostidagi, ariqning ikki yoqasidagi tizza bo'yi o'tlar ichidan bedanalar porillab-churillab ko'tariladi, urug' bog'lagan o'tlarning "don"lari shildirab sochiladi, yovvoyi yalpiz hidi gurkirablar ketadi. Boshmoldog'imdek chigirtkalar bo'yim baravar sakrab, qizil qanotlarini yoyganicha sollarib uchadilar, qani iarvo qilsam, to'xtasam. Menga akam kerak. Chiyduxoba shimimning soat cho'ntagida unga atalgan narsa bor. Kennoyimning omonati bor. Shuni yetkazishim kerak. O'chiga berishim kerak. Ertaga kech bo'ladi! Kechirilmaydigan ish bo'ladi! Ammo qani oldinda bir zog' ko'rinsa. So'raydigan bir odam uchrasa.

Pushtalarda qovun-tarvuzlar to'ygan qo'zilardek do'mpayib yotibdi. Palaklari qovjirab yerga singib bo'пти-yu, o'zi uzilmagandek. Xuddi shudring yeb, shira tortsin, deb tashlab qo'yishgandek.

Oyog'im toliqib, qadamimni sekinlatdim. Shundagina arikdagi tiniq tortib, shaldirab yotgan suvning ovoziyu Kattabog'ni bosib, ustida g'ujg'on o'ynagan chug'urchuqlarning chag'ir-chug'uri qulog'imga kiribdi. Shiypon tomonda Haydar amaki "hay-huyuv, xalalay-hash-gu-tuguv!" degan tartaragini tarillatib qo'yadi, chug'urchuqlar parvosiga ham ilmaydi.

Hamonki pastga - Bo'zsuvga qarab ketgan yo'.lda akamiing qorasi ko'rinmayotgan ekan, shiyponga o'tmadimikan, degan o'yg'a borib, tepadan tushib kelgan o'q-ariq bilan o'sha yoqqa burila qoldim. Negadir menga u shiyponga burilib, Haydar amaki, yo bo'lmasa, Sa'dulla do'kay bilan suhbatni chortang qurib o'tirganga o'xshar edi.

Bog' ichi bilan kesib chiqib borsam... Yo tavba! Ko'cha tomoniga oq surup tortilgan, qolgan uch tomoni ochiq baland shiyponda u birgad bilan otamlashib o'tiribdi. Men izlab borayotganimni allaqachon ko'rgan shekilli, to'xtashim bilan qo'l sermab chaqirdi: - Kelaver, pakana pari, men sho'ttaman! U ozgina musallas totinganmi, kayfi chog', bir gapirib o'n kular, hali yonboshlab, hali shiyponning panjarasiga suyanib, qo'llarini yozib yuborar, o'rta-o'rtada tizzasiga urib, silkinib qo'yar edi. Men g'ashim kelib, yomon ko'rib ketdim: u yoqda Marg'u kennoyim qay ahvolda-ku, bu yoqda bu kishim nima bilan mashg'ul?!

Bormaylayoq ariq bo'yiga o'tirib oldim. U achchig'im kelganini sezdi, shekilli, boshini orqaga tashlab-tashlab, xaxolab kulishdan to'xtab, atrofga alanglashga, qaddini ko'tarib, meni izlashga tushdi. Axiyri ko'rib, yonboshlab yotgan Sa'dulla do'kayga allanarsa deya, o'rnidan qo'zg'aldi. U tog'amning nosrang-ko'kish kitel-shimida, kitelning tugmalarini yechib-yayrab o'tirgan ekan, turishi bilan ko'krakdor va boshi shiftga yetgudek bo'lib (yoki o'zi shunaqa salobatli tortib ketganmide) ko'rinib ketdi. U shiypondan tushib, etigini ko'lantayoq kiya, to'g'ri men tomon yurdi.

Salobati bosib, o'rnimdan qo'zg'aldim. Boyagi ginalarim ham qayoqqadir yo'qoldi. Faqat, sal to'liqib turibman.

- Akajon! Yaxshiyam shu yerda ekansiz! - dedim unga talpinib.

- Nima gap, nima bo'ldi? - U ham bir narsa sezgandek yelkamdan quchib, bag'riga tortdi. - Aytavur, kim yubordi? Axir, men hozirgina...

- Hech kim, hech kim, - deymen-u, u yog'ini aytolmayman. Marg'u kennoyimning nomini tilga olaman desam, lolmayman. Uch yoqdan kelayotganini-ku, aytolmasam ham kerak.

- Sen yashirmay aytavur, men bunaqa ko'rgiliklarga o'rganib qoldim, Maqsud. Diydami qotib ketdi, - dedi boshimni silagancha. So'ng cho'nqayib, yosh to'la ko'zlarimga qadalib tikildi. - Nima gap, yana u sadporaning boshini... bog'layotgan emishlarmi?..

Qaerga? Yak-kabog'gami yo boshqa tomonlarga? - dedi ovozi alla-qanday qaltirab. Undan musallas hidi anqir, sal kayfi ham bor edi.

- Bilmasam, akajon, bilmasam. Lekin uch yoqdan sovchi kelib turgan emish. Ertaga, ertaga manavining javobiii aytmasangiz, kech bo'larmish. Tushunyapsizmi, kech bo'larmish! - Men xatchani olib, uning kattakon kaftiga qo'ydim. Tumordek qilib qayrilgan xat uning kaftida kapalakdek titrab turardi.

Akam qimir etmay, qimirlasa, xatcha chindanam kapalakka aylanib uchib ketadigandek, qotib turdi-turdi-da, uni jur'atsizgina, barmoqlari beo'xshov titragancha, ocha boshladi.

Yozug'i ikki enlikkina edi.

Qarab turibman, shu to'rt qatorgina baytnimi, iltijonimi o'qib bitirguncha yuzlari somondek sarg'ayib, qosh-ko'zlariga bir mung-xafalik inib ulgurdi. Tosh krtib, allamahalgacha kiprik qoqmay turdi va...

- Boraqol endi. Chop. Ilojini qilsam, o'taman hali, - dedi mahzun ohangda va tez qayrilib keta boshladi.

Men uning ko'zlariga qarab ulgurmadim. Bilaginga tomgan qaynoq yosh unikimidi, o'zimmikimi - bilolmay qoldim...

U maishat qilib o'tirgan boyagi yeriga yetib, yarim yonboshladiyam, qani men jilolsam joyimdan! "Topdim, aytdim, kelarkan hali!" deb chopsam, arziydi vaholanki. Lekin nimadir to'xtatib turardi. Yo o'zini unutar darajada kimlar bilandir ichib o'tirishimi yoqmadi?..

Bir balo qilib yurdim ham, tepa yoqdan Haydar imakining shirali ovozi bog' bo'ylab ohista tarala boshladi:

Malaksan yo bashar yo huru g'ilmonsan...

Shiypon tomondan ishkomi ustilab uchib kelayotgan bu ovoz ta'riflab bo'lmas darajada go'zal ham yoqimli, ichdan bir g'alati hislarni toshdirib chiqaradigan ediki, bunaqasini endi eshitib turar edim. Beixtiyor qayrilib qaradim. Haydar amaki shiyponda akamning ro'parasiga cho'kkalab olib, qo'lidagi likopchani bir ajib selpib-chertgancha, eshilib xonish qilmoqda edi.

Malaksan yo bashar yo huru g'ilmonsan -

bilib bo'lma-as...

Chordona qurvolgan akam halitdan sel bo'lib, chayqalishga tushgan. Kayfi oshib qolganmi va yo xonishning shu joyi yoqib ketganmi, hadeb qo'l silkib, go'yo qaytadan boshlashga undaydi, ulab ketishga qo'ymaydi. Haydar amaki ham uning ko'ngliga qarab, qayta boshdan boshlaydi:

B B B B Malaksan yo bashar yo huru g'ilmonsan - bilib bo'lmas,

B B B B Bu lutfu nazokat birla sendan ayrilib bo'lmas.

U akamning dardini kuyga solib aytyapti yo o'zining dardini kuylayaptimi, harholda, u yoqda ikkalasi ham sel bo'lib oqayotgan edi. Bu yoqda men ham bo'larim bo'lgan.

B B B B Ajib berahm dilbarsan... ajab sho'xi sitamgarsan,

B B B B Charog'i husni ro'yingdan, bu ko'ngilni uzib bo'lmas...

Salomxon Qozi

Men hushtagim ohangidan mast, o'ynoqlab-sakrab, yolg'izoyoq yo'llardan bog' oshib, tutzor oralab kelar ekanman, akamni topib, xatchani eltganimdan, yana javobini ham yetkazib qaytayotganimdan boshim osmonda edi. Bungacha kun qaytib, qushlar vajir-vujurlarini boshlab ulguribdilar. Hatto bog' etagidagi maymunjon qoplab yotgan xilvatgohdan uchib chiqqan qop-qora mayna qushlar ovloq hovuz bo'ylariga bir yarashib turibdilar. Ular birdan "shaq-shaq"lab quvalasha ketdilaru o'sha qorong'i joylarga ham jon kiritib yubordilar.

Oq olmaning tagiga yetganda katta ariqdan sakrab o'tib, tutzor ichi bilan yo'l soldim. Burganlar tizza bo'yi bo'lib yotgan ekan.

Hammayoqni kakra hidi tutib ketdi. Aksirib-la yubordim. Lekin qaytish qayoqda! Tutzorni kesib chiqib ketmoqchiman. Ola qanotlarini yoyib, dumini eshkak qilgancha, ustimdan zag'izg'on uchib o'tdi. Ergashxo'ja amakining o'rigiga o'rlab ketgan aymoqi tokka chug'urchukdar chunon yopirilishibdiki, maktab ochib, bir-birlariga g'ujum yutishdan dars berib yotishibdi. Faqat kurkinaklar ko'kdan pastlamay, bir chiroyli quvlashmahoq o'ynamoqdalar.

Men tutzorni kesib o'tib, ko'cha yoqasidagi yong'oqzordan chiqib bordim. Kayfim chog', hech qanday mevaning betiga qaramay, hatto yangigina uchib tushgan zarg'aldoq xazonlar ustida yuzidan to'ri ko'chib, po'choqlaridan ajrab yotgan yong'oqlargayam parvo qilmay, goh u oyog'imda, goh bu oyog'imda o'ynoqlab kelyapman. (Qo'ltig'imga bo'y bezi kelib, allaqachon rasta bo'la boshlagan esam-da, bolaligim qolgani yo'q.) Men o'ynoqlamay kim o'ynoqlasin: akamni topdim, omonatni topshirib, javob-xabarini ham kennoyimning singilchasiga aytib ksllyapman.

- Voy, suyunchilik xabar-ku. Men opachamlarga ayta qolay, - deb chopqillab kirib ketganida surib yubora qoldim.

Qaytib chiqib, bir hayron qolsin: yerga kirdimmi, osmonga uchdimmi, bilolmasin. Opachasi - mening aziz Marg'u kennoyimni ham tasavvur etib turibman. Siniqqan yuzlari birdan ichidan nurlanib kelib, to'lin oy tusini ola boshlaydi-da, salga yosh halqalanib ketaveradigan ko'zlari javdirab bo'ysira singilchasini bag'riga tortadi. Keyin sutga chayilgandek nimjon qo'llari bilan peshonasini silab, "O'zimning popugim, beminnat xabarchimdan aylanay..." deb pichirlaydi. Shunda singilchasi meni aytadi. "Siz meni emas, Salom ammamning o'g'illarini alqang. Suyunchilikni o'shalar keltirdilar", deb bidirlaydi.

Kennoyijonim im qoqadi: "Men uchun shuncha yelib-yugurgan qaynijonimdan o'rgilay. Ilohim, ot bosmagan joylarni toy bosib, yaxshi joylardan ato qilsin. Allohimdan kechayu kunduz so'raganim bo'lsin", deydi yana ko'zlarida yosh halqalanib kela boshlab... Menga shu duosining o'zi kifoya. Baxtinga sog'-omon bo'lsin; sog'ayiblar ketsa, boshiga yog'ilgan manavi sho'rishlar arib, chiroyi ochilsa, akam bilan topishib ketsa, bas. Axir, kelin bo'lib tushsa, qayoqqa boradi? Mening chinakam aziz kennoyijonim bo'lib, shu uyimizga keladi-ku. Xonadonimizning bir safsar guliga aylanadi-ku.

Men shundayin o'ylar bilan ko'cha eshigimizdan kirib borsam, oyim supaning chetida muk tushib, sim-sim yig'lab o'tiribdilar.

Mendan battar qo'rqib ketdi. Qumri kennoyim tepalarida tipirchilab turibdilar.

- Voy, hay, opa, unaqamasdir? Siz o'ylaganchamasdir? Voy, hovliqmay mangina o'lay. Qayoqdanam shu xabarni ko'tarib chiqdim? "Oyi"lab menam chopib bordim:

- Oyjion, sizga nima bo'ldi?

Oyim bag'irlariga bosib, o'krab yubordilar:

- Bo'ylaring cho'zila qolsayam mayli edi, yigit yeta qolsang ham mayli edi.

Yuzlariga yuzimni bosib, yelkalarini silkilashga tushdim, shunday qilsam, balki hushlariga kelarlar, nima gapligini aytarlar.

- Ayta qolsangiz-chi, oyjion!

- Tog'ang boyaqish... - deb qattiqroq quchdilar oyim,- yolg'iz mehribonimiz, soyai davlatimiz... hammaga kuyib, hammaga yugurib-elib, o'ziga yugurguvchi topilmagan jigarginam!..

Hech narsaga tushuna olmay yelkam osha Qumri kennoyimlarga qaradim. Tog'amga bir nima bo'lsa, nega bu kishi qolib, oyim huni-biyron yig'lamoqdalar?.. Nega u kishi sochlarini yulib, o'krab-o'krab yig'lash o'rniga, oyimni yupatib yotibdilar? Shu vaqt kennoyim:

- Hay, opa, man anavi qirilgur adokatiga oboradiganimni oborib, uchrab-la keldim. Chiqarmay qayoqqa boradi?! - deb edilar, oyim shahd-la boshlarini ko'tarib, urushib tashladilar:

- Unda nimaga "opov"lab chiqdiz? Ukaginayiz qamoqdan armiyalarni afzal bilibdilar, deb? Sizmidiz o'sha?..

- Man, opa, man. Man befarosatginani kechiring! Chiqargan xatlarini o'shatta bittasiga o'qita qoluvdim. - Qumri kennoyim azza-bazza cho'k tushib qo'llarini ko'ksilariga bosdilar. - O'sha yarim-yorti o'qib, shundaykan desa, man o'lgur chopib kelavuribman, opov! Yuraklariz to'kilib ketdi, opajon, kechiring. Ana Maqsudxo'jayiz keldi, o'qitib ko'ring o'ziz!..

Oyim bo'shshdilar. Boshlaridan sirg'alib tushgan ro'mollarini olib, yoshlarini artdilar-da:

- Qani, o'sha ordona?.. Bering bunga, - deb buyurdilar.

- Mana, opajon, mana. - Qumri kennoyim unniqib ketgan duxoba nimchalarining cho'ntaklarini (hali unisini, hali bunisini) kavlashtira-kavlashtira, qat-qatlangan xatni topdilar. - To'tiyodek avaylab op-qo'yibman, opa, mana.

- Ol, o'g'lim, o'qib ber o'zing. Tog'ang boyaqish nelar dobdki ketar payti, - dedilar oyim diydalari yana yumshab.

Xat hozirgi imloda, ikki enlikkina ekan. Ammo aji-bujiligidan qiynaliblar ketdim boshlab olguncha. Lekin oyimgilar chidab, tishlarini-tishlariga bogib o'tiribdilar. Bosib o'tiribdilar-u, yuzlaridan duvva-duvva yosh dumalaydi.

"Abbos, o'zingni bos (deb boshlangan edi xat). Men ketadurgan bo'lib qoldim. Sudlashib yurguncha, shu ma'qul ko'rindi. Kechir, sizlarni yolg'izlatmoqchi emasdim. Ollohning xohlagani shu bo'ldi. Yuz yil izlashganda qilcha qing'irlik topisholmasdi ishimdan.

Mayli, shularning ham sazasi o'lmasin! Ketsam, ketaqolay. Umrim tergov berib o'tgandan, shuyam afzal. Faqat ranjima mendan,

27 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

saharlarda duoga qo'shishni unutm. Jo'nashimni o'zi xohlabdi, o'zi qo'llagay. Bizlarni urug'igacha quritvoramiz, deganlar ko'p chiqqan... Abbos, bolalar o'ksimasin. Bilaman, sen tilla xotinsan! Chayirning chayirisan. Tosh kelsa kemirib, suv kelsa simira olasan. Jujuqlarni o'zingga ishondim, seni esa, yolg'iz Oллоhimizga. Undan sabr tilanglar. Salom opamdan o'rgan qanoatni. Fildek bardoshni. Ularga suyan. Anuv ozgina sarmoyani esa, behuda sarflab yurma bularga. Qaytaga bolalarni o'qit. Erta birisi kun aqlini tanib qolsa, xor bo'lmaysizlar.

Robbim o'zi to'zim bersin sizlarga.

Otangiz Qo'ldoshxo'jadan deb bilursizlar".

Oyim piqillab yig'lab berdilar:

- Boyaqish ukaginam. G'ururi yo'l bermagan jigarginam. O'shalarning ham sazasi o'lmasin, deb ketaveribdi. Uning o'rnida boshqasi tupurardi o'sha sazasiga! Bu... bu... bu...

Oyimga Qumri kennoyim qo'shildilar sim-sim yig'lab...

Men esam, ich-ichimdan alam uyg'onib, (urug'imizgacha quritvормoqchi bo'lgan kim ekan, shu Akmal o'rislarmi deyman-u), ikkalalarini yupatishga bir og'iz so'z topolmayman.

Shu mahal oyim ko'zyoshlarini etaklariga artgancha, oirdan chappa jahllari tutib, Qumri kennoyimga o'girildilar:

- Hoy, Qumrixon, men sizga nima devdim? Qani, topgan odamiyiz qaysi tog'ni qayirib berdi?

- Voy, opov, nimasini aytasiz-ov? Kimga aytaman dodimni-yov? - Qumri kennoyim to'lib turgan ekanlar, tizzalariga mushtlab "yov-yov"lab qoldilar-ku. - Chuv tushirganda-tushirdiki, baloginalarga qovrulgur-ov.

- Hoy deganga qaramay, tashmalayverdingiz-tashmalayverdingiz. Ing desa oboraverdingiz, qo'lini urib qo'ymabdi-ku! Ishqilib birovdan qarz-qurz ko'targan emasmidiz?

Qumri kennoyim bo'zlay turib, oyimning yelkalaridan quchib oddilar:

- Man go'lginani kechiring, opajon! Sizga quloq ossam, shu kunlar yo'q edi, shu sho'rishlar yo'q edi. O'lganni ustiga chiqib tepishlarini men qaydan bilayin, opajo-on! Bu zamonda kuyganni talaydiganlar chiqib ketganini bilmabman-ov!

- "Opajon"lamay keting, - deb jerkib berdilar oyim, - tushunganroq odamdan olganmisiz, yo?..

Kennoyim xiqillab, yuz-ko'zlarini artdilar.

- Hakimbek akalaridan so'ray qoluvdim...

- Haytovur-haytovur, - deya oyim ro'mollarini to'g'rilab, o'rinlaridan tura boshladilar. Hovurlaridan tushmay yana koyidilar: - Boshqa odam bo'lsa, kunda so'rab kelavursa, bitizsi sotib berarmidiyiz, Qumrixon?

- Yo'g'-e, - dedilar kennoyim ishonmay.

- Ha-ha, endi olib bo'bsiz! - dedilar oyim.

- Voy, o'lay, hali so'rab-la boramanmi? Bitmagach, qaytarib bermaydimi, opa? - dedilar u kishi.

- Qaytaradi, olib keli-ib, uzrlar ayti-ib tashlab ketadi. Sana-ab olasiz! - dedilar oyim va shahd obdastani olib, nari ketdilar.

Kennoyim damlari ichlariga tushib, o'tirib qolavurdilar, oyim yuz-ko'zlarini chayib, oshxonaga qaytdilar. O'qrayib o'tib ketib, o'choqboshidan ovoz berdilar.

- Pochchaning kuyovlari raniy bo'lib qaytganmish. Katta ishlarda yuradigani-chi? O'shanga borasiz.

- Onamni Novzadagi kuyovlarini aytasiz-da? - Qumri kennoyimga jon bitib, oshxonaga pildiradilar. - Rahmatillaxonmida?

- Najot o'shandan. Bir siyosat qilsa, qaytaribam beradi, qarzdanam qutulasiz. Hozir zamon-zamon - otliqning zamoni.

- Voy, opa-ey, yaxshiyam siz borakansiz, bo'lmasa kimlarga sarg'ayardim? Iloho, dunyo turguncha turing.

Kennoyim alqab-alqab chiqib ketdilar. Men esam, Izzaga otlandim. Issig'ida sigirimga o't g'amlab qo'ymasam, sut qayoqdayu qaymoq qayoqda. Oyim dalaga chiqmay, ko'chib kelganimizdan beri moshinachilik qilib, kiyim tikiyaptilar. Tog'am kattalar bilan gaplashib, daladan ozod qildirib qo'yganlar. Ular ham o'sha yoqdan urushga ketgan bo'lsalar, endi holimiz nima kecharkan - bilmayman. Mo'ylovlarining tagidan jim-sassizgina, issiq iljayib qo'yishlari shunday ko'z oldimda turibdi. Haftada bir otlarining boshini burib, kirib borishlari, opa, qanday o'tiribsizlar, qachon ko'chirib ketay, deb hol-ahvol so'rab qo'yishlari bor edi. Tog'am ham katta davlatimiz ekanlar...

G'umayni arqon qilib o'rib, o'tni bog'ladim-da, orqalab chiqib, Izzaning bu betidagi tolning tagiga - hov o'sha Mimit buva bilan suhbat qurgan joyimizga cho'zildim. Vaqtning o'tishini qarang-a, yaqinda men Izzaning narigi yog'ilik, mehmon bola edim. Endi berigi yog'idaman. Buva har ko'rganlarida:

- Qalaysiz, eshon bola, buvalaringizning yurtiga kelib olib, Yakkabog'ni sog'inmayapsizmi? - deb iljayib qo'yadilar. Sog'inmay bo'larkanmi! Sog'inganimda chimga mana shunday chalqancha yotib olaman-da, eslay ketaman. Shunday kezlar juda maza-da, nihoyati ko'zingni yumib, atrofdan kelayotgan tovushlarga mahliyo bo'lib yotsang ham, har bitta tovush bir olam bo'lib, ko'z oldingga gavdalanib kelaveradi, kelaveradi...

Pastdan ship-ship qadam tovushi kela boshlab, sergak tortdim. Surgalibroq yurishidan qiz bolaniki qam emas, biz tengilarnikiyam, shunday chimzorda gur-sillabroq oyoq tashlashidan katta odam shekilli? boshimni dast ko'targan edim, kelayotgan odam: "Voy-hoy, kimsan-nimasan?" deya shaytonlab qolayozdi. Keyin ko'ksiga tuf-tuflab yaqinlashdi:

- Nauzambilloh, nauzambilloh, chuchkiribam qo'ymaysan-a, qizitaloq, yurakni chiqarding-ku? - dedi tanib.

Mirhomid amaki so'mkasini o't ustiga tashlab, oyog'ini uzatgancha, yonimga o'tirarkan, qitmiriligi tutib, gegishdi:

- Sendan bo'lagi bo'lsa, "tini-mini, juldur-jup!" derdimu qiz bola qilib qo'yardim. Ketimdan yig'lab yurarding keyin.

- Hecham-de, - deb nariroq surildim.

- Ishonmaysanmi? - U azza-bazza cho'kkalab, kaftini kaftiga ishqadi. Men o'takam yorilib... ham kulgim qistab, yana nariroq jildim:

- Ishondim-ishondim-ishondim.

U issiq jilmayib, boyagidek oyog'ini uzatib o'tirib oldi:

- Ha, mayli, sen o'zimiznikisan...

Men azza-bazza qiziqib, yaqinroq keldim:

- Rostizsi ayting, shunaqa qilib qo'ya olasizmi?

Mirhomid amaki yana quv nigohini o'sha yerimga tashlay boshlagan edi, yuragimga g'ulg'ula tushib, narigi yonimga o'ngarila, turib ketdim:

- Yo'q-yo'q, behazil-da - U kuldi:

- Ha, ana, behazil bo'lsa, behazil. - U o'tiravur degandek imo qilib, endi nosqovog'ini olib, bamaylixotir kaftiga nos to'ka boshladi.

Keyin tilining tagiga tashlab, labining chetida iljaydi: - Ishtashang shu o'tirishingda yetti qavat oshmonga opshiqib-optushman...

Qo'qmiyshanmi?

Men cho'kkalab olib, amakining boshdan-oyog'iga ishonqiramay tikildim. - U og'zidagi nosi suv ochib, labini cho'chchaytirib, boyagidek iljaydi:

- Yo'q, shen shordana qurib... O'tirvol-da. Men uning hazilini tushunib qolib, kuldim.

- Balki tahorat qilib olarman?

- Ha, darvoqe, - deya u og'zidagi nosni pastqamlikka "otib", menga o'girildi, - tahorat lozim. Sengayam, mengayam.

Men dovdirab qoldim: hazil desam, chindan mo"jiza ko'rsatmoqchimi bu odam. Rosti, yuragim chopmay:

- Unda, unda boshqa bir gal ekan-de, - dedim sir boy bermay.

- Boshqa gal bo'sa boshqa gal-da, pakana pari. Sen boshqachasan. Sendan bo'lakka bunaqa qudratimning urvog'iniyam ko'rsatmasman.

Yopiray! Qarshimda chindanam ilmi simiyodan xabari bor odam o'tiribdimi yo u meni kalaka qilyaptimi? Shoshma-chi, deya qitmirligim tutib ketdi.

- Unla anuv shapaloqday kitobni ko'rgan ekansiz-de?

- Ko'rganda qandoq!

- Demak, o'qigansiz, shundaymi? - Men ijikilashga tushdim.

- He-e, qayoqda! Bizning tishimiz o'tmaydi! - dedi u qo'l siltab.

- Unda, unda qanday osmonga opchiqib... optushmoqchisiz?

U quv ko'zlarini qisib, iljaydi:

- Bir opchiqib, optushgim keldi-da, pakana pari.

- Hazilingizni qarangu... - dedim kulib.

- Xafa bo'lmaysan, men haddim sig'ib-da, pakana pari, - deb qo'ydi u va oftob urganda qaynatib, suviga cho'milinadigan ko'kishtob o'tni yulib, binafsharang guliga hardamxayol tikilib turdi-da, o'tni tashlab, engahini siladi. - Darvoqe, uyda kim bor?

- Oyim borlar, nima edi?

- Tur, ketdik. Menga dalda bo'lib turasan.

- U nima deganingiz?

U tizzalari qisirlab o'rnidan turdi-da, sumkasimi olayotib nochor iljaydi:

- Oldilariga solib quvvormasinlar tag'in. Men hech narsa tushunmadim:

- Nega quvadilar?

- Yuravur-chi, - deya jiddiy bosh irg'adi po'chtachi amaki va o'tni g'umay-arqog'idan ko'tarishib, yelkamga olishib yubordi-da, o'zi izimdan ergashdi.

Tavba! Nega quvib solarkanlar oyim? Yo o'zi shunaqa xabar bilan ketvottimi?

Eski o'yma gulli, yolg'iz tavaqali eshigimizga yetib, o'tni yong'oqning tagiga itqitdim va "keling", deb o'girilsam, Mirhomid amaki ostonadan o'tolmay, iymanib turibdi.

- Ha, kiravurmaysizmi? - dedim qistab.

- Bormikanlar? - dedi u hamon alanglab. Men ichkariga qarab, chaqirib boraverdim:

- Oyi, qaytdasiz, mehmon opkevtoman.

Oyim etaklarida jiyda, ishkom ortidan chiqib kel-dilar:

- Sennisan, bolam, opkiravur, mehmondan aylanay. Zinaning oldiga kelib, po'chtachiga ko'zlari tushdiyu kapalaklari uchib, to'xtab qoldilar. Qarasam, Mirhomid amaki bir xatni... (ko'rib, meni yuragim ham orqasiga tortib ketdi: tog'amga bir narsa bo'bdimi deb), bilagiga urib, nima qilarini bilmay turibdi. nix,oyat, po'chtachiga til bitdi.

- Opa, mani kechiras, boshqalarning tashvishiniyam sizga ko'tarib keldim, - dedi.

- Tashvish?... - dedilar oyim eslari og'ib.

- Bu o'zi Asol opamlarga tegishli. Lekin nima debam oboray?

- Nima dediyiz? - Oyim hushlarini yig'ishga urinib, bir qadam bosdilar.

- Manavi dardisarni-da.

- Tushunmadim, nima u? - Oyim etaklaridagi jiydani zinaning shunday biqinidagi chelakka solishni xayollariga keltirmas edilar.

- Janozadan keyin qora xat keb tursa, nima deyarnginiyam... - deb ming'irladi amaki.

- Voy o'lmasam, Bahridinginadanmi? - Oyim yuzlarini qo'shqo'llab changalladilar, etaklaridagi jiyda yer bilan bitta bo'lib ketdi. Shu barobar ko'cha eshik qattiq-qattiq taqilladi:

- Hov, Salompa?! Kim bor? - Hammadan ham men cho'chib tushdim. Chaqirgani mayli, zardasi olamni buzardi.

Oyim ovoz berarga ham hollari kelmay, o'sha alpozda eslari og'ib turarkanlar, Mirhomid amaki eshikni kattaroq ochib qaradi:

- Nima deysiz, kiravuring-da. Eshigimizning turumini buzgudek taqillatayotgan kim ekan, deb qo'rqa-pisa o'sha yoqqa yurdim.

Qarasam, ostonada... O'sha meni Qang'lida ushlab olib, sallotlarga bervormoqchi bo'lgan movut shapka - Akmal o'ris turibdi.

Yuzlari bo'g'riqib, qora qizil bo'lib ketibdi. Qo'lida qamchisiyam bor. Men uni o'shandan beri endi ko'rishim edi, taqqa to'xtab qolibman. U ham meni ko'rib, tanidi. Esladiyam, lekin parvosiga ilmay, to'g'ri hovliga kirib kela boshladi. Nimagadir shahdi buzuq. Nima balo, ko'rmi, yarim yo'ddanoq oyimlarga dag'dag'aga tushsa bo'ladimi:

- Qani bu - anuv zo'ringiz? Indamasa, ja haddidan oshavurarkan-da?

Oyim endi o'zlariga kelib, yerda cho'g'dek sochilib yotgan jiydalarni bosib oladigandek tisarildilar va aylanib o'tib, Akmal o'risga qarab yurdilar. Hozir boplaydilar, deb turibman ichimda. Lekin u qani sez-sa, tobora balanddan kelyapti.

- Shunaqa beboshvoq qo'yvorganmisiz hali? Oyim uning ro'parasiga borib to'xtadilar va:

- Kim? - dedilar go'yo anglamagandek.

Akmal o'ris mosovsirab qoldi. Oyimning vajohatlaridan cho'chib, bir qadam tisarildi. Lekin past tushgisi kelmay to'ng'illadi:

- Kim bo'lardi! O'sha muttaham asrandilaringiz-da. Hukumatning yuz-xotirini biladimi o'zi?

- Mening nechta asrandim borakan va hukumatni qaysi arpasini xom o'ribdi? - dedilar oyim ko'zlarini o'kday qadab.

Akmal o'ris qo'l silkiladi:

- Menga bunday qaramang!.. Unday qaraguncha...

- Yo'q, sen ayt, mening nechta asrandim borakan va... - deb gaplaridan qolmadilar oyim.

- Sultonmurodingizda o'sha... - deb javob qilishga majbur bo'ldi u.

- Xo'sh? - dedilar oyim.

- Ko'rmaysizmi o'zini! Ko'chirvoraman deydi! Uch soat muhlat qo'yib ketipti! Nima, Kattabog'ni hokimi u ekanmi, muhlat qo'yadi? Hukm chiqaradi? Kim bo'пти?! Nari borsa, bir ot o'g'risi, qochoq - dizirtir-da.

- Hoy, shang'i! - dedilar oyim kesib. - Sen o'zi kimning uyiga kirvolib shang'illayapsan? Seni kim chaqirdi? Muhlat bergan kimu kimning oldida turib-san? Erkak bo'lsang, bor, ana, o'zining oldiga! Bu yerda nima bor? - Oyim zo'r ekanlar, ikkita gap bilan popugini pasaytirib tashladilar. U tisarila borib, axiyri yalinib-yalpog'lanishga tushdi.

- Hoy-hoy, hoy opa! Jon opa, avval eshiting. Qizishib ketgan bo'lsam, kechiring.

Oyim siltab tashladilar:

- Opa dema-e!

- Xo'p, Salompa.

- Nomimni tilga olma!

- Xo'p, mendan o'tibdi, men benovat. - U nochor-ioiloj qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

Oyim undan yuz o'gira turib, sal yumshaganday bo'ldilar.

- Nima deysan?

- Shu... shu ukamizga aytsangiz, - deya u hayiqib, ham elanibroq tikildi, - bu shahdidan qaytsa. Oltmishga kirgan onamiz zor qaqshab ostonada o'tiribdilar.

Oyim kampirni eshitib, bo'shshadilar.

- Nimaga ostonada o'tiradilar?

- Aytdim-ku, Sultonmurodiz muhlat qo'yib ketibdi. Ko'chsa - ko'chdi, ko'chmasa, mendan ko'rmasin deb. O'zingiz o'ylang, opa, bir yerga ko'ch orqalab... boradurgan zamonmi?

- Unaqa zamonmas, - dedilar oyim va yana ayni-dilar: - Men kimmanki, o'rtalaringga tushsam?

- Bilaman, hamma sizga keladi, siz odil xotinsiz. Sizzi gapizzi ikkita qilolmaydi hech kim.

Oyim achchiq kuldilar:

- Shunaqami? Odil ekanmanmi?

Akmal o'ris bir narsa sezganday tovsillanib qoldi. Oyim esa, dona-dona qilib, qaytardilar:

- Odil bo'lsam, agar qozilik menga qolsa, bilasanmi, nima hukm chiqarardim?

- Nima?

- U uch soat muhlat beribdi-ku, men bir soatga qoldirmasdim... Sen bizga el bo'ladigan odam ekansanmi? Sen odamlarning ichida bitgan qoramug'san, xasmolsan-ku! Sen o'tirgan yerni qirib, kuydirib tash-lash kerak! Ana, eshitib ol bahoyingni! - dedilar qo'l sermab-sermab.

- E, qo'ying-e! Sizni odam deb kelib yurgan men ahmoq! Uni buzganam o'ziz ekansiz-ku! - Akmal o'ris qamchisini etigining soxtiga shart-shurt urib chiqib keta boshladi. - Ko'raman o'zining boshiga shu kunlar qaytib kelmaganini! Chiranmasin, hukumatni qo'li Kattabog'ga yetmaskan, deb! Hali shunday sho'rishlarni boshlaringga solsinki, xo'ja bo'lganlaringga yetti pushmonlar yelaring!

U eshikni taraqlatib yopib, chiqib ketdi.

- Har ne kelsa, Xudodan ko'rdik. Tepada ulug' hakam - O'zi bor, - dedilar oyim kutilmaganda mo'min tortib va supaning bir chekkasiga jim cho'ka qoldilar.

Tavba. Kechagi voqealardan yer yorilib, osmon qulab tushishi kerak edi. Tushmadi. Janozayam o'tdi, sallotlari ham ketti.

Hammasi tinchidi, deb o'tirsak, bugun Mirhomid amaki qora xat ko'tarib kepturibdi. Qay biriga ishonasan? Xatgami, janozagami?

Bu yoqda yana anuv Akmal o'risning mashmashasi. Akam unga muhlat qo'yib ketganmish. Nimalar bo'lyapti o'zi?

Bu orada oyim sal o'zlariga kelib, sochlarini tuzatgan bo'ldilar-da, ro'mollarini qayta o'rab, o'rinlaridan turdilar. Na ketarini, na ketmasini bilmay turgan Mirhomid amakiga yuzlanib:

- Mayli, tashlab keta qoling o'sha dardisarni, - dedilar qult yutinib. - Sultonmurod kelsa, ko'rsatarman. - Keyin olib, uy tomon yurgan joylarida bir nimani eslab, yana qayrildilar: - Faqat, shu gap shu yerda qolsin. Asol opam bilmaganlari, yaralari yangilanmagani ma'qul. Bahriddinginayam yotgan joyida tinch yotsin. Maqsudxo'ja, senam eshiting-a?

Men bosh silkib ulgurmay, u kishi ichkariga qarab yurdilar. Biz esa, tashqariga.

"O'ronni Ayt, Joningda Umiding Bo'lsa"

Oyim ikki kosagina sho'rva qilibdilar, qovog'ini alohida, sho'rvasini alohida suzib keldilar. Men dahlizga joy sola qolgan edim, chiroqni yoqib, eshikni sptirib qo'ydilar:

- Qarab turib, salqin tushib qopti-ku, bolam. Boyaqish akanglar nima qilishyapti ekan?

Men Bo'zsvuni qarargoh tutib yotgan akalarimni eslab, achinib ketdim: bu yerda shunchalik xurillatib uryapti, u yoqda qanday ekan?..

Xayolim qochdi, chor tarafga jimjitlik, shomdan keyingi bir g'aroyib xuftonoldi sokinligi yog'gan. Hatto chiroq piligi qilt etmaydi, tinch yonmoqda. Faqat uzokda, balki Tuvakning oxirida - Qo'shilishdadir - yolg'iz laycha it jonini jabborga berib akillayaptiki, shu ham sokin kechaga yarashib turibdi.

Oyim qozonni yuvib keldilar, moshinalarini tokchadan olib, xontaxtaning bir yoniga o'rinishdilar. Msn hamon xayolim qochib, Jamshidshohning jomiga tikilganday, derazamiz ko'ziga qadalib o'tiribman: oyimning jim-jim, ishlarini bilib qilishlariga mahliyoman. Hech zerikmaganlari-chi. Charchamaydilar go'yo, orдона qolsin, yotdim, it ham, qush ham tindi, men-chi, demaydilar.

Ishni endi qo'lga oldilar, hali hov qachongacha o'tiradilar. Moshina qulog'i guvva-guvva aylanaveradi, oyim shig'illatib kiyim tikaveradilar. Men tizzamda kitob, oynadagi aksimizdan ko'z uzmayman. O'tiribman xayolga tolib.

Nihoyat, moshina shirillashidan zerikdilar shekilli, oyim ipni uzib, kiyimni tizzalariga oldilar va chokini yo'rmalarkanlar, sekin xirgoyi boshladilar.

B B B B To'ti qushning,

B B B B To'ti qushning

B B B B bolasidek,

B B B B Sen unda zor,
B B B B Men bunda zor.
B B B B Sarposiga...
B B B B Sarposiga
B B B B o't tushsun-e,
B B B B Sen unda zor,
B B B B Men bunda zor...

Oyim bosh ko'tarmay aytyaptilar-u, mening xayolimdan Sultonmurod akam bilan Marg'u kennoyimning savdolari o'taveradi, o'taveradi.

Bir kuni oyim kechki ovqatga o'tirayotganimizda (u vaqtda Sultonmurod akam arava minar, Marg'u kennoyimning yo'lini poylab yurgan kezlari edi) tergap qoldilar:

- Hay, Sultonmurod, san esingni yig'ib ol. Ko'pam bu kashmirilarning qiziga aylanishaverma. Bahridin nima bo'ldi? Bir marta tilimiz kuygani yetar...

Akam xaxolab kuldi, kulib yengmoqchi bo'ldi.

- Voy, xola-ey! Juda ajoyibsiz-da. Har bitta begona kashmiri bo'lavursa, sog'i kim qoladi?!

- Sen kulma. Bular shunday ustaki, ko'zingga qarab turib, avrab qo'rganini bilmay qolasan.

Akam yana kuldi. Uning kayfi chog' edi.

- Ko'zingga qarab turib deng, a?!

- Ha, qarab turib, duosini o'qib qo'ysa - tamomsan. Oyisining parilari borligini, childirma bilan odam o'qishini bilmaysanmi?

- Bilaman, - dedi akam o'sha-o'sha kulib.

- Bilsang, nimaga kulyapsan? Akam gapini yalpizlashga tushdi:

- Yo rostdanam-de, xola. Hamma qatori bir qiz-ku.

- Ho-o, - dedilar oyim cho'zib, - hamma qatori ekanmi, voy tovva-ey.

- Boring, ana, sal ko'xdirokdir.

- Yana-chi?

- Sal... sal, nima desam ekan, - deb yamlandi akam va kuldi. - O'zingiz mendan yaxshi bilasiz-ku.

- Ha, bu boshqa gap. Ko'zingni shamg'alat qilib, nimadir ichirib qo'ygan-u, yana tan olging kelmaydi.

- Voy xola-ey, mening ko'zimni shamg'alat qila olarmidi?

- Rahmat, keling, ichkari kiring. - Oyim mehmonga yo'l berib, chetlandilar. U ham tisarildi.

- Rahmat, men birrovgina kelganman. Sultonmurod akamiz bu ukachasini ola kelsang deb...

Men yuragim gupillab urib, "Qarorgohgami?" devorgim keldi. Oyim rozi bo'laqolsalaru bu odamning otiga mingasha qolsam.

Shunaqa uchib-qo'nib turibman.

Ammo oyimning yuzlari tunddashib, allatovur norozilik qosh-kipriklari tomon bosib keldi.

- Nimaga kerak bo'lib qolibdi? - dedilar ensalari qotib.

- Zarur ekan, shekilli.

- Zarur gapi bor odam o'zi kelavurmaydimi? Men bir nima deya olmay turibman.

- Gapimas, ishi bor, - dedi xabarchi.

- Ishi bo'lsayam!.. Elchi kalovlandi:

- Ishonmayapsizmi, xolamoyi? O'zim oborib, o'zim obkelib qo'yaman.

Ammo oyimning yuzlarida qani o'zgarish ko'rinsa, unamay turibdilar. Mening esa, ichim tushib boryapti. Haytovur, elchi xatosini fahmlab qoldi:

- Aytmoqchi, bir xat borakanmi? - dedi menga.- Shuni olib borarkanmiz.

Oyim menga o'girildilar:

- Qanaqa xat?

- Anuv po'chtachi keltirgan xatdir-da, - dedim hovliqib.

- Ha, umi? - Oyim bir oz yumshab, choparga qaradilar. - Shunaqa demaysizmi?

- Kechirasiz, tushuntira olmabman, - dedi u.

- Chop, olib chiqaqol. Tokchada, anor gulli bo'ka choynakning ichida turibdi.

Men qayrila, ichkariga uchdim. Bir yoqda ichim qizib, yuragim toshib boryapti: hazilakam gapmi, qarorgohga borarkanmiz! Va nihoyat har xil o'g'ri-kazzoblarni, qochgan-quvgan qaroqchiyu yo'lto'sarlarning adabini berib Kattaboqqa yo'latmayotgan yigitlarni, ularning qo'rboshisini qarorgohlarida ko'raman! Rostdanam uni shunday atasharmikan? Yo qo'mondir deyisharmikan?

Otga mingashdim. Oyim eshik tagida, qo'lda chiroq: - Hay, men kutib, uxlamay o'tiraman-a, - deb tayinlab-tayinlab qoldilar.

Ketyapmiz. Akrom tog'amgilarining eshigidan burilgan bog'ko'cha bilan. Bog'ko'chaki, daraxtlar o'rmonday o'rab ketgan, tepasida tutashib, ishkombol bo'lib yotibdi. Na osmon ko'rinadi, na yulduzlar. Har yer-har yeridagi yakka tavaqali pastak eshiklar g'ira-shira g'or og'ziga o'xshaydi...

Ot juda yo'rg'a ekan. Qorong'i ko'chada ham hurkimay, yo'lini topib boryapti. Tuyuq tovushi tuproqda susayib, zarangga borganda jaranglaydi. Hatto "taraqa-taraq"lab ketadi. Bu ko'chada uchta xolam turishadi. Boshlanishida Mubor xolamlarniki bor. Katta ish-komzor bog'laridan keyin Hidoi xolamlarniki boshlanadi. Keyin oxirida - Bo'zsvu tepalariga yaqin joyda Oyposhsha xolamlarniki.

Ularning bog'i haligi "G'ani - boshing qani" qorovul bo'lib turgan qovunpolizga borib tutashadi. Men bu yerlarga ko'p kelganman, xolavachchalarim bilan bu bog'larning bir yarim paxsali devorlaridan ko'p oshib, unisidan bunisiga o'tib yurganmiz. Ko'zimizni bog'lab qo'ysa, chillakiyu daroyi bitadigan ishkomlarni topib bora olamiz. Lekin hozir ko'cha bir g'aroyib, ertaklardagidek sirli va jim-jit edi. Xuddi boshqa bir olamga, boshqa bir mamlakatga tushib qolganga o'xshaymiz.

Nihoyat, Allon otaning eshigidan o'tganimizda, oldinda g'orning og'zidek oqarishib, ko'chaning oxiri ko'rindi. Shu vaqt chopar ot jilovini bexos tortdiyu u jonivor dabdurdustdan to'xtay olmay qayrilib, gir aylandi. Va men ustidan uchib ketdim.

- E-e, chitton ukam, qanisan? Qayoqqa uchding? - dedi otliq meni yo'qotib qo'yib. Ammo u tushguncha, men sapchib turib, ust-

boshim, tizzalarimni qoqa boshladim.

- Ey, xayriyat-xayriyat, - dedi u yelkamdan quchib,- yomon tushmadingmi?

31 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Men tirsagim jizillab achishayotgan bo'lsa-da:

- Yo'q-yo'q, hechqisi yo'q, - der, qayoqqadir uchib ketgan do'ppimni izlab topolmas edim. Bu yer haybatli azim yong'oqlarning tagi bo'lgani uchunmi, juda qoron-g'i edi. Do'ppimni paypaslay-paypaslay zo'rg'a topdik.

- Endi bunday qilamiz, - dedi u nihoyat xijolat aralash, - sen otga minib olasan, men yetaklayman.

- Yo'q-yo'q, men orqangizdan chopib boravuraman, - dedim unamay.

U ko'nmadi.

- Taamil shunday, - dedi, - qarorgohimizga hech kim kirishi mumkinmas. Kirsayam, ko'zini bog'lab olib kirib, olib chiqamiz. Xafa bo'lmaysan sen ham. - U belidan bitta qiyig'ini yechib, ot jilovini bilagiga soldi. Belbog'ni ikki-uch aylantirib, ko'zimni sirib bog'ladi-da, ustidan paypaslab qo'ydi. - Qattiq tortvormadimmi?

Sal bo'shattirgim kelib tursa-da, aytgani uyadim.

- Endi oyoqni uzangiga qo'yib... - U meni otning oniga olib borib, tovonimdan asta ko'tardi. - ... ha, mana shunday qo'yib, egarni ushlaysanu... dast ko'tarilib, bunisini egardan oshirasan. Qani, mindik.

Ot jonivor pishqirib, tipirchilab turibdi. Ustimga qaysi begona minyapti ekan, deyaptimi?.. Hali oldinga, hali orqaga borib keladi. Men esam, yorug' kunda ot minmagan odam, uzangiga oyog'imni qo'yib siltanib, chapini oshirdimu quling o'rgilsin egarga qo'ndoqday joylashib oldim.

- Ha, barrakalla. Ana endi egarning qoshini mahkam ushlab, ikkala oyog'ingni ham ayilga tiqib ol. Qo'rqma, men yoningdaman, - deya ot jilovini silkiladi: - Chu, jonivor.

Men qalqib, egar qoshini mahkam changalladim. Oyog'im osmondan bo'lib, egardan uchib ketishimga bir bahya qoldi.

Sal o'tmay, otning lo'kir-lo'kiri hech gap bo'lmay ancha egarga o'rganib qoldim. Ketyapmiz-ketyapmiz, baland chiqib, past tushib, yana aylanma, bahavo yo'llardan o'tib, qani mening tasavvurimdagi manzilga yetsak. Allaqachon Bo'zsuv bo'yiga borib, otdan tushib, yolg'iz-oyoq yo'llar bilan suv yoqalab, qamishzorlar oralab ketgan bo'lishimiz, jilla qursa, yovvoyi yalpiz hidlari aralash anuv katta suvning hidi dimoqqa urilishi kerak edi. Yo'q, allaqanday so'qmoqdan hamon ko'tarilib boryapmiz. Yo'llaru qayrilishlarda necha tunqorovullardan o'tdik. Ular allaqaysi o'r yoki qirdan:

- Kimsan, to'xta! As-saloming qani? O'ronni ayt! - deb chiqishadi.

Xabarchi-chopar hammasiga bir xil:

- Assalomu alaykum va rohmatallohi va barakatuh, - deb boryapti. Ular:

- Maqsuding nima? - deb so'raydilar.

- Al-qasosu min al-haq, - degachgina:

- O't, - deb ruxsat beradilar.

Axiyri uchinchi tunqorovuli tepamizdan tushib keldi:

- Qayt, otilasan!

Ot hurkib, so'qmoqdan toyilib, orqa oyog'i allaqanday ariqqa tushib ketdi. Suvu loy chaloplab, ot quruq yerga chiqishga unaldi.

Men esam egarga yopishdim.

- Menman, Xudoynazar, в Ъ”в Ъ” dedi chopar ot bilan ovora ekan.

- Sen-peningni tanimayman. O'ronni ayt, joningdan umiding bo'lsa!

- Xo'p, ana: "Assalomu alaykum va rohmatallohi va barakatuh". Ko'ngling to'ldimi?

- "Ana"ng nimasi? Maqsudingni ayt!

- Bir kunda necha marta so'raysan, xumpar?

Soqchi ko'nmadi:

- Qoidali qilib ayt.

- Al-qasosu min al-haq. Ko'rmayapsanmi, odam olib kelyapman?! O'tag'asining topshirig'i bilan.

- Menga desa, tilla obkelmaysanmi! "Assalom"ing bo'lmasa, peshonangdan darcha ochib yuboraveraman. O't, - dedi u "xon"ligidan tushmay.

- Senam shoshmay tur, qo'linga tusharsan, - dedi bu ham kulib, - xap saloming bo'lmasa, ikki yamlab bir yutay.

Kimdir shipillab kelib, otning jilovini oldi.

- Buningning sumakday burnichasi-chi? Xalaqit qilmaydimi? - deb "qih-qih"lab kuldi.

- E, darvoqe-ya, - dedi Toyir aka. - Keyin bunaqa burunni qaerdan topamiz!..

- Hov, o't-o't, ko'p mahmadana bo'lma, qulog'ingni chinqoq qilib qo'ymasimdan.

Qikir-qikir bilan elchi tirsagimdan ushlab tortdi:

- Tushaqoling, janoblari, yetib keldik.

Men chap oyog'imni ayil orasidan chiqardim oldimdan oshirib o'tkazmoqchi edim, eplay olmadim. Elchi kuldi.

- Iya, chavandoz, ko'zni chirt yumib, minvorgan edingiz-ku.

Aytmoqchi, bunday edi-ya! Og'irligimni bir oyoqqa solganicha, yolg'iz uzangida dast ko'tarildim-u, egarni ko'yib yubormay, bu oyog'imni ot ustidan oshirdim. U esa, qo'ltig'imdan ushlab, yengil tushirib olarkan:

- Ha, barakalla, bu boshqa gap, - deb qo'ydi va oldinga o'tdi. - Endi mening qiyig'imni qo'yvormay, orqamdan yurasiz.

Uning etigiga qoqila-qoqila borib, zinalardan tusha boshladik. Pastdan nam tuproq isi gurkirab kelar edi. Nari borsa, bir hafta burun qazilgan-ov. Tekis joyga tushganimizda birov pang' ovozda:

- Ha, olachipor, senmisan?! Yechaqol ko'zini, qiynab qo'yibsan-ku, bolapaqirni, - dedi. Undan moxorka hidi anqir, hozir ham chekayotganga o'xshar edi.

- Bumi, bu zo'r! G'ing degani yo'q gyauncha joydan beri, G'ulom akasi, - deya chopar ko'zimdagi belbog'ni bir tortvorgan edi, shunday qattiq bog'langan narsa, sirg'alib chechilib ketdi.

Hech narsa ko'rmay ham, ajratolmay ham qoldim. Sruqqa qarasam, ko'z oddim qamashib ketayotibdi, jon qolatda bosh chayqab, ko'zimni olib qochdim. Moxorka x,idi gurkirab kelayotgan haligi odam yelkamga qoqdi:

- Qo'rqma, pakana pari. Bu Toyir zakun shunaqa, sshtilganday bajarmasa, xotini taloq bo'ladi.

Xiyla vaqtdan keyin boshimni ko'tarsam, adyol osilgan pastak eshik yonidagi kamgakda taqa mo'ylovli bir odam tizzasiga miltig'ini qo'yib o'tiribdi. U ko'zimni ochganimni ko'rib, qoshiyu mo'ylovini o'ynatib, iljayib qo'yib, choparga:

- Opkiravur, zakun, nima, sengayam alohida takalluf zarurmi? - deb kuddi.

Toyir zakun to'nining barlarini tortib, belbog'ini to'g'rilagan bo'ldi va askarlarday qaddini g'oz tutib:

- Yolg'izlarmi? - dedi adyolni ko'tarishga yuragi dov berinqiramay.
- Birov bo'lsa, men seni qo'yarmidim, ovsar, - dedi amaki chakkasiga barmog'ini nuqub kulganicha.
- Ha, endi xo'jayinning fe'llarini bilasiz-ku.
- Bilaman-bilaman. O'zi senlarga shunaqa bittasi kerak. Bo'lmasa, o'zing xon, ko'lankang maydon bo'p ketasanlar. Bor, kiravur, men ruxsat berdim.
- Hay, kirsak kirdik, - deb u adyol-eshikni shart ochib, bir qadam bosdi. Ammo: - Mumkinmi, Katta aka? - deguncha bo'lmay, adyol tushib, o'zi narigi yoqda qoldi.
Men tokchadagi osmachiroq oldida tik turgancha allanimani yorug'ga solib tozalayotgan akamni (uning orqasiga ilashgan soyasi yerto'laning yarmini egallab, vahimaning o'zi bo'lib qolgan edi) ko'rib, yuragim bir orziqib tushdi. Tomog'imga bir nima tiqilib keldi. Adyol orqasidan uning bo'g'iyo ovozi eshitiddi:
- Opkeldingmi?
- Opkeldim, xo'jayin.
- Opkir.
- Xo'p, xo'jayin!
U boyagidek shaxt bilan adyolni ko'tarib, bosh iring'adi:
- Kir, og'aynichalish.
Men ichkariga bir qadam bosib, to'xtadim.
Akam qo'lidagi tozalayotgan to'pponchani tokchaga, latta ustiga qo'yib o'tirildi, ammo betimga qarab ham qo'ymadi.
- Senga javob, Toyir. Faqat, uzoq ketma, - dedi choparga.
- Xo'p, xo'jayin, - deya Toyir chopar qayrilib chiqib ketdi.
Men akamni qanchalar sog'inib, ko'rishga o'lib-intiqib kelsam-u, u hushsizgina kutib olsa... Alam qildi.

Janozadan Keyingi... Qora Xat

Qarorgoh bizning dahlizdan ham tor edi. Pastak tokchali uy. Tokchayam faqat bir tomonida. Boshqa devori tekis qirqib tushirilgan. Tagida uch-to'rt odam zo'rg'a sig'adigan so'ri. Atrofiga yupqa ko'rpacha bilan po'stak tashlab qo'yilibdi. Xontaxta ustida qalin muqovali katta kitob. Xuddi oyim har zamonda hijjalab o'qib qoladigan kitobga o'xshaydi. Qur'on shekilli.
U nihoyat moylattani tokchaga tashlab, xiyol ochilibroq qaradi.
- Qani, ko'rishib qo'yaylik-chi. Avvalo, salom qani, pakana pari? - dedi u tanbeh berib.
I-i... Hayajondan salom berishni ham unutilibiz-ku. Shunga g'alati kutib olgan ekan-da. Xatoimni to'g'rilab, darhol qo'limni kaftiga tashladim:
- Assalomu alaykum.
- Va alaykum... Mana bu boshqa gap!
Izza bo'lib, quloqlarimning tagigacha lovullab ketdi.
- Kechirasiz, esimdan chiqib qopti...
- Mayli, o'tir. Uylar tinchmi? Xolam yaxshimilar? O'zing qalaysan?
Akam so'rining bir chetiga o'tirib, chordona qurib oldi.
Men esam, endi o'zimni erkin seza boshladim. Suqlanib tikilaman. Tikilib, hech to'ymayman. Savollariga javob qilyapman-u, lekin nima deganimni eslamayman. Qarang-a, hamma uni yomon yo'llarga kirib ketgan deb yuribdi, u bo'lsa... Qanday qarorgohlar tikibdi! Qanday tartiblar o'rnatibdi! Kechalari birovlarinikiga tushib, kimning sigiri, kimning qo'yini, kimning qopdagi jo'xorisini o'marib ketayotganlarni tizginlab, Kattabog'ni so'rab turishgani-chi. Hatto oblochilar yurak yutib ro'baro' kelisholmayotganmish bularga.
U ichimda jo'sh urayotgan hislarni sezdi shekilli, aftimga akalik sog'inchi bilan tikilib, bosh iring'adi:
- Opkeldingmi so'ratgan narsamni, pakana pari?
- Ha-da!
Shundagina nimaga kelganim esimga tushdi. Shoshib qo'ynimni kavlashtirishga tushdim. Sultonmurod akam ishonqiramay, men tomon sal engashdi:
- Rostdanam po'chtachi keltirdimi?
- Emasa-chi! Mana, o'zi. - Qora xat qo'ynimning orqasiga o'tib ketgan ekan, olib uzatdim.
Ko'rib turibman: akamning rangi quv uchdi. Bir muddat ko'zlarini yumib, jim qoldi. So'ng "Yopiray-ya!" deganicha, ko'zlarini ochib, qora xatni po'stak ustiga tashladi. (Balki tushib ketgandir, harqalay qanday tushganini sezmay-la qoldim.) O'tirgan yerida o'rnasha olmay orqasiga suyaldi va oyoqlarini uzatib yubo-rib, tinchidi. Qo'li engahida. Ko'zlari yumuq, o'zi qilt etmaydi. Bir qo'lini ko'ksida chirmashtirgan, boshqasi bilan engahini ushlab, boshini yerto'la devoriga tiragan ko'yi, uzanib o'tirishi - uning bu holi juda g'alati ko'rinaradi. Men uni hech bu alpolda ko'rmaganman. Yuzi dam oqarib, dam bo'g'riqib ketadi. Ich-ichidan o'zi bilan o'zi olishib, ich-etini yeb borayotgani shunday ko'rinish turibdi. Nihoyat, pishillab chuqur tin oldi-da, qaddini ko'tardi.
- Unda... unda biz ko'mib kelgan odam kim? Mendan so'radimi, o'ziga-o'zi gapirdimi - bilib bo'lmasdi. Har ehtimolga qarshi men yelka qisdim.
Chindan ham, kim? Bu yoqda Parpi bebaxt, men otib qo'yganman, deb tan olib turgan bo'lsa... Yana qaysi tepaning tagiga ko'mganigacha aytgan bo'lsa?!. Janozadan keyingi qora xat rostdan ham qiziq-da! Asol xolam sog' paytlari eshitalarmi, shaytonlab qolarimdidilar?.. Odamlarga ovoza bo'lsa, nima deydi?..
Sultonmurod akam xatni yana po'stak ustidan olib, aylantirib ko'ra boshladi va battar bo'g'riqib, asabiy bir holatda etigining qo'njiga tiqib qo'ydi. O'rnidan turib, yerto'lani bir aylanib keldi. Soyasi yerto'la so'risiyu devoriyu shifti bo'ylab bir-bir ko'chib, qaytib o'tirgan joyga mixlandi.
- Nima qildik-a, pakana pari, juda g'alati-ku?
- Oyim berkitib tashlagan edilar. Hech kim bilmay qo'yaqolsin, deb. Siz qaerdan eshitdingiz?
- Bu yog'i bilan ishing bo'lmasin... - dedi u.
- Lekin...
- Nima lekin?
- Boshqa birovlar ham eshita-chi? - Mening eng katta xavotirim - bu gap Asol xolamning quloqlariga ham yetib borishi edi.

- He, qayoqda! - deb kuldi akam. - Yigitlarning og'zi qattiq... Bu yer urushdan qochganlarning qal'asi emas.
- Kattabog' qo'riqchilarining qal'asimi? - deb yubordim chindanam akamga havasim kelib.
- Shunga o'xshashroq. Bo'lmasa, har xil qalang'i-qasang'ilar bosib ketadi. Hozir shunaqa payt. - keyin negadir qo'shib qo'ydi: - Sen o'ylama, bular paqqos bekorxo'jalar ekan, deb. Ular kunduzi dalasida ishini qilib, kechasiga keladi qarorgohga.
Unda hukumat-chi? Nega ustma-ust oblochilarminan askarini yuborib yotibdi? Bularning kimligini bilmaydimi?
Akam do'ppisini tizzasiga kiydirib, jiyagini tortib-tortib aylantirdi. Keyin kaftiga urib-urib qoqarkan, boyagiday:
- Nima qildig-a? - deb qo'ydi yana.
- Oyimning bilganlari bilgan, - dedim men. - Isini chiqarmay...
- Yo-oq! - Akam sapchib turib ketdi, soyasi bilan shiftga urilib, butun devorni chirokdan to'sdi-qo'ydi. - Birov bilmagani bilan, o'zim-chi? Manavi yerim-chi?! Ko'kragingma qanday sig'dirib yuraman? tushunasanni shuni? - U xonani bir aylanib kelib, boyagidek tek qotdi. Ko'zi etigining uchida, qo'li iyagi-da. So'ng ilkis bosh chayqab, boyagidek ohangda davom etdi: - Uning qotilini topguncha, ona sutim og'zimga kelib edi, endi damimni ichimga yutib, jim ketaymi? Yo-oq. Bungacha kimlarni qanday chig'irirlardan o'tkazmadim! Qanday qiynoqlarga solmadim! Endi manavi bir parcha qog'ozminan... - U xatni etigining qo'njidan sug'urib olib, silkidi: - ... hammasi bekor bo'lib chiqsa, men nima degan odamman?! Shuni o'ylaysanmi, Maqsud?!
Men o'zim sezmagani holda o'rnimdan turib, imtihon berayotgan boladay uning qarshisida tik qotib qopman. Boshim solinib boryapti: chindanam, odamlarga nima deydi?
- Bu yoqda hali Parpi turibdi, - dedi u hansirab, - qasos talab qilmaganda ham... ertaga ro'zi mahsharda nima deb javob qilaman? - U engashib, naq burnimning tagida kaftining orqasini kaftiga ura-ura qaytardi: - Ana shunisi meni ezyapti, bilsang. Yuragimni tilka-tilka qilyapti, bilsang... - So'ngra birdan o'ylanib qoldi. - Yo haliyam bo'lsa, o'zini chaqirib, Parpi o'g'rini chaqirib... - dedi. Fikri o'ziga yoqmadi, shekilli, boyagiday ilkis bosh chayqadi: - Yo-oq! Men o'yin qilolmayman. Shuncha gapdan keyin yana o'yin qilish, sinash Xudoga ham xush kelmasa kerak. - U qayrilib nari ketdi. Borib, asabiy holatda chiroqning piligini tushirib-chiqara boshladi. Bunga sari soyasi yerto'la ichida dam yoyilib, dam toraydi, shunda uning boshiyu orqa yelkalaridan qop-qora nur taralayotganga o'xshab ketar edi. Uzi ulkan qora odamga aylanardi. Qaerdanam Parpi esiga tushdi! Akam hech o'zini bosib ololmasdi: - Ko'mganimiz Bahriddin bo'lib chiqmagan taqdirda ham, u lain qancha odamning boshiga yetmagan, yostig'ini quritmagani! Kimlarni qaysi pastqamda tunab, otib ketmagan... Hatto qarindoshlarini, tug'ishganlarini talagan odam, axir bundan boshqa qanday jazoga loyiq ekan?!
Men g'ing deya olmasam-da, ich-ichimdan unga hayratlanib turibman: zo'r ekan-ku akam! Bilmas ekanmiz-ku biz!
U yerto'lani ikki aylanib kelib, nihoyat sal yumshadi.
- Bu ishlarni men nima uchun, kim uchun qildim? - dedi kuyinib. - Do'stimni, jigarimni deb qiluvdim-ku! Bahriddinni deb uni shu ko'yg'a soluvdim-ku. Endi o'sha jasad, biz ko'mib kelgan o'sha ustixonlar Bahriddinikimas, bo'lakniki bo'lib chiqsa... Asol xolamning ko'zlariga qanday qarayman? Tirik farzandlarini eldan burun o'ldiga chiqarib?..
Yonib-lovullab, o't-olov bo'lib turgan odam birdan mung'ayib, bo'shshib qoldi. Qarg'ishga yo'liqqan kimsadek, turib-turib joyiga surindi va pastak so'rining bir chetiga omonatgina cho'kib, boshini qo'llari orasiga oldi. Qaerdanam ko'rsatdik? Nimagayam olib keldim bu xatni? Men nima deb ko'nglini ko'tarimni bilmay xijolatga botib turarkanman, kutilmaganda u boshini ko'tardi va bir g'alati xavotirlanib, ko'zlarimga tikildi:
- Marg'u kennoying... eshitmadimi ishqlib?
- Yo'q, aytib bo'ladimi! - dedim men.
- Nimasini aytasan! Shuncha ko'rgiliklar kammi unga?! Kuygancha kuydi-ku...
Bo'g'zimga issiq bir narsa qadalib, chetga qarab oldim. Akam ham turib ketdi va ovozi yerto'la ichida bo'g'iq guldirab:
- G'ulom aka?! - dedi. Adyol ortidan javob bo'ldi:
- Labbay o'tag'asi?..
- Bu yoqqa qaravoring.
Adyol silkinib, cheti ko'tarildi va haligi odamoxun kishining yuzi ko'rindi:
- Xizmat, o'tag'asi?
- Beri kelavuring, - dedi akam. G'ulom aka bir qadam bosib, qurolini tik tutganicha to'xtadi:
- Aytavering, o'tag'asi.
Akam borib, chiroqning piligini ko'tardi:
- Sizdan bir narsani so'rasam...
- So'rayvering, jonim bilan.
- Siz Parpining so'rog'ida... bormidingiz?
- Bo'lmasa-chi! - Amaki chuvak yuzi yorishib, emin-erkin kulimsiradi va akam qolib, menga tushuntira ketdi: - O'ng tomonidagi qo'riqchilari kim ekan - akang qarag'ay edim-ku...
Akam tomoq qirdi:
- O'shanda... O'shanda Bahriddinning kuyovlik kiyimlarini nima qilganmiz devdi? Sotganmi yo'?.
- He-har, Parpi bo'ladiyu zarbof to'ni bilan ko'mvoradimi, o'tag'asi? O'z qo'li bilan o'sha ikki xuftondayoq o'likdan chechib olgan bu go'rso'xta! .. - deya so'kindi G'ulom aka va yana ijrg'anib, allambalolar deya o'zicha ming'irladi.
- Yo-oq, G'ulom aka, siz shaxsan o'zi nima deganini ayting menga! Eslay olasizmi?
- Nega eslamay, shunday yonida, bir qadamgina orqasida turibman-ku, eshitmay bo'ladimi?..
Akam betoqatlandi:
- Eshitgan bo'lsangiz, u yaramasning o'zi, o'z og'zi bilan nima degan?
- O'z og'zi bilan, o'z og'zi bilan... - G'ulom aka iyagini qashlay turib, shaxt-la miltig'ini ko'tardi. - Esladim! "Eski Juvaning bozorida loytab, Janggohda ichvorgannimiz", degan edi. Yatim mol teshib chiqqur...
Akamning yuzi yorishib ketdi:
- Esladim-esladim. Bozorga olib tushganmiz, deb edi. Janggohgayam kirgan ekanmi?
G'ulom aka qo'l siltab, menga yuz burdi (Uning shuaiaqa odati bor ekan, birov qolib, birovga gap tushuntiradigan):
- Kirgan-kirgan. O'lgudek bo'kib ichgan. Hazarni biladimi bu go'rso'xta. Hukumatni qo'lga tushsa, otuv berardi, tag'inam...
- Hukumatning yo'rig'i boshqa, bizniki boshqa, - dedi akam joyiga qaytib. - Men "qiz o'rtog'im"ning o'ligini topib, joyi rostoniga qo'yishim kerak edi, ko'ydim. Adolat qilishim kerak edi, qildim. Do'stimning ruhi shod bo'lsa, bas, - dedi hushi og'ibroq.

- Xudo rahmatiga olgan bo'lsin, birovning asrandisi edi, sendan rozi ketdi, - dedi G'ulom aka yuziga fотиha tortib. So'ng akamga javdirab boqdi: - Men boraverayinmi, o'tag'asi?

- Ha, darvoqe, - akam hushi joyiga kelib, buyurdi: - Toyirni chaqiring. Buni eltib qo'ysin, hayallab ketdi.

- Xo'b bo'ladi, o'tag'asi.

G'ulom aka burilib chiqib, adyol silkingancha qoldi. Akam o'rnidan turib kelib, meni so'zsiz bag'riga tortdi va akalik mehri ila kuraklarimni siladi:

- Ularga salom ayt mendan, xo'p? - dedi allaqanday to'liqib. - Ko'rarsan, axir?

Bu salom kimga tegishli ekanini anglab, o'rtalaridagi bu savdolarga men ham aloqadordek, ko'nglim buzildi. Chetga qaradim. Ko'z yoshlarim ortidan... hurilarday, parilarday bo'lib Marg'u kennoyim gavdalanib kelar edi...

Yana ko'zlarimni bog'lab, o'sha hurkak otga mindirishdi.

Yana o'sha Toyir zakun baland-past, aylanma yo'llar bilan otni yetaklab ketdi.

Ammo bu gal hech kim salom so'rab, io'limizni to'sib chiqmadi.

Yana o'sha Allon otaning eshigiga yetib, azim yong'oqlar tagida to'xtadik.

- Ko'zingni yechib ol, bo'ldi, - dedi Toyir zakun va iymanib qo'shib qo'ydi: - Xafa bo'lmaysan-da, og'aynichalish, tartib shunday!

Men qo'shq'olab qiyiqni boshimdan chiqarib oldim-u, lekin zim-ziyo qorong'ilikdan bo'lak hech narsani ko'rmadim. Qaytaga ko'zim bog'liqligida bir nar-salarni tasavvur qilib-ko'rib borayotib edim.

Chopar tizzamga shapatiladi:

- Endi oyog'ingni uzangidan chiqarib, orqaga suril.

Shundagina uning qop-qora, bahaybat ekanini (shu turishda u yelkamdan kelar edi) ko'rib, cho'chib tushdim. Keyin bilsam, boyagi to'nini yechib, keng-dag'al bir chakmonga o'ralib opti.

Shu yerda qola qolay deb endi tushishga unnagan edim, u belimdan ko'tarib, otning orqasiga o'tqazib qo'ydi.

- Bu yog'i hech qancha qolmadi-ku! Yetib olaveraman o'zim, - dedim. U tizzamga urib, bosh chaypadi:

- Hech qanaqa "etib olaman-petib olaman"i yo'q. Men nima deb va'da berganman! Suril, tushib qolmaysan. - So'ng bir harakat bilan oyog'ini otning ustidan oshirib, egarga minib oldi.

Qochib borayotgan otga tomdan sakrab minib oladigan, egar ustida o'yin ko'rsatib, ot qorniga yopishib chopadigan chapdastlar haqida ko'p eshitgan edim-u, birontasini ko'rmagan edim. Nazarimda Toyir zakun o'shalardan qolishmas, men unga mingashib borayotganimdan boshim osmonda edi.

- Ha, ana shunday, belimdan ushlab ol. Qo'rqma, yiqilmaysan, - dedi u. Ammo o'zi otning biqiniga qattiqroq niqtagan edi, jonivor siltanib, surib ketdi. Men otning belidan bir selpinib, yana qaytib jiq etib joyimga tushdim. Ko'mirchagim sindi-yov! Ko'zimdan olov chiqib ketdi. Chopar esa, egarga qapishib, jilovga yopishgancha, otga elanardi:

- Dr-r, jonivor, dr-r...

Ammo-lekin ot yomon hurkak ekan. Boshini tikka tutgancha, bo'y bermay, surib boryapti. Shovqiniga xonadonlarning toziyu arslonlari akillab-vovullab, devoru ombor oshib ko'chaga otiddilar va ot orqasidan tushdilar. Bog'ko'cha birpasda akiddoq itga to'ldi.

Otni sekinlatishdan endi ma'no qolmagan edi. Toyir zakun ham jilovni qo'yvordi va ot shamolday yela boshladi. Itlar changimizda qop ketdi. Yaxshiki, qayrilishda chaqqonlik qilib burib qoldi, bo'lmasa, to'g'ri anhordan sakrab o'tib, allakimning bog'iga kirib ketarmidi yo bizni ustidan uloqtirib, qayrilarmidi. Ot so'lig'ini chaynab hansirar, boshi bir yonga qayrilgancha, uynoqlab borar edi. Terlab ketgan butlarim zo'r berib achisha boshladi. Shu yerda tushib qolishgayam rozi edim.

- Esonmisan, og'aynichalish? - Toyir zakun boshini burib, kulib qo'ydi. - Bu shanaqa asov. Akang-ii ham bir marta opqochgan, ha. Birovga mindirmaydigan xilidan.

- O'zinikiyam zo'rdir? - dedim beixtiyor.

- I-i, qayoqda? Yolg'iz akangqarag'ayda bor. Uyam mana shu. - Keyin otini ko'chaning o'rtasidan gijinglatib borarkan, og'zini to'ldirib kuldi: - Jonoraliyam o'zim, chopariyam o'zim.

Bu orada Qo'ldosh tog'amlarning qayrilishlariga yetib qoldik. Manzilga yaqinlashganimiz sari uni gapga solishga oshiqardim.

- Yana uch-to'rtta otlaring bo'lsami, hech kimga bo'y bermasdinglar, to'g'rimi?

- I-i, senam o'zimizdan ekansan-ku: havoying baland. Lekin bilsang, biz otliq lashkar emasmiz, u yoqdan-bu yoqqa ot qo'yib yursak. - Keyin qayrilib, ma'noli shivirladi: - Men seni ko'rmadim, sen qarorgohda bo'lmading, uqdingmi?!

Men uqdim deb bosh silkidim. Toyir zakun oldiga qarab olib, avvalgi ohangda davom etdi:

- Umuman, biz hech kimmiz.

- Qanaqasiga?

- Shunaqasiga, vassalom.

- O'raga sichqon tushdi - guldur-gup, shunaqami? O'tirgan yerida o'ng qo'li bilan tizzamga shapatilab, kuldi u:

- Balosan, balo, pakana parimisan, nima balo?!.

- Xuddi o'zi-da!

- Otim nimaga buncha hurkyapti devdim-a, - dedi u o'girilib va kulib yubordi.

Tuzoq

Bir tog'oracha sutning betiga - qaymog'iga non to'g'rab qo'yib, endi bitta olgan edim, hovlida Solining qorasi ko'rindi. U deraza tavaqasini ochib, imladi. (Ichkarida oyim borlar deb o'yladi shekilli).

Yana qanaqa shumlikni o'ylab chiqibdi deb, yaqin surildim.

- Kechagi aytganingga... O'tib kela qolaylik.

Kuldim.

- Uyqungam kelmabdi-da? Menam Saidumar akadan eshitib edim.

- O'sha piyozpaykaldan ekanmi, ishqilib? Yuraver, men bilaman, - deb shoshirdi u.

- Ol, bitta, suqing kirmasin tag'in, - dedim tog'arachani tutib.

O' qo'lini qaychi qilib tog'arachaning ichiga suqarkan:

- Qaymoq miyani butun qilarmish-a? Qani bizning ham sigirimiz bo'lsa. Senga maza, - deb qo'ydi va odatdagidek ishshayib betimga qaradi.

- lol, oqizmay ol, keyin ishshayaverasan, - dedim men ham tegishib. - Zora sengayam aql bitsa.
- Aql?.. - U yengil qalqib, og'zidagini yutgisi kelmay yutindi. - Bedana turganda aqlning nima keragi bor!
- Bitta bedana deb uyqung kelmapti-ku...
- Ha-da. Jildikmi?
- Boshqa kun borarmiz, - dedim men huzurimni buzgim kelmay.
U yalindi:

- Voy-bo', yersan shu qaymog'ingni qaytib kelibam...
- Maktab-chi, - dedim atay ezmalanib, - kech qolmaymizmiB ?
U o'rikzor orqasidan charaqlab, usiz ham sarg'aygan o'rik barglarini nurga belab chiqib kelayotgan oftobga qarab qo'ydi.
- Ulguramiz. Men bitta to'rva olvoldim. - U qo'ynidan og'zi bo'g'iq, tizginchali moshxalta olib ko'rsatdi.
- Obbo sen-ey, tayyorgarliging zo'r-ku, ko'rvoisang har kuni qoqmalab kelarkansan-da, a?

U shumlik bilan ko'z qisdi:
- Bedana kabob yemabsan - bu dunyoga kelmabsan! Uchdikmi?
- Uchdik.

Men tog'arachani xontaxta ustiga surib, apil-tapil yuzimga fotiha tortdim. Jild ham, choy ham, non ham joy-joyida qolib, hovliga otildim. O'rtadagi yo'ldan ogtamlarnikiga, undan tashqariga yov quvgandek yugurgilashib chiqib ketdik. Kim ko'rib, kim ko'rmay qoldi. Uidan tutzorning ichi bilan tutning shu yil yangi chiqargan surx navdalaridagi shapaloqdek-shapaloqdek cha'far barglarini shatir-shutur to'kkancha, yuz-ko'zlarimizni ayab-engashib, novdalarga chap berganacha, chakalakzor ko'chaga kesib chiqib bordik. O'shanaqasi tollarning tagi bilan Kattabog'ga urdik o'zimizni. U oldinda, men orqada. Izma-iz yugurgilashib bormoqdamiz. Axiyri, Usmon tog'amning shoxdevor bilan o'ralgan bog'lari tugab, keng yalanglik ochildi. Yalanglikki, pasti qovunpoliz, tepasi odam bo'yi o'tu g'umay, burgan-u yana allambalolar ichida qolgan piyoz paykal. Qanchasi to'r do'ppidek-to'r do'ppidek urug' bog'lab, to'kilib-sochilib yotibdi. Biz Kattabog' ishkamlari bilan shu dala o'rtasidagi ariq yoqalab lo'killab boryapmiz. Urug' bog'lab, yerga salom berib yotgan tizza bo'yi o'tlar oyoklarimizga chirs-chirs urilib, har tomonga shir-shir "don" sochadi. Kattabog' tomondan yangi qovurilgan bodroq hididek bir ajabtovur hid anqib-anqib kelayotir. Kimdir shinni solyapti shekilli. Oftob barglari xol-xol qizarib ulguragan ishkamlar ustiga tekis yoyilib, nuri yetmagan orqa betlari ariq-ariq bo'lib, ajralib turibdi. O'rtaroqqa yetganimizda Soli alanglab to'xtadi:

- Shu yerni aytganmidilar, Umar akam? - dedi shivirlab.
- Shu yer edi shekilli, - dedim men ham alanglab. Soli ariqdan sakrab g'umayzorga boshladi. Kirishimiz-la, burganu g'umay urug'lari shuvva to'kilib, hammayoqni kakra hid tutib ketdi. Aksirib yubordim.
- Hov sekinroq-da, - deya u norozilandi. - Odamni tutib beraqol.
- Sen bo'lasanu qo'lga tushasanmi?! Sen nimayu ilon baliq nima! - deb kuldim men.
- Havasing kelsa, senam bo'l.
- O'zingga buyursin.

Bu orada uch ariq ichkari kirib edik, u birdan o'zini yerga otib, cho'kkalab oldi. Qo'rqib ketibmap. Bir nima jon halpida potirlab, qanotlari uning betlariga urilar, Soli, he, joningdan, deb kular edi Chopib borib qarasam, bedana! Soli uni tuzoqdan chiqarib olyapti.

- Ko'rding biqqiligini?! - deb maqtandi u. Bedananing moshdek ko'zlari kosasidan o'ynab chiqqudek pitrab turibdi.
- Jonivor, uchib ketolmagan ekan-da, - dedim achinib.

- Shuncha don turib qayoqqa uchib ketadi? Yana bizga nasib qilib turgan bo'lsa, ochopati... To'rvani olvor qo'ynimdan.

Men qo'ynidan xaltani olgunimcha bedana necha bor chuldirab, potirladi qo'lida. Zo'r bersa, uchibam ketardi-yu, qo'lidan chiqolmadi.

Nihoyat, Soli uni to'rvaga solib, og'zini bo'g'di-da, menga tutqazdi:

- Buni ushla-da, sen u arikdan, men bu arikdan tushdik, jur.

Shundagina piyozning arig'i qirtishlanib, keta-ketguncha birov tuzoq qo'yib chiqqanini ko'rdim.

- Voy, egasi ko'rsa, o'ldiradi-ku! - deb yubordim. Soli aftini burishtirdi.

- Egasi qarab o'tiribdimi, senam qiziq ekansan,- dedi g'umaylarni shitirlatib, ilgarilarkan. - Keldikmi, terib ketamiz.

Men ich-ichimdan afsuslanib, to'rt qadam yurganimni bilaman, boyagidek bir bedana porillab ko'tarildi va shu zahoti to'p etib tushdi. Chopa, o'zimni ustiga otdim. Bo'ynida mushtdek tuzoq. Piyoz poyalarini ezib-yanchib, Soli ham chopib keldi:

- To'rvadagisini o'ldirasan-ku, ovsar!

Men to'rvani tashlab, qaddimni ko'tardim. Qo'limdan bedana yuragi shunaqa tez uryaptiki, shu arzimasi qushchaning shunaqa zo'r yuragi borakanmi, deb yoqa ushliyman. Yerdagi to'rvaga jon bitib, ichidagi jonivor port-port uriladi.

Soli tuzoqni chiqarib, joyiga qo'yarkan: - Sendaqa odam bedana tersin ekan, harom o'ldirarding-a, - dedi to'ng'illab.

- Sen-chi, halol o'ldirasanmi? - deb hazillashdim.

Men topgan bedananing bo'yin patlari xol-xol ekan. Qulimda tinmay urinadi, chuldiraydi. Munchokdek ko'zlari bir bejoki, achiniblar ketasan bechoraga. Ammo biz keliboq ikkita bedana topganimizdan boshimiz osmonda, boshqa hamma narsani unutganmiz. Buniyam to'rvaga tiqib, har kim o'z arig'idan ilgarilay ketdik.

Shunday - olamni unutib, "voy, ana-ana, uni ko'r"lab yugurishib-chopib yursak, bir mahal birov tepamizda shiftdek bo'lib, cheki-ib turibdi. Bo'shashib ketdim. Soli pusinib, tisarila boshlagan edi:

- Ho'v, qayoqqa? - dedi u shopdek mo'ylovi ko'tarilib-tushib. - Qani, bir oldimga tushvorlaring-chi! He, senlarni qarayu! Tur o'rningdan!

Sekin turdim. Ammo betiga qarayolmayman. Aksiga olib, to'rvadagi bedanalar paydar-pay tipirchilab silkinishadi. Yer yorilsayu yerga kirib ketsam. Qayoqdam uni ko'tarib ola qolgan ekanman?

- Jur-jur! Nimaga angrayasan? Qilg'ilikni qilib qo'yib?.. - Shopmo'ylov jahldor ekan, boloxonador qilib so'kib berdi. Menga aytayaptimi yo Soligami deb o'ylab, sekin orqamga qarasam, u ham kasal jo'jadek shumshayib turibdi. Yo o'zini xokisor qilib ko'rsatmoqchi, yo rahmini keltirib... avramoqchi.

Esimga o'zini o'lganga soli-ib yotib, baliqchining chanasiga "chiqib olgan" tulki haqidagi ertak kelib, iir kulgim qistadi, bir kulgim qistadi. Soli ham hozir o'sha tulkining ishini qilmoqchi bo'lib, o'zini kasal jo'ja qiyofasiga solayotgan edi. Men bo'lar ish bo'ldi, deb tepaga qarab yurdim. Soli esa, shoshib... elanishga tushdi:

- Amakijon, jo-on, amaki, bir galcha kechira qoling. Biz bilmay kirib qopmiz. Ikkinchi qilmaymiz. Jo-on amaki!
- Yig'ishtir amaki-pamakingni! Ertalabdan bir to'rva qip tervopti-da, yana "amakijon"laydi! Tush oldimga jahlimni chiqarmasdan!
Men hayronman: shunaqa jangari ovozni ilgari qaerdan eshitgan ekanman? So'kinishi ham tanish: o'chir, yig'ishtir, yo'qol, to'xta!..
Shoshma, bu anavi "Assaloming bo'lmasa", emasmi? Toyir elchining peshonasidai darcha ochib qo'yimoqchi bo'lgan? Ovozi naq o'sha-ku! Upday desam, qarorgohning odami bu yerda nima qilib yuribdi? Turqini ilgari ko'rgan bo'lsam ham, mayli ekan...
Bu orada Soli ham noiloj yelkasini qisib, uning oldiga tushdi-da, qadamini sal tezlatib edi, belbog'ini yelkasiga tashlab, orqamizdan kelayotgan shopmo'ylov urishib berdi:

- Ho'v, qayoqqa? Qochishni o'yilagan zahoting pesho-nangdan darcha ochaman. To'g'ri yur!
Tavba, bu o'sha shekilli? Unda nega bog'ning o'rtasidagi yo'ldan shiypom tomonga olib ketyapti? Sekin o'girilib qaramoqchi edim, meni ham so'kib berdi:

- Jur-jur! Anqayasan, mosovsiraysan, pishirib qo'yibdimi orqada?

Ikki yonimiz qator-qator ishkamlar. Biz nochor-noiloj uning oldiga tushib, taqdirga tan berib boryapmiz. Yuragim g'ashlanib, potirlagandan potirloydi. Nimagayam shu suvyuqmasning gapiga kira qoldim? O'zimni-o'zim so'kaman ichimda. U yoqda oyim ham bozordan qaytgandirlar. Qarasalar, uy ochiq-chochiq. Kitob-daftar bir chekkada yotibdi. Sigir otxonadan opchiqilmagan. Men yo'qman. Toza xunob bo'layotgandirlar?.. Bu yoqda qo'limdagi to'rva silkinib-silkinib, ichida bedanalar pitirloydi. Uni olib, o'zimizni qo'yvora qolsa ham mayli edi.

Nolam Xudoga yetdimi, bilmayman, bir mahal shopmo'ylov o'dag'aylab, chaqirib qoldi:

- Ho'v, to'rvani baqqa uzat!

Men jon-jon deb o'girilayotgan edim, Soli yelkasi bilan turtib o'tib:

- Qoch, Maqsud! - deya o'zini ishkom ichiga urdi. Men gangib qoldim: qochishimni ham, qochmasimni ham bilmayman. Qochay desam, u o'ronchini tanib turgandayman... Shopmo'ylov esa, Solining ketidan yugurarkan, yelkasidagi boyagi belbog'i laylak qanotiday bir havolab uchdiyu so'ng shalvirab tusha boshladi. Soli jon-jahdi bilan chopib boryaptiyu menga qoch, qochsang-chi, deb qo'l silkilaydi.

Shu payt birdan esim joyiga kelib, miyam ishlab ketdi: voh, bu tuzoq akamning yigitlari qo'ygan tuzoq bo'lsa-chi?.. Ha-ha, anavi shopmo'ylov (hozir Solining uch qadamini bitta qilib, orqasidan quvib boryapgan odam) "Qayt, otilasan!"ning o'zginasi-ku!

Bunaqa badjahl odam dunyoda ikkita bo'lsa, bittasi shu! Toyir elchini ham tan olmadi-ku kecha.

Ular quvalashib ishkomning ichiga kirib ketishdi. Soli echkiday tutqich bermay, o'zini ishkomning u betidan-bu betiga tashlab, qochib boryapti. Shopmo'ylov esa, tutishga jahd qilib, orqasidan qolmaydi. Ammo yetib, qo'lini cho'zgan mahal u chittonlik qilib, ilonday bir buriladiyu chap berib ketadi. Shopmo'ylov munkib yiqilay deydi va o'zini o'nqlab olguncha, Soli allaqancha joyga yetib oladi.

Axiyri bo'lmadi:

- Sen qo'limga tushgin, miyangni po'la qilmasam, otimni boshqa qo'yaman! Eshitib ol! - dedi so'kinib. So'ng o'zi ishkom ichidan etigini sudrab, chiqa boshladn. Va birdan men boyagi joyda qimir etmay turganimni ko'rib... Mening qochmay turishim unga nasha qilibmi, tizzasiga urib kuldi-da, qo'l silkidi:

- Ho'v, qiltiriq! - dedi yarim po'pisa bilan, - sen nima qip ammamni buzog'iday serrayib turibsan? Qani, bir survivor-chi, yetib bormasimdan. Marsh!

Men qo'limdagi to'rvani ko'rinarli yerga sekingina qo'ydimu bitta-bitta yurib keta boshladim. Sal nari borib, negadir qayrilib qaradim. Shopmo'ylov ishkom o'rtasida qotib turardi. Ko'z-ko'zga tushib, astoydil qo'l silkidi, chaqira boshladi:

- Ho'v, g'unan toychoq! Shoshma, axir, hech qursa bittasini ola ket.

Men bosh chayqab, yuraverdim.

- Axir, to'rva-chi, to'rvangni ol, jilla qursa, - deb qistadi u orqamdan yurib. Men o'zimcha ming'irlar edim: "Bu so'ramay kirganimizning jazosi!" So'ngra:

- Osh bo'lsin, - dedim chopib ketdim. Tutzorni kesib o'tib, opamlarning eshiklariga chiqib borsam, Soli ko'mir o'raning yonidagi yong'oq to'nkasi ustida kutib o'tiribdi. Meni ko'rib, sakrab tushdi:

- Vey, galvars ekansan-ku, tayyor o'ljani tashlab kep o'tiribsan! Senga aql bitadimi hech? - deya bidiray ketdi.

- O'zing galvarssan! - dedim betiga tik qarab. - Galvars bo'lmasang, qarorgohda yotganlarning tuzog'iga boshlab borasanmi? San... san o'zi birovning narsasini o'marmasang, uyqung kelmaydi! Bez ter-e, undan ko'ra! - dedim burilib ketvordim.

Ammo o'zim ham oppoq emasman. Umar akamning gapini hovliqib bunga yetkazmasam, shu yuzi qoralik qaerda edi?! Hali darsdan ham kech qolgan bo'lmasam edi. Chindanam oftob nuri qo'shning o'rigi ustidan oshib tomimizga, undan naridagi jiydalarning beligacha tushib qopti. Hali tayoq tegmagan jiydalar bir kechada qizarib chiqqanday, g'uj-g'uj cho'g'lanib yotibdi oftobda. Shuncha yurib, ko'zim tushmagan ekan, bargidan mevasi ko'p. Hali vaqtliroq kelib, qoqib bersam tuzuk ekan.

Apil-tapil kitob-daftarlarimni yig'ishtirib, hovliga chopdim, sut idishlar turibdi-yu, oyim ko'rinmasdilar. Shunda ham:

- Oyi, men ketdim, - deya ovoz berib, eshikka qarab yugurgan edim:

- Hali ham sho'tta yuribsanmi, kunni peshin qilib? Seni nima jin urdi? - deb oldimdan chiqib keldilar. Qo'llarida chelak, anhordan suv olib kirayotgan ekanlar.

Yolg'onlab bo'lmaydi, aytibam bo'lmaydi.

- Ketvotman, yetib olaman, oyi, - deya yonlaridan o'ta zing'illab qoldim.

Qo'yin Daftardagi Ishorotlar

Tushga yaqin qaytsam, birov mendan oldin jiyda qoqishni boshlab yuboribdi. Ayri shoxda o'tirib olib, har urganida jiydalar chodirga duv-duv to'kilayotir! Pastda ayollar (men ularning kimligini ko'rmayman, faqat ovozlari eshityapman) qiyqirishib kulishadi:

- Hay-huv, chodirni ko'taringlar-uv...

Kitob-daftarlarimni derazadan itqitib yugurgilab borsam, jiydaning ayri shohida Olim akam o'ti-ribdi. Qayoqdan oftob chiqib, qarashgani kela qolibdi? Pastda Poshsha opamu kennoyilarim, - tog'alarimning suyuqli xotinalari - uch ovsinlar chodir tutib, qiy-chuv bilan tog'oraga bo'shatib turishibdi. Katta qo'shquloq mis tog'oramiz chip-chip jiydaga to'lib, tayoq zarbidan chetga uchganlari yer bilan bitta bo'lib qizarib yotibdi.

Hovlida bir ajoyib hid - jiyda hidi anqiydi. Siz umringizda jiyda qoplashib yuborganmisiz? Kaftlaringazga o'tirib qolib, bir-ikki

kungacha ketmaydigan o'shanaqa muattar bo'y anqib turibdi atrofidan.

Akam meni ko'rib, chaqirdi:

- Iya, chitton, kepsan-ku! Chiqasanmi o'zing? Ichimda jon-jon deb turibman-u, yon-verimga alanglayman: oyim urishib bermasmikanlar? Lekin oyim ko'rinmasdilar. Qayoqqa ketdilarin? Qumri kennoyi o'yimni sezdimlar shekilli, yelkamga qoqib ko'rishib, qulog'imga shivirladilar:

- Opam sovchilikka ketdilar. Hali-zamon xushxabari kep qoladi.

- Yo'g'-e, - dedim sevinchimni yashirolmay, - O'sha yoqqa-ya?

- O'sha yoqqa-o'sha yoqqa, - dedilar kennoyi yumshoq bosh silkib.

Men pinjilariga kirgudek erib, o'sha yerdanoq sakrab, paxsa devorga, undan jiydaga chiqib ketdim:

- Qir uchlarini men qoqayin-da!

- Senga ko'pam ish qolgani yo'q, - dedi Olim akam nimagadir betimga tikilibroq qarab. Sezdim, uning menda gapi yo yumushi bor.

Chindanam yoniga chiqib, qo'lidan tayoqni olarkanman:

- Tezroq bo'lsang, gap bor. Xo'p? - dedi ma'noli qilib.

- Xo'p, shu shoxni qoqib beray. Narigisini keyin... - dedim men.

Opam eshitib turgan ekanlar, pastdan javradilar:

- Kelmasingdan ishni yarimta qilyapsanmi? Seni qara-yu.

- "Hay-huv, halalay xashtutuv" gayam qolsin devotgan-da, Poshshaxon, - deb kuldilar Anvar kennoyim.

Chindanam, chug'urchuq ertalabdan mo'r-malaxday yopirilib, bozor qilib yotganiga nima yetsin. Ko'zingni ochib uyg'onganingda tashqarida bir olam qushlar biri olib, biri qo'yib, chag'ur-chug'urlashib, ming bir turda sayrab yotmasa, dala dalami? Hovli hovlimi? Chittak chirt-chirtlab, qarqunoq qiv-qivlamasa, chug'urchuq hiq-hiq kulib, qorashaqshaq shaqillab shox tagidan uchib chiqmasa, uni kim erta tong deydi? "Bularniyam Xudoyim yaratib qo'yibdi o'z rizq-nasibasi bilan, - derdilar o'sha janggohga ketgan Kenja tog'am. - birovning nasibasini birov yeb ketolmaganidek, bularga buyurganini kim qoqmalab qo'ya olardi? Bizga atalganini biz olamiz, buyurmaganini tepasida qolavuradi"...

Hali men ikkita shoxning jiydasini qoqib tugatmay, opamning darvozalari ingranib ochildi. Jiyda tepasidan yaqqol ko'rinib turarkan. Sidirg'a paranjilisi - oyimlar edi. Yonlarida oq dasturxonga o'rog'liq tog'orani u qo'ldan bunisiga olib, paranjichachvonlarini bilaklariga solvolgan Hidoy xolam.

Opam chodirni pasaytirib, menga tikildilar.

- Kim keldi, Maqsudxo'ja?

- Oyimlar kelishyapti.

- Iya, qaytishibdimi? - dedilar Sapura kennoyi tahlikaga tushib. - Buncha tez?

- O'ldimi, ikki birday odam, bitirib kelishayotgandir, - dedilar Qumri kennoyim.

Anvar kennoyi chodirni tashlab, ularning istiqboliga chopdilar:

- Opam bo'ladilar-u, bitirmay keladilarmi? Hidoy xolam Usmon tog'amlarga o'xshab yumshoq - xuddi kuylagandek so'zlardilar.

Urishganlari ham erkalagandek eshitaladi odamga.

- O'zimizni urug'da popuvdek-popuvdek qizlar turib, borib yurgan joyimizni qarang, Salomxon, - dedilar xolam paranjilarini yugurgilab borgan Anvar kennoyiga tutqazib. - Kelgindi kelgindi-da.

Oh, chatoq bo'пти-ku! Men tizzam bo'shshib, yiqilib tushishimga bir bahya qoldi. Ayri shoxga minib olib, g'adir-budur tanasini mahkam quchoqladim. Qo'llarimni qumursqa talay boshladi.

U yoqda izma-iz yugurgilashib borgan uchala ovsin kattalarga girgitton bo'lishib, kim opamning ayvonida ko'rpacha yoyar, kim qo'lga suv quyay, kim paraji-sachvonlarini tok bag'aziga ilar edi.

- Voy, opa-e, shunaqa noumid qivordimi-a? - dedilar kuyib ketib Qumri kennoyim.

Oyim to'g'riso'z bo'lib, avliyosini ham ayamasdilar.

- Hamma ayb o'zimizda. Kelgindi deb ko'rdik. Shumqadam dedik, bir marta kelin qilib, nima topdik, deb yurdik. Biz kengashib borguncha Haybatilla ilib ketipti. Ajab qipti! - dedilar ayvonga ko'tarila turib, Haybat akam?!.

Ko'zim tinib, tagimdagi jiyda tupi bir aylanib ketdi go'yo. Uning shoxiga mahkam yopishib opman.

Nahot Marg'u kennoyim o'sha badjahlni akamga almashib yubordi? Alam-achchig'imi, nima bu?.. Sho'rlik akam! Ovi yursa ham, dovi yurmagan Sultonmurod akam? Buni eshitib, qaysi devorlarga boshini urarkin?!

Pastda kimdir otimni atab chaqirdi. Qayrilib, otxona ro'parasida tarvaqaylab o'sib yotgan anjirimiz gagida Olim akamni ko'rdim.

Anuv kungi qirovda anjir barglarini to'kib, yarim yalang'och bo'lib qolgan, hali qorayib ulgurmagan duvaraklari so'gal kabi bo'rtib yotar edi.

- Tushsang tushaqol, vaqtim ziq, - dedi imlab. Xunuk gapdan xabar topmay qo'yaqolsin, deb tushib bordim.

Olim akam meni qo'ltiqlab, barglari olovning tillariday qizarib yotgan yolg'iz tup gilosimiz tomon yetakladi. Uning ikki yuzi ham o'sha gilos bargiday sarg'ayib-qizarganday edi.

- Sendan bir narsa so'ramoqchiydim. Ammo xolamlarga aytib o'tirmaysan, - dedi allaqanday xijolatga tushib. - Kelishdikmi?

Men yelka uchirdim: oyim bilmasliklari kerak bo'lgan gap nima ekan?

- Bo'ptimi? - dedi u qulokdarining tagidagi nori qizarib. Tag'in qo'ltig'imdan olgan qo'li bilan bilagimni sekin siqib qo'ydi.

- Maylin... - dedim ko'nligiga qarab.

- Bilasanmi, anuv kechagida o'ligini topib ko'mib kelishdi-ku... Asol xolamizning o'g'illari?..

- Bahriddin akammi?

- O'sha to'g'rida yangi gap chiqqanmishmi?

- Nima gap chiqarkan?

- Orqasidan xatmi, nimadir kepti-ku?

- Ha-a, qora xatni aytyapsizmi? - deb yuborib, shu zahoti tilimni tishladim. Ichimdan qirindi o'tib ketdi: nimagayam aytdim?

- Qora xat? - U taqqa to'xtab, go'yo endi eshitayotgandek angraydi. - Chinakamiga po'chtachi opkeldimi?

Bo'lar ish bo'lgan edi:

- Ha, Mirhomid amaki opkeldi, - dedim yuzlariga tikilib.

U ko'zlarini opqochib, og'ir xo'rsindi:

- Akamga yomon bo'пти-ku.

- Nimaga yomon bo'ladi?
- Yo'q, tushunmading: hukumat tomondanmas, o'ziga qiyin bo'пти.
- Qanday qiyin bo'ladi?
- Eshitsa, ich-etini yeb qo'yadi, deyman-da. Axir, osonmi, bir odamni qotilga chiqarib, o'likni toptirganida, orqasidan bunday xat kelib tursa.
- Lekin tan opti-ku, o'sha Parpi bebaxtning o'zi. Otganiniyam, kuyovlik to'nlarini chechib olganiniyam?..
- Hukumat-chi? - dedi u dabdurustdan. - Yo'q odamga "qahramonlarcha halok bo'ldi", deb qora xat bitmasa kerak? To'g'rimi?
Men yomg'irda qolgan tovuqday qunishib, bo'shshdim:
- To'g'ri...
- Degin-degin, akam eshitmasin.
- Nega eshitmaydi, xat unda... - Men yana qanday aytib qo'yganimni bilmay qoldim. (Bugun meni qandaydir jin aylantiryapti!)
- Un-da? - Olim akam g'alati kuldi. - Obbo pandavaqilar-ey! Darrov yetkaza qolishibdimi?!.
Tavba, uning xursandligini ham, jahli chiqqanini ham bilib bo'lmasdi. Shaytonlik qilyaptimi yo?
- Xabar topgan ekan, so'ratib oldi, - dedim to'g'risiga ko'chib.
Ammo Olim akamning yuzida qilt etgan o'zgarish ko'rinmadi. Qaytaga boshini sarak-sarak qilib:
- Chatoq bo'пти, chatoq. Bildirmagan ma'qul edi. Qiziqqon odam, bilib bo'ladimi, - dedi aftimga tik qarab. - Endi nima qilarmish?
Men ichimda kuldim:
- Nima qilishini siz qolib menga aytadimi?
U uyalib, quloqlarining tagidagi nori boyaginday qizillanib ketdi.
- Harqalay, harqalay isini chiqarmay qo'yaqolgan ma'qulmidi? - deb yamlanib turib, birdan xayr-xo'shga tushib qoldi. - Hay!
Omon bo'l. Men borishim kerak. Bizda intizom qattiq, - deya eshikka qarab yurdi.
- Oyim kelsinlar, - dedim men atay. - Shoshmasdan, borarsiz. - Ichimda esa tezroq daf bo'la qolsa edi, deb turibman. ("Sovchilar quruq qaytib kelishganini eshitmay qo'ya qolsin!")
- Mayli, shoshib turganakan, boshqa kelarkan, de.
U tilla topgan odamday oyog'ining tagiga qaramay, jo'nab yuborarkan, birdan hamma narsadan xabardorday ko'rinib ketib...
serrayib qoldim. Nima balo, akamdan tezroq "suyunchi" olmoqchimi? Yo biladiganini bilib... Tavba, shunaqa ustasi farang ekanmi u?!

Bo'shshib qaytdim.
Dahlizni yig'ishtirib qo'ya qolay, deb uyga kirsam, oyoqostida bir narsa yotibdi. Xuddi namat rangida. Bosib olmasam, bilmas ekanman ham. Olsam, jajji qo'yin daftar. Muqovasi och jigarrang. O'zi oynadek silliq. Chetiga xo'b oro berib naqsh bosilgan. Bunaqasini umrimda ko'rgan emasdim. Ichini aytmysizmi! Har varag'ining hoshiyasi qirqilib, tepasiga qizil harf terib tushilgan. "A" dan "Ya" gacha. Yana shunday oro berib, bo'laklarga bo'linganki, bular hammasi qanday tayyorlanganiga daf'atan aql bovar qilmaydi.
Shunaqa daftarchang bo'lsa, o'zing yoqtirgan she'rlarni yozib yursang. Bu kimniki ekanu qaerdan kelib qolibdi?
Albatta, Olim akamniki bo'lsa kerak. U tushirib qo'ymasa, o'zidan-o'zi paydo bo'lib qolmaydi-ku. Tavba, ularning o'qishida shunaqa zo'r daftarchalar berar ekanmi? Shunday o'qishni tashlab kelib yuribdimi?..
Men daftarchaga to'ymay, suqlanib varaqlar ekan-man, u yiqqan she'rlarga ko'zim tushib, beixtiyor tokchamizga suyanib qoldim. O'qigim keldi. She'rlar siyohrang qalam bilan yozilgan edi:
"U axiyri ko'rsatdi, Bahridin aka qabrini... Ochishdi. Shunday tepaning yonbag'riga..."
Iya, she'rmas, boshqa narsa shekilli! Unda nega she'rga o'xshatib yozibdi? Tushunmadim. Ammo davomini o'qishdan o'zimni tiya olmadim. "... ustki kiyimlarisiz ko'milgan ekan. Eti chirib, suyagining o'zi qolibdi. Qotil uni Bahridin deb tan oldi. Kuyovlik kiyimi - zarbof to'nini chechib olib sotganlar. Puliga Janggohga tushib, maishat qilishgan.
Qotilni tuyaqopdan chiqarib aravaga solishdi. U oldinda, orqasidan tobutni ko'tarib jo'nashdi. Dahshat...
Qora xat yetib kelgani yo'q..."
Ajab, u qora xatni qaerdan biladi? Bilsa, nega hozir surishtirib yuribdi mendan? Umuman, bu voqealar unga nimaga kerak? Tushunarsiz. Yana o'qiy boshladim:
"Akmal o'ris ham jazosini oldi. Oblochilarga yo'l ko'rsatib yurgani, yordam bergani uchun. Unga bir sutkalik muhlat qo'yildi. Shungacha Kattabog'dan ko'chib ketmasa, millat xoini sifatida otuvga beriladi.
U chiqib ketishi va shom tushishi bilan uyi yoqib yuborilishi kerak..."
Yo alhazar! Bu kimning hukmi? Azza-bazza devorga suyanib o'tirib qopman.
Keyin oxirgi yozuvlarni yutoqib o'qiy boshladim: "Ertaga asr namozidan keyinoq katta mashvarat. Hamma urushdan qochib yurganlar qarorgohga chaqirilgan. U hammaga qarata so'z aytmoqchi. Bu yog'i o'zlariga havola..."
Qiziq, bular hammasi g'alati-ku. Nimaga qarorgohdagi voqealarni bunday yozib yuribdi? Zarurmi unga? Unda daftarchasini nega unutib qoldirdi? Tushirib qo'yganmi? Hali qidirib kelib qolar?
Men uni tokchadagi kitoblarim orasiga apil-tapil berkitib, opamlarnikiga chiqib bordim. Oyimgilar hammalari xontaxtaning atrofini to'ldirib o'tirishgan ekan. Oyim meni ko'rib:
- Maqsudxo'ja, targ'ilingga qaradingmi? Aylantirib kela qol! - dedilar.
Men istar-istamas chiqdim. Sigiringga qarayqol desalar, Izzaga uchib-qo'nib turadigan odam bugun oyimgilardan nari jilgim kelmas, Marg'u kennoyim haqida biron narsa egpitib qolishga ilhaq edim. Ammo...
Shomga yaqin o'riklarning bir chiroyli uchib tushayotgan barglariga mahliyo bo'lganicha targ'ilimni oldimga solib, Izzadan qaytarkanman, kimdir anhor yoqasidan turib zo'r berib chaqirayotganiga ko'zim tushdi. U to'xtovsiz qo'l silkiib, uch, uchsang-chi, deb qistardi.
Qarasam - Soli! Nima bo'пти ekan, deb o'takam yorilib, sigirimni (arqoni-la) qamchilab qoldim-ku. Borgunimcha chumchuqlarning chirqillashlari ham tindi. Anhor betkaylariyu daraxt taglarida shom jivir-jiviri kuchayib, yong'oqlarga mo'r-malaxdek tarmasha ketdi.
Soli anhor yoqasidagi tepachalarning eng balandida turvolib, shoshirar edi:
- Uni qara, uni ko'r, Maqsud!
O'sha yoqqa qaradimu... vahm bosdi. Hali shom o'z domiga tortib ulgurmagan osmonga ko'mirdan ham qora bir tutun burqsib

o'rlar, allaqanday zo'r alanganing tllari uning tagini yalab, olovlantirib-olovlantirib qo'yar edi. Ba'zan uchqunlar yarmigacha yetadi.

- Qaynama tomonda shekilli? - dedim hovliqib. Xayolimga bir narsalar kelayotganday, ammo nimaligini hech anglab yetolmayman. (Ichimda, nimadir chop, deb turibdi!)

- Yo'q, berirokda-yov, - dedi u.

- Boramizmi? Uchdikmi? - dedim men.

- Sigiringni tashlab chiqsang-chi avval, - dedi u. Men targ'ilni yana arqon bilan qamchilab, choptirib olib kirib ketdim. Jiydaning tagiga bog'lab, uyga qarasam, oyim dahlizda shom o'qiyaptilar. Qo'llarini bog'lab qiyomda turganlaridan hali-veri tugatadigan emaslar. Mening ichim esa toshib ketyapti. Ruksat so'rayolmay, tipirchilab turibman derazaning tagida.

Nahot, tutun o'sha joydan, Akmal o'risnikidan chiqyapti? Unda daftarchadagi gaplar rost chiqadi-ku? Olim akam shuncha narsani qaerdan biladi? Unda... unda daftarchasini qidirib kelishi kerak edi-ku? Balki qidiribam kelgandir yo'g'imda. Kitoblarimning tit-pitisini chiqarib... topib ketgandir ham?

Ichkariga uchib kirgim kelib turibdi-yu, oyimning pamoziharini buzishdan hayiqib, yo'lay olmayotirman. U yoqda Akmal o'risning uyi yonib bitdi, desang-chi. Lxiyri, sabrim chidamay ko'chaga chopdim va Soli bilan qo'shilishib, Qaynama tomonga zing'illay ketdik.

Mullatosh amakining nokzoridan o'tib yong'oqzorga chiqishimiz bilan atrofni kunduzgidek yoritib yonayotgan yolg'iz xonadon yaqqol ko'rindi. Rostdan ham o'sha bog' va chakalakzorlari Bo'zsvuga tutashib ketgan, kunbotarga qaratib solingan Akmal o'risning uyi bostirmalari qaynab-toshib yonar edi. Allaqancha odam ikki ot-arava bemalol sig'ib ketadigan kattakon darvozani ochib yuborishga urinar edi. Odamtanimas iti burchakka siqilib olib g'ingshib yotgan ekan, yechib yuborishlari bilan pastak devordan osha angillaganicha Bo'zsvu tomonga urib ketdi. O'takasi chiqib ketgan ekan

O'ziyam.

- Boshqa hech narsa yo'q ekanmi? Bostirmalarni qaradingsizmi?! - deb odamlar bir-birlariga baqirib-chaqirishar edi. Shu payt:

- Qoch, Usmon, boloxona qulayapti! - deb qoldi kimdir.

Kim ishkomning ichiga qochdi, kim darvozaning oldiga. Allavaqtdan beri olov tutashib yonayotgan ustunlar og'ib kelib, qasir-qusur qilganicha, boloxona yoppa hovliga quladi. Chang aralash tutun uy ustiga chimmatdek yopirildi-qoldi. "Qoch-qoch!", "Senlarga nima bor? Yo'qollaring?!" degan baqiriqlar yangradi. Yonimizda kimdir: "Astag'firulloh-astag'firulloh", deya kalima keltirdi. Boshqa birovi Akmal o'risga achinib;

- Jimgina ko'chib ketuvdi-ku, kimga kerak ekan uyini yoqib yuborish? Buyam Sultonmurodning ishimi? - dedi.

Darvoza oldida hay-haylab, katta-kichikni olovga yaqinlashtirmay turgan norg'ul yigit bu gapni eshitib, uni so'kib berdi:

- Siz nimani bila qoldingiz? Valdiraysiz, Sultonmurod, deb?! Kecha oblochini boshlab yurganida baloginaga yo'liqsiz, deb qarg'ab o'tirganidingiz! Endi achinib qoldingizmi unga?

Haligi odam dami ichiga tushib, ming'irlaganicha nari ketdi.

- Boplading, Ahad. Bularga qolsa, falonchilar yoqvardi, deb hukumatga sotishdanam toymaydi, - dedi sap-sariq, shang'i odam qo'l silkilab. - Sadqai odam ketgurlar! Hammangni tinchingni qo'riqlab yotgan o'sha-ku!

Men Solining biqiniga sekin turtib qo'ydim:

- Eshitdingmi?

- Maqtanma, hali hammasini akangni bo'yniga ag'darishganida bilasan.

- Ag'dartiri-ib qo'yarkan-de.

- Ko'rasan, dedim-ku.

- Ko'ramiz!

Shu orada kattalar o'rtasida shivir-shivir yurib qoldi:

- Shapkalilar kepti, shapkalilar...

- Kim xabar bera qopti darrov?

- Guvoh bo'pqomasdan jilvor...

Haligi darvoza oldida ish buyurib turgan kallasi xumdek norg'ul odam olovning yorug'idan yuzini (men uning labi chetida kinoyali kulib qo'ygani ko'ribgina qoldim) o'girib:

- Shapkaligi kegan bo'lsa, esi borlarga juvob, - dedi. U shu turishida soyasi o'ziga tushib, bahaybat habash odamga o'xshab ketgan edi.

Shundan so'ng kattalarning "Tarqal-chi, tarqalish boshlandi. Ular o'zlari qolib, bizni haydashar, biz ham bu yoqdan ketib, narigi yoqdan aylanib kelar edik. Olovning zabti boyagidan ancha tushgan-u, lekin chor-tarafdan siqib kelgan qorong'ilik ham unga kuchi yetmay, allaqancha joy haliyam to'yxonadek yop-yorug' edi. Odamlarning soyalari avvalgidan ham uzun.

Soli qulog'imga shivirlab, qo'limdan tortqiladi:

- Yur, shapkalilariga yaqinroq boramiz.

- O'zlariga yaqinlashtirisharkanmi?

- Nimaga kelishibdi, bilaylik, - dedi u qistashini qo'ymay.

Qorong'ilikda oldinma-ketin o'sha yoqqa jildik.

Ular uch otliq ekan. Birovi jilovdor bo'lib qolib, ikkitasi osmafonar yorug'ida kim bilandir savol-javob qilyapti. Otlar so'liq chaynab, pishqirib-pishqirib qo'yadi. (Qaysi biri yangi tezaklagan shekilli, hidi o'sha yoqdanoq gurkirab kelyapti.) Yo'l yoqasida fonar tutgan shapkalining barmoqlari qon yuqiday qip-qizarib turibdi. Gungursday sherigi nuqul gardanini qashlab, oldidagi odamni poyintar-soyintar savolga tutadi:

- Hech kimii ko'rmadim deng?

- Ko'rsam aytaman-da, okovsi.

- Balki anuv Bo'zsvuga qochib yotganlar pastdan kelib?..

- Ularga nima zaril, o'zi qochib yurgan bo'lsa?..

- Balki muhlat berib ketganlarning o'zlari ko'chsang-ko'chmasang deb... Shunday ham bo'lishi mumkin-ku, to'g'rimi?

- Ha-yo'q, ular bunchalik noinsofmas, okovsi.

- "Ha"mi, "yo'q"mi - siz bittasini ayting.

- Ha-yo'q...

- Ana xolos!... Ulardan bo'lak it yoqarkanmi?

- O'libdi-da! Esini yeb qo'yibdi-da?!

Tergov qilayotgan odam birdan xunobi oshib, qo'l silkiladi:

- E, g'alati odam ekansiz-ku! Ha-yo'q, ha-yo'q!.. Ular nari ketib, boshqa odamni savolga tuta boshlarkanlar, birdan Olim akamning daftarchasi esimga tushib, survorgim kelib qoldi. Rostdan, shom tushishi bilan yoqvorilsin, deyilganmidi yo bo'lakcha edimi?

Yuragim hapriqib, Solini tortqiladim:

- Surdik, bulardan yaxshilik kutma.

U bo'lsa, ko'ziyam, qulog'iyam o'shalarda, "shoshma, ko'raylik"dan nari o'tmayapti. Axiyri, toqatim tugab qo'l siltadimu, men ketdim, deya jo'nab yubordim.

Kela solib, dahlizning chuqur tokchasiga tarmashib, kitoblarim orasidan o'sha kaftdek daftarchani qidirib yotsam... oyim kirib qoldilar:

- Qidirib ovora bo'lma, - dedilar jerkiganday,- akang ikki soat titkilab, topib olib ketdi.

- Nimani? - dedim angrayib.

- Nimani yo'qotgan bo'lsa, o'shani.

- Yo'g'-e?.. - dedim bo'shshib va birdan esimni yig'ib, qaytarib so'radim: - Shoshmang, qaysi akam?

- Qaysinisi bo'lardi, kichkinasi.

- Ana xolos! - Men ichim uzilganday bo'lib, tok-cha tagiga o'tirib qoldim.

Qarorgoh

Oyinning kechalari moshina tikib o'tirib boshlab qoladigan xirgoyilari quloqlarim ostida bir mungli-mungli saslanadi.

B B B B Yoril-yoril, yoriltosh-a,

B B B B Men opamni ko'rayin-a...

(Oyim buni nima xayolda kuylashlarini bilmayman. Balki Zumrad xolamizni eslab aytarlar. U kishi rohat ko'rmay o'tganlarini, chiroqlarini yoqib o'tirguvchi o'g'illari bu xil chiqqanini o'ylab ketarlar... Yakkabog'dagi qo'rg'onlar hali-hamon xarobaligicha yotganini, uning yoniga yana bittasi - O'zimzniki qo'shilganini aytmoqchi bo'larlar. Yana kim biladi).

Men anhor yoqasiga, tepachamizga chiqvolib, tizzamni quchgancha, qanchadan beri o'tiribman. O'sha mungli ohang ichimdan toshib chiqyaptimi, xayolimda aylanib yuribdimi - bilmayman, lekin hech quloqlarim ostidan ketmayapti. O'sha kaftdek daftarcha yo'qolganidan beri, undagi gaplar rost chiqib, hali Akmal o'risning xonadoni yonib tushganidan beri shunday. Bu ishlarni kimga aytarimni bilmayman. Oyimlarni ayayapman shekilli. Ichimni it tatalab yotipti-yu, qaerga borarimni, akamni qanday toparimni bilmayman. Atrofdagi zog' ham yo'q. Faqat anhor to'la chilp-chilp qora suv oqib yotipti. Chilpillagan tovushinigina eshitaman, xolos. Yulduzlari uzoqlarga qochib ketgan osmonimizdan ahyon-ahyonda allaqanday adashgan qushchalar chuldirab o'tib qoladilar. Yengil yel esib, yong'oq barglarini shatir-shutur to'kib o'tadi. Bo'zsvu tepalaridami yo uning iarigi betidami, chiyabo'ri uvlab-uvlab yig'laydi. Men esam oyimning xirgoyilariga monand tebrani-ib o'tiribman:

B B B B Yoril-yoril, yoriltosh-a,

B B B B Men okamni ko'rayin-a,

B B B B Diyoriga to'yayin-a,

B B B B Aytadiganim aytayin-a,

B B B B Yoril-yoril, yoriltosh-a,

B B B B Sen yo'llarimni ochaqol-a...

Qo'shiq tilimdan tilsimday quyilib kelarkan, da'atan... kallamning bir chetidagi zangori tuman ortida yarq etib, Kattabog'ning tepasidagi shiyponu ishkamlar oralab ketgan yo'l ko'zimga ko'rinib ketdi. Dovdirab qoldim!

Yopiray! U tong saharlardagidek zangori rangga chulg'anib yotar va qo'l uzatsa yetgudek edi.

Nima bu? Sidqidil so'raganimning javobimi yo yoriltosh yorilib, belgi berayotirmidi?

Tavakkal o'sha yo'l bilan borsam-chi?

Qanday jur'at paydo bo'lganini bilmayman, tura-solib, xufton demay, qorong'i demay, chopib ketdim. Saydnabi domlaning bog'i yoqalab, ariq bo'yidan tushgan yo'lga yetib oldimu Kattabog'ga tomon zing'illadim. Boshqa paytda bu yolg'izoyoq yo'ldan o'tishga yurak qani? Yana o'rtada bir talay tollar ila qurshalgan xilvat hovuz bor. Kechasi-ku zimiston shu yerda bolalaydi. Balki jin-alvastilarning ini ham shu yerdadir.

Hozir xayolimda yolg'iz o'sha yo'l. O'sha yo'ldan pshyonga chiqib bormoqchiman. Kallamga boshqa hech iarsa kirmaydi.

Nazarimda ular: "To'xta, kimsan?!" deb yo'limni to'sib chiqishayotganday, g'ira-shira yo'ldan tusmol bilan yelib bormoqdaman.

Balki omadimdan bo'lib, ularga duch kelarman. Balki... jin aylantirib, olib ketayotgandir? Yuragimda qo'rquv turib, shart burilib izimga qaytmoqchi ham bo'laman-u, Popoch ammaning olmozorida ketayotganim, u yog'i hech qancha qolmaganini eslab, yana davom etaman.

Umid yaxshi narsa ekan. U bilan qo'rquvni ham yengsa bo'larkan. U bilan qo'l yetmasdek tuyulgan ishlarga ham jazm etsa bo'larkan. Bo'lmasa, o'tiruvdimda shalpayi-ib...

Yugurgilab ketmoqdaman ko'zimga ko'ringan o'sha yo'ldan. Oldinda - huv o'n quloqcha narida - bo'yim baravar balandlikda mushtday bir ko'kchiroq porillab turibdi. Yursam yuradi, to'xtasam to'xtab, chopsam, chopqillaydi. G'aroyib. Nima ekan bu?

Rostdan ham jinlar meni avrab, aqldan ozdirib, yetaklab ketayotgan bo'lsa-chi, deb sekin orqaga qaytmoqchi bo'lsam, ko'kchiroq ham shartta to'xtadi, Qancha uzokdashdim, u esa joyidan jilmay turibdi. Ergashmayapti. Demak, qaytishimni istamayapti. Yomon jin bo'lsa, lip etib bu tomonimga o'tib olmasmi edi? Yaxshisi boraveray, peshonamdan ko'rdim, deb yana burildim. Boyagi joyimga yetishim bilan u ham likillab, yana oldimga tushgancha, jilib qoldi. Xuddi, yur, yuraver, yomonlik ko'rmaysan, deganday, o'ziga ergashtirib, to'g'ri shiyponga boshlab boryapti.

Qayoqqa borishimni bilmayman. Harqalay, shiypondan u yog'iga yuragim dov bermasa kerak. Undan u yog'iga jin chalishi, manavi narsalar uning ishi bo'lib chiqishi tayin.

Yodimga bunaqa yong'oqzorlarda odamlar har zamonda ko'rib qoladigan jinlar bazmi tushib, yuragim battar orqaga tortib-tortib ketyapti. Bir kuni kechasi Jahongir aka o'qishdan qaytyapsalar, shunaqa yong'oqzorda bazm avjdamish. Iya, Sa'dullaxo'ja akam uylanyaptilar ekanmi, men shaharda yurib eshitmay qolibman-da, deb burilishlari bilan: "E, keling, Jahongirxon, keling-keling"lab to'rga boshlab qolishibdi. Qalin ko'rpachalarga o'tqazib, oldilariga nonlar ushatib, mayizlaru shirinliklar sochib, "oling-oling"lab,

mulozimat qilisharmish. Yugurib-elib xizmat qilayotganlar bir ko'pmish, o'rtada o'ynab yotganlar bir ko'p-mish. "Qani, bismillahir rohmahir rohiym", deb ikki dona mayiz olar-olmaslaridan hammasi g'oyi-ib bo'lib qolibdi. O'zlari yong'oq tagida o'tirganmishlar... O'shanga o'xshab, bu ham jinlarning ishi bo'lmasa edi! Shoshib kalima keltirdim: "La ilaha illallohu, Ollohu akbar".

Ammo nur turgan yerida turibdi. Yursam, yuradi, to'xtasam, to'xtaydi. Tavakkal ketyapman.

Yo'l tiklay boshladi. Demak, shiyponga chiqib boryapmiz. Butun atrof zim-ziyo bir qorong'ilik qo'yniga cho'mgan. Sirliki, qo'yaverasiz, anavi kungi sovuqlar ketib, kunlar ilib, chirildoq chigirtkalar yana nag'malarini boshlab yuborishgan. O'zlaricha nimalar deyishyapti - yolg'iz Xudo biladi. Axir, bekordan-bekorga sayrashmaydi-ku. "Balki manavi porillab turgan nur ham biz aqlimiz yetmaydigan, bizni qo'llaydigan bir narsadir". Shunday deyar-demas ichim yorishib, qadamlarim ham tetik tortib qoldim. Qo'rquvlarim qayoqqadir yo'qolib, dadil shiypon yonidan o'tib bora boshladim.

Ammo yetti qadam yurdimmi-yo'qmi, haligi nur birdan g'oyib bo'lib qoldi. Qachon yo'qoldi, osmonga uchdimi, yerga kirdimi - bilmay-la qoldim. Va oldimda shiftdek biron paydo bo'lib:

- Kimsan, to'xta! - deb ovoz berdi.

Sakrab tushdim. Nazarimda, yuragim tovonimgacha tushib ketdi go'yo.

- Menman, - deya oldim zo'rg'a.

- Sen bilan necha pullik ishim bor! O'ronni bilasanmi? - dedi u.

O'zimga kelib, o'ylab ko'rsam, qaerda eshitganman bu ovozni, bu talabni. Tanidim ham. U anavi shopmo'ylovning o'zginasi edi. Va shu zahoti javob ham yodimga tusha qoldi:

- Assalomu alaykum va rohmatallohi va barokatuh, - dedim shoshib.

- Shu xolosmi, maqsuding-chi? - dedi u sal yumshab.

O'sha, ko'zimni bog'lab olib kelishganda eslab qolganidim:

- Al-qasosu min al-haq, - deb aytdim dadil.

- Minal haq, minal haq, - deb qaytardi-yu, baribir ishonqiramadi, shekilli.

- Bemahalda maqib yuribsan? - deb so'radi.

- Akamning oddiga kelayotibman, - dedim shoshib.

- Akang kim?

- Sultonmurod akam-da, bilmaysizmi?

- E, sen Olimmisan?

- Yo'q, men Maqsudman.

- Ha-a, shunday demaysanmi, Salom kennoyining o'g'li! Kim yubordi, oyinglarmi?

- Yo'q, o'zim. Zarur ishim bor.

- O'zing kelgan bo'lsang, biron yubormagan bo'lsa, yana yaxshi. Unda beri kel, - dedi va Toyir zakun kabi bitta belbog'ini yechib, yuzimni o'girdi-da, ko'zimni bog'lay turib, kimgadir ovoz berdi: - Hov G'ulom akalari, men bu elchi bolani oborib kelayin-a? Bu yog'iga o'zingiz qarab turasiz-da, maylimi?

- Ruxsat-ruxsat, aka mullo. Faqat zeriktirib qo'ymangda bizni, ko'p qolib ketib? - deb qih-qihlab kuldi u kishi.

- Picha sabr kunet, ako, - dedi bu ham. G'ulom aka yaqin joyda hirlinglab kuldi:

- Bitta-yarimta so'zini demasa, o'zimiz qatorisiz-ku, aka mullo?

- Xudo xohlasa, urush kushar bo'lsin, oppon-sopponlar o'tsin, o'zim biir O'ratepalarga o'ynatib kelay, o'shanda ko'rasiz, aka mulloning qancha so'z bili-shini...

- Qaniydi... O'zimam Tuvakdan chiqmaganimga qancha bo'ldi.

- Bu, deyman, tuvagizam juda chuqur ekan-de, G'ulom ako? - deb kuldi shopmo'ylov.

- Ey, siz sumagimizne ko'ring, sumagimizne! Ko'zim boylog', menam kulib yubordim.

- Yur, yuraqol, - deb shopmo'ylov kuragimga sekin turtdi. - G'ulom akangga Yüeuf qiziqlar bas kelmasa, biz pista po'choq. -

Qayoqqa yurarimni bilmay, merovsirab turgan edim: - Qani, qo'lingni bera qol, - deb o'zi yo'l boshladi. - Ha, mana shunday. Hov, G'ulom akalari, biz ketdik.

- Ahmoqqa To'ytepa bir qadam...

- Intizommi - intizom-da, aka, - dedi shopmo'ylov.

Men esam, turtinib-surtinib, borgim kelmay boryapman. Belbog'ini qo'yib yuboray desam, ko'zim boyloq, qo'yimasam - qadami katta, pildirab qolyapman. Qadamimni hech moslay olmay, hali unga, hali bunga qoqi-naman. Axiyri yorildim:

- Shu yoqlarga bormasak nima?..

- I-i, nega endi? - U to'xtadi.

- Baribir... qaytib kelamiz-ku?

- "Qaytib kelamiz?!" Bu nima deganing?

- Meni oborayotgan yeringizni bilaman.

- Qaysi yerni? - dedi u duduqlanib.

- Akam o'tirgan o'sha joyni-da. Qarorgoh deysizlarmi?

Chindan ham kallanning bir chetida yerto'laga tushiladigan joy aniq-taniq ko'rinish turar, ammo shop-mo'ylov hozir meni tamom teskari tomonga boshlab borayotgan edi. Balki aylantirib-aylantirib, qaytib kelib, o'zicha bu hech narsa bilmadi, deb o'ylar.

- Yo'g'-e, - dedi u hayratlanib.

- Rostdan ko'rib turibman. Ishonmaysizmi?

- Qo'yib yuborsam... topib bora olasanmi?

- Topganda-chi!

- Xo'p, unda ayt-chi, shu turishingda u qaysi tomonda? - dedi sinagisi kelib.

- Umi, orqamizda qoldi. Siz meni boshqa yoqqa boshlab boryapsiz.

- Zo'rsan-ku, sen bola! Xo'p, menga ayt-chi, tushadigan joyni ko'ryapsanmi yokim boshqa narsani?

- Uniyam, yerto'laniyam.

- Yo tavbangdan! G'alati-ku! - dedi u tan bera boshlab. - Men seni rusumiga to'g'rilab, adashtiraman desam... qoyil! - U kiftimga qoqib, ko'zimga bog'langan qiyiqni chechib yubordi va engashib, qulog'imga shivirladi: - Ammo-lekin akangga aytib o'tirmaysan. Bizni xuddi enamizni Uchqo'rg'ondan ko'rsatadi-ya.

- Xo'p, - dedim bosh iring'ab, - aytmasam aytmadim.

- Qani, boshla, bo'lmasa.

Men qaytib, boya ko'k nur yo'qolgan joydan qayrilib, to'g'ri pastga ina boshladim. Yetti qadam yurmasimdan ishqom orasida oyog'im zinaga turtinib, to'xtadim. Pastdan bedana sho'rvaning hidi gurkirab kelar, eshikning tepa zihida ipdek yorug' ko'rinar edi. Bu o'sha adyol eshik edi. To'xtab, tushaverayinmi, deganday ruxsat kutib, o'girildim.

- Astag'firulloh, qoyilman senga, pakana pari, qoyilman. Kiraver. Ular bir narsa desa, mana, men borman. Men kallamminan juvob beraman, - dedi shopmo'ylov azbaroyi to'lqinlanib ketganidan ko'ksiga nuqib.

Ichkaridan, o'ra tubidan kelayotganday, pang' ovozi chiqdi:

- Hov, nima shovqin, aka mullo?

- Yo'q, biz, - dedim men va shipillab tushib bora boshladim.

G'ulom aka o'zining kamgak-qorovulxonasida ovqatlanayotgan ekan, belbog'iga lab-lunjini artib, chiqib keldi va tanib:

- Ha-a, senmi, eshon bola, - dedi xotirjam tortib, - kir, kira qol. Akangning xabari bor.

Adyolning bir chetini ko'tarib, ostonada qotib qoldim...

Chaman

Yerto'ladagi pastak yog'och karavotda akam bilan... kim deng, hov qachondan beri qorasini ko'rsatmay ketgan oq shapkali Charli sho'rva ichib o'tirishar, o'talaridagi hali qo'l urilmagan bosmadan yengil hovur ko'tarilar edi.

- E-e, kel-kel, Charli bilan ikkovning qaynanasi suygan yigitlar ekansizlar. Ozib-yozib bedana bosma qilsak, nasiba haydab kelib turibsizlar, barakalla,- deb akam kosani qo'yib, o'tirgan yeridan qo'zg'aldi:- Qani, beri kel-chi.

Men ichkari kirib, qo'limni ko'ksimga qo'ydim:

- Assalomu alaykum.

- Va alaykum, - dedi oq shapka ovozi o'zgartirib va so'ridan tusha och bo'riday bo'ynini cho'zib, alpang-talpang yurdi. - Hap saloming bo'lmasa, ikki yamlab, - xuh! - bir yutardim, - deya quchoqlab oldi meni. Bag'riga bosib, kuraklarimni silarkan: - Ob-bo, pakana pari-ey, topib keldingmi-a? O'zing-a? O'sha tepadagi ostonada yotgan mo'ylovdor sherni avrab-a? Zo'rsan, zo'r, - deb alqay ketdi.

Akam ham ko'rishib, ikkovlashib dasturxonga qistadilar.

- Chiq, tepaga chiq. Senbop joy o'zi. Men hijolatda oyoq tiradim.

- E, biz rozi bo'lgandan keyin chiqavur-da.

Men joylashib ulgurmay, G'ulom aka yog'och kosada sho'rva olib kirdi.

- O'zi bir cho'michgina qolgan ekan, nasiba-da, eshon bola, - dedi mulozimati bilan.

- Ol, - dedi akam ham jilmayib, - eshitdim, bu senga ona sutidan halol ekan.

Ana xolos! Ammo o'zimni bilmaganga soldim. Akamning kayfi chog' edi, xaxolab kuldi:

- Ha, to'rvani tashlab ketmasang, bu bedana sho'rvayu bosmalar qayoqda edi!

Uyalib ketdim. Quloqlarimning tagi lovullay boshladi:

- Biz bilmasdan kirib qopmiz...

Gangir-gungur bilan bedananing suyagini mujib-mujib maza qilarkanmiz, men nimaga kelganimni tamoman unutgan, bir maynavozchilikka tushsa, odamning pchagini uzib, dumalatib qo'yadigan oq shapkaning gapiyu qiliqlariga mahliyo bo'lib o'tirar edim. Axiyri, choy kirib, bir piyoladan ichilgach, kutilmaganda Charli ko'lini kirkiga o'xshatib chalib turib, birdan: "vig'-viq, vig'-viq, pat-paloq, pat-paloq"lab sayrab yubordi. Va menga ko'z qisib qo'ydi:

- Nima balo bular zo'r sayratmaniyam qo'shib, bosmaga bosvorganmi? Shularga bedana tashlab ketib o'tiribsanmi, eh, sen pakana pari, - deb iljaydi.

Uning qilig'iga akam ham yoyilib kuldi.

- Yaxshiyam tovuq so'yib bosmaganimiz, Chaman? bo'lmasa, tuxum qo'yishga joy topolmay necha kun olamni buzarkansan.

- Shuni ayt, shuni ayt, - deb turib, oq shapka xontaxtani tapillatdi. - Yo'q, behazil, oxirgi paytda menga bir balo bo'lgan. Qazi yeb qolsam, otdek kishnayman. Novvos go'shtidan bo'lgan norin xalpanaga qo'shilishib qolsam, shu, mo'ragim kelaveradi, kelaveradi.

- Bo'lmasa, kelasi gal uloq so'ydirib bir narsa gayerlatib qo'yay, - dedi akam tizzasiga shapatilab.

- Ana, do'stingdan top, degani shuda, shuda, - dedi Charli (qarang, Chaman degan chiroyli oti borakan-ku, qayoqdagi Charliga ko'nib yuribdi) hazillariga nuqta qo'yganday bo'lib, mijjalarini ro'molchasi bilan artidi, keyin menga ko'zining qiri bilan zingil tashlab: - Xo'-o'sh, pakana pari, bir yayrashdikmi? - dedi va bir nimaga shama qilib, qo'shib qo'ydi: - Agar sizlarda yangiliklar bo'lmasa, menga javob. Vaqt ham...

Men nimaga kelganim esimga tushib, yalt etib, bir unga, bir akamga qaradim.

- Xo'sh, - dedi akam qo'lidagi choyni oxirigacha xo'plab. So'ngra piyolaning keti bilan tizzasini ezig'ilashga tushdi. Charli esa, ma'noli ko'z tashlab:

- O'sha gap bo'lsa kerak-da, - dedi.

G'ashim keldi, meni nazarlariga ilmayotganday tuyuldi. Shuning uchun o'zimning ham, bu kelishimning ham ahamiyatini ko'rsatib qo'yish maqsadida katta odamlardek salmoq ila:

- Sizlarga tegishli bir gap eshitdim... - dedim o'zimni go'yo beparvo tutib. Mo'ljalim to'g'ri chiqdi, ikkalasi ham "qani-qani"lab qolishdi. Vaqtini atay cho'zib, shundan so'nggina gap boshladim. Anuv qo'yin daftar, undagi sirli yozuvlar... yong'in to'g'risida...

Ora-orada Charliga qarab xijolat bo'lib qolsam, akam: "Aytaver, Chaman o'zimizniki-ku", deb qo'yadi. Ammo hech Olim akamning ismini tilga ololmasdim. Lekin akam baribir sezdi. Sezdiyu yuzi tundlashib, jim bo'lib qoldi. Buning ustiga og'aynisining: "Vot, ko'rding!" degan pisandasi oshib tushdi.

- Qani, u narsa? - dedi u nihoyat. Ovozi qaltirab chiqdi. - O'sha... aytvotganing?..

- Bilasizmi... ishonasizmi... - Aytishga hech tilim bormay... ko'zlariga javdiradim.

Akam tushundi. Tushungan bo'lsa-da, ishonolmay, allaqanday qiynalib:

- Sen yashirma, Maqsud, - dedi, - aytavur borini. Chaman o'zimizniki.

Men baribir aytolmadim, aytishni ep ko'rmadim:

- Ishoning. Rostdan ham u... yo'qolib qoldi, - dedim o'zimni aybdorday his etib. - Bo'lmasa, olib kelmasmidim.

U yuzimga bir alpozda termuldi. Men ham uning betiga qarab turib, achinib ketdim. O'rta hech gap sig'mas edi. Akam uzoq jim

qoldi.

Shu o'tirishida u eng yaqin kishisini ko'mib kelib, tilovat payti jim qolgan odamga o'xshar edi. Haligina tizzasini ezib o'tirgan anor gulli piyola hozir oyoqlari orasida to'nkarig'liq yotar edi. Uning ra'yiga qarab, hatto shunday so'zamol Charli ham tek qotgan, ko'z ostidan ora-chora qarab-qarab qo'yadi, lekin bir narsa demaydi. Axiyri Sultonmurod akam pishillab, chuqur tin oldi. O'rnashib o'tirishga uringan edi, tagimizdagi kat g'irchillablar ketdi. Bizga qaramay yuzlarini ishqab, bosh chayqab qo'ydi. So'ng o'kinch ila: - Yigitlar shuncha gap keltirganida ham, sezmaganga olib ketar edim, - dedi ezilib. - Kallamning bir chekkasida xasmolday turar edi-yu, o'ldimi, bir ota, bir onaning farzandlari shunchalik borsak deb... O'zingayu unga insof tilardim Xudodan har gal. Axir, undan bo'lak kimim bor mening, Chaman, bu yorug' jahonda? Yana kimim qoptiki?.. - U to'liqib o'rnidan turib ketdi va darhol o'girildi. - Qo'rg'onimizni ko'rgansan: borgan bosib, bir xarobazor bo'lib yotibdi. Boyqushlarga vatan bo'lib, yumronqozlarga in bo'lib! - U quruq yutindi. - Axir, bir vaqtlar kimsan Abdurahim eshon pochcha desa, Toshkentning yarmi tanir edi. Otamizdan maslahat so'rab, fatvo istab keladiganlar qancha edi. Qa'ng'liyu Cho'lponotaning duogo'y qariyalari, zo'r-zo'r mullalari yig'iladigan shunday tabarruk joyni nima qildilar?! Allaqanday bir olacha to'qli "ozodlik kuychisi"ni mutaassiblar yo'q qildi, deb bir kechada millatning gulini terib ketmadilarmi, Chaman?! Qizil vagonga bosib, sovuq o'lkalarga olib ketilgan o'sha guruh-guruh chollarimiz o'sha kuychini tanirmi edilar? Yurtdan iymonni ko'tarish uchun o'ylab topganlarini hech kim bilmasa ham, sen bilasan, Chaman. O'zlari yo'qotib, "eshonlar, mullolar toshbo'ron qildi" deb olamga jar soldilar. Holbuki, bular yurtimizning iymon tayanchlari edi. Iymonimizdan judo qilmoqchi bo'lishdi bizni. Shundan keyin xonadonimiz to'zib, o'zimiz birovlarining eshigida qoldik. Xudoga ming qatla shukr, boshimizni silaydigan qo'l, qornimizni to'qlab, ochdan o'ldirmaydigan odamlar bor ekan. Ammo mana bu ko'ksimizdagi kemtikni kim ham to'ldira olardi? Kechalari bosib keladigan u o'ksikni kim ketkiza olardi? Eh, Chaman, Chaman, aytishga oson, tag'inam fil ekanmiz, tishni tishga bosib, miq etmay kelayotirmiz. O'shalaringga qarshi bitta o'q otganim bormi? Nafratimni sochganim bormi? Bor-yo'g'i yurtimning tinchini allaqanday olchog'u o'g'ri-qaroqchilardan, shapkali zuluklardan qo'riqlamoqchi bo'lsam, meni o'ziga dushman sanaydimi hukumating? Tirmog'ining ostidagi menday bir zirapchadan, hali xasmolga aylanmagan yarachadan shunchalar qo'rqadimi bularing?!

U ikkala tizzasini qo'shib cho'choqlab, miq etmay o'tirgan do'stining qoshiga savol yog'dirib kelar, o'zini qo'yarga joy topolmay, yana ortiga qaytar edi. Torgina yerto'lada borib-kelib alam va nafratlarini bizga "sochar" edi:

- Nima, men Madaminbek edimmiki, Namozmi edimmiki, erta-birisi kun yigit yig'ib, qilich ko'tarib chiqadi, deb cho'chisalar?! Nihoyati o'zimizning oramizda o'zimiz tartib o'rnatolmasak, unda biz kimmiz? Zabunlikka shunchalar mahkumimizmi?

Oshnasi boshini ko'tardi, ammo tik qarayolmadi:

- Urush payti, senam tushun, - dedi sekin.

Shu bir og'iz so'z kamlik qilib turgan ekan, akam shart qayrildi:

- Ha-ha, tag'inam urush payti, bo'lmasa, ikki kunda ushlab ketib, tiqib tashlardi tiqadigan joyiga. Benomu nishon ketardik ham. Ha, deyaver!

- Hozir ham ayamasalar kerak, - dedi oshnasi o'sha-o'sha mulohazali ohangda.

Akam birdan zavqi toshib, tizzasiga urib qo'ydi.

- Xeh tavgangdan! Meni kim deb fahmaydi bularing?! Men Shayboniyxon yo Po'latxon edimmiki, xonlik tuzsam, saltanat so'rasam! Balki mendan yangi Temur chiqar? Xeh, do'stlarim-ey, do'stlarim-ey! - U ikki yoniga shapatilab-shapatilab kularkan, Charli o'qraydi:

- Jinni bo'lma, devorning ham qulog'i bor!

Akam bepisand qo'l silkidi:

- Qo'rqib bo'ldim o'sha quloqlariyu yelpataklaridan! Menam, menam, bilsang, o'z yurtimda odamga o'xshab yashagim keladi.

Yayragim keladi, ey Chaman! - deb ko'ksiga nuqa-nuqa unga qarab yurdi. - Mening ustimda allaqanday yuvindixo'rlar, yaltoqilar, eliyu ela-tini xorlatib qo'yganlar emas, iymoni butunlar tursa, deyman. Menam hamma qatori otalarim o'tgan joyni vatan tutib, bola-chaqa qilsam, kunimni ko'rsam, orqamda chirog'imni yoqib qoladiganim bo'lsa, deyman. Pushti-sulolamiz uzilib bitmasa, deyman. Axir, saltanat emas, kindik qonim to'kilgan joyda bir parcha vatan tiklashga haqqim bordir mening ham?!

- Bor, - dedi oshnasi nochor-noiloj.

- Bor bo'lsa, qo'ysinlarda holimga. Tushunsinlarda meniyam. Padari buzrukvorimizni ayamagan, bizni to'zitib, mana bunday tentiratib qo'ygan kimsalar bilan men qanday elakishib ketay, osh-qatiq bo'lay? O'zlari bo'riga aylantirib, qo'ydek yuvvoshlikni kutadilarmi mendan? Ikki dunyoda ham ado bo'lmaydi bu yuragimdagi zardoblar. Men qanday kechirib ketay? Orqamga tashlay? Mo'min degani zabun deganimas-ku!

U qayrilib nari ketdi va o'sha burchakda qo'llari beo'xshov qaltirab, tamaki o'rashga tushdi. Chiroqning olov tili ham bir chayqalib, yana qotdi, og'ir yona boshladi. Katning tagidagi allaqaysi burchaqda chigirtka chirillab, bu kuzning so'nggi qo'shig'ini to'qishga kirishdi. Erta birisi kun sovuqlar tushishi bilan u ham bir kunjakka o'zini urib, qish uyqusiga ketadi. Hozircha...

Chaman oshnasi ham oyog'ini katdan tushirib, cho'ntagidan popiris chiqardi va menga qarab quv ko'zini qisib qo'ydi:

- Ey, pakana pari, bedanalaringni ichida bittasi yomon zo'r ekanmi? - dedi nimagadir shama qilib.

Men yelka qisdim.

- Yo'q, sen yelka qisma. Kelib-kelib o'shanisi akangga tushibdi. Buliqtirganini ko'rdingmi?

Akam turgan yerida boshini burib, yomon qarab qo'ydi va o'zini bosib:

- Sen hazilga burma, Chaman, - dedi, - maynavozchilikning ham vaqti bor.

Charli popirisini chiroq shishasining ustiga tutib, qattiq-qattiq tortib olovlantirdi-da, qaddini rostladi.

- Har narsaning vaqti bo'lsa, senam mashvaratni qoldir, vaqti emas hozir. Ko'p odamning kasriga qolasan, - dedi birdan jiddiy tortib.

- Iloji yo'q, - dedi akam qaysarlik-la bosh chayqab, - mening yigitlarga aytar so'zim bor. U kim edi o'zi, deb yurmasinlar umrbod. Meni deb, menga ergashib qaroqchi atalmasinlar! Bir umrli tavqi la'natga uchrab, qora ro'yxatga tirkalmasinlar. Undan ko'ra, shu soxta vatanning himoyasiga ketganlari afzal. Jilla qursa, qahramon atalib o'ladilar-ku. Namlari tarixda qoladi-ku. Menga ergashib nima topadilar? G'ururnimi? G'ururning qadri sariq chaqaga teng zamonda u kimgayam kerak?!

- Sultonmurod! - Kutilmaganda Chaman popirisini yerto'laning bir chetiga itqitib yubordi. Uchqunlari devorga urilib, mitti mushakday har tomon sochildi. - Bas! Ertaga men senga hech qanday yordam qilolmayman. Odamni nochor qoldirma. Mening vaqtim bitdi.

- Xo'p, - dedi akam qayrilib qo'lini uzatganча, - seni Oqtepagacha oborib qo'yishadi. Ko'rishmasak...

- Shoshma. Qizishib hech kim hech narsaga erishgan emas. Bizni shu qiziqqonligimiz boshimizga balo bo'lgan hamisha.

O'zibilarmonligimiz ado qilgan, bilsang, ne-ne saltanatlarni.

Akam qo'l siltab, nari ketdi:

- Qo'y, bu gaplarni, Chaman. Men saltanat da'vosida yurgan odam emasman. Xonlar sulolasidan ham emasman. Katta oxurdan yem yeb o'rganganlar boshqa. Buni sen yaxshi bilishing kerak.

- Men-ku bilaman. Lekin ular... mendan ham yaxshiroq bilishadi, qo'yib bersa, sendan kim chiqishini.

- Mendan? Xeh, tavba! Qadamini o'lchab, xatlab yurishga mendan bo'lak odam topisholmabdimi? - dedi akam allaqanday zavqlanib va hazilga burib.

- Topisholmabdi-da, - dedi do'sti. - Sen Oqsaroyu Go'ri Amirga borib kimni tavof etib yurganlaringni, Oloy malikasi Qurbonjon Dodho tarixi bilan qiziqib, qaerlarda qolib ketganingni hech kim bilmaydi deb o'ylaysan-da. Ularni kim deb o'ylayapsan? Kerak bo'lsa, sen hozir nima bilan nafas olib turganinggacha bilishadi. Chuchvarani xom sanama, oshna. - Aftidan, Chaman hali ketadigan emas, endi uning ko'zini moshdek ochib, so'ng jo'namoqchi edi. Akam gardaniga shapatilab, achchiq kuldi:

- Xeh, ular hali o'zlaricha yangi Xudoyorxon yasab qo'yg'onlar, desang-chi...

- Xudoyorxon bo'lsang jon derdilar va burningdan buloqi o'tkazib, ayshlarini suraverar edilar. Sen xavfliroqsan.

- Xavfli? Men-a? Yo tavbangdan! - U nasha qilib, yayrab kuldi.

- Aylantirma gapni, o'zing yaxshi bilaturib! Sening yoshingda senday hur fikrlilar nimalar qilmagan?!

- Nimalar qilibdi?

- Yoqubbeklar Qashqarga hokim bo'lgan.

- Hokim emas, amir, - dedi akam.

- Ha-a, bilarkansan-ku. Ular bilmaydilar deb o'ylaysanmi, bu xalqning o'ziga qo'yib bersa, qanday saltanatlar qurib olishini. Sen mening tilimni qichitma-da, aytganimni qil. Kallangni obdan sovutib olib, tanangga o'ylab ko'r. Bizga sen keraksan. Juvonmarg bo'lib ketishingga yo'l qo'ya olmayman, ahvolni tushun!..

Chaman bir narsasini yo'qotgan odam kabi kalovlanib turib, cho'ntagidan yangi popiris oldi, lekin chekish fikridan qaytib, uni ko'krak cho'ntagiga tikdi-da, ketishga hozirlanib, akamga qayrildi.

- Endi menga ruxsat ber, yaxshi kunlarda ko'rishaylik, - dedi allaqanday to'liqib.

- Mayli, yaxshi bor, - dedi akam ham quruqqina va xayr-xo'shlashgan kabi orqasidan yurdi. Keyin: - Darvoqe, Chaman, - deb shoshib chaqirdi. - Anuv oshnamizni surishtirdingmi?

Chaman aka adyolni ko'targan joyida to'xtadi.

- Qaysi?

- Turg'un chachol-chi, qoratoshlik? Qayoqqa yo'qolibdi?

- Ha-a, umi? Aniqladim-aniqladim. So'ramasang, paqqos unutibman. Bilasanmi, nima qipti? Hammasining oldiga bir qop poxol tashlab... survoribdi! qotiribdi lekin!

- Yo'g'e?.. Tuzalar-tuzalmas-a?

- Tuzalishini kutsa, ikki dunyoda ham qutulmasdi.- Chaman aka aytishga aytib, tilini tishladi. - Ishqilib qutulgani rost bo'lsin.

- Hozir... qaerda ekan?

- Bilasanmi, - dedi endi chaynalibroq va akamning tirsagidan ushladi. - Oshnang sendan qolishmaskan iz qoldirmaslikda. Yana surishtiraman, sen xotirjam bo'l.

- Mayli, surishtir, - dedi akam. - Bizni deb... jabr tortib yotmasin bir joylarda.

- Yotmaydi. Yotqizibam qo'ymaymiz, Xudo xohlasa. Mayli, sen chiqma. Toyir bilan yetib olamiz. Seni Yaratganga topshirdim.

Yaxshi qol, sen ham, kichkina polvon. - U menga ko'z qisib qo'yib, bosh egdi va yerto'ladan chiqdi.

Tangri Inoyati

Hech bu xilda uyg'ongan emasman: ichim to'xtovsiz hapriqib, g'ashlanib yotibdi. Nimaga shunday, nima qilsam yoziladi, bilmayman. Bunaqa bo'lmagan hech.

Saharga yaqin tush ko'ribman.

Tushimda oftob bu yoq qolib, narigi yoqdan, botadigan tomondan chiqib kelayotganmish. Qip-qizarib, xuddi bir tandir laxcha cho'g'day. Botsa kerag-ov desam, ufkdan uzilib, bir g'alati havolanib boryapti.

Oyinning oldilariga yugurdim.

"Oyi-oyi, uni qarang, quyoshni qarang".

Oyim namozdan turayotgan ekanlar, qaytarib so'radilar:

"Nima deding?"

"Hech mahal teskari yoqdan chiqadimi kun?" dedim men.

"Nauzambilloh, nauzambilloh, nima deyatganingni bilasanmi o'zing? - deb oyimning yuzlari oqarib ketdi va umrlarida birinchi marta meni jerkib tashladilar: - Esingni yebsan! Qiyomatda shunaqa bo'ladi! Nari bor!"

Tavba. Men aylanib kelib, yana so'ramishman.

Shundan beri ko'nglim g'ash, chiroq yoqsa yorimaydi. Ustiga-ustak, hapriqqani-hapriqqan. Maktabimga borgim yo'q, sigirimga qaragim yo'q. Kiraman-chiqaman, chiqaman-kiraman, qo'limni tayinli bir ishga urol-mayman.

Qo'rqa-pisa kunga qarab qo'yaman. Betida biron o'zgarish axtaraman. Yo'q, o'sha-o'sha nurini ayamay sochib yotibdi. Ertalab tussizgina bo'lib ko'ringan edi, endi terak bo'yi ko'tarilib olib, yozdan qolgan kami bo'lsa, mana, deb charaqlab turibdi. Moviydan-moviy, tiniqdan-tiniq osmonda zarra o'zgarish, g'ubor yo'q.

Qaytangga boshdan-oyoq bir tekis sarg'aygan o'rik barglariga qarab, ko'z to'ymaydi. Ularning o'zi ham har bittasi bir oftob bo'lib, sap-sariq nurga botib yotibdi. Xuddi ko'zga ko'rinmas bir zo'r rassom kechasi bilan bu o'rik barglarini bitta qo'ymay yombirangga bo'yab chiqqandek. Yerda ham u barglar gilam bo'lib to'shalib yotibdi. Ahyon-ahyonda ikki juftginasi tepadan quvalashib uchib tushib, o'sha sariq gilamda qo'nim topishini aytmasa, kechagi kunlardan farqi yo'q.

Ammo yodimga kechagi kun, yo'qolgan jajji daftar-a va undagi yozuvlar, meni shiypon tagiga yetaklab borgan sirli ko'kishtob nur... tushadiyu yana ichim orziqib kela boshlaydi. Nimadandir hapriqaveradi. Kingadir yorilgim, qayoqlargadir qochib ketgim, kimlarnidir ko'rgim, tikilib-tikilib to'yib olgim kelaveradi. Yana tushimdan qo'rqib-qo'rqib qo'yaman. Xudoning o'zi asrasin ishqilib. Balki bugun Bo'zsuva qiyomat qo'pmas?.. Akam mashvaratni qoldirgandir? Tanasiga o'ylab ko'rgandir? Ilohim, Xudo

ko'ngliga solgan bo'lsin. Qirg'inning oldini olgan bo'lsin O'zi...

Oyimning qistovlari bilan maktabga borib qaytdim. Kelsam, oyim tok qirqayotgan ekanlar. Ayol boshlari bilan bir ishkorni ochib qo'yibdilar. Kelasi yilga qoldirilgan qo'ng'irtob novdalaru tok zanglari hali ustidan tushirilmagan bo'lsa ham, ishkorni allaqanday g'arib tortib qopti. Qarang-a, toklarni ko'madigan payt ham kepti.

Kitob-daftarlarimni supaga itqitib, oldilariga yugurib bordim.

- Qo'ying, oyi, men turganda shu sizning ishingizmi? - dedim jahlim chiqib. - Tokqaychini menga bering.

Oyim iyib ketib, mayin jilmaydilar.

- Buniyam kesishda kesish bor-da, o'g'lim. Sen tanlab bilarmikansan?

- Bilmasam, ko'rsatib turasiz-da, oyijon.

- Unda, ma. Ilohim, er yetib, qo'limdan ishlarimni olganing rost bo'lsin! - deya tokqaychini uzatib, duo qiddilar.

Men kalta bo'g'inli, qizarib pishgan novdalarni oyim kesganlari kabi yarim qulochcha qoldirib, qirqib tushira boshladim. Oyim birpas buni qoldir, buni olib tashla, deb turib, ko'ngillari joyiga tushdi shekilli, yuz-qo'llarini chaygani ketdilar va hech qancha o'tmay boshqa ro'mollarini boshlariga tashlab chiqdilar. Bosh-oyoq kiyinib olibdilar. Qayoqqadir otlandilar, shekilli. Hayron qaragan edim:

- Qo'ldosh tog'angdan xat kelganmish, men Qumri kennoyigdan birrov ko'ngil so'rab chiqay, - deb o'rta yo'lga qarab yurdilar.

- Maylin, - dedim men yolg'iz qolish o'zimga ham yoqib.

Men o'zi shunaqaroqman. Yolg'izlikni yoqtiraman. Ish qilsam ham, birov aralashmasa. Tepamda turmasa, o'z xayolimga qo'yib bersa. Istasam, anhor bo'yiga chiqib, do'ngda Yakkabog' tomonlarga tikilgancho soatlab o'tiraversam. Istasam, tomga chiqib ketsam, Bo'zsvuning ikki betkayidagi yuki bilan cho'kib yotgan nortuyalar misoli tepaliklarda, qamishlari sarg'ayib, po'panay chiqarib yotgan jarlarda biron jon asari ko'rinib qolishini ilhaq kutib... xayol suraversam. Narigi betda elas-elas bilinib turgan yerto'lalardan ko'zni uzmasam...

Bugun kechga yaqin "cho'kkan tuya karvonlari" ustida yo qiyomat qo'pib, olatasir boshlanadi, yo hammasi eski holicha jim-jim qolaveradi. Yo anuv xabar haq bo'lib chiqadi, yo... Akam nima qarorga keldi ekan?

- Kichikoyi, ho, kichikoyi?..

Xayol bilan bo'lib avvaliga eshitmabman, eshigimizda birov chaqirib turgan ekan. Kim ko'p, oyimlarga ish ko'tarib keladiganlar ko'p. Turgan yerimdan javob qila qoldim:

- Oyim chiqib ketuvdilar.

Eshik g'iytillab ochilib, qizil duxoba paronji yopingan birov ko'rindi. U chimmatni ko'tarmagan holida hovli sahniga qarab turardi.

Ko'zni olovday olguvchi bunday paranjini qaerda ko'rgan edim-a? biron to'y yo ma'rakadamikan?

- Sizga kim kerak, opoqi? - dedim hayratlanib. Qiziq, sachvonini yo ko'tarmaydi, yo ovoz berib qo'ya qolmaydi? Tok ro'dalarini bosib o'tib, olchalarimiz orqasidan ochiq joyga chiqib bordim:

- Ishingiz zaril bo'lsa, chaqirib bera qolay.

U bosh eggancha, sachvoni ichida qo'li engahiga borib keldi:

- Men, kelinoyizman, eshon bola, - dedi ko'ngli buzilgandek bo'lib.

- Iy-y, sizmi edingiz?.. - Olovday paranjini birdan esladim. Men uni ilk bor Bahridin akamning to'yi kechasi, kelinni jim-jim go'shangaga kiritib yuborishayotganida ko'rgan edim.

- Menman... men o'sha baxtiqaro, qaynijonim, - dedi u titrab-qaqshab.

Men uning istiqboliga chopdim.

U chimmatini ko'tarib boshiga tashladi. Ko'zidan tinimsiz yosh oqar edi. Ko'nglim buzildi.

- Yig'lamang, kennoyijon! Siz yig'lasangiz, biz qanday chidaymiz?

Unga nima bo'ldi ekan? Qiz bola boshi bilan izlab kelibdimi? Yo oyimlarga kiyim tiktirgani kelgan-u, meni ko'rib, akam, bu xonadonga kelin bo'lolmaganlari... esiga tushib, o'zini tutolmay qoldimi? U yoqda akam uzil-kesil hal etmaydi. O'sha qarorgoh, o'sha mashvaratlari shu kennoyimdan afzal ekanmi?!

Kennoyim nimchasining cho'ntagidan ro'molcha olib, ko'ziga bosdi. Kaftdekkina ro'molchasi ajinagulli chitdan, odmi edi, lekin gir aylana hoshiyasiga to'qilgan gajimi, pistonli yaltir-yultir shokilasi bir ajoyib.

Marg'u kennoyim kutilmaganda o'zini tutib, yomg'irdan keyingi oftobday ochilib qaradi.

- Kechirasiz, qaynijonim, men asli kichikoyimlarga kelgan edim. Bormilar?

- Kiring, kiravering, hozir chaqirib kelaman. Uzoq ketmaganlar, - deya qistay boshladim.

- Mayli, kirsam-kiray, bu yangi uylaringizga hech kelmagan edim, - deb hovlimizga qadam qo'ydi. Boshidan paranjisini olgan edi, kelinchaklardek bo'ldi-qoldi.

Men unga qarab turib, ich-ichimdan zil ketdim: fotihalar bo'lib, taqdirga tan beribdida sho'rlik kelinoyim! Na Bahridin akamga, na Sultonmurod akamga buyurmadi-ya. Eh, aka-aka, nimalar qilib qo'ydingiz?

U yangi kelinchaklarday bir oz sollanib yonginamda kelarkan, shamol esibmi, etaklaridan epkin ko'tarilibmi birdan kelinlik iforlari gurkirab ketib boshim aylanayozdi. Uzimni allaqanday sarxush, yengil sezdim. Nazarimda olam qaytadan bahorga kirib borayotganday edi. Ko'z oldimdan esa qiyg'os gullagan shaftolizorlar saf-saf o'tarmi, tepamda qumrilar sayrarmi edilar. Tomimiz usti, bo'g'otlarida qizg'addoqlar ochilib, chuchmomalar salom berib yotganday go'yo...

Men ham sal darveshroqman shekilli, mehmonga ko'rpacha solish o'rniga qayoqdagi xayollarga berilib ketibman.

- Yuring, kelavering, - deya uni supamizga qistadim. Kennoyim hali supa zinasiga yetmagan edi, birdan qichqirib yubordi:

- Voy, sho'rim!

Men o'girilib, hayratda qoldim: bog' etagidagi yo'lakda Sultonmurod akam kirib kelar, hali bizni ko'rmagan, kennoyim esa, qo'llarini yuziga bosgancho, nima qilarni, qayoqqa qocharini bilmay dovdirab turar edi. Paranjisini yopay desa, supa chetiga tashlab ulgurgan...

Akam esa tashvishi o'ziga yetarli edimi, haligi qichqiriqni ham anglamay, jiyda tagidan oshiqib kelyapti, hatto bu yoqqa qarab qo'ymaydi. Marg'u kennoyim shosha-pisha paranjisini yulqib qo'lga oldiyu aylantirib boshiga soldi, ammo sachvoni oyoqlari tagiga otilib tushdi. Enkayib, olishga oldi, ammo yopinib ulgurmay; yarim o'girilgan holicha turib qoldi. Qo'lga tushgan qushchadayin dir-dir titray boshladi.

Akam ham nihoyat uy burchagidagi barglari garmdoridek qizarib, to'kilishga yuz tutgan shaftoli tagidan o'tib bizni ko'rduyu ko'zlariga ishonmaganday hayratda to'xtab qoldi.

Sekin supadan tushdimu o'zimni o'ng kelgan joyga - oshxonaga urdim.

Hovlida og'ir-vazmin oyoq tovushlari yaqinlashib kelib, nihoyat, u rayhon uvatida to'xtadi.

- Marg'u, rostdan o'zingizmi? - dedi akam. Kennoyimdan sado chiqmadi.

- Nega indamaysiz, Marg'u? Xafamisiz mendan? Akamning holini bilmayman, lekin oldi ochiq oshxonadan kennoyimni ko'rib turibman: u hamon paranjisining bir chetini yuziga parda etib, qiyrixon qarab turibdi. Lekin negadir hech javob qilmasdi. Akam betoqatlanib, yaqinroq yurdi.

- Marg'uginam, tushuning, axir, - dedi o'tinch-la.- Kelarga bir iloj topsam, kelmasmidim. Ne qilayki, ixtiyor etganim bilan...

Kennoyim jim, ammo angoridan o'krab yuboray deb turibdi. Nimaga ham boya birato'la ko'chaga chiqib keta qolmadim? Bularni bu alpozda ko'rmas ham edim, noqulaylik sezmas ham edim. Hozir esa, ixtiyorimdan tashqari ularning uchrashuvlariga shohid bo'lib qolayotgan edim.

- Men o'zimni oqlamoqchi emasman hech. Lekin Xudoyimning xohishi shunday bo'ldi shekil, Marg'u.

Kennoyim achchiqlanib akamning yuziga ilkis qaradiyu yana shartta yuzini o'girib oldi. Beixtiyor qo'lidagi sachvonni ezib-g'ijimlar, g'ijib-ezg'ilar edi. Akam uning bu holini sezmaymi, davom etdi.

- Ilojimiz qancha, Marg'u, balki ro'zi azalda peshonamizga bitilgani...

Ko'rib turibman: kennoyimning ko'zlari yonib-yolqinlanib ketdi. Unga yomon qaradiyu yana arazlab, yuz burdi. Akam kutilmaganda uni sensirashga ko'chdi:

- O'zing oqila qizsan - tushun. Mening ahvolim, bizning boshimizdagi manavi sho'rishlarni O'zi ko'rib-bilib turibdi. Qolaversa, Marg'u, bizning aytganimizmas, istaganimizmas, Uning yozgani bo'lgay. Uning xohlagani shu ekan,.. nega bo'yin egmaylik?! Shunisigada shukr, Marg'u. Meni deb bu aziz boshingga sotib olma balolarni, qo'y. Endi biz duolarimizda yashagaymiz. Nomimni duolaringdan qo'ymasang, bas.

- Sultonmurod aka! - Kennoyim birdan paranjyiu sachvonini itqitib, unga o'girildi. - Iltijo qilaman sizdan, unday demang. Meni tiriklayin o'ldirmang! Shuncha chekkan azoblarim, zahar-zaqqumlarim yetmasmidi, kammidi, axir? - Va ho'ngrab yubordi-da, orqasini o'girib, supa chetiga o'tirib qoldi. Boshini og'ir-og'ir chayqab turib, yelkalarini silkinib-silkinib, sim-sim yig'lay boshladi. Akam kennoyimning tepasiga keldi. Yelkasidan tutib yupatishga taraddudlandi-yu, nimanidir o'ylab, qo'lini tortdi. So'ngra tik turganacha:

- Marg'u, - dedi bosiq bir tovushda, - mayli, mening o'sha so'zim so'z. Sen uchun shu gunohni ham bo'ynimga olay, faqat, bo'zlama bunaqa. - Negadir belbog'ini yechib, artib ol ko'zyoshlaringni, dedimi, boshingni berkit, dedimi, kennoyimning yelkasiga tashladi.

- Endi men boray, kutib qolishdi. Bular bilan xayrlashgani kirgan edim. Xudoyimning inoyatini qaraki, bizni shu yerda, shu soatda ko'rishtirdi. Uchrashirmasa, nima qila olardik?! Xayr endi, yaxshi qol.

U burilib bir odim bosdi. Kennoyim sapchib o'rnidan turib ketdi:

- Sultonmurod aka! Jo-on, Murod aka!

Akam to'xtadi.

- Nima deysan? - dedi yarim o'girilib.

- Axir, bu yog'i to'y... mengayam oson tutmang!

- So'zim so'z, dedim-ku, Marg'u! Sen meni bilasan! - dedi akam dona-dona qilib.

- Bilaman, lekin... jilla qursa, Xudo xohlasa, deng! Ishontirib keting!

- O'zi shohid shu turishimizga. Insha O'lloh, o'zi ko'llagay.

- Qo'llasin, ilohim, men ishondim, - dedi kennoyim yig'lamsirab va yuzlariga fотиha tortdi.

Akam burilib keta turib birdan alanglab qoldi:

- Maqsud, qaerdasan? Xolam qanilar? Oshxonadan yugurib chiqib bordim:

- Men sho'ttaman, Oyim...

U gapirgani ko'ymay, yelkamga kaftini tashladi va yengil silkidi.

- Katta yigit bo'p qolding, o'zing tushuntirib qo'y. Ko'risholmay qolsak, rozi bo'lsinlar... bergan tuzlariga.

- Unaqa demang, aka, bizni tashlab qayoqqa borasiz? - dedim o'ksinib.

U peshonamdan o'pdib "Bir tomchi issiq yosh yuzimga tomib, titrab ketdim. Akam boshimni silab erkaladi:

- Ot bosmagan joylarni toy bosgan hamisha. Sen qo'rqma, pakana pari, uzoqqa borasan hali, - deb meni ergashtirib yura boshladi.

Qizg'ish xol-xol tashlab, yangi to'kilgan shaftoli barglarini bosib, o'rtadagi yo'lakka yetdik. U akalaracha quchib: - Yaxshi qol, - dediyu birdan jadallab ketdi.

Men shu tobda uii qo'yib yubormay tarmashib olgim keldi-yu, negadir jur'at eta olmadim. Va birdan bugun mashvarat kuni ekani yodimga tushib, jon holatda orqasidan yugurdim.

- Aka, mashvarat nima bo'ldi, qoldimi yo'..

U suyib jilmaydi va asta engashib, qulog'imga shivirladi:

- O'tkazib tarqalyapmiz. Ammo sen o'sha vaqt tomga chiqib bir qara Bo'zsuv tepasiga - ko'rasan qiyomatni...

- Shunaqami? - dedim ham quvonib, ham qo'rqib. U ma'noli bosh silkib, opamning hovlilaridan chiqishga shoshildi.

Qaytib kirganimda, Marg'u kennoyim supa chetida qurigan rayhonzorimizga qarab, jimgina o'tirar edi. Rangi-ro'yi bir ahvol...

Osmondan Oyog'ini Uzatib Tushganlar

Oyim chaqirishlarini qo'ymaydilar, men esam oyog'i kuygan tovuqday tomda yuribman. Ovoz ham berolmayman, tushgim ham yo'q. Bu yoqda aytilgan vaqt kelyapti. Qiyomatni ko'rasan, degan edi akam. Yo bir ajoyib tomosha tayyorlashdimikan?!

Hozircha jimjitlik. Jimjitlikki, portlayman deydi. Quyosh botish arafasida. Nihoyati qizarib tushgan tandirning og'ziday bo'ib turibdi. Ufkdan och tumanmi va yo kech kuzning tez tushadigan shomimi toshib chiqmoqda. O'sha yoqdan Bo'zsuv ustiga surmarang bir tuman o'rlab kelayotganday.

Shu mahal tepa tomonda tartarak tarillab, bir bolakayning:

- Hay-hayuv, xalalay-hashtu-tuguv, - degan ovozi keldi. Saynabi domlaning bog'idan unga boshqasi jo'r bo'lib, ilib ketdi:

- Quv-quv-uv, ushla-yuv...

Keyin uchinchisi... Birpasda hammayoq tartarak ovozlari to'lib, chug'urchuqlar gala-gala havoga ko'tarila boshladi. Ular tiniq osmonda goh balandlab, yo'q bo'lib ketadilar, goh pastlab-qorayib ko'rinish, o'ynab-qoladilar. Shu xolos bo'lsa, mayli edi; birdan allaqaydan zang tovushi eshitilib, kimdir Qo'shilish tomonda jom chala ketdi. Oyog'i kuygan tovuqday, joyimda o'tirolmay qoldim.

Ammo o'zim boyagi xabarchilarni ichimda qalashtirib so'kyapman.

- Voy haftafahmlar, voy galvarlar! Nima qilyapsizlar? Oblochi kelsa, kelib o'lmaydimi?! Odamlarni u yoqqa haydab, axir tutib berasiz-ku. Bularning niyati shuku o'zi!

Mana, hozir qochgan-quvgan hamma to'nini yelkasiga tashlab Bo'zsvuga chopadigandek, yo'llarga tikilaman. Har bitta qora ko'zimga odam bo'lib ko'rinyapti. Qaysi sho'rpehona ekan, deb ichimdan achinib ketyapman. Lekin mening qo'limdan nima ham kelardi? Butun Kattabog'ni tutib borayotgan tartaragu jomu zang ovozlarni qanday o'chira olaman? Yoki Bo'zsvuga yugursammikan? Qayinglar, tuzoq bu, deb jar solsammi? Chopdim!

Ammo katta tomdan otxona tomiga sakrab tushgan joyimda tegirmon tomondan g'arillab bir nimaning ovozi kela boshladi.

Orqamga o'girilib, tepada ayroplanni ko'rdim. U yeru ko'kni larzaga solgancha, juda pastlab, qanotlari daraxtlarning uchiga tekkudek bo'lib, uchib kelar, ayroplan emas, vahimani ini (!) edi. Shovqinidan shaytonlab qolish ham hech gap emas.

Men umrimda bunaqa yer bo'ylab uchgan ayroplanni ko'rmagan edim. O'tgan bahor moyi tugab qolib, qo'nadigan joy topolmay, tegirmonning tepasidagi bedapoyaga tushgan (qayoqda tusharkan, tushaman deb tumshug'i bilan urilib, to'mparilib ketgan) ayroplanni tamosha qilgani borganlarimiz esimda. (Uni o'n kun deganda bo'laklab-bo'laklab, moshinaga ortib ketishuvdi). Buyam o'shanga o'xshab, pastlagandan pastlab, xuddi uchuvchisi qo'nishga bir epaqali joy topolmay gangib qolgandek, to'g'ri ustimga bostirib kelar edi. O'zimni tomdan tashlarimni ham, shunday yotib olarimni ham bilmay, gangigancha turaverdim. Xayriyat, ayroplan nokzor ustiga kelganda, anhor yoqasidagi azim yong'oqlarga urilib ketishdan hayiqqandek, bir siltanib havolanib ketdi. (Men uning qanotlaridagi oq yulduzlarni ham, uchuvchisining ko'zoynakli qalpog'ini ham ko'rib qoldim). U to'g'ri Bo'zsvu tomon uchib borardi. Akam aytgan qiyomat yodimga keldi. Ajabo, bular nima qilishmoqchi? qarorgohning kulini ko'kka sovrurmoqchilarmi? Yo bitta-bitta tutib...

Men es-hushimni yig'ib olguncha ayroplan Bo'zsvu ustiga yetib borib, kutilmaganda bir qanotini pastlatgancha katta aylana yasab, qayrila boshladi. Qo'shni tomlarda ham bolalarning qorasi ko'rinib, ular quvna-b-sakrashga tushdilar:

- Ana-ana, burilyapti.

- Ur-re, qaytyapti!

- Daf bo'lsin-e!

Past hovlida Anvar kennoyim:

- Hoy, Solixo'ja, qayoqqa?! Qayt! Qayt deyman senga! - deb qichqiradilar jonsaraklik bilan.

Aftidan, Soli bir narsani sezganu devor oshib, Bo'zsvu tomonga uchib ketgan-ov. Men ham otxona tomidan sakrab, unga yetib olmoqchi edim, orqaga tisarilgan joyimda ayroplandan otilib tushayotgan qora narsalarni ko'rib, to'xtab qoldim.

O'ldi-ku, Bo'zsvu!..

Birining orqasidan biri, birining orqasidan biri tushib kelyapti. Va birdan oldinma-ketin ko'k-qizil parashutlar ochilib, birpasda Bo'zsvu usti lolaqizg'aldoq bo'lib ketdi. Endi ularning iplariga osilib olgan odamlari aniq-taniq ko'rinib turar edi.

Beixtiyor Olim akamni eslab, o'zimni qo'yarga joy topolmay qoldim. Obbo qo'nqavoy-ey! Shular o'shaning ishimi-ya? Bizdan ham bitta hukumatni odami chiqsin emish! Chiqibdi, mana!

Ayroplan kelgan tomoniga qaytib uchib ketdiyu Bo'zsvu tomondan tartarakning qisqa tarillashiga o'xshash ovozlari goh kuchayib, goh susayib kela boshladi. Nima balo, ko'potarlarini ishga solib yubordilarmi? Uchraganni qirib tashlamasalar go'rga edi. Ammo akam ham anoyilardan emas, qachon kelib bizni qirib tashla-sharkan, deb kutib o'tirmagandir? Odamlarini ham olib chiqib ketgandir? Unda osmondan oyoq uzatib tushganlar kimni bosib, kimni o'rovga olmoqdalar?

"Tartarak"larning sonini ham bilolmay qoldim. Biri to'xtamay ikkinchisi ulab ketadi. Xuddi Bo'zsvuning u betiyu bu betiga tartarakchi bolalar yig'ilib olganu kim o'zarga o'ynab, bir joyga to'planishib kelishayotganday. Bo'zsvuning o'zida - tiq etgan tovush aks-sado berroradigan suv bo'yida qanday qiyomat qo'pdi ekan?! Oblochidan qochib borgan boyaqishlar nima qildilar ekan? Nog'oraning daqa-dumidan qayon qocharini bilmay qolgan yo'lbarsning ko'yiga tushdilar, yo? Borganim bo'lsin! O'z ko'zim bilan ko'rganim bo'lsin!

Bo'zsvuga tushiladigan joyga yetib borsam, menga o'xshab tekin tomoshaga tomdan tashlaydiganlar yig'ilib qopti. So'qmoq yo'lning o'rtasiga turib olgan Nusratilla pochcha qo'llarida gavron, qilt etgan bolani siylab turibdilar. Ora-chora po'pisa qilib ham qo'yadilar:

- He, qiztaloqlar! Bular tomosha ko'rarmish. Ayab o'tirarkanmi sen juldurvoqilarni u otabexabar kam-nomuslar! Qayt, oyoqlaringni sindirmasimdan!..

Bolalar orasida Soli ko'rinmasdi. Otni ilgariroq qamchilagan ekan-da! Hozir qaysi bir pana joyda biqinvolib, u qiyomatni yaqindan ko'rib yotgandir. Orqama-orqa chopvormaganimga achiniblar ketdim.

Bo'zsvuning avra-astarini ag'darib qilinayotgan bu tintuv, bu to's-to's Xudoga ham xush kelmadi shekilli, juda tez shom tushib kela boshladi. Allaqanday o'smarang quyun Achchi qirlari tomondan Bo'zsvu usti bilan shu yoqqa tumanday, bir mo'rmaalaxday o'rlab kelyapti. Quyosh ham qonga belanib, o'sha tumanlik ortiga cho'kib ketdi. Lekin uning qip-qizil yuzi ko'z oldimdan ketmay turibdi hech. Bu o'smarang tuman qarorgohga ham yetib qolganini suv bo'yiga tushib ketgan "tartarakchi"lar hali payqashganicha yo'q, jarlarning titig'ini chiqarib otib yotibdilar.

Shu payt Bo'zsvuning narigi betidagi tor tuproq yo'ldan ikkita yuk moshina pastga qarab, (yo'l yomon shekilli) qiltong-qiltong chayqala-chayqala tushib kelaverdi. Oldindagisi usti ochiq, lekin ishkimli edi, keyingisi tamomila berk. Tik jar tepasiga kelib, qayrilib to'xtadilar. Ichidan hali hech kim tushmayoq, bir to'p odam o'sha yoqqa qarab jadal yurdi. Eng qizig'i, bir kishi necha kishining qo'llarini orqaga qildirib, oldiga solib olgan edi. Shunaqadan ikki guruhini haydab borib, haligi berk moshinaga qamadilar. Bungacha tuman ular ustidan oshib o'tib, o'zlariniyam, moshinalariyam ko'rinmay qoldi. O'sha yoqdan allaqanday baqir-chaqirlar, ba'zan "tartarak" ovozlari kelib turibdi-yu, lekin biron narsani ilg'ab bo'lmaydi. Faqat eng baland tepalarning ustilarigina suv tagidan chiqib qolganday g'ira-shira ko'zga chalinadi.

- Boringlar endi, boringlar. Tomosha tamom: ko'rgan ko'rni, ko'rmagan qoldi, - deb Nusratilla pochcha xuddi qo'y podasini haydagan kabi qo'llarini baravar silkishga tushdilar. - Tarqalinglar, chirog'larim.

Tomosha desa o'zini tomdan tashlaydigan do'stlarim uch-to'rt qadam tisarilib, yana qaytishdi. Xuddi bir narsadan quruq qoladigandek, jilib yuborgilari kelmaydi, pochchaning ko'zlarini shamg'alat qilishni mo'l-jallab turishibdi. Birdan bola ko'targan ayollaru katta xotinlar ham chag'ir-chug'urlashib qolishdi.

- Hay, Muazzamxon, yog'iz nima bo'ldiykin, boring, yonib, bir baloni boshlamang.

- Voy-y, yaxshi esimga soldiz, men chopdim.

- Siz-chi, Hikoyxon, kimga achinasiz? Erchangiz Bo'zsuv pronti ochilmasdan burun ketvorgan bo'lsalar?
- Sultonmurodning tovkasidagilarga-da, egachi, kimga bo'lardi? Satta ko'kragida yoli bor yigitlarni, ko'rdiz, qanaqaqip opketishdi.
- Nimasini aytasiz, opovsi, ordonalar qolsin urushlariyam...
Bir ko'nglim: bu sannoqi xotinlar nimani bilardi, akam yigitlari bilan allaqachon makoniga yetib olgandir, deyman-u, yana tinchiy olmayman. Unda anavi qo'lini gardaniga qilib, haydab chiqilganlar kimlar?.. Nihoyat, Nusratilla pochchaning dag'dag'alari ish berib, oshnalarim noiloj chekka-chekkaga tarqay boshlashdi. Men esam, kalam ishlab qolib, o'zlarining uylariga, undan bog'lariga urib ketdim. Devorga minib olib, boyagi joyini yana kuzata boshladim. Voy-bo', Bo'zsuvni tanib bo'lmaydi. Yetti qavat tuman uning tepalarini ham ko'mib, ulkan suvday yoyilib yotipti. Boyagi moshinalar tuman ichida olov ko'zli, ikki boshli ajdahoday bilong'lab o'rnidan qo'zg'alyapti. Kimsa ko'rinmaydi, ammo allakimlarning baqir-chaqirlari yaqqol eshilib turibdi:

- Hamma joyidami?
- Joyida!
- Hech kim qolmadimi?
- Qolmadi!
- Ketdikmi?
- Ketdik!

Moshina kuchanib g'arilladi. Olovli ko'zlaridai zaif nur sachrab, yo'l paypaslab boryapti. Orqasidan boshqasi ergashdi. Sho'rlik qochoqlar! Oblochining tintuvidan qochib, jahannam o'tiga ro'baru kelgan bechoralar! Yomg'irdan qochib, qorga tutuldilar-a. Ishqilib... Ich-ichimdan bir tahlika bosib kelaveradi:

- Ishqilib, oralarida akam bo'lmasin! Jang qanaqa bo'lishini ularga ko'rsatib qo'yaylik, deb qarorgohga qaytmagan bo'lsin. Shu payt, yo tavba, kunbotar qirlari tomondan bir olam chag'ir-chug'ur bilan tumonat zag'chalar uchib kela boshladi. Osmonning och surmarang tumanligi orasida qiyomatdan darak beruvchi allaqanday kulrang maxluqlarga o'xshar edi ular. Mo'rimalaxday bostirib kelyapti o'ziyam.

Oyimning bir gaplarini esladim: "Shu qora qarg'alar ham kunda ikki bora Yaratganga tasbeh aytadilar: Yangi kunga yetkazganiga shukronalar bilan erta-saharda dala-dashtga yo'l olganlarida, so'ngra rizq-ro'z berganiga shukrlar aytib kech-shom yotoqlariga qaytganlarida. Shuning uchun ham Olloh ularga uch yuz yil umr berib qo'yibdi..."

Shuni eslab, haligina bosib kelgan vahmayu qo'rquvlarim sal tarqaganday bo'ldi. Devordan sakrab tushib, bog' etagidagi yolg'izoyoq yo'lga qarab yurdim. O'sha yerda bir oz kutsam, zora Soli kelib qolsa. Shundan bo'lak qaysi yo'l bilan kelar edi. Qayrilishda to'xtadim. "Qora G'ani - boshing qapi"ning valangor chaylasidanmi, allaqaerdan qovunqoqi hidi anqimoqda. (Kimdir bir vaqt chaylaning ustiga qoqi yoyganu keyin unutib, zag'chalar toza itirqinini chiqarganlar, allaqaysi go'rda qolgani anqimoqda shekilli). Yaxshiyam, kutganim. Bir mahal Halokuning itiday halloslab, pastdan birov chopib kela boshladi. Shom qorong'uligida yuzini ko'rib bo'lmaydi-yu, lekin qotmaligidan, chitton bolalar kabi yugurishidan Solidan bo'lak hech kimmas.

- Soli, o'zingmisan? - deb ovoz berdim. U meni hali payqamagan ekan:
- Iya, Maqsud, senmisan? Bo'tta maqib turibsan? - dedi hayratlanib.
- Seni kutib-da, xumpar. Chaqirmasdanam ketvoribsanda o'zing?

U yetib kela chayla ustuniga yopishib, bir aylandiyu devorga suyanib oldi.

- Xuh, - dedi o'pkasini bosishga urinib. Keyin yana sakrab turdi-da, shoshirdi: - Ketdik, yetib olaylik, hammasini aytib beraman, hammasini... Hozir so'rama. Dahshatning o'zi, - deya oldinga tushib, chopa ketdi.

Ammo uygacha bormadik. Sadir olako'zning bog'i eta-giga yetganda o'ziyam ichi qizib, shundoq ariq bo'yiga, qurib-qovjiragan o'tlar ustiga o'tirib ola qoldi.

- Voy, Maqsud, bunaqasini ko'rmagansa-an. Anuv changal tepaning orqasiga yotib olganman, bular qarorgohni halqaday o'rab, ko'ringan qorani, qilt etgan iarsani ko'potarlaridan o'qqa tutib, qisib borishyapti. O'r ham, jar ham qolmayapti. Yerto'lalarni-ku titipitisini chiqarib, bo'mba tashlab, portlatvorishdi. Bir guruhi u betdan siqib kelyapti, bir guruhi bu betdan. Axiyri, bitta-bitta qo'l ko'tarib, chiqib kela boshlashdi...

- Kim? - dedim yuragim yorilib ketgudek bo'lib.
- Kim bo'lardi, galvars. Akalaring-da!
- Shoshma! Kim deding? Soli to'ng'illadi:
- Akang...

- Bekor aytibsan! Sen o'zini ko'rmagansan, valdirama! Haqiqiy qarorgoh o'ttamas! U yer soxta qarorgoh. Ular o'shani bosdilar. Bilarkansan-ku juda! Soli bo'shshdi:

- Unisini sen bilasan, ammo asirlardan bittasining yuzini aniq ko'rdim, uyam bo'lsa, akang edi...

U bidirlab, nimalarnidir tushuntira boshladi, lekin qani qulog'imga kirsam. Har narsa bo'lishiga rozi edim, biroq Solining aytganini aslo kutmagan edim. Ishonmaslik esa, asosim yo'q. Nihoyat, boyagi karaxtlik bir oz o'tib, quloqlarim ching'illab ochildi go'yo. Qarasam, Soli hamon so'zlanib yotibdi:

- ... shir yalang'ochiydi. Bilasanmi, tovonidan peshonasigacha qop-qora. Tirnoqcha joyi bo'yalmay qolgan bo'lsa, o'lsin agar. Buyam kamday, qo'li orqasiga bog'-loqliq. Askarlar atrofida xaxolab kulishadimi-ey, "bulbuli"ni ko'potar multiqlarining uchi bilan o'ynab, mazax qilishadimi-ey. U bo'lsa, mo'ndiday miq etmay turibdi.

- Kim "u"?!
- Halidan buyon qulog'ingga tanbur chertyapmanmi? Olim akangni aytyapman-da.

Xuddi Olim akam akam emasday, birdan quvonib ketdim:

- Ey ahmoq! Ilgariroq aytmaysanmi shuni! Adoyi-tamom qilding-ku odamni!.. - dedim. Keyin birdan yodimga tushib qoldi: В Ъ”В Ъ” Nega qop-qora, nega mo'ndidek bo'larkan? Olim akam-a?..

- Ha-da, kimdir qip-yalang'och yechintirib, balchiq surkab, tolga bog'lab ketgan ekan. Ustiga bular kelib, chechib olishdi.

- Astag'firulloh! O'sha holida boshqalarga qo'shib olib ketishdimi?

- Ha-da. Ularga odam siyohi bo'lsa baskan, odammi, alvastimi, surishtirib o'tirishmaskan!

- He-hey, boplashibdi-boplashibdi! Yomon tushirishibdi! - deya men yangi esar bo'lgan jinnidek o'tirgan yerimdan sakrab turib ketdim. "Ajab bo'пти! O'zidan ko'rsin! O'zidan ko'rsin!"lab yugurib boryapman-u, ichim to'lib, allaqaydan yig'i bosib kelyapti: ko'zlarimdan tirqirab oqqudek yosh...

Nima qilganda ham, xolavachcham edi, akam edi, Sultonmurod akamning yolg'iz jigargo'shasiydi. Yomon bo'пти, yomon...

Hush Qol Endi, Pakana Pari

Kechagi qirg'in-qiyomatning xabari bir kechada odamlarning tiliga tushib, bu yog'i Cho'lponotayu Novza, bu yog'i Qatortolu Xirmontepa, u yog'i Yakkabog'u Qang'li bo'ylab uchib, Chelayu Qonqusgacha yetib boribdi. Uchragan odam: "Ha-a, yomon bo'pti-yu! Kattabog'lilar oblochining g'azabiga uchrabdi-yu! Xudoning o'zi asrasin", dermish va sekin atrofga alanglab, shivirlab so'zarmish.

"O'zi nimadan chiqibdiykin, ko'rgan bormi?"

"Xayriplondan to'p tashlashganmish! Kulini ko'kka sovrushdi, desangiz-chi Kattabog'ni?!"

"Osmondan sallot tushganmishmi-ya?"

"Ha-da".

"Bo'zsuvga o't qo'yib, ko'ringanni tutib ketishganmish?"

"Kattabog'da bittayam erkak zoti qolmaganmish".

"Anuv Sultonmurod qarochchini tutib, ustidan qoramoy quyvorganmish-da..."

"...yoqib yuborganmish..."

Hamayokda ana shunaqa gaplar. Qo'yib bersangiz, "Uyma-uy yurib otibdi!" debam yuboraverishadi.

Ertalabdan yo'l to'xtatib, ikki-uchtasi oyimdan ko'ngil ham so'rabdi:

- Salomkennoyi, sizga qiyin bo'pti-ku, endi o'zizga mahkam bo'lavuring. Hali tekshir-tekshirlari bor, so'rab-surishtirishlari bor. Sho'tta turganakan, asrab olganakansiz, deb. Bilib bo'ladimi bularni. Sir bermang. Ancha bo'lgan chiqib ketganiga, deb turavering. Nima qilgan bo'lsa, o'zi javob bersin. Qarindoshim deb jadiga qolib o'tirmang tag'in...

Xuddi oyim gap bilmaydigandek.

So'ng harsillab-lorsillab Nusrat pochcha yetib keldilar. Ketlaridan sal oqsoqlanib, Usmon tog'am kirdilar. Ma'yus tortib Oyposhsha xolam, "Hu, xudo olsin, o'sha sallotlarini!" deb qarg'anib Habira xolam, farishtadekkina bo'lib Hidoy xolam, mo'mingina bo'lib, oq tushgan ko'zlari yoshlanib Mubor xolam, darozgina Jo'ra xolamlar kirib kelishdi. Hammalariga girgittan bo'lib, aylanib-o'rgilib Qumri kennoyim kutib olyaptilar. Anvar kennoyim jag'lari tinmasa ham, pildirab xizmat qilib yuribdilar. Sipogina Sapura kennoyim choy uzatib turibdilar. Dakana ro'molni tan-g'ib, sochlarini chamberak qilib olgan Poshsha opam qozon tepasida mehmonlarga yarim cho'mich-yarim cho'michdan shirchoy suzyaptilar. Men kosalarni patnisga qo'yib, tashib turibman. Axiyri, meni ko'rsa hazil qoplari ochilib ketadigan Norxo'ja pochcha bilan boshlashib, muloyimgina Orif pochcha kirib kelishib, katta uy qarindoshlar bilan to'ldi-qo'ydi.

Nusrat pochcha kelganlaridayoq oyim qo'limga bitta peshonabog' tutqazib, nonga yugurtirmoqchi bo'lib turgan edilar, xolalarim - kim qo'ltig'ida ikkita zog'ora, kim to'rtta kulcha, kim doka ro'molga o'rab uch bo'lak churak ko'tarib kelib, girdobga qo'yдилar dasturxon to'ldi-qo'ydi. Pochcha meni bir qadam ham jildirmadilar.

- O'tir-o'tir, hammasiyam bir non, biz Salomxonning choyini ichganimas, ko'ngil so'ragani kelganmiz, mana - nasiba, shirchoy borakan, ikki to'g'ramdan to'g'-rasak; kechga qadar to'q tutadi bu shirchoy deganlari. O'tir. Qolaversa, diydor g'animat, gaplashadigan gaplar bor, - dedilar.

Shirchoydan keyin samovar choyni piyolasi ikki aylanmay Anvar kennoyim bir nima degan edilar, Habira xolamdan eshitadiganlarini eshitib oldilar:

- Vajillamay o'tiring siz, Anvarxon. Betta sizdan o'nta ko'ylakni ko'proq yirtganlar o'tiribdi. Siz kelinsiz. Kelinlik izzatizda turing.

- Xo'p, kichikoyi, xo'p, - deb zo'rg'a qutuldilar.

- O'zi shuni aytganiga yurib bo'lsayam boshini ikkita, oyog'ini to'rtta qilib qo'yish keragiydi. Sang'i-masdiyam, atrofiga yigit yig'ib, hali o'tta-hali bo'tta qo'r to'kib yurmasdiyam hukumatti g'ashiga tegib. Endi nima bo'ldi? Otasi tushgan "Toshturma"ni bularam ko'radimi? Shungacha qo'yib berdinglar-a, Nusratxo'ja? - dedilar Hidoy xolam ham achinib, ham gina bilan.

Shunaqa. Xolalarim opa-singil bo'lsalar-da, fe'l-ho'ylari har xil. Birlari tez-shartaki, boshqalari vazmin-muloyim. Ammo ichlarini kemirib yotgan narsani hech birlari darrov ayta qolmaydilar. Ayniqsa, oyim birovning oldida o'laqolsa sir bermaydilar. Hozir ham nuqul gapni boshqa yoqqa burib yotibdilar:

- Hoy, opa, olishib-olishib o'tiringlar, nonga qaranglar. Endi bizniki bo'ldi-ku, olmaysizlarmi?

- Olavuz-olavuz, olmay nima qilavuz, - dedilar Hidoy xolam, oyimning ko'ngillari uchun dasturxoniga qo'l cho'zib. - Lekin sen ham, Salomxon, orqaga tashlayvermay, bor gapni aytaqol; bola boyaqishdan darak bormi?

- Chiqibam qolar, - dedilar oyim dasturxon popugini o'ynab, o'zlariga taskin beryaptilarmi, xolalarimgami ekanini bilib bo'lmas, allaqanday to'liqib o'tiradilar. Keyin birdan yorilib: - Hammasi Qo'ldoshxo'janing yo'qligi, opa! U bo'lsa, shu kunlarga qolarmidik, qoldirarmidi bizni?! - dedilar ovozlari o'zgarib.

Hammalari jimib qolishdi. Ayniqsa, pochchalar o'ng'aysizlanib, kim yerga qaradi, kim qizarindi. Oyim buni sezib siporishladilar:

- Mayli, yomon bo'lsayam, o'zimizning tomir, bizdan bo'lak yoniga kim kirardi, deb jonlaringiz achib kepsizlar, shungayam rahmat. Ishqilib, Xudoyimning o'zi o'ng'lagan bo'lsin ishini. Duodan bo'lak nima kelardi qo'limizdan...

- To'g'ri-ku-ya, ammo qo'l qovushtirib o'tirishdan foyda yo'q. Bekorga juvonmarg bo'lib ketsa, jabri kimgayu malomati kimga? - dedilar Usmon tog'am kuylagandek yumshoq ovozda.

Pochcha o'rinlaridan qo'zg'alib qo'yib:

- Sultonmurodmi? - dedilar. - Tegirmonga tushsa, butun chiqadi, Xudo xohlasa.

- Shunday-ku, faromush qolibam bo'lmaydi, - dedilar yana Usmon tog'am. - Ertaga elak-elak qilgani kelmaydi, deb kim ayta oladi.

- Ana o'shanda sir bermasak, marra bizniki. keyin, Xudo xohlasa, bolaga jabr qildirib qo'yasmiz, - dedilar pochcha.

Men ichim qizib, dahlizdagi kovshandozning chetida o'tiribman. Go'yo maktabga ketadigandek, kitob-daftarimni joylayapman.

Akamdan bexavotir bo'laveringlar, devorgim kelyapti-yu, yana, bu kattalar bir narsani bilsa kerak-da, deb tilimni tishlayapman.

- Yaxshisi, bildim dedim - tutuldim, bilmadim dedim - qutuldim. Biz bexabarmiz, Nusratxo'jadan so'rayveringlar, deb turaversak-chi? - dedilar Norxo'ja pochcha. O'zlari daroz, bu ham yetmagandek, cho'kkalab olganlar.

Pochcha iymaniygina kuldilar:

- Mayli, mayli. Busizam topgan-tutganimni shilib olishadi. Ketganning ketidan ketibdi-da, qizig'ar, qo'lni kiriday narsa...

- Do'kondan bo'shab olsangiz-chi?.. - dedilar Usmon tog'am.

- Nima bo'lsa, peshonadan ko'rdik. Shu bola uchun opchiqib otmaslar, axir. Qolaversa, umid Ollohdan. O'zi panohiga olsin avvalo.

- Hukumatdan oldin pishang ko'tarib chiqadiganlardan asrasin birlamchi. Xudoyim o'shalarga o'zi insof bersin, - dedilar Hidoy

xolam.

- Ha, bu yoqda Sultonmuroddan javr ko'rganlar turibdi. Parpi deganday, Akmal o'ris deganday... - Usmon tog'am og'riq tizzalarini uqalab-silab qo'ydilar.

- Parpi o'zi kim ekan? Hukumatti qaysi tog'ini qayirib bergan ekanki, endi o'shaning so'zi so'z bo'p qolgan bo'lsa?! - dedilar oyim kutilmaganda lovullab.

Nusrat pochcha pishillab, tin oldilar:

- Unikini tinglamagandayam, Akmal o'risnikini inobatga oladilar bir karra. Ko'rasiz: u hali qaytibam keladi, yonib ketgan uyining da'vosini qilib, ko'-o'p urintiradiyam bizni.

- Sultonmurod yoqibdimi uning uyini?! Yoqsa, haydamay ham yoqar edi u, - dedilar oyim.

- Qayoqdanam shu chulchutga tegina qoldi? - dedilar Oyposhsha xolam eslari ketib.

Xolalarim ichida Habira xolam xunukkina, pakanagina, ammo jahllari burunlarining uchida turadi, bobillab berdilar:

- Hammasi anuv kashmirini deb bo'ldi! Shuni qizi boshini aylantirmasa, yuruvdi ti-inch. Akmal o'ris olsa, olib o'lsin edi! Mana, baribir Haybatilla ilib ketarkan!

Men ich-ichimdan hayratlanib o'tiribman. Tavba, shu o'sha xolamlarmi, a? Oyimlar bilan qachon borsak, ustimizda girgiton bo'lib qoladigan, kuraklarimni silab, kichkina eshondan o'rgilay, deb oldimga ming xil narsalarni - turshagu bodomlarni, parvardayu yalpiz qandlarni to'kib tashlaydigan? Oyimlardan bekitiqcha cho'ntaklarimga halim noklar solib qo'yardilar. Xunukkina, qoragina, mushtdekkina xolam oyimlardek aziz ko'rinib ketar edilar shunda. Ana shu hech narsadan xabari yo'q xolam hozir Marg'u kennoyimni kashmiridan olib, kashmiriga solar edilar.

- Xudo olsin, o'sha Akmal o'risniyam, boshqasiniyam, - dedilar oyim qo'l sermab, - Nimadan qo'rqdik?! Hukumatni

yoqlamayotgan joyimiz borakanmi? Boshqalar sichqonning inini ming tangaga olib qochganda, biznikilar o'sha Olmonni nafasini o'chirgani ketib bo'ldi-ku. Islomxo'jayam ketdi, Kenjaxo'jayam ketdi. Akromxo'ja g'ing demay jo'nadi. Hatto Qo'ldoshxo'jani oldilar urushga. Ana, kennoyimni ikki birday devday-devday o'g'illari qaerda yuribdi? Nig'matxo'jani-ku o'sha Maskovdagi o'qishidan olib borib, urushga soldilar. Shundayam g'ing degan joyimiz bormi? Agar shuniyam bilmasa, hukumati ko'r bo'ladi.

Sezmay qolibmiz, Mubor xolam etaklarini ko'zlariga bosib, birdan piq-piq yig'lab yubordilar. Hamma ko'zini olib qochdi. Oyim o'sha shahd, o'sha g'azab bilan davom etdilar:

- Shu oblochisining dastidan, ana, Isroil bedarak ketdi. Bahridnnginamiz go'shagalarga kuyov bo'lolmadi. Birov bir narsa da'vo qilib chiqqani bormi? Endi Sultonmurod uning qotilini topib, aybini bo'yniga qo'yib, jazosini bersa, kim yomon - biz yomon bo'lib qoldikmi?

- Shu Sultonmurodning boriyam bir davlatimiz, - dedilar Jo'ra xolam, oyimni quvvatlab, - chulchutdan oshnang bo'lsa-bo'lsin-u, yoningda oyboltang yursin, derdilar dadam rahmatli.

- Ha, buyam Ulug'xo'ja buvasiga tortdi. U kishiga o'xshab yurakli. Ishqilib, umri o'xshamasin, peshonasi o'xshamasin, - deb turib, oyim Nusrat pochchaga qaradilar: - Xudo xayringizni bersin, pochcha, Asadxo'jalarning rohatini ko'rib yuring, endi hamma umid o'zingizdan.

Xolalarim chor-atrofdan iltimosga tushishdi:

- Abdurahim eshon pochchaning ruhi poklari haqqi, yana bir gal homiylik qiling. Yo'q demang.

Pochcha qansharlarini siladilar:

- Hay, bilmadim-da, bilmadim! Bu ish nima bilan tugaydi? Men Rahmatilla bilan maslahatlashib boqay-chi. Ayting-ayting, qo'lga tushmagan bo'lsin.

- Umringizdan baraka toping. Qancha balolarning og'zidan qaytarib olgansiz o'zingiz. - Shunday derkanlar, oyimning ko'zlari menga tushdi. Gap poylab o'tirganimni sezibmi, o'rinlaridan tura boshladilar. Men ham obro'yim borida jildimni olib, sekin survordim.

Bunaqa kayfiyatda oxirgi darsgacha sabr qilib o'tirib bo'lmasdi. Soli bilan kelishdik-da, ikkinchi darsdan chiqiboq mezananing tagi bilan qarorgoh sari yo'l oldik. Kitob-daftarlarni yo'lakay Solilarning oshxonasi tomiga itqitib, o'zimiz o'qariq bilan to'g'ri

Bo'zsuvga qarab tushib ketdik. Kecha qanday qiyomat qo'pgan ekan, ko'zimiz bilan ko'rmoqchi edik.

Ana, Parpi bebaxtni tuyaqopga solib, osib qo'yishgan jar, tepasidagi yolg'iz daraxt qurib ustixoni qopti, xolos. Biz hov birdagi yassi tepada turibmiz. Pastda Bo'zsuv, qilt etmaydi. Mungga to'lib qolganday. Kecha xuddi shu tepaning yonbag'rida tomosha ko'rsatishgan. Yonidagi yerto'lalarni qarorgoh fahmlab, bittalab "elak"dan o'tkazishgan. Qaybirining ichiga portlatuvchi narsalar tashlab, qaybirini "tartarak"lardan o'qqa tutib, rosa vohma ko'tarishgan.

- Uni qara, voy-bo'-o', o'qni hecham ayashmabdi-ku,- dedim hamma yoqda yaltirab yotgan jezlarni ko'rib.

Chindan ham, tepaning ustlariyu yonbag'irlarini g'alvir qilib tashlashibdi. Yerto'lalar bosib, vayron bo'lib yotibdi. Ba'zi joylarda bir nimalar portlaganmi, tuprog'i o'yilib, hovuzlar hosil bo'lgan. Ichida chaqirtikanakning ildizi o'lgan ilonday oqarib ko'rinib, etni junjiktiradi.

Ba'zi yerto'lalardan egalari hozirgina chiqib ketganday: idish-tovog'u qora chiroqlari joy-joyida turibdi. Po'stak-ko'rpachalar o'rtasiga yozilgan kirchimol dasturxonadagi ho'qachaga qo'l tegmay ham qolaveribdi. Yerto'ladan achigan moshxo'rda hidi gurkirayaptiki, u yog'i yo'q.

- Qorning qalay? - deb Soli ishshayganicha tugunni yecha boshladi.

- Anavilar bir narsa tashlab ketgan bo'lsa, o'lmagin. Egasiga buyurmagan, senu menga ovqatlik qilarmidi?

Soli ham qo'rqib, qayta qoldi. Lekin chiqa turib, tokchadan bir narsani qoqmalab, kishi bilmas lippasiga qistirdi. Men esam, so'qmoqdan pastga tusha turib, ikki qulochcha ipak arqon topib oldim. Chamasi kimningdir qo'lini bog'lagani qirqishgan-u, ortig'ini unutishgan.

- Jur, narigi betga o'tamiz, o'sha yoqda baliqsavatlari bor, - dedi Soli va pastga zing'illab, tol tagiga yetganda qayridi: - Chopmaysanmi?

Mening ham quvligim tutdi, lippamni ushlab, soylikka burildim:

- Sen boravur, men hozir, - deb Kattaboqqa survordim. Topolmay, bir o'takasi yorilsin deb emas, yo'q. Bilaman, unga jin ham urmaydi. O'zimning ichim qizib, haqiqiy qarorgohga nima bo'lganini bilгим kelib turibdi. Soylik bilan chopdim o'sha yoqqa.

Chiqib borsam, tok qirqib, qo'ndoqlayotganlar tepa ishkomlarni ochib qo'yib, Usmon tog'amning bog'lari etagida (erga namat yoyib) tushlik qilishyapti. Men bog'ning etagidagi o'rikzordan, tagi bilan bitta bo'lib yotgan sap-sariq barglarni (shunaqa yangi, shunaqa chiroyliki, bosgani iymanasan) o'ynab-to'zitib, shiyponga qarab yurdim. Ariq yoqalab, ikki bog' o'rtasidagi yo'ldan

This is not registered version of TotalDocConverter
bor yopishadi, yo'xtoradim boshlagan yo'lag qator utlari tutlardan ko'zimni uzolmayman.

Har ko'klam kallaklab ketiladigan bechora tutlar hozir ham kavsh qaytarib yotgan tuyalardek, qanqaygan boshlarini g'oz tutib, misoli javdirar edilar. Undanam ajoyibi - O'sha tutlar shu yilgi surx navdalaridan tamomi barglarini to'kib yuborganlaru bir g'alati tojdor tuyalarga o'xshab qolganlar. Anuv gal ko'kish nurga ergashib, kelganimda xuddi o'sha yerda "Assalomingni ayt"ga uchragan edim, shekilli? Keyin qancha pastga tushgan ekanman? O'tsam, ikkinchi ishkoming tagigacha o'tgandirman-da?

O'sha yerga yetganda burildim. Ammo... na yolg'izoyoq so'qmoq va na yerto'laga tushish joyi bor edi. Go'yo o'sha kecha jinlar meni aylantirib, boshqa yerga olib borishganu aqli-hushimni olib, ko'zimga akam bilan do'stini ko'rsatishgandek... Unda anavi bedana bosma-chi? Gurkirab turgan hidi-chi? Assalomimni so'ragan shop-mo'ylovu ostonaga tanda qo'yib o'tirgan xos qorovul-chi? Ular ham jinmi edi?..

Umuman, o'shanda "Bismilloh" deganmidim?

Eslay olmadim.

Qiziq, shuncha aylanib, qarorgohdan nishon topolmasam! Osmonga uchganmi, yerga kirganmi, bilolmasdim. Balki, ular qachondir qaytib kelishlarini o'ylab, izlarini yo'qotib, hech kim topa olmaydigan qilib ketishgandirB ?..

Odamlar tushlikdan turib, kim tok qirqishga, kim qo'ndog'lashga tushdilar. O'qishni tashlab, ishga chiqib ketgan o'zim tengi qizlar tokro'da bog'lamlarini shiy-pon tagiga opchiqib bosisharkan, pichir-pichir bilan men tomonga qiyo-qiyo qarab qo'yishar, so'ng yana yumushlariga tutinishar edi.

Shu payt shiypon tomondan hov bir galgidek tanish xonish asta tarala boshladi:

Malaksan, yo bashar, yo xuru g'ilmonsan, bilib bo'lmas.

Bu lutfu nazokat birla sendan ayrulib bo'lmas...

Tanidim. Bu o'sha - bog' qorovuli Haydar aka edi, uning ovozi edi. U o'shandagidan ham o'tkazib xonish etar, ammo na o'zi, na tinglovchilari ko'rinar edi. Beixtiyor ko'zim yoshlanib keldi: ayrulib bo'lmas... ayrulib bo'lmas. Barchasi bekor! Allaqachon ayurib tashlab bo'ldilar-ku. Unisini u yoqqa, bunisini bu yoqqa... Ulardan nima qoldi o'zi? Nima qolmoqda o'zi? Ko'z yoshlari, xolosmi?.. Jondan aziz kennoyim uzatilib ketmasdan, jilla qursa, bir qur ko'rib qolsam koshki edi...

O'zim sezmaganda Bog'ko'cha tomon burildim va esim og'ib o'sha tomonga keta boshladim.

Ko'z oldimda kennoyimning o'sha bizning supada qizil paranjisini quchoqlab, parishon o'tirgan holati. Qulog'im ostida esa, bir qo'l silkishda sachvonini otib-itqitib, aytgan gaplari yangraydi: "Sultonmurod aka! Unday demang. Meni tiriklayin o'ldirib, bu dunyoning do'zaxiga tashlab ketmang..."

Ammo akam... hamon bedarak! Qayoqqa bosh olib ketdi ekan?

AvvalgiII- qismB Keyingi